10. Spitzberg, B.H., & Changnon, G. (2009). Conceptualizing Intercultural Competence. In D.K. Deardorff (Ed.), *The SAGE Handbook of Intercultural Competence* (pp. 2-52). SAGE.
11. Baker, W. (2015). *Culture and Identity through English as a Lingua Franca: Rethinking Concepts and Goals in Intercultural Communication*. De Gruyter Mouton.

- 12.Chen, G.M., & Starosta, W.J. (1998). Foundations of Intercultural Communication. Allyn & Bacon.
- 13.Byram, M., & Grundy, P. (Eds.). (2003). Context and Culture in Language Teaching and Learning. Multilingual Matters.
- 14.Levy, M. (2007). Culture, Culture Learning, and New Technologies: Towards a Pedagogical Framework. *Language Learning & Technology*, 11(2), 104-127.
- 15.Thorne, S.L. (2003). Artifacts and Cultures-of-Use in Intercultural Communication. *Language Learning & Technology*, 7(2), 38-67.

## ONA TILI VA ADABIYOT DARSALARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

*Masutova Shaxlo Omonovna,  
G'ijduvon tuman ixtisoslashtirilgan maktab-internat  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
nodirbekrahmonov06@gmail.com*

*Ta'lismi tarbiya jarayoni har doim yangi o'zgarish va rivojlanishlarni talab qiladi. Bu boradagi islohotlarni amalgalash oshirish biz - fan o'qituvchilarini, soha mutaxassislarining asosiy vazifamiz sanaladi. Chunki vatanimiz kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'e'tibori, avvalambor, farzandlarimizning ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liq ekan ta'lismi va tarbiya masalasiga har doim jiddiy munosabatda bo'lmoq darkor.*

*Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lismi va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobjiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lislari kerak.*

*Darslarni zamonaviy va interaktiv metodlar asosida tashkil qilish, shubhasiz, ta'lismi samaradorligi yo'lida xizmat qiladi. Ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida qo'llash mumkin bo'lgan yangi metodlarni bir dars misolida taqdim qilishga harakat qilamiz.*

**Kalit so'zlar:** ta'lismi samaradorligi, kodli jadval, svot tahlil, musavvir, sirli sandiq, to'rt tomonlama tahlil.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

*Образовательный процесс всегда требует новых изменений и разработок. Осуществление реформ в этом плане является главной задачей нас – преподавателей науки и специалистов, потому что будущее нашей страны, завтрашний день нашего народа, престиж нашей страны в мировом сообществе зависят, прежде всего, от того, какими людьми вырастут наши дети и войдут в жизнь, поэтому мы всегда должны относиться к этому вопросу серьёзно необходимо и заниматься образованием и воспитанием.*

*Сегодня каждый педагог и воспитатель, преподаватель вуза – это человек, способный применять в образовательном процессе последние положительные инновации в области образования и науки, обладающий глубокими знаниями и мировоззрением, словом, важнейший человек нашего времени и общества. должны быть передовые представители.*

*Организация занятий на основе современных и интерактивных методов, несомненно, служит цели повышения эффективности обучения. В этой статье мы попытаемся на примере урока представить новые методы, которые можно использовать на занятиях родного языка и литературы.*

**Ключевые слова:** эффективность образования, кодовая таблица, SWOT-анализ, художник, загадочный ящик, четырёхфакторный анализ.

## USE OF INTERACTIVE METHODS IN MOTHER LANGUAGE AND LITERATURE LESSONS

*The educational process always requires new changes and developments. Implementation of reforms in this regard is the main task of us - science teachers and specialists. Because the future of our country, the tomorrow of our people, and the prestige of our country in the world community depend, first of all, on how our children will grow up and enter life as human beings, so we must always treat the issue of education and upbringing seriously.*

*Today, every teacher and educator, university teacher is a person who can apply the latest positive innovations in the field of education and science to educational processes, possessing deep knowledge and worldview, in a word, the most important person of our time and society should be advanced representatives.*

*The organization of classes based on modern and interactive methods undoubtedly serves the purpose of educational efficiency. In this article, we will try to present new methods that can be used in native language and literature classes using an example of a lesson.*

**Keywords:** educational efficiency, code table, SWOT analysis, artist, mystery box, four-way analysis.

**Kirish.** Adabiyot darslarini sifatli tashkil etish, o‘quvchilarda rang-barang metodlar orqali o‘tishda qo‘l keladigan metodlardan biri bu “Kodli jadval” usulidir. Bu metod o‘quvchilarni asar syujetini qanchalik tushunganini baholash bilan birga, ularni mantiqiy fikrlashlarini oshirish imkoniyatini beradi. Bu o‘yindan darsning o‘tilgan mavzuni takrorlash qismida foydalanishimiz mumkin. Avvalo, o‘quvchilarga kodli jadval taqdim etiladi. So‘ng asar syujetidagi voqealar ketma-ketligi buzilgan holda yozilgan tarqatmalar berilib o‘quvchilardan voqealarni 1,2,3-raqamlari orqali qayta kodlash vazifasi beriladi. O‘quvchilar topshiriqni bajarishgach kodli jadvalga tartib raqamlar orqali berilgan raqamdagagi ma’lumotlarni joylashtirishadi. Va so‘ngida ma’lumotlar tegishli bo‘lgan raqam alifbo tartibida nechinchi o‘rinda ekanligi aniqlanib kalit so‘z topiladi.

### Kodli jadval usuli



Doston syujetidagi voqralarni ketma-ketlikda joylashtiring va raqamlar bilan qayta kodlang	Qayta kodlash uchun
<p>1.Kuntug‘mish 14 yoshga kirganda shohlik, sipohilik ishlarini o‘rganadi      11.Shahri Zangar elida Shoir vazir bor edi. Uning Xolbeka nomli qizi bo‘lib 14 yoshga yetganda husn bobida dong‘I Dog‘istonidan oshdi      22.No‘g‘ay shohi Qoraxonning yakka-yu yagona Kuntug‘mish nomli farzandi bor      3.Xolbeka suratini chizdirib sandiqqa soldi va Nog‘ay yurtiga yubordi      14. Avliyoyi Qoraxon o‘g‘li Kuntug‘mishga ko‘p lashkar va tillalar berib shahri Zangarga jo‘natdi      X.kunlardan bir kun Xolbeka va Kuntug‘mish bir xil tush ko‘rishdi va bir-birlariga oshiq bo‘lishdi      18. Kuntug‘mish Xolbekani nard o‘yinida yengdi      19. Buvraxon ikki oshiqni tulupga solib ot dumiga bog‘lab jazirama cho‘iga haydab yubordi      14. Kuntug‘mish va Xolbeka omon qolib Mug‘ol tog‘iga yetib kelishdi va egizak farzandli bo‘lishdi      13. Azbarxo‘ja degan razil kimsa Kuntug‘mishni oilasidan judo qildi      4.Kuntug‘mishning o‘g‘illari Mohiboy va Gurkiboy tasodif tufayli shahri Zangarda Xolmo‘min yasovulboshiga duch kelishdi va onalari Xolbekani uchratishdi. Onasi esa ularni bobo yurti No‘g‘ayga yubordi      16. Xolbekaga nard o‘yinida hech kim teng kela olmasdi. Unga oshiq bo‘lganlarga Xolbeka nard o‘yinida yutsa tegishini, yutqazsa so‘yishini aytardi      17. Kuntug‘mish dor oldida o‘z oilasini topdi      8. Zangar eliga Xolmomin podsho bo‘lib o‘z yuri No‘g‘ay mamlakatiga qaytdi      1. Kuntug‘mish oilasidan judo bo‘lib qalandar qiyofasiga kirgib yurganda davlatqush uning boshiga qo‘nib Zangar shahri podshosiga aylandi va uning birinchi bandilari taqdir taqozosi bilan o‘z o‘g‘illari bo‘lgandi</p>	

Kodli jadval javoblari				
22	1	11	16	X
3	14	18	19	14
13	4	1	17	8

Berilgan raqamlar alifbo tartibida aniqlansa “Xalq dostonlari” kalit so‘zi kelib chiqadi.

**Asosiy qism.** Keyingi usul “To‘rt tomonlama tasnif” metodi bo‘lib bunda o‘quvchilar asarga turli tomonlardan ta‘rif va tavsif beradilar. “Kuntug‘mish” dostonida bu usul quyidagicha amalga oshadi.

- “Kuntug‘mish” dostoni haqida ma’lumotlar aytish(Masalan, asar qaysi baxshi tomonidan aytilgan, asar mavzusi, ijobiy va salbiy qahramonlar, asardagi joy nomlari)

- Dostondan olgan hissiyotlarini ifodalash (O‘quvchi nimadan xursand bo‘lgani , nimalardan xafa ekanli haqida aytadi, Masalan, asar yaxshilik bilan tugaganidan xursandman, asarda Azbarxo‘janing qilgan ishidan xafaman...)


- Asar haqida tanqidiy fikrlar (Asarda Xolbeka garchi ijobiy qahramon bo‘lsa-da, u ko‘pchilikning umriga zomin bo‘ldi...)

- Asardan olingan xulosalar (Asardan yomonlik jazosiz qolmasligi, adolat baribir bir kun qaror topishi, yorga sadoqat, aka-ukalar o‘rtasidagi oqibat haqida xulosalar olish mumkin)

Ko‘pchiligidan tanish bo‘lgan “Svot tahlil” metodidan dostondagi ikki kuchli qahramonni solishtirish orqali foydalanishimiz mumkin. Masalan, Kuntug‘mish va Xolbeka obrazlarini bir-biriga taqqoslab qaysi qahramonda kuchli jihatlar ko‘pligini aniqlab olishimiz mumkin.



“Sirli sandiqdagi sirlar” metodida asardagi sandiq detali ishlataliganini eslatib, ko‘rsatilgan sandiqda qanday sir yotganini aniqlash topshirig‘i beriladi. Buning uchun o‘quvchilar guruhlarga bo‘lingan bo‘lishi kerak. Har bir guruhga asar yuzasidan tezkor savollar beriladi va g‘olib chiqqan guruhga sirli sandiq kaliti topshiriladi. Ushbu sandiqda esa o‘quvchilarga yana bir topshiriq berilgan bo‘lib bu topshiriq orqali mutlaq g‘olib guruh aniqlanadi. Topshiriq esa “Musavvir” metodi orqali berilgan to‘liqsiz shakllarni tugatish va bu shakllar asardagi detallar bo‘lishi kerakligini ifodalashdan iborat.




Ushbu shakllardan uzuk, sandiq, quyosh, kosa, tog‘, kitob, soch tolasi va juda ko‘plab boshqa asar detallar rasmini chizish mumkin.

“Javob shunday, savolni top” metodi ham o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashini oshirish darslarda uchun samari metod. Bunda o‘quvchilarga tarqatmalar beriladi va o‘quvchilar unda yozilgan so‘zlar mohiyatidan kelib chiqib savollar tuzishlari kerak bo‘ladi. Buni ona tili darslari misolida tushuntiramiz. Masalan, qo‘shma gaplar mavzulari o‘tilayotganda bu metodni quyidagicha tashkil qila olamiz.



O‘quvchilar quyidagicha savollar berishlari mumkin:



“Kubik” metodi. Bu usul ona tili darslarida iboralar, so‘z birikmalari, tasviriy ifodalar, tilshunoslikning boshqa atamalarini turli tomondan, qadam-baqadam osondan qiyinga tomon yo‘nalishda tasavvur etish imkonini beradi. Kubikning har tomoni muayyan topshiriqni ifodalaydi:

1.Bu nima? Yerga ham ko‘kka ham ishonmaslik . O‘qiyotgan til birligining nima ekanligini yozma bayon eting.

2.Taqqoslang. U nimaga o‘xshaydi, nimadan farq qiladi?

3Assotsiatsiya. Taassurotlaringizni izohlang. U sizni nima to‘g‘risida o‘ylashag majbur qildi, xayolingizga nima keldi?

4.Tahlil qiling. U nimalardan tarkib topgan?

5.Qo‘llang. Bu nimaga yaraydi. Uni qanday sharoitlarda qo‘llash mumkin.

Javoblar quyidagicha bo‘lishi lozim.

1. Bu til birligi ibora hisoblanadi

2. U gapga o‘xshaydi, ammo undan farq qiladi. Sababi tugallangan ohang yo‘q

3. Asrab-avaylash, ota-onha muhabbat

4. U so‘zlarning ajralmas birikmasidan tarkib topgan

5. Biror shaxs yoki narsani asrab-avaylashga nisbatan ishlatiladi.Masalan, Ota-onam meni yer-u ko‘kka ishoni shmaydi.

**Xulosa.** Keyingi kubikka quyidagi iborani keltirish mumkin:

1. Bu nima? *Ko‘ngli tor*. O‘qiyotgan til birligining nima ekanligini yozma bayon eting.

2. Taqqoslang. U nimaga o‘xshaydi, nimadan farq qiladi?

3. Assotsiatsiya. Taassurotlaringizni izohlang. U sizni nima to‘g‘risida o‘ylashag majbur qildi, xayolingizga nima keldi?

4.Tahlil qiling. U nimalardan tarkib topgan?

5.Qo‘llang. Bu nimaga yaraydi. Uni qanday sharoitlarda qo‘llash mumkin.

Javoblar:

1. Bu til birligi ibora hisoblanadi

2. U so‘z birikmasiga o‘xshaydi, ammo undan farq qiladi. Sababi so‘z birikasidagi so‘zlar erkin bog‘langan, biri o‘rnida boshqasini qo‘llash mumkin. Ammo ibora ajralmas birikmadir.

3. Shoshqaloqlik, xudbinlik, salbiy illat, birovni kamsitish, bag‘ri kengga zid ma’no, xasislik

4. U so‘zlarning ajralmas birikmasidan tarkib topgan

5. Shaxsga nisbatan bildirilgan salbiy fikrni ifodaydi. Masalan, Tor ko‘ngillik beklar, manman demang, kenglik qiling.

Bu kabi metodlar orqali darslar tashkil etilsa, albatta, ta’lim sifatini yuqori darajalarga ko‘tarish mumkin.

### **Adabiyotlar:**

1. Усмонбоеев М., Тўпaeв A. “Kreativ pedagogika asoslari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2016
2. Mavlonova K., Tursunaliyeva B., Musurmonqulova O., Qur'onov S., Meliboyev J., Tursunov Sh. “Maktab o‘quvchilarida hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirish( filologiya fanlari)”— metodik qo‘llanma.
3. Olim S., Ahmedov S., Qo‘chqor R. 8-sinf adabiyot darsligi. Toshkent - 2019.

## ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH

### FIZIKA FANIDAN MASALALAR YECHISHNING RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TASHKIL ETISH METODIKASI

**Karshiboyev Shavkat Esirgapovich,**

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Fizika kafedrasi assistenti  
O‘zbekiston,Samarqand Sh.,140100. Spitamen shoh ko‘chasi 166-uy.

**Rahmonova Xurshida G‘aybullayevna,**

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali  
Tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasi assistenti  
Samarqand viloyati Urgut tumani Vag‘ashti MFY 13-uy  
[shavkat.qarshiboyev.89@bk.ru](mailto:shavkat.qarshiboyev.89@bk.ru)

*Fizika fanidan darslarni tashkil qilishda masalalar yechishni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish ham dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quv jarayoni va unda o‘qituvchining ish faoliyatini rejalashtirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlarini keng doirada olib borishni zarur deb. Biz “Kinematika” bo‘limiga doir masalalarni yechishda raqamli texnologiyalarning ba’zilarini qo‘llash tajribasini havola etamiz.*

**Kalit so‘zlar:** fizika, raqamli texnologiya, fizik masalalar, BBB metod, kinematika, PhET, mifikatda fizika, masala.

### МЕТОДИКА РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ ПО ФИЗИКЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

*Организация решения задач на уроках физики на основе современных педагогических технологий стала актуальной проблемой. В современной системе образования необходимо проводить масштабные научные исследования по планированию учебного процесса и деятельности учителя. Представлен опыт применения цифровых технологий для решения задач по разделу «Кинематика».*

**Ключевые слова:** физика, цифровые технологии, задачи по физике, метод ЗХУ, кинематика, PhET, физика в школе, решение задач.

### METHODS OF ORGANIZING PHYSICS PROBLEMS USING DIGITAL TECHNOLOGIES

*Organizing problem-solving in physics lessons based on modern pedagogical technologies has become a pressing issue. In the contemporary education system, it is necessary to conduct extensive scientific research on planning the educational process and the activities of the teacher. We present the experience of applying digital technologies to solve problems related to the "Kinematics" section.*

**Keywords:** physics, digital technology, physics problems, BBB method, kinematics, PhET, physics in school, problem-solving.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagи PQ-5032-sonli “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida, akademik litsey va oliy o‘quv yurtlarida fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirish; ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish uslublarini, shu jumladan, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish” kabi maqsad va vazifalar belgilab olingan[1].

Oliy o‘quv yurtlarida fizika darslarida amaliy mashg‘ulotlarini zamon talablariga mos holda tashkil etish uchun o‘quv xonalari zamonaviy jihozlar bilan ta’minlangan va bu ishlar hozirgi kunda keng ko‘lamda olib borilmoqda. Ta’minlangan jihozlardan unumli foydalanishni tashkil etishda tadqiqotchilar va pedagog xodimlar tomonidan zamonaviy ta’lim vositalari va vizuallashtirilgan ishlanmalarni yaratish va mavjudlarini takomillashtirish muhim vazifalardandir [2,6]. Ushbu ishda ham hozirgi kunda umumiy fizika fanidan amaliy mashg‘ulot darslarini tashkil etishning dolzarb muammolarini tashkil etishning zamonaviy usullarini qarab chiqamiz.

**Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.** Fizikadan amaliy mashg‘ulotlarini yechish texnologiyasi fanini o‘qitishdan maqsad – fizik masalalarining turlari, yechish metodi, masala yechish darslarini tashkil etish, masala yechishning tarbiyaviy ahamiyati kabi muammolarga tegishli alohida mavzular kiritilgan bo‘lib, mashg‘ulotlarni o‘tishda masalalar yechish metodikasiga alohida e’tibor qaratilishi nazarda tutiladi. Fizika o‘qituvchisi nazariy bilimga ega bo‘lishi bilan birga o‘qitish metodikasini ham puxta egallagan bo‘lishi zarur, jumladan masalalar yechish metodikasini ham yetarli darajada o‘zlashtirgan bo‘lishi talab etiladi. Har bir fizika o‘qituvchisi fizik masalalar yechish metodikasini mukammal bilgandagina o‘z o‘quvchilarida fizika faniga bo‘lgan qiziqishni shakllantira oladi va ularga chuqur bilim bera oladi. Fanning vazifasi - fizikadan masalalar yechish metodi, masalalar haqida umumiy tushunchalar, fizik masalalarining turlari, o‘quv masalalar, ularning tuzilishi va xususiyatlari, masala yechishning asosiy bosqichlari, fizik masalalar yechish jarayonida fanlararo aloqani amalga oshirish usullari; fizik masalalar yechishning algoritmik usuli, ijodiy masalalar va ularni yechish usullari, masala shartini tahlil qilish, masala yechish rejasini tuzish, fizika o‘qitishda masala yechishning ahamiyati, nazorat ishlarni o‘tkazish metodikasi, ularning maqsad va vazifalari, olimpiada masalalari, masalalar yechishda zamonaviy pedagogik texnologiya vositalardan hamda innovatsion texnologiya metodlaridan foydalanish kabilarni bayon etilishi vazifalarni o‘rgatishdan iborat. Ma’lumki, fizika o‘qitishda nazariy va amaliy metodlar mavjud. Amaliy metodlar ichida fizikadan masalalar yechishning ahamiyati salmoqlidir. Masala yechish jarayonida o‘quvchilarga bilim berish bilan birga o‘quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘quvchilarga tarbiya berish kabi muhim masalalar hal qilinadi. Fizikadan masalalar yechish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrashlari kengayadi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanadi. Fizik hodisalarining tub mohiyatini kengroq tushunadilar, fizikadagi qonunlarning amalda qo‘llanilishini chuqurroq anglaydilar. Ko‘pgina fizik o‘lchov asboblarining vazifasi, tuzilishi, ishslash prinsiplari bilan tanishadilar, ular bilan ishslash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar. Shuningdek, masalalar o‘quvchilarda mehnatsevarlik, jur’atlilik, iroda va xarakterni tarbiyalaydi. Ko‘pgina metodik adabiyotlarning tahliliga ko‘ra, mantiqiy xulosalar, matematik amallar va fizikadagi qonunlar hamda metodlarga asoslangan holda yoki eksperiment yordamida yechiladigan muammo, odatda fizik masala deyiladi. Fizik masalada qo‘ylgan muammoni hal etish, masala yechishdan iboratdir.

Fizikadan darslarni tashkil qilishda masalalar yechishni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish ham dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Hozirgi vaqtida asosiy e’tibor zamonaviy raqamli texnologiyalarga asoslangan o‘quv jarayoni modelini yaratish, fanlardan giper va mul’timediya texnologiyalariga asoslangan elektron darslik, o‘quv qo‘llanmalarini yaratish muammolari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shularni inobatga oлgan holda zamonaviy ta’lim tizimida o‘quv jarayoni va unda o‘qituvchining ish faoliyatini rejalshtirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlarni keng doirada olib borishni zarur deb hisoblaymiz.

**Tahlil va natijalar.** Masalalarni yechishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash usullarini taklif qilmoqchimiz. Misol tariqasida B/Bx/B usullini qo‘llashda avval o‘qituvchi o‘tilgan mavzuni mustahkamlashga, o‘quvchilarni diqqatini jamlashga, amaliy mashg‘ulot darslariga tayyoragarlik darajasini hosil qilishga erishadi. O‘quvchilar esa, masala shartini tushunib, ma’ruza darslarida o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlab, masala shartini tahlil qilishni va shartga qarab xulosa chiqarishni o‘rganadilar. Biz “Kinematika” bo‘limiga doir masalalarni yechishda zamonziy pedagogik texnologiyalarni ba’zlarni qo‘llash tajribasini havola etamiz.

#### **Mavzu. Gorizont burchak osida otilgag jism harakatini o‘rganish.**

Mustahkamlash uchun savollar: 1. Ko‘chish deb nimaga aytildi? 2. Tezlik deb nimaga aytildi? 3. Tezlanish deb nimaga aytildi? 4. Erkin tezlanish deb nimaga aytildi! 5. Koordinatalar sistemasi deb nimaga aytildi?

#### **Quydag‘i masalalarni yechishni tavsiya qilamiz.**

**Masala: 1.1.** Balandligi  $H = 25m$  bo‘lgan minoradan gorizontga  $\alpha = 30^\circ$  burchak ostida  $v_0 = 15m/s$  tezlik bilan tosh otilgan. 1) Tosh qancha vaqt harakatda bo‘ladi? 2) U minora asosida qancha uzoqlikda yerga tushadi? 3) U qanday tezlik bilan yerga tushadi? 4) Toshning yerga tushish nuqtasida uning trayektoriyasi gorizont bilan qanday burchak hosil qiladi? Havoning qarshiligi hisobga olinmasin. Ushbu masalani yechishda biz an’anaviy usuldan va raqamli texnologiyalar yordamidan foydalanib masalaning yechimiga batafsil to‘xtalib o‘tamiz. Raqamli texnologiyalarni qo‘llashda bizga phet dasturiga murojat qilamiz [6,7]. Uning imkoniyatlari bilan qisqacha tanishib chiqsak, phet dasturi asosan virtual laboratoriya ishlari uchun mo‘ljalangan bo‘lib imkoniyatlari juda kengdir.

«Physics Education Technology» (PhET) platformasi tabiiy fanlar yo‘nalishida 2001 yildagi Nobel mukofotining laureati K. Viman tomonidan yaratilgan. PhET platformasida turli xil mavzularga oid modellar mavjud bo‘lib, ular Java va Macromedia flash dasturlarida yaratilgan.

PhET platformasida taqdim etilayotgan modellar Open Source bo‘lib, xohlagan foydalanuvchi bepul foydalanishi mumkin. PhET dagi modellar soni 110 dan ortiq bo‘lib, ular fizika, matematika, kimyo fanlariga oid namoyish tajribalarini o‘tkazish, virtual laboratoriya ishlarini bajarish va modellashtirish imkoniyatiga ega. PhET dasturi Milliy o‘quv dasturda va o‘quv muassasalarida qo‘llanilayotgan adabiyotlari mos keladi.

PhET dasturini <http://phet.colorado.edu> platformasidan yuklab olishingiz mumkin. PhET dasturidagi modellardan fizika, ximiya, matematika va biologiya fanlaridan dars mashg‘ulotlarida namoyish tajribalari sifatida, virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkillashtirishda keng foydalanish mumkin [6,7].



© 2009 University of Colorado. Some rights reserved.

### 1-rasm. PhET dasturining umumiyo ko‘rinishi

Ayni vaqtda PhET dasturini <http://phet.colorado.edu> platformasidan fizika faniga oid 90 dan ortiq, biologiya faniga oid 10 dan ortiq, matematika faniga oid 7 ta, kimyo faniga oid 20 dan ortiq modellar mavjud.

Ushbu dasturda keltirilgan modellar faqat ingliz tilida mavjud bo‘lmay, balki 50 dan ortiq tiliga tarjima qilingan, bu tillarning ichida o‘zbek tilida 1 ta model tarjima qilingan. Agar siz dasturda keltirilgan modellarni o‘zbek tiliga tarjima qilishni xohlasangiz, hech qanday qiyinchiliksiz bu ishni amalga oshirishingiz mumkin. Buning uchun dasturning rasmiy platformasida “Translated Sims” bo‘limi mavjud bo‘lib, u yerga kirib maxsus qaydnomani to‘ldirgan holda kerakli modelni tanlab o‘zbek tiliga tarjima qilish imkoniyat mavjud. Bundan tashqari biz maktabda fizika dasturidan ham foydalandik:

Bugungi kunda dars jarayonini virtual namoyish tajribalar va virtual laboratoriya ishlaridan foydalangan holda tashkil etishda bevosita (online) internet resurslaridan foydalanish ommalashib bormoqda. Fizikani o‘qitishda foydalanish mumkin bo‘lgan shunday resurlardan biri ”Maktabda Fizika” platformasidir. Ushbu resurs maktab fizika kursining deyarli barcha bo‘limlarini qamrab olgan kompyuter animatsiyalari va simulyatsiyalarini o‘z ichiga olgan. Ushbu platforma administratori Vladimir Vascak bilan hamkorlikda olib borgan harakatlarimiz natijasida bugungi kunda platformadan o‘zbek tilida foydalanish imkoniyati yaratildi.


Platformaga o‘tish [https://www.vascak.cz/physicsanimations.php?/uz](https://www.vascak.cz/physicsanimations.php?/) manziliga murojat qilish orqali amalga oshiriladi.

Respublikamizda Internet bilan bog‘liq muammolarni hisobga olib platformaning internetsiz ishlaydigan shaklini yarattdik. Ushbu taqdim etilayotgan dastur Maktabda Fizika platformasining offlayn versiyasidir. Barchamizga ma’lumki o‘quvchilar asboblar va mexanizmlar bilan bevosita muloqotda bo‘lgan holda amaliy, eksperimental va laboratorya ishlarini katta zavq va tirishqoqlik bilan bajaradilar. Albatta, virtual namoyish va tajribalar ananaviy fizika laboratoriya ishlarining to‘liq o‘rnini bosa olmaydi, balki ularni to‘ldiruvchi vosita sifatida qo‘llash tavsiya etiladi. Dastur Fizikaga oid ko‘rgazmalarini o‘z ichiga


olgan. Kerakli animatsiyaga o‘tish uchun sichqoncha yordamida animatsiyalar tanlanadi. Ortga qaytish uchun Menyu satridagi "Ortga qaytish" bandi tanlanadi. "Animatsiyalarni saralash" menyusi orqali animatsiyalarni sinflar bo‘yicha va fizika bo‘limlari bo‘yicha saralash yoki umumiy holda ko‘rish mumkin [8].

**B/Bx/B usulli.**


Nº	Topshiriq savollari.	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1	Koordinatalar sistemasi deb nimaga aytildi?			
2	Tezlik deb nimaga aytildi?			
3	Erkin tezlanish deb nimaga aytildi?			
4	Masala shartiga qarab berilgan kattaliklarni to‘ldiring?			



1-rasm



2-rasm



3-rasm

### Yechish:

$h_0$  – balandlikdan gorizontga nisbatan  $\alpha$  burchak ostida uloqtirilgan (tashlangan) jismning harakatini 2-ta etapga ajratish mumkin;

- Jismning eng yuqori A nuqtagacha harakati,
- A nuqtadan  $v_x = v_0 \cos \alpha$  tezlik bilan gorizontal uloqtirilgan jismning harakati.

Jismning ko'tarilish balandligi

$$S_y = AC = h_0 + h = h_0 + \frac{(v_0^2 \sin^2 \alpha)}{2g} \quad \text{Toshning to'la harakatlanish vaqtি } t = t_1 + t_2;$$

bu yerda  $t_1 = \frac{(v_0 \sin \alpha)}{g}$ -jismning  $h$  balandlikka ko'tarilish vaqtি.

Masalada berilganlarni qo'yib,  $S_y = 27,9 \text{ m}$   $t_1 = 0,77 \text{ s}$   $t_2 = 2,39 \text{ s}$  ekanligini topamiz.

Undan  $t = 3,16 \text{ s}$

Minoraning asosidan toshni yerga tushish joyigacha bo'lgan masofa

$$l = OD = OC + CD,$$

bu yerda


$$CD = \frac{OE}{2} = \frac{v_0^2 \sin 2\alpha}{2g} \approx 10 \text{ m} \quad CD = v_x t_2 = v_0 t_2 \cos \alpha = 31,1 \text{ m} \text{ undan } l = 41,1 \text{ m}$$

$$\text{Tezlik } v = \sqrt{v_x^2 + v_y^2}; \text{ bu yerda } v_x = v_0 \cos \alpha = 13 \text{ m/s}$$

Toshning yerga tushish nuqtasida, toshning harakat trayektoriyasining gorizont bilan hosil qilgan burchagi  $\varphi$ -ni  $v_y = v_x \tan \varphi$  ifodadan topamiz, bundan

$$\tan \varphi = \frac{v_y}{v_x} = 1,8 \quad \text{va} \quad \varphi = 61^\circ$$

**1.2.** Bola gorizontga  $\alpha = 45^\circ$  burchak ostida  $v_0 = 10 \text{ m/s}$  tezlik bilan otgan koptok  $s = 3 \text{ m}$  uzoqlikda devorga urilgan. 1) Koptokning devorga urilishi ( uning yuqoriga ko'tarilishida yoki pastga tushishida ) qachon sodir bo'lganligini aniqlang. 2) Koptok ( otilgan balandlikdan hisoblanganda ) devorga qanday  $h$  balandlikda urilgan ? 3) Urilish vaqtida koptokning tezligi qanday bo'lgan ? Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.



[https://phet.colorado.edu/sims/html/projectile-motion/latest/projectile-motion\\_all.html](https://phet.colorado.edu/sims/html/projectile-motion/latest/projectile-motion_all.html)

**Projectile Motion**

Cannonball  
Diameter: 0.8 m  
Mass: 5 kg  
Air Resistance: Drag Coefficient: 0.47

Initial Speed: 10 m/s  
Time: 0.8 s  
Range: 5.16 m  
Height: 2.18 m

Projectile Motion

Maktabda Fizika - O'q harakati - granata.html

Animatsiyalarni saralash • Orqaga • Oldinga Dastur haqida Mualliflar

$t = 0.5 \text{ s}$     $v = 12.1 \text{ m} \cdot \text{s}^{-1}$   
 $x = 5.1 \text{ m}$     $v_x = 10.6 \text{ m} \cdot \text{s}^{-1}$   
 $y = 4 \text{ m}$     $v_y = 5.9 \text{ m} \cdot \text{s}^{-1}$   
 $\alpha = 29.2^\circ$

$g = 9.8 \text{ m} \cdot \text{s}^{-2}$   
 $s = 20 \text{ m}$   
 $\alpha_0 = 45^\circ$   
 $v_0 = 15 \text{ m} \cdot \text{s}^{-1}$   
 $V_0 = 54 \text{ km} \cdot \text{h}^{-1}$

vascak.vladimir@gmail.com www.vascak.cz

**Yechish:**

To‘pnинг eng yuqori nuqtaga ko‘tarilish vaqtı

$$t_1 = \frac{v_0 \sin \alpha}{g} \quad (1)$$

To‘p yuqori nuqtada turganda  $S_x = (v_0 \cos \alpha)t_1$ ; (1) ni hisobga olib,

$$S_x = \frac{v_0^2 \sin \alpha \cos \alpha}{g} = \frac{v_0^2 \sin 2\alpha}{2g} = 5,1m$$

Demak, to‘p devorga yuqoriga ko‘tarilishda uriladi. To‘p devorga, koordinatasi

$$S_y = h = (v_0 \sin \alpha)t - \frac{gt^2}{2} \quad (2)$$

bo‘lganda uriladi. Bu vaqt momentida

$$S_x = l = (v_0 \sin \alpha)t,$$

bu yerdan,

$$t = \frac{l}{v_0 \cos \alpha} \quad (3)$$

(3) ni (2) ga qo‘yib,

$$h = \frac{v_0 \sin \alpha \cdot l}{v_0 \cos \alpha} = \frac{gl^2}{2v_0^2 \cos^2 \alpha} = l \cdot \tan \alpha - \frac{gl^2}{2v_0^2 \cos^2 \alpha} :$$

Son qiymatlarni qo‘ysak,  $h = 2,1m$

Tezlikning gorizontal tashkil etuvchisi  $v_x = v_0 \cos \alpha$ ;  $v_x = 7,07 m/s$  Tezlikning vertikal tashkil etuvchisi  $v_y = v_0 \sin \alpha - gt = v_0 \sin \alpha - \frac{gl}{v_0 \cos \alpha}$   $v_y = 2,91 m/s$

To‘liq tezlik  $v = \sqrt{v_x^2 + v_y^2}$   $v = 7,6 m/s$  ega bo‘lamiz. Bu usulda masalani yechish o‘quvchi uchun ham juda tushunarli sodda va oson bo‘ladi. Mustaqil yechish uchun tavsiya etiladigan masalalarini ortiqcha qiyinchiliksiz yecha oladigan o‘quvchi mazkur bo‘limga doir mavzularni o‘zlashtirgan hisoblanadi.

### Xulosa va takliflar.

1. Turli usullarda, shu jumladan raqamli texnologiyalar yordamida masalalar yechish o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshiradi;

2. Fizik masalalarini grafik usulda yechish uchun kompyuter dasturlaridan foydalanish o‘quvchilarga mavzuga oid bo‘lgan katta hajmli ma’lumotlarni osongina o‘zlashtira olishga yordam beradi. Darsni raqamli texnologiyalardan foydalanilgan holda amalga oshirish esa o‘qituvchilarga vaqtini tejashga xizmat qilibgina qolmay, o‘quvchilarga mavzuni o‘zlashtirishlarini osonlashtiradi.

3. Kompyuter dasturlari asosida masalalar yechish, an‘anaviy usulda yechilgan masalalarini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini tekshirib olishlari talabalarga o‘z o‘zini baholash imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, oly ta’limda umumta’lim maktablarida ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish, ta’lim jarayonlariga STEAM texnologiyasini keng joriy etish, tahsil olayotgan yosh avlodning nazariy bilimlarini oshiribgina qolmasdan, ularni tezroq amaliy va kasbiy jarayonlarga kirishga undaydi. Bu esa mamlakatimiz zamonaviy ta’limining yutuqlaridan biridir.

### Adabiyotlar:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagи PQ-5032-sonli “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
- Savelev I.V. Umumi fizika kursi, I tom, 1983 y.
- Axmadjonov O. Fizika kursi, II tom, T., O‘qituvchi nashriyoti, 1984 y.
- Zisman G.A. va Todes A.A. Umumi fizika kursi, I tom.
- Karshiboev Sh.E. Oliy ta’lim muassaslarida umumi fizika fanidan mustaqil ishlarni bajarishda virtual laboratoriyalardan foydalanishni takomillashtirish PEDAGOGIK MAHORAT|| ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, № 10 254-262 b <https://buxdu.uz/>
- <http://phet.colorado.edu>
- Xoliquov Q.T., Karshiboyev Sh., Sulaymanov O.A., Egamberdiyev T.X. Fizika ta’limida online virtual laboratoriyalardan foydalanishning afzalliklari Fan va ta’lim integratsiyasi 2023-YIL 1-SON <https://journals.uzfi.uz/>
- Xoliquov Qurbonboy To‘chiyevich., Duvlayev Kamil Abdurashidovich., Ochilov Akbar Axmadovich “Maktabda Fizika” dasturi <https://www.vascak.cz/physicsanimations.php?/uz>

**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA INFORMATIKA FANIDAN MUSTAQIL  
TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

*Orinbaev Ansatbay Amanbaevich,  
Nukus davlat pedagogika instituti  
“Aniq va tabiiy fanlarni masofadan o'qitish”  
kafedrasи stajyor o'qituvchisi*

Axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga yetkazish qiyin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi. Maqolada axborot texnologiyalarini qo'llagan holda informatika fanidan mustaqil ishlarni yo'lgan qo'yishning o'ziga xos jihatlari muhokama etiladi.

**Kalit so'zlar:** informatika, o'qitish, dars, mustaqil ish, metod, texnologiya, ta'lim.

**ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ПО  
ДИСЦИПЛИНЕ “ИНФОРМАТИКА” С ПОМОЩЬЮ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

В современном быстро расширяющемся спектре информации и знаний сложно донести всю информацию до учащихся только во время занятий. Эксперименты показывают, что ученик может хорошо учиться только в том случае, если он работает самостоятельно и работает над собой. Основные знания, умения и навыки учащихся формируются только в процессе самостоятельного обучения, у них развивается способность к самостоятельной деятельности и появляется интерес к творческой деятельности. В статье рассматриваются особенности начала самостоятельной работы по информатике с использованием информационных технологий.

**Ключевые слова:** информатика, преподавание, урок, самостоятельная работа, метод, технология, обучение.

**PECULIARITIES OF ORGANISATION OF INDEPENDENT LEARNING IN THE  
DISCIPLINE “INFORMATICS” WITH THE HELP OF INFORMATION TECHNOLOGIES**

In today's rapidly expanding range of information and knowledge, it is difficult to convey all information to students only during classes. Experiments show that a student can learn deeply only if he works independently and works on himself. The main knowledge, skills and abilities of students are formed only in the process of independent education, the ability to perform independent activities develops and interest in creative work appears in them. The article discusses the specific aspects of starting independent work in informatics using information technologies.

**Keywords:** Informatics, teaching, lesson, independent work, method, technology, education.

**Kirish.** Talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart- sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish institutning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. **Talaba mustaqil ishi (TMI)** - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yunaltirilgan tizimli faoliyatdir.

O'qishning boshlang'ich bosqichlarida TMIni tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog'liq, ayniqsa, birinchi kurs talabalarining ta'limning navbatdagi turi - oliv ta'lim talablarga ko'nikishi qiyin kechadi. Chunki ular ta'lim olish jarayonida o'z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma'lumotlarni qaysi manbaadan, qanday qilib topish, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish, konseptlashtirish, o'z fikrini aniq va yorkin ifodalash, o'z vaqtlarini to'g'ri taksimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash ular uchun katta muammo bo'ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta'lim olishga ruhan tayyor bo'lishmaydi. Shuning uchun har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch o'yg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichmasbosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarining kursdan-kursga murakkablashib, kengayib

borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil ta’limga ko‘nika boshlagan talaba faqat o‘qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina kolmay, o‘zining extiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o‘zi zarur deb hisoblagan qo‘srimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o‘zlashtirishga o‘rganib boradi.

**Adabiyotlar sharhi.** Mustaqil ta’limni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari bilan I.Aliev, O’.Alixonov, A.Ahmadaliyev, A.Ashirova, R.Boqiev, M.Daminov, G.Izetayeva, S.Abdalova, B.Abdullayeva, A.Abduqodirov, N.Azizzojayeva, R.Ishmuhamedov, V.Kazakov, M Tojiyev va boshqalar shug‘ullanganlar.

Oliy ta’lim muassalarida o‘qitiladigan matematika fanlari bo‘yicha talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilish muammolari yuzasidan V.Yermolaeva, F.Zagirova, R.Ibragimov, M.Atakulov, Sh.Ayupov, M.Badalov, M.Garunov, V.Kazakov, A.Meleshina, N.Perkova, A.Rahmonov, A.Semakova, T.To‘laganov, S.To‘laganov va boshqalar izlanishlar olib borganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.**

**Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e’tiborga olinishi lozim:**

- o‘qish bosqichi;
- muayyan fanning o‘ziga xos xususiyati va o‘zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta’minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi. Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va xajmi, qiyinchilik darajasi semestrdan-semestrga ko‘nikmalar hosil bulishiga muvofik ravishda o‘zgarib, oshib borishi lozim. Ya’ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga urgatib borish kerak bo‘ladi.

TMIni tashkil etishda talabaning akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish, o‘quv manbalari bilan ishlash;
- amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rib kelish;
- ma’lum mavzu bo‘yicha referat tayyorlash;
- kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;
- bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi uchun mate- riallar to‘plash;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- maket, model va badiiy asarlar ustida ishlash;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozara- li savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezislar va ma’ruza tayyorlash;
- amaliy mazmundagi nostandard masalalarni yechish va ijodiy ishlash;
- uy vazifalarini bajarish va boshqalar;

Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga kaysi turdagи topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o‘ylab ishlab chikilgan va ma’lum maqsadga yunaltirilgan bo‘lib, talabalarning auditoriya mashg‘ulotlarida olgan bilimlarini mustahkam, chuqurlashtirish, kengaytirish va to‘ldirishga xizmat qiziqishi kerak.

Faning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o‘quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o‘zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va oolib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qiziqishga xizmat qiladigan savollarga e’tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko‘rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o‘quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konseptlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taallukli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o‘zlashtirish qiyin bo‘lsa, savollar paydo bo‘lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o‘qituvchidan maslahatlar oladilar.

Mustaqil o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya kilinadi.

**Referat tayyorlash.** Talabaga qiyinchilik darajasi, uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim

darajasiga muvofik bo‘lgan biror mavzu bo‘yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashkari qo‘shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, Internetdan olingan ma’lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig‘adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo‘yicha imkon darajasida to‘liq, keng ma’lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o‘qituvchidan maslaxat va ko‘rsatmalar oladi. Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

**Ko‘rgazmali vositalar tayyorlash.** Talabaga muayyan mavzuni bayon qiziqish va yaxshiroq o‘zlashtirish uchun yordam beradigan ko‘rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar, musiqiy asar, kichik badiiy asar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o‘qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma’lum ko‘rsatmalar, yo‘l-yuriqlar beriladi. Ko‘rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo‘yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin.

Talaba ko‘rgazmali materiallardan foydalanish bo‘yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

**Mavzu bo‘yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.** Talabaga muayyan mavzbu bo‘yicha testlar, qiyinchilik darajasi xar xil bo‘lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo‘ladigan savollar tuzish topshiriladi.

Bunda o‘qituvchi tomonidan talabaga testga qo‘yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko‘zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo‘yicha yo‘l-yuriq beriladi. Konsultatsiya paytalarida bajarilgan ishlarning qo‘yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to‘ldirish taklif etilishi mumkin). Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya kilinadi.

**Ilmiy maqola, tezislar va ma’ruzalar tayyorlash.** Talabaga biron bir mavzu bo‘yicha (mavzuni talabaning o‘zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) xarakterda maqola, tezis yoki ma’ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o‘quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to‘playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo‘shimchalar, izohlar kiritadi, o‘z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o‘qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi. Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma’ruza kafedrada himoya kilinadi.

**Amaliy mazmundagi nostandard masalalarni yechish va ijodiy ishlash.** Bir mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha nostandard, alohida yondashish talab qilinadigan, nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan ilmiy-ijodiy vazifalar, modellar, maketlar, namunalar yaratish vazifasi topshirilishi mumkin. Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal variantlarini izlashga va topishga qaratalgan bo‘lishi kerak.

Talabaning qiziqish va qobiliyatiga qarab, unga ilmiy xarakterdagi topshiriqlar berish, o‘qituvchi bilan hamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlash va chop ettirish mumkin.

**Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etishda:**

- tizimli yondoshish;
- barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish; bajarilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;
- tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur.

**Mustaqil ish topshiriqlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:**

- ❖ maqsad (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o‘zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakkantirish va h.k.), aniq asoslanishi;
- ❖ vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi; topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning
- ❖ yetarli darajada xabardor bo‘lishi;
- ❖ maslahat va boshqa yordam turlarining to‘g‘ri belgilanishi (yo‘llanma va ko‘rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, mua-mmoli topshiriqlarni bajarish usullari bo‘yicha tushuncha berish, ayrim muammoli momentlarni birlgilikda hal qilish va h.k.);
- ❖ hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;
- ❖ nazorat vaqtini, shakli va turlarini aniq belgilab olish (amaliy se-minar, laboratoriya mashg‘ulotlari, konsultatsiya uchun yoki nazorat uchun maxsus ajratilgan vaqt; ma’ruza yo referat matni, bajarilgan topshiriqlar daftari, nazorat ishlari, uy vazifasi daftari, kurs ishlari, test, maqola, nostandard topshiriqlar, savollar, maqola, ko‘rgazmali jihozlar va ijodiy ishlari; savol-javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini tushuntirib

berish, yozma shaklda bayon qilish va h.k.).

**Talabalar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:**

➤ auditoriyada amalga oshiriladigan TMIlari. Utilgan mavzuni qayta ishslash, kengaytirish va mustahkamlashga oid topshiriqlar bajariladi;

➤ auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan TMIlari. O‘quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o‘zlashtirish, uyg berilgan vazifalarni bajarish, amaliy va laborotoriya ishlariiga tayyorgarlik ko‘rib kelish, ijodiy va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi ishlar va h.k.

Birinchi tur ishlari talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini o‘zlashtirib borish darajasi, amaliy mashg‘ulotlarga (amaliyat, laboratoriya, seminar darslari) tayyorgarlik saviyasi va uy vazifalarining bajarilish sifatini tekshirish maqsadida, odatda, nazorat ishlari olish, savol-javob, suhbat, munozara, amaliy topshiriqlarni bajartirib ko‘rish va h.k. usullarda asosan amaliyat darslarida nazorat (joriy nazorat) qilinadi.

Joriy nazoratda talabaning dars paytida o‘tilgan materiallarni o‘zlashtirish va uyg berilgan topshiriqlarni bajarishdagi faolligi, bajarish saviyasi va o‘zlashtirish darajasi e’tiborga olinadi.

Ikkinci tur ishlar fanning ishchi o‘quv dasturida auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirilishi belgilangan mavzu bo‘yicha ma’lumot va axborotlarni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish, konspektlashtirish (yoki referat tarzida rasmiylashtirish) va o‘zlashtirish, ijodiy yondashishni talab qiladigan amaliy topshiriqlarni bajarish ko‘rinishida amalga oshiriladi. Bu turdagisi ishlarni bajarish jarayoni va o‘zlashtirish sifatining nazorati darsdan tashqari paytlarda, maxsus belgilangan konsultatsiya soatlarida amalga oshiriladi.

**Talabalar mustaqil ishini baholash.** TMI natijalari amaldagi "Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimi nazorat qiziqish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risidagi Nizom"ga asosan baholab boriladi.

**Talabalar mustaqil ishi bo‘yicha konsultatsiyalar tashkil etish tartibi:**

1. Talabalar mustaqil ishi (TMI) bo‘yicha konsultatsiya darsi auditoriyadan tashkarida amalga oshirishga muljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo‘llanmalar berish va uni bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil kilinadi.

2. TMI bo‘yicha konsultatsiya darsi fanning kalendar-tematik rejasiga muvofik o‘tkaziladi.

3. Konsultatsiya darsi tegishli fan o‘qituvchisi tomonidan o‘tkaziladi.

4. Fan o‘qituvchisi konsultatsiya darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

-TMI topshiriqdarini bajarish yuzasidan tegishli yo‘llanma beradi;

-topshiriqni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;

-tegishli adabiyotlar va axborot manbalarini tavsija qiladi;

-TMI yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, referat, hisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.

5. TMI bo‘yicha konsultatsiyalar o‘quv jarayonining 1 yoki 2 smenada tashkil etilishiga qarab talabalarning darsdan bo‘sh vaqtlarida dars jadvaliga kiritiladi

6. TMI bo‘yicha konsultatsiya darslari o‘qituvchi jurnalida kayd etib boriladi yoki kafedrada tashkil etilgan fanlar bo‘yicha mustaqil ta’lim soatlari bajarilishini qayd etish jurnalida aks ettirish ham mumkin.

Uzoq yillar davomida oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limining turli kafedralarining pedagoglari bir-biridan avtonom ravishda ishlab keldilar. Ularning asosiy maqsadi ushbu kafedraga tegishli fan(lar) bo‘yicha talabalar bilimining davlat ta’lim standarti talablari darajasida bo‘lishini ta’minalashdan iborat edi. Tayyorlanayotgan mutaxassis sifatiga esa faqat ixtisoslik kafedralari javob berar edi. Ta’lim metodikasining hozirgi holatida ham fanlararo bog‘lanishning ilmiy – uslubiy, koordinatsion va huquqiy-me’yoriy tomonlari takomillashmagani tufayli oxirgi natija uchun mas’uliyat barcha kafedralarga birdek taqsimlangan.

Raqobatbardosh mutaxassislarni muvoffaqiyatli tayyorlash uchun fanlararo bog‘lanishning uzviyligini ta’minalash, o‘zaro aloqador fanlar mavzularining o‘qitish metodikasini ishlab chiqish va bu asosda fan o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatlarini muvofiqlashtirish zarur.

Ushbu vazifani amalga oshirish uchun o‘qituvchilar va talabalarning birinchi kursning birinchi kunidan boshlab hamkorlikda ishlashi va talabalarda mustaqil ta’lim ko‘nikmasini shakllantirib borish talab etiladi. Barcha kafedra o‘qituvchilarining “komanda bo‘lib ishlashi” pedagogik tamoyil darajasiga yetgan kollejlarda bitiruvchilarining sifat ko‘rsatkichi talab darajasida bo‘ladi.

Fanlar o‘rtasidagi bog‘lanish - ta’lim didaktikasining asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Umumiy, politexnik va kasbiy (professional) bilimning uzviyligi, uzlusizligi va o‘zaro aloqasi avvalo fanlararo bog‘lanish orqali ta’minalanadi [2].

Fikrimizcha, fanlararo bog‘lanish – bu o‘quv fanlari asoslari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikdir yoki aniqroq qilib aytganda - turli o‘quv fanlari tushunchalari o‘rtasidagi bog‘lanishdir.

**Natijalar.** Shunday fikrlar mavjudki, fanlararo bog‘lanishni o‘quv mavzulari darajasida ko‘rish va tatbiq qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi, boshqalarning fikricha esa har bir predmet darsining mavzulari darajasida ko‘rish ma’quldir [4].

Fanlararo bog‘lanish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalar va ular asosida olingan natijalar talabalarga yanada chuqurroq bilim berish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi [5].

Texnika va texnologiyaga oid fanlarni o‘rganishda umumta’lim va umumtexnik predmetlardagi qonun va xodisalarni asos qilib olish fanlararo bog‘lanishning asosiy tamoyillaridan biri xisoblanadi. Bunda o‘quvchi – talabalarni oldin olgan bilimlarini eslashga va hodisa, tushuncha hamda qonunlarni mustaqil taxlil qilishga undaladi.

Umumta’lim fanlarini o‘qitishda o‘quv guruhining ta’lim sohasi va yo‘nalishini doimo e’tiborga olish, kelgusida o‘tiladigan fanlar bilan ushbu fanning aloqador mavzularini ajratish va ayniqsa ular uchun umumiylig‘i bo‘lgan terminlarni tayanch so‘zlar sifatida ta’riflash zarur.

Umumtexnik bilimlarning asosiy manbasi tabiiy –matematik sikl fanlari hisoblanadi (fizika, ximiya, nazariy(amaliy) mexanika, materialshunoslik, materiallar qarshiligi, hisoblash texnikasi va dasturlash, chizmachilik va b.)

Ta’limning politexnik prinsipi umumta’lim, umumtexnik va maxsus fanlar o‘rtasida bog‘lanish va o‘zaro mutanosiblik bo‘lishini talab etadi. Mutanosiblik bu – biror fanni o‘rganishda fandan oldingi qonun - qoidalariiga asoslanish va undan samarali foydalanishdir.

Fanlararo o‘zaro bog‘lanishning tuzilmaviy elementlarini ishlab chiqishda material, konstruksiya va texnik vositalar asos qilib olindi [3]. Chunki KHK ining bitiruvchisi kichik mutaxassis sifatida texnik vositalar va ularni ishlatish bo‘yicha chuqur bilim va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lishi kerak. Shuning uchun jadvalda umumilmiy, politexnik va kasbiy tushunchalar keltirilgan bo‘lib, ular qaysi fanlarning tarkibiga kirishi ko‘rsatilgan. Aniqlangan umumiy tushunchalar umumtexnik va maxsus fanlarning nazariy asoslarini xarakterlab beradi. Ular muhim o‘rin tutadi, chunki ushbu tushunchalar talabalarning dialektik dunyoqarashini shakllantiradi. Politexnik tushunchalar umumilmiy va kasbiy tushunchalarni o‘zaro bog‘lab turadi, ular umumtexnik va tabiiy-matematik fanlar negiziga qurilgandir.

### Xulosa va munozara. Mustaqil ta’limni tashkil etishda:

- fanlararo bog‘lanish elementlaridan foydalanishni tashkil qilish bo‘yicha mamlakatimizda va xorijda (asosan Rossiya) chop etilgan bir turkum ilmiy va ilmiy-metodik ishlar o‘rganib chiqildi. Izlanishlar natijasida fanlararo bog‘lanish elementlaridan foydalanib asoslash ilmiy-metodik yangilik ekani ko‘rsatib berildi.

- raqobatbardosh mutaxassislarini muvoffaqiyatli tayyorlash uchun fanlararo bog‘lanishning uzviyligini ta’minalash, o‘zaro aloqador fanlar mavzularining o‘qitish metodikasini ishlab chiqish va bu asosda fan o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatlarini muvofiqlashtirish zarur deb hisoblaymiz.

- umumta’lim, umumtexnik va maxsus fanlarni o‘rganishda oldingi fanlarda o‘rganilgan qoida, bilim, malaka ko‘nikmalarni yangi o‘rganilayotgan fanga doirlarini bog‘lab o‘rganish zarur.

- fanlararo o‘zaro bog‘lanishning tuzilmaviy elementlarini ishlab chiqishda material, konstruksiya va texnik vositalar yoki shu kabi fanning asosiy jihatlarini asos qilib olinishi “talaba mustaqil ishi”ni tashkil etishda maqsadga muvofiq.

### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to‘plami, 2017y., 6-son, 70-modda.

2. Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha Yo‘riqnomasi.

3. Umirov S.E., Toshboev B.Yu., Rasulov Sh.M., Mustanov A.Yu.. Toshkent-2012. Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to‘g‘risidagi Nizom I.uslubiy ko‘rsatma.5 bet.

4. Gans-Diter Xopfner. O‘rtalik maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida mustaqil o‘rganishning ahamiyati. KHK lari uchun o‘quv qo‘llanma.

5. O‘zbekiston-Shvesariya «Kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish» loyihasi. Toshkent, 2019 yil.

6. Najmiddinova H. Talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatida o‘zlashtirish samaradorligiga erishish. Ta’lim muammolari. 2009 yil, 2-son.

7. Otamirzayev O.U., Zokirova D.N., Vaxobova S.K. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. // Xalqaro ilmiy jurnal. -2016 yil. - № 4.

8. Otamirzayev O.U., Zokirova D.N., Vaxobova S.K. Elektrotexnika fanini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish. // Fan vaqt. 2016. - No 2 (26).

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KIMYO FANIDAN SINF DAN TASHQARI ISHLARNI  
TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI**

*Ramazonova Zuxro Yorboyevna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Kimyo yo'nalişlari 2-bosqich magistranti*

*Ushbu maqolada umumi o'rta ta'lismaktablarida kimyo fanidan sinfdan tashqari ishlarni olib borish, o'quvchilarni kimyo faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularni fan olimpiadalariga jalb qilish hamda darsdan so'ng ularni vaqtin qiziqarli mashg'ulotlar bilan samarali o'tkazish uchun eng to'g'ri tashkil etilgan tanlovlarni haqida aytib o'tilgan. Shuningdek maqola doirasida umumta'lismaktablarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarning shakllari haqida tushunchalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** kimyo kechalari, kimyo olimpiadalar, kimyo viktorinalari, qiziqarli tajriba, kimyoviy reaksiyaar, kimyoviy moddalar, metallmaslar, organik kimyo, anorganik kimyo, davriy jadval.

**Т ЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ИЗУЧЕНИЯ ХИМИИ ВНЕ УРОКА В  
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ**

*В данной статье говорится о наиболее правильно организованных конкурсах по проведению внеклассной работы по химии в общеобразовательных школах, повышению интереса учащихся к химии, привлечению их к олимпиадам по естественным наукам, эффективному проведению времени после уроков за интересной деятельностью. Также в рамках статьи даны понятия о формах внеклассной работы в общеобразовательной школе.*

**Ключевые слова:** химические вечера, химические олимпиады, химические викторины, интересный эксперимент, химические реакции, химические вещества, металлы, неметаллы, органическая химия, неорганическая химия, таблица Менделеева.

**THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE ORGANIZATION OF CHEMISTRY  
OUTSIDE THE CLASSROOM IN A COMPREHENSIVE SCHOOL**

*This article talks about the most properly organised competitions for conducting extracurricular work in chemistry at comprehensive schools, increasing students' interest in chemistry, attracting them to science Olympiads, and effectively spending time after lessons for interesting activities. Also within the framework of the article the notions about forms of extracurricular activities in comprehensive schools are given.*

**Keywords:** chemistry nights, chemistry olympiads, chemistry quizzes, interesting experiment, chemical reactions, chemicals, metals, nonmetals, organic chemistry, inorganic chemistry, periodic table.

**Kirish.** Sinf dan tashqari ishlari — umumi o'rta ta'lismaktabi o'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinf dan tashqari ishlari o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Sinf dan tashqari ishlarga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg'ulotlar pedagogik jamoa, sind rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtida uyuştiriladi. O'quvchilarning sind dan tashqari ishlarni tashkil etishda o'quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyoohlari klub va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi. Sinf dan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida ommaviy ishlari (maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlari o'tkazish, viktorina va ko'rgazmalar uyuştirish, tabiat qo'yning, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqish), to'garak ishlari (o'quvchilarning sind dan tashqari o'qishi, kolleksiya to'plashi, texnika, musiqa, tasviriy san'at, chizmachilik va sh.k. bilan mustaqil shug'ullanishi)ni ko'rsatish mumkin. Sinf dan tashqari mashg'ulotlar talabalabalar ehtiyojidan va ijodiy ishga bo'lgan tabiiy intilishidan kelib chiqadi, sinda o'tkaziladigan dastur materialining kamini to'ldirishga emas, balki uni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Bunda, o'qituvchilarning mustaqil ish metodlariga tayanish ham kerak. Sinf dan tashqari ishlarga- fakultativ mashg'ulotlar, ijodiy kechalar, to'garaklar, mustaqil ilmiy izlanish, kurs ishi, diplom ishi, referat, olimpiyadada, ko'rik -tanlovlarda qatnashish; ilmiy konferensiya qatnashish; pedagogik amaliyat, kitobxonlar uyushmasi, bayramlar, mustaqillik bayrami, konsututsiya kuni, har –

xil mavzudagi qiziqarli kechalar; talabalarning sevimli mashgulotlari ustida estafetalar shular jumlasidandir. Ta’lim metodlarini qo’llashni quydagicha ko‘rsatish mumkun; talabalarda tashkilotchilik, boshqaruvchilik, mustaqil ilmiy izlanish, o‘z fikrini himoya qila olish, bahs yuritish ko‘nikmalarini shakillantirishda guruhalr tashkil etib ijodiy topshirqlar berish, guruhalraro bahs yuritish, aqliy hujum metodi, ebristik metod, klaster metodi kabilardan foydalaniladi. Talabalarda ijrochilik, boshqaruvchilik ular bilimlarini sinab ko‘rishda ma’ruza bilan chiqish, muammo qo‘yish, muammoli ma’ruza qilish ham yaxshi natija beradi. Talabalarda malaka oshirish, kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun rollar ijro etish orqali erishish mumkun. Ularni yangi g‘oya yechimini yaratish, ularni shaxsiy tajribaga yoki vaziyatga bog‘lash, bahsli g‘oyalarni ma’qullashga o‘rgatish uchun esa guruhli bahslar, ma’lum bir hoiatlar tahlili, savol –javoblar, so‘rovnomalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

**Asosiy qism.** Umumta’lim maktablarida kimyo to‘garagi faoliyatini tashkil etish - bu o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar tizimi bo‘lib, darsdan farqli, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilar o‘z xohish – istaklariga ko‘ra qatnashadilar.

Bu mashg‘ulotlarning asosiy vazifasi-o‘quvchilarning kimyo faniga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish va oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, kimyo laboratoriya mashqlarida tajriba o‘tkazish bo‘yicha bilimlarini boyitish, o‘quv darsliklari va ommabob adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishdan iborat.

O‘quvchilarning mazkur jarayonda ishtiroki ularda ijobji qobiliyatlarni yuzaga chiqarishda, o‘g‘il va qizlarni kasbga yo‘naltirishga asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Darsdan tashqari mashg‘ulot maktab o‘quv – tarbiyaviy jarayon rejasingin ajralmas qismidir. U nafaqat pedagogik jamoada, balki o‘quvchilarni o‘z-o‘zini boshqarish organlari vakillari, ota – onalar ishtirokida ham olib borilishi zarur. Darsdan tashqari mashg‘ulot qiziqarli bo‘lishi uchun o‘quvchilarni dars jarayonidayoq fanga qiziqtirib boriladi. Buning uchun o‘quvchilarda fanga intilishini kuchaytirish, uning o‘ziga xos qirralarini ochib bera olish zarur.

Mazkur uslubiy qo‘llanma kimyo fanini o‘qitish sifatini oshirishda umumta’lim maktablari o‘qituvchilariga yordam beradi degan umiddamiz.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “KIMYO” fan sifatida yettinchi sinfdan boshlab to o‘n birinchi sinfgacha o‘qitiladi. Bu fan har bir sinfda haftasiga ikki soat o‘qitiladi, bunchalik qisqa vaqtida o‘quvchilar kimyo fanini o‘zlashtira ololmaydilar. Demak o‘qyuvchilarni “KIMYO” faniga qiziqtirish uchun avvalambor turli xil kimyo kechalari, kimyo faniga doir musobaqalar, kimyoviy savodxonlik darslari hamda darslardan so‘ng kimyo klublari tashkil qilish eng maqsadga muvofiq vazifadir. Bu borada kimyo o‘qituvchilarini ham mas’uliyatni his qilib chin yurakdan yondashishlari talab etiladi.

**Kimyodan fakultativ mashg‘ulotlar.** Fakultativ kurs, ixtiyoriy kurs — oliy o‘quv yurtlari talabalari va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari o‘quvchilari uchun nazariy bilimlarini kengaytirish hamda chuqurlashtirish maqsadida o‘tiladigan majburiy bo‘lmagan mashg‘ulot turi. Fakultativ kurslar fan, texnika va madaniyatning eng yangi muammolari, shuningdek, biror o‘quv fanini o‘rganish davomida talaba (o‘quvchi)larni qiziqtirib qolgan mavzu yoki bo‘lim yuzasidan tashkil etiladi. Tavsiya etilayotgan Fakultativ kurslarning taxminiy ro‘yxati, odatda, o‘quv rejalarida aks etadi. Oliy o‘quv yurtlarining ilmiy kengashlari hamda o‘rta maxsus o‘quv yurtlari pedagogik kengashlari talaba (o‘quvchi)lar qiziqishlari hamda mintaqaviy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda Fakultativ kurslarni tashkil etish huquqiga egadirlar. Fakultativ kurs praktikum, seminar, lab. mashg‘uloti singari shakllarda ham uyushtirilishi mumkin. O‘rta maxsus ta’lim tizimida Fakultativ kurslarni o‘tish uchun oliy mifik va ilmiy tadqiqot muassasalari xodimlari, shuningdek, xalq xo‘jaligi va madaniyat tarmoklari mutaxassislari

**Anorganik kimyo to‘garagi ishi bilan tanishtirish.** **Anorganik kimyo** (yun. An — inkor qo‘srimchasi va organik kimyo) — kimyoviy elementlar va ulardan hosil bo‘lgan birikmalar haqidagi fan (faqat uglerod birikmalarini organik kimyo, uglerod-536ning bir necha oddiy birikmalarinigi-na Anorganik kimyo o‘rganadi). Anorganik moddalar, xususan ogir metallar — oltin, kumush, mis, temir, qo‘rg‘oshin, simob va qalay, metallmaslardan uglerod va oltingugurt qadim zamonlardan ma’lum. Milodning boshlarida kimyo Misrda taraqqiy etib, xlorid, sulfat, nitrat kislotalar, er-kin holda marginush, surma, fosfor, shuningdek bir qancha ishqor va tuzlar hosil qilingan. Turkistonda ham kimyoning qadimdan mayjudligini arxeolo-gik qazishlar natijasida topilgan mod-diy-madaniy yodgorliklar tasdiklaydi. Turkistonda ko‘pgina kimyogar olimlar yetishib chiqqan. Ulardan eng mashxurlari Abu Bakr ar-Roziy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf al-Kotib al-Xorazmiy, Abdulhakim ibn Abdulmalik al-Kosiy, Abu Ali ibn Sino va boshqa (qarang Alkimyo). Anorganik moddalar haqidagi ma’lumotlarni alohida o‘rganish g‘oyasini fransuz kimyogari N. Lemeri ilgari surgan. U 1675-yilda kimyo fani o‘rganadigan moddalarni kelib chiqishiga ko‘ra mineral moddalarga, o‘simliklar va hayvonlardan hosil bo‘ladigan moddalarga bo‘lgan edi. 19-asr oxirida fizika va boshqa fan so-xalaridagi katta kashfiyotlar (1869-yilda D. I. Mendeleyev davriy qonunni kashf etishi va hokazo) Anorganik kimyo taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi. Bu davrda davriy sistemada o‘rin qoldirilgan

elementlarning barchasi topilib, davriy sistema to‘ldirildi va transuran elementlar kashf etildi. Anorganik kimyoda kimyoviy tekshirishning ikkinchi usuli: analiz va sintez keng qo‘llaniladi. 18-asr oxirida kimyoning vazifasi moddalar tarkibini aniqlash, ya’ni ularni analiz qilish deb hisoblangan bo‘lsa, 19-asrning boshida kimyogarlar yangi moddalarni sintez qilishga ham tobora ko‘proq ahamiyat berdilar. 20-asrda anorganik sintez taraqqiyotiga eksperimental texnikaning erishgan yutuklari juda katta yordam berdi. 20-asrda boshigacha Ak.ning asosiy vazifasi ko‘proq birikmalar hosil qilish deb hisoblangan bo‘lsa, hozir bu fan, asosan, birikmalarning hosil bo‘lishi va parchalanishi sha-roitini, ularning fizik va kimyoviy xos-salari va tuzilishini urganadi. Bu hol Anorganik kimyo sohasidagi tadkiqotlarning ilmiy va amaliy ahamiyatini g‘oyatda oshirib yubordi. 20-asrning 30-yillarda adabiyotda bayon etilgan anorganik birikmalar soni 50-60 ming edi. Elementlarning kislo-rod bilan hosil qilgan birikmalari — gidridlar; galogen bilan hosil qilgan birik-malari — galogenidlar; oltingugurt bilan hosil qilgan birikmalari — sulfidlar; azot bilan hosil qilgan birikmalari — nitridlar; uglerod bilan hosil qilgan birikmalari — karbidlar, kislotalar, asoslar, tuzlar, kompleks birikmalar Anorganik kimyoda o‘rganiladi. Anorganik kimyoning hozirgi bosh vazifasi yuqori harorat va bosim, mexanik va kimyoviy ta’sirlarga chidamli bo‘lgan, boshqa ko‘pgina talablarga javob bera-digan yangi sun’iy anorganik moddalar tayyorlash va boshqadir. Bu borada ko‘pgina tadqiqot ishlari o‘tkazildi

Kimyo fanidan darsdan tashqari tashkil etiladigan tadbirlar qanday bo‘lishi kerak va bu tadbirlar qachon o‘tqazilishi kerak albatta bu eng muhim va o‘ylantiradigan savollardir. Chunki har bir Kimyo fani o‘qituvchisi bu savollardga javoblar topishi va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishga intiladi. Buning uchun o‘qituvchi har bir sinfdagi ba’zi qiziq mavzularni ajratib olib shu mavzularga doir qiziqarli musobaqa yoki tadbir o‘tqazishga harakat qilihi zqarur. Masalan yettinchi sinflarda “Suvning tarkibi” mavzusini juda chiroyli kimyoviy bellashuv tariqsida o‘tqazish mumkin. Buning uchu avvalombor Suv nima? Degan savoldan javobni izlash kerak. Suv qanday modda? Uning qanaqa xususiyatlari mavjud? Suvning tarkibi nima? Va boshqa savollar keyin suv haqida kimyoviy tushunchalar berila boshlanadi. Suv ikkita element ya’ni vodorod ( H ) va kislorod ( O ) dan tarkib topgan murakkab moddadir. Suv molekulasi uchta kimyoviy element atomlaridan tarkib topgan. Ya’ni ikkita Vodorod va bitta kislorod atomidan tarkib topgan. Suvning kimyoviy formulasi quyidagicha  $H_2O$  bu modda eng kerakli erituvchi sifatida kimyoda qo‘llaniladi, undan tashqari suv hayot manbai insoniyat , hayvonlar o‘simliklar hayoti uchun suv eng kerakli modda.

Sakkizinchи va to‘qqizinchи sinflarda esa metallar va metallmaslar guruhi vakillari va ularning xossalariiga doir turli xil o‘yinlarni darslardan so‘ng tashkil qilish mumkin. Bir sinf o‘quvchilari metallar guruhi va yana boshqasinf o‘quvchilari metallmaslar guruhi bo‘lib o‘zaro bellashishlari va “Metallar” guruhi metallarning barcha xossalariini “Metallmaslar” guruhi esa metallmaslarning barcha xossalari haqida aytib o‘tishlari kerak.

Bundan tashqari qiziqarli o‘yinlar tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir.

Masalan: quyidagicha jadvallar tuzib undagi har bir ustunda alohida metal yoki metallmaslarni o‘quvchilar yozib chiqishlari kerak.

Metallar		Metallmaslar		Amfoter elementlar	
H	K	Rb	Cs	F	J
Al	Mg	Ge	Zn	Br	Fe
Na	S	Mn	Fr	V	Be
O	N	Ne	Li	Cr	Ca
B	W	C	Se	P	Te
Ti	Te	He	Ba	Sc	Cu
Cl	Ni	At	Ag	Mo	Au

Bu jadvalda barcha elementlar aralash holatda turadi Metallar guruhi vakillari chiqib metallarni metallar qatoriga, metallaslar guruhi vakillari chiqib metallmaslarni metallmaslar qatoriga qo‘chiqishadi. Eng birinchi va shartni mutlaqo to‘g‘ri bajargan guruh taqdirlanadi va g‘olib deb e’lon qilinadi.

Kimyoviy modalarning tabiatiga qarab metallar va metallmaslarga xos reaksiyalar yoziladi.

Biz kimyo fanidan bilamiz eng kuchli metallmas bu Ftor ( F ) , chunki uning electron manfiyligiga eng yiqori ya’ni 4.1 ga teng. Ftor hech qachon elektron bermaydi faqat elektron tortib olish xossasiga ega. O‘quvchilar ftor elementiga atab she’r aytishadi.

Metallmaslar zo‘riman  
Glogenlar sherman  
To‘qqizinch o‘rinda turaman  
Men ftor bo‘laman.

Metallar guruhi a’zolari esa metallarni maqtab she’rlar aytishadi. Ayniqsa ishqoriy metallar va ularning xossalari haqida juda ko‘p ma’lumotlar berishadi. Bu elementlar ketma ketlikda saflanishadi: Li, Na , K, Rb , Cs, Fr.

Bulardan tashqari xatosini top mashqlari bajarishadi. Bunda Kimyoviy moddalar yozilgan jadval taqdim etiladi o‘quvchilar xato yozilgan moddaarni topib ularni ustini chizishadi bu jadval quyidagicha:

Na <sub>2</sub> O	BaSO <sub>6</sub>	F <sub>2</sub> O	Ca <sub>2</sub> NO <sub>4</sub>
KO <sub>2</sub>	ZnSO <sub>3</sub>	H <sub>4</sub> P <sub>2</sub> O <sub>7</sub>	Al <sub>2</sub> (SO <sub>4</sub> ) <sub>3</sub>
MgCO <sub>4</sub>	S <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub>	Au <sub>3</sub> Cl
Mn <sub>2</sub> O <sub>4</sub>	K <sub>2</sub> MnO <sub>4</sub>	CaMg(CO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub>	LiCl

U qiziqarli mashqlar o‘quvchilarga kimyoviy formulalarni yozilishini va ularning tarkibini o‘rganishga katta yordam beradi.

**Xulosa** qilib aytadigan bo‘lsak sinfdan tashqari kimyo fanini o‘rganish o‘quvchilarning kimyo faniga bo‘lgan qiziqishlarining oshishi uchun va ularning bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazish uchun hamda o‘quvchilarni atrof muhitga va tashqi olamga bo‘lgan munosabatlarini rivojlantirish uchun eng samarali usuldir.

### Adabiyotlar:

1. H.T.Avezov, G.A.Qahorova Umumta’lim maktablarida kimyodan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi. Buxoro 2016.
2. Kimyo 7 -sinf uchun darslik . I.R. Asqarov, N.X. To‘xtaboyev, K G‘.G‘opirov. Toshkent 2017.
3. Kimyo. 8- sindf uchun darslik. . I.R. Asqarov, N.X. To‘xtaboyev, K G‘. G‘opirov Toshkent 2019.
4. Mahmudov P., Ziyayev R., Akbarov B., Haydarov U. Biz bilgan va bilmagan kimyo.T.2011.132 b.
5. ”Maktabda kimyo” ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim jurnali 2(14)-son, 2010.12 b.
6. ”Maktabda kimyo” ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim jurnali 3(15)-son, 2010.20 b.
7. ”Maktabda kimyo” ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim jurnali 4(16)-son, 2010.18 b.

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYA FANINI MEDIATEXNOLOGIYALAR  
ASOSIDA O'QITISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI**

*Sanayeva Munisa Ilammonovna,  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi*

*Ushbu maqolada mamlakatimizda ta'lismizda tizimini modernizatsiya qilish, ta'lismizda jarayonlarini eng ilg'or texnologiyalar asosida tashkil etish hamda yuqori samaradorlikka erishish masalalari yoritilgan. Shuningdek, umumta'lismaktablarda biologiya fanini mediata'lismi texnologiyalari asosida tashkil etish, o'quvchilarning mediakompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari hamda biologiya fanini mediata'lismi resurslari orqali o'qitishning ijobjiy tomonlari ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** ta'lismi, mediata'lismi texnologiyalari, mediata'lismi resurslari, biologiya ta'limi, axborotlarni tushunish va yoritish, audiovizual vositalar, axborotini tarqatish.

**НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕДИАТЕХНОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ  
БИОЛОГИИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ**

*В данной статье освещены вопросы модернизации системы образования в нашей стране, организации образовательного процесса на основе самых передовых технологий и достижения высокой эффективности. Также раскрыты организация изучения биологии в общеобразовательной школе на основе медиаобразовательных технологий, научно-теоретические основы развития медиакомпетентности учащихся, положительные стороны преподавания биологии посредством медиаобразовательных ресурсов.*

**Ключевые слова:** образовательная система, медиаобразовательные технологии, медиаобразовательные ресурсы, биологическое образование, понимание и освещение информации, аудиовизуальные средства, распространение информации.

**SCIENTIFIC AND THEORETICAL PRINCIPLES OF MEDIA TECHNOLOGY TEACHING  
OF BIOLOGY IN UNIVERSAL SCHOOLS**

*This article covers the issues of modernization of the education system in our country, organization of educational processes based on the most advanced technologies, and achieving high efficiency. Also, the organization of biology in secondary schools on the basis of media education technologies, the scientific-theoretical foundations of the development of students' media competence, and the positive aspects of teaching biology through media education resources have been revealed.*

**Keywords:** educational system, media education technologies, media education resources, biology education, understanding and coverage of information, audiovisual means, information dissemination.

**Kirish.** Har bir mamlakatning istiqbolli kelajagi uning hayotiy zarurati va ajralmas qismi hisoblangan ta'lismizining rivojlanganligi bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtida mustaqil taraqqiyot yo'lidan jadal borayotgan respublikamiz ta'lismizini kengroq isloq qilish va yanada takomillashtirish, uni yangi sifat bosqichiga ko'tarish, ta'lismizda jarayonlariga jahonning ilg'or pedagogik, innovatsion va axborot kommunikatsion texnologiyalarini keng joriy etish, ta'lismizda sifat-samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoxda. Jumladan, mamlakatimizda yangi tahrirdagi “Ta'lism to'g'risida”gi Qonunning qabul qilinishi ham ta'lismi orqali zamонавиy kadrlar tayyorlashning asosi ham takomillashtirildi [1].

Mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari dunyoning rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o'rinn olish uchun ma'naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimizning erkin, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlanish, ularning bilim salohiyatlarini jahon andazalariga mos ravishda oshirish hamda kelajakda xalqimizga astoyidil xizmat qiladigan kasb egasi bo'lib etishishlari uchun shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi PF-5099-son “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlanish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni ham axborot-kommunikasiya texnologiyalarini davlat boshqaruvi va davlat xizmatlari ko'rsatishning barcha sohalariga joriy etish, axborot xizmatlarini ilgari surish, “Elektron hukumat” tizimini

rivojlantirish va amalga oshirish, xalq bilan muloqot qilish hamda aholining kundalik muammolarini joylarda o‘z vaqtida hal qilishning samarali mexanizmlarini yaratish, axborot texnologiyalarining raqobatdosh, shu bilan birga yuqori unumdonlikka ega tarmog‘ini shakllantirish uchun mamlakatning fanda ta’lim sohasidagi salohiyatidan yetarli darajada foydalanish, respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda xalqaro axborot kommunikasion texnologiyalari (AKT) bozoridagi o‘rnini kuchaytirish borasidagi ustuvor vazifalarga muvofiq holda malakali kadrlar tayyorlash mazmunini qaytadan ko‘rib chiqish, xalqaro standartlarga javob beradigan oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun lozim bo‘lgan shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida to‘xtalgan [2].

Bundan ko‘rinib turibdiki, yoshlарimizni hayotda o‘z o‘rinlarini topishlari uchun ularga chuqur bilim, fan materiallari bo‘yicha ularda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish lozim bo‘ladi. Bu kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirish ta’lim tizimi oldiga ulkan mas’uliyatni yuklaydi.

**Asosiy qism.** Ta’lim jarayonlarining sifat-samaradorligini oshirish va belgilangan maqsadga erishishda ta’lim jarayonlarida innovatsion, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Bu o‘rinda ta’lim jarayonlarida mediatexnologiyalardan foydalanish muhim o‘rinni egallaydi.

Media atamasi lotinchada “medium”, ya’ni vosita, usul degan ma’nolarni anglatib, turli ko‘rinishdagi kommunikasiya va axborot vositasini bildiradi. A.A.Jurinning fikriga ko‘ra “media” – lotincha “media” so‘zidan olingan bo‘lib, “vosita”, “vositachi”, yanada aniqrog‘i, “ommaviy axborot vositalari” degan ma’nolarni anglatadi [3]. Shuningdek, u mediata’lim tushunchasini quyidagicha izohlaydi:

Mediata’lim – bu:

- a) pedagogik fan bo‘lib, u – ommaviy axborot vositalari (OAV)ning bolalar va o‘smyrlarga ta’sirini o‘rganadi va ta’lim oluvchilarni OAV dunyosi bilan tanishtirishga tayyorlashning nazariy masalalarini ishlab chiqish;
- b) o‘qituvchi va o‘quvchilarning amaliy hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, bolalar va o‘smyrlarni OAVdan foydalanishga, OAVning madaniyatdagi roli va dunyoni qabul qilishga tayyorlash;
- v) ta’lim sohasi – uning mazmuni – OAVning madaniyatdagi roli, dunyoni qabul qilishi haqida bilimlar va OAV axborotlari bilan samarali ishslash.

Mediata’lim tushunchasi esa fransuz tilida – “edukationauxmedias”, nemis tilida – “mediadidaktik”, ingliz tilida – “media education” tushunchalari bilan mos keladi. Demak, media - ta’lim jarayonlarini vizual materiallar yordamida tashkil etilishiga, ta’limning sifatli olib borilishiga va ta’lim oluvchilarning yuqori o‘zlashtirishga erishishlariga xizmat qiladi.

Ya.Mamatova va S.Sulaymanovalarning fikricha hozirgi zamon jamiyati taraqqiyotiga medialarning ta’siri yil sayin oshib borib, ular vositasida insonlar atrof-vogelikni ijtimoiy va ruhiy jihatdan anglamoqda va baholamoqda. Zamonaviy medialarning asosiy jihatlari sirasiga tadqiqotchilar kreativlik (yaratuvchanlik, ijodkorlik) va innovasiyalarni kiritmoqdalar [4].

Aksariyat adabiyotlarda media tushunchasiga bir qancha tavsiflar berilganini aytish mumkin. “Media – ommaviy axborot vositalari, ham keng, ham maxsus auditoriyaga mo‘ljallangan ko‘ngilochar takliflarni tavsija etuvchi, yangilik, axborot va reklama axborotini tarqatishga yo‘naltirilgan ko‘p sonli hamda serqirra funksiyalarni amalga oshiruvchi kommunikasiya kanallaridir” [5]. Ya’ni mutaxassislar media atamasi o‘zagida aynan ushbu tavsifni ko‘radi.

Medianing ilk turlari ancha oldin paydo bo‘lganiga qaramay, XX asrning 50-60-yillarida mediadan ta’lim jarayonida foydalanish masalalari tadqiqotchilar e’tiborini tortgan. Mediata’lim medianing barcha turlari (ovozli, bosma, ekranli, grafik, va boshqalar) turli xil texnologiyalar bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, u insonlarga ommaviy kommunikasiyalardan ijtimoiy ongda qanday foydalanishni tushunish, boshqa odamlar bilan kommunikasiya vaqtida mediadan foydalanish ko‘nikmasini o‘zlashtirish kabi bilimlarni beradi.

Dunyoning ta’lim tizimi rivojlangan mamlakatlarida mediata’lim bo‘yicha tajribalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Buyuk Britaniyada mediatexnologiyalar ta’lim jarayoni masalalari bilan shug‘ullanuvchi bir nechta tashkilotlar tuzilgan bo‘lib, ularning ichida 1933 yilda tashkil etilgan Britaniya kinoinstituti (British Film Institute - BFI) ning alohida ko‘rsatish mumkin. Sababi, tashkilot tarkibidagi o‘qituvchilar uchun mediakurslar, seminar va konferensiyalar tashkil etishga ixtisoslashgan, shuningdek, ta’limda mediatexnologiyalarni qo‘llashga oid tadqiqotlar o‘tkazilgan, aynan pedagoglar uchun adabiyotlar, xususan, o‘quv qo‘llanmalar, uslubiy tavsyanomalar nashr ettirildi. Ta’lim jarayonlarida mediatexnologiyalardan foydalanish tarixining xorijiy tajribalarini o‘rganish natijalari shundan dalolat beradiki, 1988-1989 yillarda mediatexnologiyalar yordamida o‘qitish ta’lim jarayonida birinchi marta Angliya va Uelsning milliy o‘quv rejasi tarkibiga kiritilgan.

Natijada mediatexnologiyalarni boshqa fanlarga ham qo‘llash imkoniyatlari paydo bo‘ldi. XX asrning 50-yillarida Belgiyada ham ta’lim jarayonlari mediatexnologiyalar asosida tashkil etila boshlangan. 1961

yilda Leven katolik universiteta professori J.M.Peters YuNESKO uchun tayyorlagan materialida kinota’lim tanqidiy tafakkur, estetik tarbiya, so‘zsiz hayotiy tajriba, tahliliy qobiliyatni oshirishga yordam berishini ta’kidlagan. Ushbu davlatda ham mediatexnologiyaga oid ta’lim jaryoni boshqa davlatlarga o‘xhash holatda taraqqiy etdi. Xususan, 1970-yillar boshlarida “Ta’lim jarayonida audiovizual vositalar metodik inspeksiyasi” xizmati paydo bo‘ldi. 1975 yillarda esa Lejda “Audiovizual markaz” o‘z faoliyatini boshladi. Buyuk Britaniya mediatexnologiyalarning ta’lim paradigmalari Belgiya ta’lim tizimiga tizimiga ham keng joriy etila boshladi.

Meditexnologik ta’limning kalit so‘zleri ikkala davlatda bir-biriga yaqin va o‘xhash. Germaniyada esa ushbu mamlakatlardan farqli o‘laroq mediatexnologiyaga asoslangan ta’lim birmuncha sekin sur’atlarda rivojlandi. XX asrning 60-yillarida nemis pedagoglari mediaga o‘qitishning maxsus texnik vositasi sifatida qarashadi [6]. Keyinchalik mediatexnologiyalar Germaniyada ham ta’lim jarayonlariga aniq fanlar bilan integrallashtirgan holda olib borildi. Bunda geografiya, san’at, ijtimoiy fanlar va boshqa fanlar bilan uyg‘unlashgan holda o‘qitila boshlandi. Ba’zi nemis pedagoglarning mediatexnologiyalarni fikrlariga ko‘ra, mediatexnologik ta’lim - talabalarni mediatexnologiyalar assosida o‘qitishning ilmiy-metodik ta’minotini takomillashtirishga xizmat qiladi. Germaniya universitetlarida ham mediatexnologiyalar ta’lim jarayonlarining asosiy qismida o‘rganiladi. Aytish joizki, hozirgi vaqtida mediatexnologiyalarni ta’lim jarayonlarida o‘rgatuvchi alohida ilmiy-tadqiqot institutlari ham mavjud.

**Muhokama va natijalar.** Shveysariya ta’limiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu mamlakatda mediatexnologik ta’lim nemis va fransuz mediapedagogikasi ta’sirida paydo bo‘lgan va rivojlangan. Bizga ma’lumki, Shveysariya ko‘p millatli mamlakat hisoblanib, 64% dan ortiq shveysariyaliklar nemis, 19% dan ortiq aholisi fransuz tilida so‘zlashishadi. XX asrning 50-60-yillariga kelib Shveysariya maktablarida ham mediatexnologik ta’limni yo‘lga qo‘yishning aniq standartlari ishlab chiqildi. Shveysariya gimnaziyalarida XX asr oxirlariga kelib mediatexnologik fan sifatida ham joriy etila boshladi. Unda o‘qitishning ilmiy-metodik ta’minotini takomillashtirish masalalari ustuvorlik qiladi.

AQShda ham ta’lim tizimida mediatexnologiyalardan foydalanishni keng joriy etish maqsadida bir nechta assotsiasiylar tashkil etilgan bo‘lib, ularga Los-Anjelesdagi Mediasavodxonlik markazi(Senter for Media Literacy), Washington, Nyu-Yorkdagi “Ta’lim videomarkazi” (Educational Video Center), Nyu-Meksikadagi “Mediata’lim markazi” (Center for Media Education), San Fransiskodagi “Mediasavodxonlik bo‘yicha strategiya” (Strategies for Media Literacy) assotsiasiysi, Shimoliy Karolinadagi “Mediasavodxonlik ortidagi fuqaro” harakati, va Milliy alyans mediasan’ati va madaniyati (National Alliance for Media Arts and Culture) va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Professor A.V.Fedorov zamonaviy dunyodagi mediatexnologik ta’limni ommaviy axborot bilan muloqot madaniyatini takomillashtirish maqsadida mediamatnni to‘liq idrok qilish, tahlil va talqin qilish, baholash, kommunikativ salohiyatlar, ijodiy, tanqidiy tafakkur, mediatexnika yordamida o‘zini namoyon etishning turli xil shakllariga o‘qitish maqsadida ommaviy kommunikatsiya (media) materiallari va vositalari va yordamida shaxsni rivojlantirish jarayoni sifatida ko‘radi [6].

B.A.Iskakov ham o‘zining resurs markazi sharoitida o‘qituvchilarning mediakompetentlik darajasini rivojlantirish bo‘yicha yozilgan tadqiqot ishida “o‘qituvchining mediakompetentligi” tushunchasiga ta’rif bergen. Bu tushuncha shaxsiy tuzilma sifatida, o‘qituvchining mediatexnologiya vositalaridan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatini kompetent va sermahsul olib borish qobiliyatida o‘z ifodasini topadi [7]. Bunday faoliyat o‘qituvchini ochiq ta’limiy mediamakonda kasbiy o‘zini o‘zi realizatsiyalashga yo‘naltirish, mediatexnologiyalar mohiyatini anglashga ko‘maklashish, yaxlit pedagogik jarayonda ularni realizatsiyalash metodikasi bilan qurollantirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtida umumta’lim maktablarida biologiya ta’limi jarayonlarini mediatexnologiya vositalari yordamida tashkil etishning bir qancha ijobiy tomonlari mavjud. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin [8]:


- o‘quvchilarning axborotlarni oson qabul qilish va ulardan amaliyotda foydalanish malakalari rivojlanadi;
- vizual ko‘rinishdagi verbal nuxsalarni loyihalash layoqati va ko‘nikmalari shakllanadi;
- pedagogik faoliyatida axborotlarni o‘ziga xos tushunish va foydalanish imkoniyatlari kengayadi;
- global internet tarmog‘ida erkin muloqotni amalga oshirish imkoniyati oshadi;
- mediavositalar orqali o‘quvchilarning o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirish, mustahkamlash, takrorlash, topshiriqlarni erkin bajara olish imkoniyati mavjud;
- o‘quvchilarning zamonaviy axborot ta’lim resurslaridan samarali foydalanishi ularning axborot savodxonligining rivojlanishiga erishiladi;
- biologiya fanidan yaratilgan elektron darsliklar, videodarslar va virtual laboratoriya mashg‘ulotlari yordamida fanga doir har qanday murakkab hodisa yoki jarayonni kuzatish, bajarish imkonii bo‘ligan tajribalarni ko‘rsatish hamda tushuntirish mumkin bo‘ladi;

- biologiya fanidan qiziqarli interaktiv dars va laboratoriya topshiriqlarini uy sharoitida ham mustaqil o’tkazish imkoniyati yaratiladi;
- virtual laboratoriya ishlarini ta’lim jarayonlarini yanada qiziqarliroq va yangiliklarga boy tarzda tashkil etishda qo’shimcha material sifatida namoyish etish mumkin.

Ammo, olib borilgan izlanishlar natijasida umumta’lim maktablarida biologiya ta’limi amaliyotining tahliliy natijalari shuni ko’rsatdiki, ushbu fanni o‘qitishda quyidagi muammolar mavjud:

- ta’lim muassasalarida biologiya fanidan laboratoriya mashg’ulotlarini tashkil etish va olib borish uchun laboratoriya jihozlarining etishmasligi, mavjudlari ham talabga javob bermasligi;
- fan o‘qituvchilarini tomonidan dars jarayonlarida mavjud laboratoriya jihozlaridan (agar mavjud bo’lsa) unumli foydalanilmaslik;
- fan bo‘yicha mediatexnologiyalardan samarali foydalanmaslik;
- mavzularga doir elektron axborot ta’lim resurslari (elektron darsliklar, videodarslar, mobil ilovalar, multimedia ilovalari, taqdimotlar va b.)ning yetarli darajada yaratilmaganligi;
- biologiya xonalarining etishmasligi;
- o‘qituvchilarning mediata’lim, mediaresurs va mediasavodxonlik kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini to‘liq tushunmasligi;
- zamonaviy o‘quv vositalaridan foydalanilmaslik [9].

Biologiya fanini mediatexnologiyalar asosida o‘qitishning asosiy omillariga quyidagilarni kiritish mumkin (1-rasm):



**1-rasm. Mediatexnoliyalar asosida o‘qitish omillari**

**Xulosa.** Demak, o‘quvchilarning mediasavodxonlik darajalarini oshirishda ta’lim tushunchalarining yangi qirralarini, ya’ni o‘qish va o‘qitish jarayonida voqeliklarning yangi ko‘rinishlari va qo’shimcha materialni yuzaga keltiradi. O‘qish jarayoni asosan mustaqil ta’lim bilan bog’liq. Sababi, o‘quvchilar aynan mustaqil ta’lim jaryonida mediatexnologiyalardan foydalanish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega bo’ladilar [10]. Ta’lim-tarbiya jarayonlarida ta’limiy mediatexnologiyalardan foydalanish bo‘yicha eksperimentni tashkil etishda hisobga olingan bu holat zamonaviy mediata’limning eng muhim yo‘nalishi - texnik va tabiiy madaniyatlarning zamonaviy tendensiyasi doirasida amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Yuqorida fikr-mulohazalar asosida bugungi kunda umumta’lim maktablari biologiya ta’limiga mediata’lim texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha quyidagilarga alohida ahamiyat qaratish lozim [11]:

- ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rekonstruksiya qilish, ta’mirlash, fanlarni o‘qitishga oid yangi innovatsion asbob-uskunalarni ta’lim-tarbiya amaliyotiga joriy qilish;

- zamonaviy innovatsion va pedagogik hamda mediatexnologiyalar vositasida ta’lim berishni anglagan metodik kvalifikatsiya va zamonaviy bilim, ko‘nikmaga ega, zamon bilan raqobatlasha oladigan kadrlar bilan ta’lim jarayonlarini samaradorligini ta’minlash, fanlar mazmunini qayta ko‘rib chiqish, takomillashtirish va zamon talablari darajasiga ko‘tarish;

- o‘quvchilarda biologiya fanini mediatexnologiyalar asosida o‘qitishning ilmiy-metodik ta’minotining ta’limiy mazmunini ilmiy texnik rivojlantirish va boshqalar.

**Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. - O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to‘plami, 2020 y., 23-sentyabr, 13-16-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 30-iyunvafshi PF-5099-son Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida. Farmoni.
3. Журин А.А. Интегрированное медиаобразование в средней школе. – Москва: Бином, 2013. – С. 405.
4. Mamatova Ya., Sulaymanova S. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. – Т.: Extremum-press, 2015. – 140 b. 60-64-b.
5. Федоров А.В. Развитие медиакомпетенности и критического мышления студентов педагогического вуза. МОО ВПП ЮНЕСКО Информатсия для всех. 2007. – 616 с.
6. Федоров А.В. Медиаобразование и медиаграмотность.–Таганрог: Изд-во Кучма, 2004.–340 с.
7. Исаков Б.А. Развитие медиакомпетентности учителей в условиях ресурсного центра.: Автореф. дис. .... канд. пед. наук. – Барнаул. 2013. – С. 24.
8. Sanayeva M.I. Umumta’lim maktablarida biologiya fanini elektron axborot ta’lim resurslari vositasida o‘qitishning zamonaviy metodlari va tamoyillari // O‘zMU xabarları. -Toshkent, -2024. -№ 1/8. – B. 166-169. (13.00.00; №15).
9. Sanayeva M.I. Zamonaviy biologiya ta’limining elektron axborot ta’lim resurslari va ularni yaratishga qo‘yiladigan umumiyl talablar // Mug‘allim həm yzliksiz bilimlendirio‘ ilmiy metodik jurnal. - Nukus, -2024. -№ 4-son. -B. 178-184. (13.00.00; №20).
10. Sanayeva M.I. Improvement of the scientific methodology of teaching biology in the electronic information education environment // American Journal of Interdisciplinary Research and Development // USA, 2024. Volume 28, May, - pp. 445-449.
11. Sanayeva M.I. Legal and theoretical basis of organizing modern biology education based on electronic information educational resources // International Conference on Interdisciplinary Studies and Scientific Research. - Hosted online from Cambridge, London, 2023. – pp. 127-132.

**MASALALARING YECHILISH USULIGA KO‘RA TASNIFLANISHI  
(MOLEKULYAR FIZIKA BO‘LIMI MISOLIDA)**

*Toshmurodov Nuriddin Pardaqulovich,  
O‘zbekiston - Finlandiya pedagogika instiuti assistenti  
nuriddintoshmurodov94@mail.ru*

*Ushbu maqolada fizika masalalarini yechish texnologiyalari haqida ma’lumot berilgan. Sifatiy, eksperimental, grafik va mantiqiy masalalarning mohiyati va ularni yechish jarayonidagi ketma-ketliklar molekulyar fizika misolida ko‘rsatilgan. Sifatiy masalalar: Bu turdagи masalalar ko‘proq fizik hodisalarни tushunishga qaratilgan. Eksperimental masalalar: Ushbu masalalar real fizik jarayonlarni o‘rganish, kuzatish va tajribalar o‘tkazishni talab qiladi. Masalan, aralashmaning temperaturasini kuzatish kabi tajribalar. Grafik masalalar: Bu masalalar grafikalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Grafiklar yordamida ma’lumotlarni vizuallashirish, oson tushunish va tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Mantiqiy masalalar: Bu turdagи masalalar mantiqiy fikrlashni, o‘zaro bog‘lanishlarni aniqlashni va natijalar chiqarishni talab qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** mantiqiy masalalar, grafik masalalar, eksperimental masalalar, sifatga oid masalalar, grafik, model, masala, temperatura.

**КЛАССИФИКАЦИЯ МЕТОДОВ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ НА ПРИМЕРЕ МОЛЕКУЛЯРНОЙ ФИЗИКИ**

*В этой статье представлена информация о технологиях решения задач по физике. Рассмотрены суть качественных, экспериментальных, графических и логических задач, а также последовательности их решения на примере молекулярной физики. Качественные задачи: Этот тип задач больше ориентирован на понимание физических явлений. Экспериментальные задачи: Эти задачи требуют изучения, наблюдения и проведения экспериментов с реальными физическими процессами. Например, эксперименты по наблюдению за температурой смеси. Графические задачи: Эти задачи включают использование графиков. Графики помогают визуализировать данные, облегчая понимание и анализ. Логические задачи: Этот тип задач требует логического мышления, определения взаимосвязей и вывода результатов.*

**Ключевые слова:** логические задачи, графические задачи, экспериментальные задачи, качественные задачи, график, модель, задача, температура.

**CLASSIFICATION OF PROBLEMS BY SOLUTION METHOD USING THE EXAMPLE OF MOLECULAR PHYSICS**

*This article presents information on the technologies for solving physics problems. It examines the essence of qualitative, experimental, graphical, and logical problems, as well as the sequences of their solutions using examples from molecular physics. Qualitative problems: This type of problems is more focused on understanding physical phenomena. Experimental problems: These problems require studying, observing, and conducting experiments on real physical processes. For example, experiments to observe the temperature of a mixture. Graphical problems: These problems involve the use of graphs. Graphs help visualize data, making it easier to understand and analyze. Logical problems: This type of problems requires logical thinking, identifying relationships, and drawing conclusions.*

**Keywords:** logical problems, graphic problems, experimental problems, qualitative problems, graph, model, problem, temperature.

**Kirish.** Fizika, tabiiy hodisalarini tushunish va ularni tavsiflashda muhim rol o‘ynaydi. Bu fan molekulalardan to makro darajalardagi tizimlargacha bo‘lgan turli xil strukturalar va jarayonlarni o‘rganadi. Molekulyar fizika, o‘z navbatida, atomlar va molekulalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni, energiya o‘tkazuvchanligini va fazoviy tuzilishni o‘rganadi. Ushbu soha fizikadagi nazariy va eksperimental tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki u ko‘plab boshqa fanlar, masalan, kimyo, materialshunoslik va biokimyo bilan hamkorlikda ishlaydi.

Masalalarning yechilish usullari fizikada muhim ahamiyatga ega, chunki har bir muammo uchun turli yondashuvlar talab etiladi. Ushbu maqolada molekulyar fizika misolida masalalarning yechilish usullari

analitik, raqamli, eksperimental va simulyatsiya usullari orqali tasniflanadi. Har bir usul o‘zining afzalliliklari va cheklovlariga ega bo‘lib, bu esa tadqiqotchilar uchun to‘g‘ri metodni tanlashda zaruriy jihatlarni ko‘rsatadi.

Analitik usullar, masalan, oddiy tizimlarda molekulalar o‘rtasidagi kuchlar va energiya o‘zgarishlarini matematik formulalar yordamida aniqlash imkonini beradi. Raqamli usullar esa murakkab tizimlarning xatti-harakatlarini simulyatsiya qilishda foydalaniladi. Eksperimental usullar, o‘z navbatida, fizik jarayonlarni real sharoitlarda o‘lchash va nazariy natijalarni tasdiqlashda ahamiyatlidir.

Ushbu maqola, fizikadagi masalalarni yechish jarayonidagi metodlarni chuqur tahlil qilishga va molekulyar fizika sohasida yangi yondashuvlar yaratishga yordam beradi. Natijada, ushbu tadqiqotlar o‘quv jarayonida talabalarga ilmiy fikrni rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etishda yordam beradi.

**Adabiyotlar sharhi va metodologiya.** Ma’lumki, fizika o‘qitishda nazariy va amaliy metodlar mavjud. Amaliy metodlar ichida fizikadan masalalar yechishning ahamiyati salmoqlidir. Masala yechish jarayonida o‘quvchilarga bilim berish bilan birga o‘quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘quvchilarga tarbiya berish kabi muhim masalalar hal qilinadi. Fizikadan masalalar yechish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashlari kengayadi, ijodiy qibiliyatlarini rivojlanadi. Fizik hodisalarining tub mohiyatini kengroq tushunadilar, fizikadagi qonunlarning amalda qo‘llanishini chuqurroq anglaydilar. Ko‘pgina fizik o‘lchov asboblarining vazifasi, tuzilishi, ishslash prinsiplari bilan tanishadilar. Ko‘pgina metodik adabiyotlarning tahliliga ko‘ra, mantiqiy xulosalar, matematik amallar va fizikadagi qonunlar hamda metodlarga asoslangan holda yoki eksperiment yordamida yechiladigan muammo, odatda fizik masala deyiladi. Fizik masalada qo‘yilgan muammoni hal etish, masala yechishdan iboratdir. [1]

Masala yechish-kichik hodisa va jarayondagi noma'lum fizik kattaliklarni masala shartida berilgan kattaliklar orqali ifodalangan formulasini chiqarib masala shartida berilgan kattaliklarning son qiymatini o‘rniga qo‘yib hisoblashdir. Fizika o‘qitishda amaliy metodlar ichida masalalar yechish muhim o‘rin egallaydi. Masalalar yechishda qo‘yiladigan asosiy maqsad o‘quvchilar fizik qonuniyatlarni chuqurroq tushunsinlar, ularni ajrata olsinlar va ularni fizik hodisalarini tahlil qilishga, amaliy masalalarga qo‘llay olishga o‘rganishlaridan iborat.[2]

Ushbu ishda molekulyar fizika va termodinamika bo‘yicha an’anaviy masalalar yechish metodikasiga asoslangan.“Masalalar va yechimlar” bo‘limida birinchi navbatda, taklif etilgan yechimlar bilan tanishish (shuningdek, namuna masalalari kabi) mualliflarning fikricha, o‘quv materialini yaxshiroq tushunishga va o‘zlashtirishga yordam beradigan masalalar tanlangan.[3]

Masala - bu javobini topish darhol ko‘rinmaydigan savoldir. Masala yechish usullarini bilgan o‘quvchi uchun esa bu muammoligicha qolib ketmaydi.

Masala yechish bu fizikaning ajralmas qismi bo‘lib, u nazariyani o‘qish va ma’ruzalarni tinglashdan ko‘ra faolroq yondashuvni talab qiladi. O‘quvchilar fizikani faqat nazariy jihatdan o‘rganish orqali bilimga ega bo‘lishlari mumkin, ammo qarhisidagi fizik masalani hal qilish uchun masala yechish va uning usullarini bilish shart.[4]

**Tahlil va natijalar.** Fizikadan masalalarni yechish uchun bir necha muhim qadamlar mavjud:

**Masalani o‘qish va tushunish:** Berilgan masalaning sharti diqqat bilan o‘qiladi. Barcha berilgan ma’lumotlar va savollar aniqlanadi.

**Berilganlar va talab qilinayotgan natijalarni belgilash:** Masala shartida nimalar berilgan va nima hisoblanishi kerakligi yozib olinadi.

**Tegishli formulalarni aniqlash:** Masalani yechish uchun zarur bo‘lgan fizik formulalar va qonunlar aniqlanadi. Bu formulalarni yaxshi bilish muhim hisoblanadi.

**Chizish:** Agar masalada geometrik obyektlar yoki kuchlar mavjud bo‘lsa, chizmasini chizish foydali hisoblanadi. Bu ko‘proq vizualizatsiya qilishga yordam beradi.

**Hisob-kitoblar:** Berilgan ma’lumotlar formulalarga qo‘yiladi, hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Biror bir kutilmagan natija chiqsa, hisob-kitoblar yana bir marta tekshirib ko‘riladi.

**Natijani tekshirish:** Hisoblangan natijani fizik jihatdan mantiqiy ekanligi tekshirib ko‘riladi. Agar natija kutilgan qiymatga mos kelmasa yoki masalada qandaydir noaniqlik mavjud bo‘lsa, qaytadan hisoblanadi yoki masala shartida noaniqlik mavjudmi ko‘rib chiqiladi.

Shu o‘rinda savol tug‘uladiki, berilgan masalalarning yechilish usullari bir xilmi? Ularni yechishda ko‘proq qaysi usullardan foydalanish kerak?

- Yechilish usullariga ko‘ra fizikaviy masalalarni:
- Sifatga oid masalalar (Sifatli masalalar)
- Miqdoriy hisoblashga oid masalalar (Sonli masalalar)
- Grafikka oid masalalar (Grafik masalalar)
- Eksperimentga oid masalalar (Eksperimental masalalar) ga ajratish mumkin. [5]

*Masalalarning yechilish usullarini qarab chiqamiz.*

**Sifat masalalari.** Sifat masalalari matematik hisob kitoblar va mantiqiy fikrlashni birlgilikda qo'llashdir. Sifat masalalariga oid masalani ko'rib chiqamiz.

**1-masala:** Nima uchun yozning issiq kunlarida sopol ko'zada saqlangan suv boshqa idishdagi suvganisbatan sovuqroq bo'ladi?

**Javob:** sopol idishlar g'ovak bo'ladi. Shuning uchun bunday idishlardan suv sizib chiqib, bug'lanib turadi. Bug'lanish vaqtida sovish bo'lganligi uchun ko'zadagi suv boshqa idishdagi suvlarga nisbatdan sovuqroq bo'ladi.

**Miqdoriy hisoblashga oid masalalar:** bunday masalalar fizikadan masalalar to'plami kitoblarida berilgan bo'lib, ulardan foydalanuvchi o'quvchi-talabalar to'g'ri foydalanishlari, shu masalaga tegishli mavzularni yaxshi o'zlashtirishlari va ana shu hollarda ulardagi bilim chuqur va haqiqiy bo'lishiga erishiladi. Masalalar yechish davomida o'quvchi-talabalarda tug'ilgan savollar bo'lsa ular tortinmasdan o'qituvchidan so'rabb olishlari tufayli bilimlari yanada mazmunli bo'lishiga erishiladi. Shunday masalalarni yechish namunalari bilan tanishaylik. Masalan:

**2-masala:** 0 °C temperatura va  $10^5 \text{ N/m}^2$  bosimda havoning zichligi  $1,273 \text{ kg/m}^3$  ga teng. Havoni faqat kislород va azot aralashmasidan iborat deb hisoblab ularning og'irlilikdagi ulushini hisoblang.

**Berilgan:**

$$T = 273K$$

$$P = 10^5 \text{ Pa}$$

$$\rho = 1,273 \text{ kg/m}^3$$

$$\mu_1 = 32 \text{ kg/kmol}$$

$$\mu_2 = 28 \text{ kg/kmol}$$

$$V = 1 \text{ m}^3$$

$$\varphi_{O_2} = ?$$

$$\varphi_{N_2} = ?$$

U holda

U holda  $1 \text{ m}^3$  havodagi kislород va azot molekulalari massasi

$$m_1 + m_2 = 1,273 \text{ kg} \quad (1)$$

Dalton qonuniga muvofiq  $P = P_1 + P_2$ ,

$$P_1 = \frac{m_1}{\mu_1} \frac{RT}{V}, \quad P_2 = \frac{m_2}{\mu_2} \frac{RT}{V}$$

$$P = \frac{m_1}{\mu_1} \frac{RT}{V} + \frac{m_2}{\mu_2} \frac{RT}{V} = \left( \frac{m_1}{\mu_1} + \frac{m_2}{\mu_2} \right) \frac{RT}{V} \quad (2)$$

(1) va (2) tenglamalardan  $m_1$  va  $m_2$  ni topsak  $m_1 = 0,313 \text{ kg}$ ,  $m_2 = 0,96 \text{ kg}$ .

U holda  $1 \text{ m}^3$  havodagi kislороднинг ulishi foizlarda

$$\varphi_{O_2} = \frac{m_1}{m_1 + m_2} \cdot 100\% = 24,7\%$$

$1 \text{ m}^3$  havodagi azotning ulishi foizlarda

$$\varphi_{N_2} = \frac{m_2}{m_1 + m_2} \cdot 100\% = 75,3\% \text{ ni tashkil etarkan.}$$

**Eksperimental masalalar.** Odatta, nazariy tushunchalarni tajriba orqali tekshirish va tasdiqlash uchun o'tkaziladi. Eksperimental masalalar yechishning afzallik jihatni shundaki o'quvchilar bunday masalalarni yechishda faqatgina nazariy va matematik hisob-kitoblarni qo'llabgina qolmay o'zlarini tajriba o'tkazib so'ngra yechimini topadilar. Bu masalalar quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

**Tajriba o'tkazish:**

- ✓ Tajribani rejalashtirish: Maqsadni aniqlab, kerakli asbob-uskunalarini tanlash.
- ✓ Tajriba jarayoni: Tajribani aniq va to'g'ri bajarish, natijalarni yozib olish.

**Natijalarni tahlil qilish:**

- ✓ Olingan ma'lumotlarni hisobga olib, grafiklar chizish yoki formulalar yordamida natijalarni hisoblash.

✓ Hozirgi natijalarni nazariy hisob-kitoblar bilan solishtirish.

**Xatolar va noaniqliklar:**

- ✓ Tajribada yuzaga keladigan xatolarni aniqlash va ularning ta'sirini baholash.
- ✓ Olingan natijalardagi noaniqliklarni tahlil qilish.

**Tajriba natijalarini baholash:**

- ✓ Natijalarni tahlil qilib, nazariy fikrlar bilan solishtirish.
- ✓ Olingan natijalar asosida yangi xulosalar chiqarish.

Eksperimental masalani ko‘rib chiqamiz

**3-masala:** Suv aralashmasining temperaturasini hisoblang? Buning uchun bizga kalorimetrik, menzurka 400 ml, elektroplitika, termometr (-10 dan +110 °C gacha) yoki raqamli termometr kerak bo‘ladi. Bo‘sh kallorimetrnning massasini toroziga tortib olamiz. Oldin xona temperaturasidagi sovuq suvning temperaturasasi  $t_1$  aniqlanib, kallorimetrga  $m_1 = 0,15$  kg massali sovuq suv solamiz. Kiyin esa unga temperaturasi 60 °C gacha qizdirilgan,  $m_2 = 0,1$  kg massali suv quyamiz. Aralashmaning temperaturasasi  $t_n$ -ni termometr yordamida aniqlaymiz. (Bu tajribada xona temperurasidagi sovuq suvning temperurasini  $t_1 = 20^\circ C$  deb olingan).

Bu holda termometr ko‘rsatgichi 36 °C ni ko‘rsatadi.

Endi bu tajribamizni fizika va matematika hisob-kitoblariga tayangan holda yechamiz. Issiqlik balans tenglamasi orqali sovuq suv va issiq suvning issiqliq miqdori teng deb olinadi.  $Q_1 = Q_2$

Keyin aralashmaning temperurasini quyidagi tenglik orqali topiladi.

$$\begin{aligned} m_1 c(t - t_1) &= m_2 c(t_2 - t) \\ m_1(t - t_1) &= m_2(t_2 - t) \\ m_1 t - m_1 t_1 &= m_2 t_2 - m_2 t \\ m_1 t + m_2 t &= m_2 t_2 + m_1 t_1 \\ t(m_1 + m_2) &= m_2 t_2 + m_1 t_1 \\ t &= \frac{m_2 t_2 + m_1 t_1}{m_1 + m_2} \\ t &= \frac{0,1 \cdot 60^\circ + 0,15 \cdot 20^\circ}{0,1 + 0,15} = \frac{9}{0,25} = 36^\circ C \end{aligned}$$

Javob: 36°C.

Eksperimental masalalar yechishda talaba o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortadi, chunki tajribada olingen natijalar nazariy hisoblashlar bilan bir xil chiqadi.

**Grafik masalalar.** Ta’lim muassisalarida fizikani o‘qitishda grafiklardan foydalanish oddiy metodika emas. U matematika kursi bilan fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishni nazarda tutibgina qolmay, balki nazariy hisob kitoblarda grafik metoddan oqilona va keng foydalanadigan fizika kursini o‘zlashtirish uchun bilim va ko‘nikma bazasini yaratadi.

Molekulyar fizika bo‘limiga oid grafik ko‘rinishdagi masalalarni yechish va grafiklarni chizishni ko‘rib chiqaylik. Bu jarayonda molekulyar hodisalar va ularning fizikaviy qonunlari grafiklar orqali tushuniladi. Quyida bu jarayonning asosiy jihatlari keltirigan.

### 1. Molekulyar fizika va grafiklar.

Molekulyar fizika, asosan, moddaning molekulalari va atomlarining xatti-harakatlarini o‘rganadi. Bu bo‘limda grafiklar ko‘pincha:

- Energiya (potensial va kinetik energiya)
- Temperatura va bosim o‘rtasidagi bog‘lanish
- Molekulalarning tezliklar bo‘yicha taqsimoti (masalan, Maksvell-Bolsman taqsimoti)  
kabi parametrlarni ifodalashda ishlataladi.

### 2. Grafiklarni chizish.

#### a. O‘lchovlar

**Koordinata va o‘lchovlar:** Koordinatalarni belgilashda qanday fizik kattaliklar ko‘rsatilishi aniqlanadi. Masalan, y - o‘qida bosim, x - o‘qda esa hajm.

#### b. Masshtab

**Masshtab tanlash:** Grafik chizishdan oldin, masshtab tanlanadi, bu ma’lumotlarning aniq aks etishini ta’minlaydi.

#### c. Nuqtalarni joylashtirish

Har bir ma’lumot nuqtasini grafikda to‘g‘ri joylashtirishga e’tibor beriladi.

### 3. Masalalarni yechish.

#### a. Molekulyar kinetik nazariya

**Formulalar:** Molekulyar kinetik nazariyaga asoslangan formulalarni (masalan, ideal gaz qonunlari) qo’llash mumkin.

**Grafiklar:** Gazning bosimi va hajmi o‘rtasidagi bog‘lanish (PV grafiklari) yoki temperatura va energiya o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadigan grafiklar chizish mumkin.

**b. Molekulalarning tezliklar bo‘yicha taqsimoti**

**Maksvell-Bolsman taqsimoti:** Molekulalar tezliklarining taqsimotini ko‘rsatadigan grafik chizish mumkin. Bu grafik molekulalar tezliklarining umumiy taqsimotini tasvirlaydi.

Molekulalarning tezliklar bo‘yicha Maksvell taqsimoti tenglamasini chiqarishda molekulalararo to‘qnashuvlar mutlaqo inobatga olinmaydi, holbuki to‘qnashuvlar molekulalarning tezliklariga, ya’ni ularning tezliklar bo‘yicha taqsimlanishiga ta’sir ko‘rsatmay iloji yo‘q. Aslida esa ana shu to‘qnashuvlar tufayligina tezliklar bo‘yicha Maksvell taqsimoti yuzaga keladi.[6]

**c. Energiya grafigi**

**Potensial energiya va kinetik energiya grafiklari:** Har bir molekuladagi energiya o‘zgarishini ko‘rsatadigan grafikdir. Masalan, molekulalarning to‘qnashuvi natijasida energiya qanday o‘zgarishini ko‘rsatish mumkin.

**4. Misol.**

Ideal gazning bosimi va hajmi o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatuvchi grafik chizaylik.

**Yechish jarayoni:**

Ideal gaz qonunidan foydalanamiz:

$$PV = \frac{m}{\mu} RT$$

O‘lchovlar: X - o‘qda hajm (V), Y - o‘qda bosim (P).

**Grafikni chizish:** Har xil hajm uchun bosimni hisoblaymiz va nuqtalarni grafikda joylashtiramiz.


**Natijani tahlil qilish:** Grafikdagi tendensiyalarni aniqlamiz.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalar asrida fizikadan grafik masalalarni yechish va masalalarning grafiklarini chizishda bir qator kompyuter dasturlaridan foydalanishimiz mumkin. Fizik masalalarni yechishda kompyuter dasturlaridan foydalanish murakkab masalalar yechishda hisob-kitoblarni avtomatlashtirishga yordam beradi. Agar grafikli masalalarni yechishda “Mathcad15”, Python (NumPy, SciPy, Matplotlib), Matlab dasturidan foydalanilsa grafiklarni bir vaqning o‘zida bir nechta kattaliklarni absissa va ordinata o‘qlariga joylashtirib bir tekislikda barcha chizmalarni hosil qilish imkononi beradi.

**5. Natijalar va xulosasi.**

Grafiklar yordamida molekulyar fizikaning asosiy qonunlarini, jarayonlarini va munosabatlarini yaxshiroq tushunish mumkin. Har bir grafikda ko‘rsatilgan ma’lumotlar asosida izlanish va tahlil qilish jarayoni aniq va muhim ahamiyatga ega.

**5-masala:** Massasi o‘zgarmas bir atomli ideal gaz birinchi holatdan ikkinchi holatga o‘tdi (1-rasm). Bunda gazning ichki energiyasi qanday o‘zgaradi? Gazning boshlang‘ich bosimi  $P_0 = 150\text{kPa}$  va hajmi  $V_0 = 4l$  .[7]



**1-rasm.**

Yechilishi: Bu masalani yechishda bir atomli ideal gazning ichki energiya tenglamasidan foydalanamiz.  $U_0 = \frac{3}{2}P_0V_0$ . Bu masalada ichki energiyaning o‘zgarishi niqlaymiz  $\Delta U = ?$

Bu yerda  $U_1 = \frac{3}{2}2P_0V_0$  -ga teng.  $U_1 = \frac{3}{2}P_03V_0$  -ga teng. Ichki energiyaning o‘zgarishi  $\Delta U = U_2 - U_1$  - ga teng.

$$U_0 = \frac{3 \cdot 1,5 \cdot 10^5 \cdot 4 \cdot 10^{-3}}{2} = 9 \cdot 10^2 J.$$

Birinchi holatdagi ichki energiyani topamiz.

$$U_1 = \frac{3 \cdot 2 \cdot 1,5 \cdot 10^5 \cdot 4 \cdot 10^{-3}}{2} = 18 \cdot 10^2 J.$$

Ikkinci holatdagi ichki energiyani topamiz.

$$U_2 = \frac{3 \cdot 1,5 \cdot 10^5 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 10^{-3}}{2} = 27 \cdot 10^2 J.$$

Ichki energiyaning o‘zgarishi esa

$$\Delta U = 27 \cdot 10^2 J - 18 \cdot 10^2 J = 9 \cdot 10^2 J.$$

Endi esa ichki energiyaning birligini keltirib chiqaramiz:  $[U] = \frac{N}{m^2} \cdot m^3 = N \cdot m = J$

**Muhokama.** Molekulyar fizika sohasida masalalarning yechilish usullarini tasniflash, nazariy va amaliy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega. Analitik usullar oddiy tizimlar uchun qulay bo‘lsa-da, murakkab tizimlar uchun ko‘proq raqamli va simulyatsiya usullari qo‘llaniladi. Masalan, molekulyar dinamik modellashtirish orqali molekulalarning harakatini batafsil kuzatish imkoniyati mayjud. Shuningdek, eksperimental usullar real fizik jarayonlarni o‘lchashda va nazariy natijalarini tasdiqlashda ahamiyatlidir. Har bir usulning o‘ziga xos afzalliklari va cheklovlar bor, bu esa masalalarni yechish jarayonida ularni bir-biriga bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

Molekulyar fizika tadqiqotlarida usullarni birlashtirish, masalan, eksperimental va raqamli ma‘lumotlarni birlashtirib, yanada to‘g‘ri natijalar olishga yordam beradi. Ushbu yondashuv, kelajakda yangi nazariyalar yaratish va mavjudlarini takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, ushbu tasniflash orqali talabalar va tadqiqotchilar o‘z ilmiy faoliyatlarida to‘g‘ri metodlarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa molekulyar fizikaning rivojlanishiga va yangi kashfiyotlarga olib kelishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu maqolada fizikadagi masalalarning yechilish usullarini molekulyar fizika bo‘limida tasniflash orqali ko‘rib chiqildi. Molekulyar fizika, atomlar va molekulalar o‘rtasidagi o‘zarotasiirlarni o‘rganish bilan birga, turli fizik jarayonlarning mexanikasini tushunish uchun muhim vosita hisoblanadi. Masalalarni yechish usullarining to‘g‘ri tanlanishi, tadqiqotlarning muvaffaqiyati va natijalarining ishonchlilagini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Analitik usullar oddiy tizimlar uchun samarali bo‘lib, nazariy modelлarni qabul qilishda yordam beradi. Biroq murakkab tizimlar uchun raqamli va simulyatsiya usullari zarur. Molekulyar dinamik modellashtirish va simulyatsiya metodlari, masalalarni yanada chuquarroq tushunishga va eksperimental natijalarini tasdiqlashga imkon beradi. Eksperimental usullar esa real fizik jarayonlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘lchash orqali nazariyalarini kuchaytiradi.

Ushbu tadqiqotlar, talabalar va tadqiqotchilar uchun har bir usulning afzalliklari va cheklovlarini aniqlashda yordam beradi. Masalalarni yechish usullarining tasniflanishi, fizikada ilmiy fikrni rivojlantirish va yangi yondashuvlar yaratishda muhim ahamiyatga ega. Kelajakda, molekulyar fizika sohasida yangi usullarni ishlab chiqish va mavjud metodlarni takomillashtirish, bu ilmiy tadqiqotlarning yanada rivojlanishiga olib kelishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, ushbu maqola fizikadagi masalalarning yechilish usullarini o‘rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish jarayonida foydali resurs bo‘lishi mumkin. Umumiyy hisobda, fizikada masalalarni yechish jarayonini yanada samarali va keng qamrovli qilish uchun yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatdi.

### Adabiyotlar:

1. Xolmuradova Z.R. et al. Molekular fizikaning invariant va variativ komponentlarini takomillashtirishga oid masalalar yechish metodikasi //SCHOLAR. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 111-118.
2. Kurbanov M., Jo‘rayev F. Fizikadan masalalar yechishda analitik va sintetik metodlarning qo‘llanilishi //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 5. – С. 16-23.
3. Миронова Г.А., Брандт Н.Н., Васильева О.Н., Салецкий А.М. Молекулярная физика и термодинамика. Методика решения задач / Учебное пособие. 2-е изд., перераб. и доп. (1-е изд. 2011 г.) — М.: Физический факультет МГУ, 2016. 416 с. ISBN 978-5-9905983-1-7
4. Toshmurodov N. P., Esanboyev Dilshod Negboy o‘g‘li. Fizikada masalalarning yechilish usuliga ko‘ra tasniflanishi molekulyar fizika bo‘limi misolida //Science and Education. – 2024. – T. 5. – №. 3. – С. 225-230.

5. Toshmurodov N. P. et al. O‘rta ta’lim maktablarda fizika masalalarning yechilish usullari //Science and Education. – 2024. – Т. 5. – №. 4. – С. 283-290.
6. Kikoin A.K., Kikoin I.K. Molekulyar fizika “O‘qituvchi” nashriyoti Toshkent – 1978 y
7. Habibullayev P., Boydedayev A., Bahromov A. va boshqalar “Fizika” Umum ta’lim maktablarining 9 - sinflari uchun darslik. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot uyi. Toshkent- 2019. 176-b
8. <https://zaochnik.ru/blog/zadachi-po-molekularnoj-fizike-primery-reshenij/>.
9. [https://exir.ru/other/chertov/examples/molekulyarnaya\\_fizika\\_termodinamika.htm](https://exir.ru/other/chertov/examples/molekulyarnaya_fizika_termodinamika.htm).

**FIZIKA FANIDAN LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI O‘TKAZISHDA  
INTERFAOL METODLARNING TALABALAR KASB MAHORATINI OSHIRISHDAGI O‘RNI**

*Ubaydullayeva Vazira Patchaxanovna,*

*Toshkent tibbiyat akademiyasi Biotibbiyat muhandisligi,*

*informatika va biofizika kafedrasi o‘qituvchisi*

*vaziraubaydullayeva1@gmail.com*

*Sobirjonov Abdusamad Zoxidovich,*

*Toshkent tibbiyat akademiyasi Biotibbiyat muhandisligi,*

*informatika va biofizika kafedrasi o‘qituvchisi*

*abdusamad.sobirjonov@gmail.com*

*G‘oyibnazarov Ro‘zimurod Baxtiyarovich,*

*Toshkent tibbiyat akademiyasi Biotibbiyat muhandisligi,*

*informatika va biofizika kafedrasi o‘qituvchisi*

*\_murodjon@mail.ru*

*Xodjayeva Diyora Zuxriddinovna,*

*Toshkent davlat stomatologiya instituti*

*Biofizika va tibbiyotda axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi*

*dbadalova@mail.ru*

*Ushbu maqolada tibbiyat oliy ta’lim muassasalarida fizikadan laboratoriya ishlarini tashkil etishning zamonaviy usullari va metodlari tadqiqq etilgan bo‘lib, amalda mashg‘ulotlarni interfaol usulda tashkil etish va o‘tkazish metodikasi ko‘rib chiqiladi. Maqolada kasbiy yo‘naltirilgan savollar va muammoli topshiriqlar ham o‘z aksini topgan.*

**Kalit so‘zlar:** interaktiv ta’lim, interfaol metod, ta’lim, amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari fizika, havoning namligi, absolyut, nisbiy namlik.

**РОЛЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ПРОВЕДЕНИЯ ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ  
ПО ФИЗИКЕ В ПОВЫШЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ**

*В данной статье рассматриваются современные методы и способы организации лабораторной работы в медицинских вузах, а также рассматривается методика проведения обучения в интерактивном режиме на практике. В статье также отражены профессионально ориентированные вопросы и проблемные задания.*

**Ключевые слова:** интерактивное обучение, интерактивный метод, обучение, практическое занятие, лабораторная работа, физика, влажность воздуха, абсолютная влажность, относительная влажность.

**THE ROLE OF INTERACTIVE METHODS OF CONDUCTING LABORATORY PHYSICS  
COURSES IN IMPROVING PROFESSIONAL SKILLS OF STUDENTS**

*This article discusses modern methods of organizing laboratory work in medical universities, and also discusses the methodology for conducting online training in practice. The article also reflects professionally oriented questions and problematic tasks.*


**Keywords:** interactive learning, interactive method, training, practical training, laboratory work, physics, air humidity, absolute, relative humidity.

**Kirish.** Tibbiyat oliy ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish talabalarning hayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatlarini umumlashtirish orqali fizikaviy bilimlarni amalda qo‘llay olish kompetensiasini rivojlantrishdan iborat. Tibbiyat oliy ta’limi muassasalarida fizika fanini o‘qitishning asosiy maqsadi - fizika ta’limining tibbiyat texnika taraqqiyotida, kasbiy faoliyatida tutgan o‘rnii haqida mantiqiy fikrlay olish qobiliyati, o‘zini - o‘zi anglash salohiyatini tarkib toptirish, ijtimoiy hamda kundalik hayotlarida foydalanishga o‘rgatish, fizik bilimlarni kasbi-koriga tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantrishdan iborat. Fizika qonunlarini bilish orqali tirik organizmda qancha jarayonlar sodir bo‘lishini

tushunish mumkin, Ayniqsa, tibbiyat sohasida fizika insonlar salomatligi uchun katta rol o‘ynaydi, jumladan, fizikaning barcha asosiy qonunlari tirik mavjudotlarga oson tafbiq etiladi.

Fizikadan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda o‘itishning interfaol usullaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi, chunki bunday metod talabalarning o‘zaro va o‘qituvchi bilan hamkorligiga asoslangan bo‘lib, o‘qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil ravishda o‘quv-uslubiy materiallarni o‘zlashtiradi, izlanuvchanlik qobiliyati ortadi, natijada barcha *talabalar* tomonidan ijobil natijalarga erishiladi.

Har bir dars mashg‘uloti, mavzusining o‘ziga xos texnologiyasi bor, ya’ni o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. O‘qituvchi va talabaning maqsadi bo‘yicha natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlataligan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va



*I-rasm.*

plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo‘lar, bular o‘qituvchi va talabaga bog‘liq. Bundan tashqari o‘qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini, joy va sharoitini, mashg‘ulot uchun zarur bo‘lgan asbob-jihozlarni, asosiysi, talabaning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olish kerak, shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, talabani ta’limming markaziga olib chiqish kerak (1-rasm).

Quyida, biz, Fizika fanidan “*Assman psixrometri yordamida havoning namligini aniqlash, havo namligi ko‘rsatkichlarining organizmga ta’sirining fizik asoslarini o‘rganish*” mavzusida laboratoriya mashg‘ulotini tashkil etish va o‘tkazishda o‘qitishning interfaol usullarini qo‘llab, mazkur metodlar orqali talabaning kasb mahoratini oshirishdagi ilmiy-pedagogik asoslarini ko‘rib chiqamiz. Bunda pedagog-o‘qituvchi tayyorlarlikni labortoriya mashg‘ulotining texnologik xaritasini tuzib chiqishdan boshlaydi, chunki bunday xaritada dars jarayonining barcha qirralari o‘z aksini topadi.

### Asosiy qism.

#### **Assman psixrometri yordamida havoning namligini o‘rganish.**

**Ishdan maqsad:** Havo namligi ko‘rsatkichlarining organizmga ta’sirining fizik asoslarini o‘rganish.

**Kerakli asboblar:** Assman psixrometri, distillangan suvli idish va pipetka, aneroid barometr.

#### **Ishning nazariy asosi.**

Havoning namligi va bu namlikni o‘lchash. Tabiatda suvning qariyb hamma yerda bug‘lanishi natijasida atmosfera havosida, ayniqsa atmosferaning yer yuziga yaqin qatlamlari havosida suv bug‘i bo‘ladi. Bu hodisa *havoning namligi* deb ataladi. Havodagi suv bug‘ining miqdori ikkita asosiy kattalik: absolyut va nisbiy namlik bilan xarakterlanadi.

Havoning hajm birligidagi suv bug‘i massasi absolyut namlik deb ataladi va  $f$  bilan belgilanadi. Amalda absolyut namlik kub metrga to‘g‘ri keladigan grammalar soni ( $g/m^3$ ) bilan ifodalananadi. Meteorologiyada absolyut namlik havo tarkibida bo‘lgan va *mm. sim. ust.* da yoki Paskalda ifodalanaib, suv

bug‘ining partsial bosimi P bilan xarakterlanadi (boshqa gazlarni hisobga olmaganda suv bug‘ining o‘zini beradigan bosimiga *partsial bosim* deyiladi). Bu kattaliklar orasida son jihatidan quyidagi munosabat bo‘ladi:

$$f = \frac{289,4}{273+t} P,$$

bu yerda  $t$  — havo temperaturasi.  $t=15\div18^{\circ}\text{C}$  bo‘lganda  $f$  va P kattaliklar son jihatidan bir-biriga qariyb to‘g‘ri keladi.

Berilgan temperaturada  $1\text{m}^3$  havoni to‘yintiruvchi suv bug‘ining gramm hisobidagi massasi yoki, tegishlichka, ayni temperaturada to‘yingan bug‘ning partsial bosimi  $P_m$  maksimal namlik deb ataladi va  $f_m$  bilan belgilanadi.

$1\text{ m}^3$  havoni to‘yintiruvchi suv bug‘ining gramm hisobidagi massasi va, tegishlichka, bir qadar temperaturalarda bug‘ning partsial bosimi haqidagi jadvalda keltiril bilan tanishtiriladi.

Nisbiy namlik absolyut namlik  $f$  ning maksimal namlik  $f_m$  ga nisbati bilan o‘lchanadi va odatda,

$$\text{protsent bilan ifodalanadi: } D = \frac{f}{f_m} \cdot 100\%$$

$$\text{Yoki partsial bosim orqali } D = \frac{P}{P_m} \cdot 100\% \text{ bo‘ladi.}$$

Nisbiy namlik D ayni sharoitda havoning namligi (absolyut namligi) xuddi o‘sha temperaturadagi maksimal namligiga qanchalik yaqin kelishini bildiradi. Nisbiy namlik havoning suv bug‘iga to‘yinish darajasini ko‘rsatadi deb aytish mumkin. Atrofdagi havoning nisbiy namligi qanchalik kichik bo‘lsa, ayni sharoitda suv shunchalik tez bug‘lanadi va aksincha, atrofdagi havoning nisbiy namligi qanchalik katta bo‘lsa, ayni sharoitda suv shunchalik sekin bug‘lanadi.

Havoning namligi organizmnning hayot faoliyati uchun katta ahamiyatga ega, chunki u atrofdagi muhitga issiqqlik berilishini ko‘p daraja taqozo qiladi. Bunda havoning absolyut namligi ham, nisbiy namligi ham ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, teri sirtidan suvning bug‘lanishi havoning nisbiy namligiga bog‘liq bo‘ladi; o‘pkaning suvni bug‘latishini ko‘rib chiqishda havoning absolyut namligini hisobga olish kerak, chunki o‘pkadan  $30^{\circ}\text{C}$  chamasi temperaturada bug‘ga butunlay deyarli to‘yingan havo chiqariladi. O‘pkada havoning to‘yinishi uchun zarur bo‘lgan havo miqdori, aftidan, nafas olganda kiradigan havoning absolyut namligiga bog‘liq bo‘ladi. Nisbiy namligi 40% dan 60% gacha bo‘lgan atmosfera odam hayoti uchun normal hisoblanadi. Havoning absolyut namligini ham, nisbiy namligini ham bilish uchun bu kattaliklardan faqat birini aniqlashning o‘zi kifoya, chunki havoning ikkinchi kattalikka o‘tish uchun zarur bo‘lgan maksimal namligi berilgan temperaturaga qarab yuqorida keltirilgan jadvaldan topiladi. Havoning namligi uchun *shudring nuqtasi* deb ataladigan temperatura ham muhimdir. *Havo tarkibidagi bug‘ to‘yingan holatga erishadigan temperatura* yoki, boshqacha aytganda, havoning maksimal namligi ayni sharoitda absolyut namligiga son jihatidan teng bo‘ladigan temperatura *shudring nuqtasi* deb ataladi. Temperatura shudring nuqtasidan pasaygan bug‘ kondensatlana boshlaydi. O‘zining suyuqligi bilan dinamik muvozanatda bo‘lgan bug‘ga to‘yingan bug‘ deyiladi. To‘yinmagan bug‘da esa suyuqlik miqdori bug‘ga nisbatan katta bo‘ladi. To‘yinmagan bug‘ ni o‘zgarmas bosimda sovutish natijasida to‘yingan bug‘ hosil bo‘ladi. To‘yingan bug‘ga o‘tish va kondensatsiya boshlanish nuqtasidagi suv bug‘ining temperaturasiga shudring nuqtasi deyiladi.


Shuni ta’kidlab o‘tamizki, atmosferada biror mayda zarrachalar yoki elektr zaryadlari (chang zarrachalari, elektronlar, gaz ionlari va shu kabilar) bo‘lsa, bug‘ning kondensatlanishi osonlashadi. Bu zarrachalarga suv molekulalari o‘tiradi va juda mayda tuman tomchilari hosil bo‘ladi. Absolyut toza havoda bug‘ning kondensatlanishi qiyinlashadi, bunda temperatura shudring nuqtasidan ancha past bo‘lgandagina bug‘ kondensatlanishi mumkin.

### Namlikni aniqlash usullari.

Namlikni aniqlashning bir necha hil usullari mavjud bo‘lib, quyida ular hqida berilgan:

Havoning absolyut namligi shu havodagi bug‘ni yuttirish va uning massasini o‘lchash yo‘li bilan bevosita aniqlanishi mumkin. Buning uchun muayyan hajmi yuqori gigroskopik modda, masalan kalsiy xlorid bilan to‘ldirilgan U simon naylar sistemasi N orqali so‘riladi. Bu maqsad uchun ma’lum hajmli butyl B dan foydalanish qulay, butyl B oldindan suv bilan To‘ldirilib olinadi, so‘ngra suv kran K orqali chiqariladi va uning o‘rniga havo so‘riladi. Naylar tajribadan oldin va tajriba o‘tkazilgandan keyin tortib ko‘rilib, moddaga shamilgan bug‘ massasi va demak, havoning ayni hajmidagi bug‘ massasi aniqlanadi.


Havoning namligi gigrometr va psixrometr degan asboblar yordami bilan ham aniqlanishi mumkin. Eng oddiy tuzilgani qilli (soch) gigrometridir (1-rasm).



1-rasm.

Bu asbob yog’sizlantirilgan qillar tutami S dan iborat. Qillar gigroskopik bo’ladi: qilning qobig’ida mikroskopik bo’shlqlar bo’lib, bu bo’shlqlarga namlik adsobsiyalanadi. Bunda qil ma’lum kattalikka uzayadi, qilning uzayish kattaligi esa atrofdagi havoning nisbiy namligiga bog’liq bo’ladi. Qilar tutami uzunligining o’zgarishi blok orqali asbobning C strelkasiga beriladi. Asbob tajriba asosida darajalarga bo’linadi.


Gigrograf ham ana shu prinspda tuzilgan. Gigrograf xonadagi havo nisbiy namligining o’zigarishi egrini chizig’ini harakatlantirib turuvchi lentaga uzlusiz ravishda yozib boruvchi asboddir (2-rasm). 2-rasmdagi belgilar quyidagilarni ko’rsatadi: S-qillar tutami, R-richag, S-strelka, M-soat mexanizmli baraban.



2-rasm.

Havoning absolyut namligini kondesatsion gigrometr yordami bilan aniqlash mumkin, bu asbob yordamida havoning ayni namligida shudring nuqtasi topiladi. Kondetsatsion gigrometr 3-rasm) 1. Metal quticha (rezervuar), 2. yaltiratilgan devor, 3. Silliqlangan halqa, 4. issiqlikdan himoyalovchi qatlam, 5. Noksimon rezina va 6. Termometrdan iborat bo’lib, rezervuarga termometr joylashtiriladi va ozroq miqdor efir quyiladi. Noksimon rezina yordamida efir orqali havo oqimi o’tkaziladi. Efir bug’lanadi, natijada rezervuar devorlarining temperaturasi

pasayadi. Shudring nuqtasiga erishilgandan keyin rezervuarning oldingi devorida havodagi bug’ kondensatsiyalanadi (rezurvar devoir terlaydi). Tegishli temperatura termometrga qarab aniqlanadi. Ana shu temperaturagato’g’ri keladigan maksimal namlik berilgan jadvaldan topiladi, maksimal ayni holda atrofdagi havoning absolyut namligiga son jihatdan teng. Natijalar psixrometrik jadval asosida qarab topiladi va hisoblab chiqiladi.



3-rasm.

Havoning namligini aniqlash uchun eng ko’p tarqalgan asbob Avgust psixrometridir. Bu asbob bir xil ikkita A va B termometrdan iborat; bu termometrlardan birining rezervuari gigroskopik to’qima bilan o’ralgan, to’qimaning bir uchi esa suvli idish R ga tushirilgan. To’qima kapilliyar bo’lgani uchun 4.suv to’qima bo’ylab ko’tariladi va termometr sharchasining sirtida bug’lanib, uni sovitadi. Nam termometrning ko’rsatishlari quruq termometrniga qaraganda pasayadi. Termometrning rezervuarida suvning Bug’lanish tezligi qancha katta bo’lsa, bu pasayish ham shuncha kuchli bo’ladi. Bug’lanish tezligi asosan atrofdagi havo namligining to’yinishdan qanchalik uzoq ekanligiga bog’liq, ya’ni atrofdagi havoning nisbiy namligi qanchalik past bo’lsa, Bug’lanish tezligi shunchalik yuqori bo’ladi.

Bug’lanish tezligi asbob oldida havoning harakatlanish tezligiga, suvning temperaturasiga va barometrik bosimiga ham bog’liq.

Bu faktorning hammasi Renyuning psixrometrik formulasida hisobga olinadi, bu formuladan foydalanib, asbob atrofdagi havoda bo’lgan bug’larning parsial bosimini, ya’ni havoning absolyut namligini aniqlash mumkin:

$$P = P_n - k \cdot (t - t') \cdot H$$

bu yerda  $P_n$  – nam termometrning temperaturasi  $t'$  bo’lganda, to’yingan bug’ning elastikligi (ilovadagi 6-jadvaldan olinadi),  $k$  (ayrim manbalarda  $\alpha$  deb berilgan) – havoning harakat tezligiga bog’liq bo’lgan psixrometrik koefitsient (havosi nisbatan harakatsiz kichik xonalar uchun  $k=0,0013$ , havosi ozroq harakatlanib turadigan katta xonalar uchun  $k=0,001$ ),  $t$  – quruq termometrning temperaturasi,  $H$  – barometrik bosim.

Psixrometr yordamida, odatda birdaniga nisbiy namlik topiladi, bunday namlik, maxsus hisoblab qo‘yilgan psixrometrik jadvaldan foydalaniб, quruq van am termometrlarning ko‘rsatishlarini bir-biriga taqqoslash yo‘li bilan topiladi. Psixrometrik jadval quyida keltirilgan.



Bu amaliy ishda namlik Assman psixrometri bilan topiladi. Assman asbobi 2 ta nikellangan naydan iborat bo‘lib, nayning ichiga joylashtirilgan termometrlarni tashqi nurlanish energiyasi ta’sirida isitishdan saqlaydi. Termometrlardan biri quruq bo‘lib, u atrofdagi havo temperaturasini o‘lchaydi. Ikkinchisining sharchasi namlangan yupqa batist bilan o‘ralgan. Ho‘l batistli termometr joylashgan nayda havo oqimi hosil qilinsa, batistni bug‘lanish tezligi ortadi. Havo qanchalik quruq bo‘lsa, batist shunchalik ko‘p bug‘lanadi. Ma’lum tezlikdagi havoni termometrga yuborilganda, atmosferadagi havo qanchalik quruq bo‘lsa, termometrdagi nam batist shuncha ko‘p bug‘lanadi. Bug‘lanish bilan birga batist soviydi. Bunda ho‘llangan termometrning ko‘rsatishi ham pasayadi. Suvni bug‘latish uchun ketgan energiya atrofdagi havodan termometr sharchasiga keluvchi issiqlik miqdoriga teng bo‘lib qolganda termometrni pasayishi to‘xtaydi. Bug‘lanish rejimi barqaror bo‘lganda ho‘l termometrning ko‘rsatishi qaror topadi, o‘sha vaqtida tashqaridan kelayotgan  $Q_1$  issiqlik miqdori termometr sirtidan suvning bug‘lanishiga ketadigan issiqlik miqdori  $Q_2$  ga teng bo‘ladi.  $Q_1=Q_2$  Nyuton qonuniga asosan:  $Q_1=BCS(t_1-t_0)$ , bunda: B – havoning harakat tezligi funkiyasi. C – suvning solishtirma issiqlik sig‘imi. S – ho‘llangan termometr sharchasining sirt yuzasi.  $t_1$  – quruq,  $t_0$  – esa ho‘l termometrlarning temperaturasi. Sarflangan issiqlik miqdori  $Q_2$  havoni to‘ytiruvchi suv bug‘ining elastikligi – E ga, absolyut namlik – l ga, bug‘ning solishtirma issiqligi –  $\sigma$  ga, atmosfera bosimi H termometr sharchasining yuzasi – S larga bog‘liq, ya’ni :

$$Q_2 = \frac{AS\sigma(E-l)}{H} \quad Q_1=Q_2 \text{ bo‘lgani uchun} \quad BCS(t_1-t_0)=\frac{AS\sigma(E-l)}{H}$$

Yuqoridagi ifodadan :  $E-l=\frac{BC}{A\sigma}(t_1-t_0)H$  hisoblab topiladi.

Bu yerda  $\alpha=\frac{B\cdot C}{A\cdot \sigma}$  psixrometr doimiysi deladi. Formulaning umumiy ko‘rinishi quydagicha o‘zigaradi :

$$l=E-\alpha(t_1-t_0)H \quad (2)$$

(2) formula psixrometrik formula yoki **Renyu formulasi** deyladi.

Natijalar olingandan so‘ng (2) formuladan absolyut namlikni,  $f=\frac{l}{E}\cdot 100\%$  formuladan esa nisbiy namlik topamiladi.


#### Vazifalar:

1. Ho‘l termometr rezervuaridagi batistga suv tomizib ho‘llang.
2. Kalitni asta burab ventilatorni ishga tushiring.
3. 2-3 minutdan keyin quruq va ho‘l termometr ko‘rsatishini yozing.
4. Tajribani 3 marta xonada, 3 marta yo‘lakda bajaring va olingan natijalarni jadvalga yozing.
5. 4. Barometrdan, atmosfera bosimi – H ni yozib oling,  $\alpha$ ; E larni amaliy ish uchun berilgan jadvaldan yozing.

3	№	Termometrlar ko‘rsatishi		H, mm. sim.ust	E, mm. sim.ust	$\alpha$ , $K^{-1}$	Absolyut namlik		Nisbiy namlik	
		quruq	ho‘l				$l$ , mm.Hg	$\Delta l$ , mm.Hg	$f, \%$	$\Delta f, \%$
Xonada	1									
	2									
	3									
O‘rtacha qiyamat										
Yo‘lakda	1									
	2									
	3									
O‘rtacha qiyamat										

**Muhokama.** O’tilgan mashg’ulotni o‘qitishning interfaol metodlaridan **T – sxemasi** ta’lim strategiyasi yordamida mustahkamlab olinadi. Ushbu metod guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Bunda o‘qituvchi tomonidan kichik guruhlarga T – sxemasi uchun ekspert varag‘i tarqatiladi, vaqt belgilanadi. Berilgan vaqt ichida tarqatilgan varaqdagi masalalar yechimi topiladi. O‘qituvchi kichik guruh ishini baholaydi, izohlaydi, kamchiliklarini to‘g‘rilaydi. **T – sxemasi** ta’lim strategiyasi mashg’ulotni mustahkamlash qismida shunisi bilan ma’qul keladi-ki, butun mavzu kichik guruhlarga taqsimlanadi, natijada mavzu to‘liq takrorlanadi, qisqa vaqt ichida barcha talabalar baholanadi (**I-ilova**), bunda talabada o‘z-o‘zini baholash imkon bo‘ladi.

(1-ilova).



**Uyga topshiriq sifatida quyidagi mazmunda savollari beriladi:** Bunda Havo namligi uning fizikaviy asoslari, bu namlikning odam organizmiga ta’siri kabi savollar bilan bir qatorda, Atmosferadagi namlikni bilish muhimmi ?, Sun’iy matolardan tikilgan kiyimda odam organizmi biroz qiziydi, sababini nima?, Odam butun tanasida ko‘plab pora (teshikcha)lar mayjud, ular orqali bug‘lanib turamiz. Bu jarayonga atmosfera namligining ta’siri bormi?, Qadimda bobo-momolarimiz idish-qovoqdan sut mahsulotlarini saqlashda foydalanishgan. Bunda qovoqning qanday xususiyati bor? Ilmiy asoslang. Shu kabi savollar talabaning mantiqiy fikrlashini oshiradi, bo‘lajak kasb egasining ixtisoslik fanini puxta o‘zlashtirishiga, ijod etish va *izlanishga*, mustaqil *fikrlashga* mutaxassislik fanlari va ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga, va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarni kuchaytiradi.

**Mustaqil topshiriq sifatida “ Bug‘lanish” to‘g‘risida bilimlarni “SWOT - TAHLIL”** strategiyasi yordamida chuqurlashtirish mumkin. Ushbu strategiya muammoning asosiy to‘rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. o‘quvchilar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o‘rganish orqali mohiyatni yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi (2-ilova).


“**SWOT - TAHLIL**” STRATEGIYASI uchun Tayanch iboralar: Bug‘lanishning foydali va zararli tamonlari. Ichimlik suvi va dehqonchilikda suvdan oqilona foydalanish. Suv bug‘ining global isishdagi roli. Shudring tushishi. Tuman, bulut va qor, qurovning hosil bo‘lishi. Do‘lga qarshi kurash. Sovuq tushishini oldin ayтиб berish va undan himoyalanish. Havoning namligini o‘lchash. **Havo namligining jonli organizmlar yashashidagi o‘rni.** Atmosferada kondensatsiya. Atmosferadagi zaharli moddalarning yog‘in - sochin bilan yuvilib tushishi, qurg‘oqchilik va toshqinlarning sodir bo‘lishi. Yer sharida suv balansi. Suvni ifloslantirmaslik va uni tozalash. Suvdan oqilona foydalanish madaniyatni.

(1-ilova).

**U yordamida muammoning quyidagi to‘rt jihatni tahlil qilinadi:**



Mashg‘ulotlarda strategiyani qo‘llash tartibi quyidagicha bo‘lib, ba’zi holatlarda strategiyani qo‘llashda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarish ehtimoli ham mavjud :



**Xulosa.** Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, babs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Shuning uchun oliv ta’lim maskanlari malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o‘qitish metodlarning o‘rnini benihoya kattadir. Bunday pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi, deb xulosaga keldik.

#### Adabiyotlar:

1. Bazarbayev M.I., Ubaydullayeva V.P. Fizikadan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish // O‘quv qo‘llanama. Tibbiyot Nashriyoti Matbaa Uyi “Mchj.T-2024, B-7-8.
2. Ubaydullayeva V.P. Fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlari // O‘quv qo‘llanama. B-5-6.
3. Убайдуллаева В.П., Мавлянов А. Физика фанини ўқитишида педагогик технологияларнинг ўзига хос хусусиятлари. // UzACADEMIA. 32-сон -2022. Б-35-43.
4. Abdujabbarova U.M., Ubaydullayeva V.P., Sobirjonov A.Z. Features of teaching physics at the medical university. // Замонавий тиббий олий таълим: ТДСИ 2022. -Б-95-98.
5. Shayusupova A.A., Ermetov E.Y., Makhsudov V.G., Ubaydullaeva V.P., Abdullaeva Sh.I. Pedagogical Creativity And Its OwnFeatures. // Webology Center <http://www.webology.org> Volume 19, Number 1, 2022- P-6609-6613.

## MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MATEMATIK O‘YINLARNING SHAKLLARI, METODLARI VA METODIKASI

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li,

Urganch davlat pedagogika instituti

“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti v.b.,  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

sh.xudayberganov.urdu@mail.ru

Abdullayeva O‘g‘iloy Abdirahman qizi,

Urganch davlat pedagogika instituti

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

*Ushbu maqolada maktabgacha ta’limda matematik tasavvurlarni shakllantirishga doir matematik o‘yin turlari, shuningdek, o‘yinlarni tashkil etish va ularni qo‘llash vositalari va ulardan foydalana olish; miqdoriy munosabatlar, predmetlar, miqdor haqidagi tushunchalarni aniqlashtirishga doir shuningdek, vaqt tasavvurlarni mustahkamlashga doir o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish metodlari va metodikasi bayonoti haqida tushunchalar keltirib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** ta’lim tizimi, kreativlik, o‘yin, didaktik o‘yinlar, ko‘rgazmali materiallar, amaliy metod, akseleratsiya.

## ФОРМЫ, МЕТОДЫ И МЕТОДИКА ПРОВЕДЕНИЯ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ИГР В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

*В данной статье рассмотрены виды математических игр по формированию математических представлений в дошкольном образовании, а также средства организации игр и их применения, умение ими пользоваться; Даны концепции игр для уточнения понятий о количественных отношениях, предметах, количестве, способы организации и проведения игр для укрепления воображения времени, изложение методики.*

**Ключевые слова:** образовательная система, творчество, игра, дидактические игры, наглядные материалы, практический метод, ускорение.

## FORMS, METHODS AND METHODOLOGY OF MATHEMATICAL GAMES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

*In this article, the types of mathematical games on the formation of mathematical ideas in preschool education, as well as the means of organizing games and their application, and being able to use them; Concepts of games for clarifying concepts of quantitative relationships, objects, quantity, methods of organizing and conducting games for strengthening time imaginations, and a statement of methodology are given.*

**Keywords:** educational system, creativity, game, didactic games, visual materials, practical method, acceleration.

**Kirish.** Ma’lumki ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini bu maktabgacha ta’lim. Aynan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ilk hayotiy bilimlar, ta’lim tarbiya berila boshlaydi. Inson kundalik hayotida deyarli har kuni matematik masalalarga duch keladi: biror nima harid qilayotganda, biror joyga borayotganda va hokazo. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev aytganidek,-matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlili, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi...» Shuning uchun ham shaxs kamolotida, hayoti davomida matematikaning o‘rni beqiyosdir. Bolalarga ilk boshlang‘ich elementar matematik bilimlar ikkinchi kichik guruhdan boshlab o‘rgatila boshlanadi. Shu davrdan boshlab bolalar ilk matematik bilimlar bilan tanishadi. Bolalarga har qanday bilimlar o‘yin vositasida o‘rgatiladi. Chunki bola hayotini o‘yinsiz tasavvur etish qiyin. Tarbiyachi bolalarga ta’lim tarbiya berayotganda kreativlik bilan yondashishi, har xil vositalar, metodlar va o‘yinlardan foydalanishi lozim. Aks holda tarbiyachi bolalarmi mashg‘ulotga qiziqtira olmaydi. Zamонавиylar tarbiyachi uchun albatta kreativlik zarur.

**Kreativlik**-shaxsnинг муаммоли вазиатлардан тафаккури орқали, тақорланмас ў‘л билан чиқиб кетиш, унга ижодийлик билан юндаша олиш қобилиятидир, бир со‘з билан аytгандага ўнгилек яратишдир. Тарбијачи болаларга бирор нима о‘ргататогданда ўнгилек билан юндашибши, болалар діккәтни жалб қилиши лозим. Шунингдек болаларга математик билимларни о‘ргататогданда ко‘ргазмали виситалар, дидактика о‘йнлар хам зарур қосбланади. Математик билимлар болаларга, ular нимани билиб олганларни ва нимани уддасидан чиқа олишларини қосбага олган holda, аниқ система ва кетма-кетлікда берилishi зарур шу билан биргалықда тақориғи мешгүлолтар хам. Болалар һаракатли-ко‘рсатмали шаклда берилган о‘кув материалларини яхши о‘злаштиради. 5 юшга қадам о‘йған болаларни о‘қитишда, һар қандай та’лими мешгүлолта да дидактика о‘йнлардан көңи ғойдаланыш керак. Топшірілларни баяршы давомида тарбијачи болаларни о‘з һаракатларини (нима қылғанларини ва нима қандай қылғанларини, нағијада нима һосил бо‘лғанини) тушунтириб берішгә undaydi.

**Material va metodlar.** О‘йнлар ва қизиқарлы методлар орқали бола юнги билим, ко‘никмага ега бо‘лади, бoshlang‘ich билимлар олади. Idrok, diqqat, xotira, fikrlashni rivojlanishiga, ijodiy қобилиятларни rivojlantirishga imkoniyat beruvchi о‘йнлар, методлар ва ко‘rgazmali виситалар умуман, maktabgacha ta’lim tashkiloti болаларининг aqliy rivojlantirishiga qaratilgan. Tarbiyachi va ota-onalarning muhim vazifalaridan бирини болада maktabgacha yoshdan boshlab matematikaga qiziqishni rivojlantirishdan, boshlang‘ich қадам о‘yishlariga ko‘mak berishdan iborat. Matematik mazmundagi mantiqiy о‘йнлар болаларда билишга qiziqish, ijodikorlik қобилиятини, о‘qishga xohish va havasni oshiradi. Maktabgacha yoshdagи болалар учун о‘йнлар бу атрофдаги оламни билиш usulidir. Agar бола pedagogik jarayoniga to‘liq kirsa, u holda о‘йн tarbiya виситасидан iborat bo‘лади. O‘yinni tashkil etish va boshqarish оrқали tarbiyachi бола shaxsi rivojlanishining барча томонларига: *sezgisiga, ongiga, erkiga va xulqiga* to‘la ta’sir etadi. Shunday qilib, didaktik о‘йнлар - maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyat bo‘lib, unda бола атрофдаги hodisalarни chuqurroq va yorqinroq egallaydi va dunyoni bilди, maktabga tayyorlanadi. Tarbiyachi didaktik о‘yinni болаларни qiziqtirgan holatda tugallashi лозим, ya’ни болалар шу о‘yinni yana давом ettirish istagi билан qolsinlar. Bolalar birdaniga tushunchalar виситасида о‘ylamaydilar. Ularning tafakkuri ma’lum yoshgacha konkret bo‘lib tasavvurlar yordamida vujudga keladi, shuning учун биринчи navbatda болалар tasavvurini boyitish лозим. Tushunchani tarkib toptirishda shunga erishmoq kerakki, tushuncha bir xil miqdorlarning барча muhim bo‘limgan xossalarni tashlab turib, ularning asosiy xossalarni va belgilarini umumlashtirishini болалар яхши anglab olsin.

Masalan: “Uchburchak” tushunchasi-uchta burchagi va kesmalardan iborat uchta томони mayjudligini umumlashtiradi. Inson tafakkuri nutq билан, til билан узви bog‘liq bo‘lganligi sababli maktabgacha tarbiya yoshdagи болалар fikr yuritishning vujudga kelishi va rivojlanishi ularning matematik bilimi билан о‘lchanadi, шу sababli elementar matematika mashg‘ulotlari ikkinchi kichik guruhdan boshlab asosiy mashg‘ulot қосбланади. Elementar matematika mashg‘ulotlariда ко‘rgazmali һаракат, ко‘rgazmali-obrazli tafakkur о‘йн түрлари билан бевосита namoyon bo‘лади. Bolada paydo bo‘layotgan elementar tafakkur uning предмет ва jismlarga, о‘yinchoqlarga, buyumlarga nisbatan bildirilayotgan һаракатларida ko‘zga ташланади ва nutqida namoyon bo‘лади.

**Natijalar va ularning tahlili.** О‘йн maktabgacha yoshdagи болалarning asosiy faoliyatи қосбланади. Matematik о‘йн faoliyat сифатида matematik tasavvurlarni шакллантirish masalalarini muvaffaqiyatli hal etadi, chunki unda nafaqat о‘йн malakalari va ma’nolarining yuqori darajasiga erishishga, balki болаларни matematik bилиmlарни ва amaliy tajribasini sinab ko‘rishga, mashq qilishga imkon beradigan qoidalar ва masalalar ishtirok etadi. Sonlar va ular orasidagi munosabatlarni, vaqt va fazo haqidagi bilimlar, hamda ularning bilishi funksiyalari (xotira, tafakkur, nutq, fikrlash) о‘йн shaklida oson rivojlanadi va о‘zlaштирилади. Shu bilan birga боланинг shaxsi shakllanadi, eзгулик, mehribonlik, do’stlik, rostgo‘ylik, haqqoniylig, ziyraklik, iroda kabi axloqiy fazilatlar shakllanadi. O‘yining ijobjiy ta’siri va uning to‘g‘ri tashkil etilishi ko‘p jihatdan pedagogning shaxsiyatiga, uning о‘yinni to‘g‘ri yo‘naltira оlishiga, uning tarbiya виситаси сифатида ғойдалана олиш қобилиятiga bog‘liq. Har bir о‘йн боланинг kattalar билан, boshqa болалар билан muloqotini nazarda tutadi. Bu-hamkorlik maktabi, unda u о‘qiydi va tengdoshi muvafaqqiyatiga quvonadi va muvafaqqiyatsizliklarini boshidan o‘tkazadi. Bir-birining bilimlar, qiziqarli ma’lumotlar билан yaqinlashtiradi va ularning umumiyy qiziqishlarini aniqlab beradi. Bir-biriga do’stona munosabat, qo‘llab quvvatlash, о‘yplash va fantaziyaning quvonchli вазијати-bunday sharoitlarda о‘йнлар maktabgacha yoshdagи болалarning rivojlanishi учун ғойдали bo‘lib қосбланади.

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni шакллантirishda tarbiyachi о‘қитishning har xil usullari xususan amaliy, ko‘rsatmali, og‘zaki, о‘йн ва boshqa usullardan ғойдаланади. Tarbiyachi mashg‘ulot давомида usulni tanlashda bir qator omillar-mazkur bosqichda yechiladigan dastur masalaları, болалarning yosh va individual xususiyatlari, зарур didaktik виситалarning mavjudligi ва boshqalarni қосбага олиши керак. Elementar matematika mashg‘ulotlari yil давомида har bir guruhda alohida оlib boriladi. Yuqorida ta’kidlab о‘тганимиздек tarbiyachi mashg‘ulotga kreativlik билан yonashishi, har xil о‘йнлар ва metodlardan

foydanishi, bolalarni qiziqtira olishi lozim. Har bir guruh bolalari uchun elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda amaliy metod yetakchi metod hisoblanadi. Uning mohiyati bolalarning buyumlar yoki ularning o‘rnini bosuvchi narsalar (tasvirlar, grafik rasmlar, modellar va h. k.) bilan ishslashning jiddiy aniqlangan usullarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan amaliy faoliyatlarini tashkil qilishdan iborat. Matematik tasavvurlarni shakllantirishda amaliy usulning xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- aqliy faoliyat uchun asos bo‘ladigan har xil amaliy ishlarni bajarish;
- didaktik materiallardan keng foydalanish;
- didaktik materiallar bilan amaliy ishslash natijasi sifatida tasavvurlarning paydo bo‘lishi;
- eng elementar usulda sanash, o‘lchash va hisoblash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- turmushda, o‘yinda, mehnatda, ya’ni faoliyatning har xil turlarida shakllangan tasavvur va o‘zlashtirilgan harakatlardan keng foydalanish.

Matematik o‘yinlarning har xil turlari mavjud bo‘lib ulardan eng asosiyalarini ko‘rib o‘tamiz:

1. *Miqdoriy munosabatlarni mustahkamlashga doir o‘yinlar*. Qanday raqam qochdi? Juftini top?. Tartib bilan saflan?. Mo‘jizali xalta?. Kim tezroq? Sonni top?. Sonni ayt?. Qaysi qo‘lda qancha? Sana va xato qilma?. Teskari tartibda sana?. Qo‘shnilar?. Xonada nechta kishi yashaydi?.

2. *Predmetlar va miqdor haqidagi tushunchalarni aniqlashtirishga doir o‘yinlar*. Teskarisin ayt?. Bu nima, top? Kim ko‘p eslaydi?. Yechamiz, boylaysiz. qaysi balandroq?.

3. *Geometrik shakllar haqidagi tasavvurlarni kengaytirishga doir o‘yinlar*. Qaysi shakl yashirindi? Men aytganimdek bajar?. Predmetni ayt?. Shaklni yasa?. O‘tib ket, lekin yiqilma?. Shaklni top. Nima o‘zgardi? Menga chopib kel?. Naqshlar?. Transport?. Tez javob ber?. Chirolyi ro‘molcha?. Tartib o‘rnat?. Atrofqa qara?. Men aytgandek yoyib chiq? .

4. *Fazoda yo‘nalish olishni takomillashtirishga doir o‘yinlar*. Teskari. Nima, qayerda? O‘yinchoqni top. Qo‘ng‘iroq qayerda jaranglayapti? Qayer o‘ng, qayer chap? Bu nima, top? Soat. Men aytgan joyga tur. Rassomlar.

5. *Vaqt haqidagi tasavvurlarni mustahkamlashga doir o‘yinlar* Qolib ketgan so‘zni top. Kecha, bugun, ertaga. Tirik hafta. Bu qachon bo‘ladi? Qaysi so‘z to‘g‘ri keladi? O‘n ikki oy. Soat necha? Juftini top kabi o‘yinlarni misol keltirish mumkun. Bu kabi o‘yinlar bolalarni elementar matematik bilimlarni egallashga yordam beradi. Hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalari zamonida bolalarni qiziqtiruvchi turli xil matematik o‘yin shakllari mavjud, ular vositasida tarbiyachi imkoniyatlari cheksiz.

O‘yinda bolalar o‘zlarining ijtimoiy huquqlarini amalga oshirib, o‘yin qoidalarini bayon etishni va ularga rioya qilishga o‘rganadilar, ularning raqiblar tomonidan bajarilishini nazorat qiladilar, muloqot qiladilar, baxsli vaziyatlarda o‘z nuqtayi nazarini himoya qiladilar, boshqalar manfaatlarni hisobga oladilar, bir birlarini o‘zaro o‘rgatishga harakat qiladilar. O‘yin qoidalari qanchalik yaxshi tushuntirilishi o‘yin muvafaqqiyatini hal etadi va bolalarda qiziqishni oshiradi. Barcha bolalar o‘yin qoidalarni o‘rganib olganlariga ishonch hosil qilgach pedagog ularga o‘yinni mustaqil o‘ynashlarini taklif etadi. O‘yinni tanlashda u unchalik qiyin bo‘imasligi va unchalik ham oson bo‘imasligiga, bolalar Yoshi va xususiyatlarga e’tibor berish zarur; mana shunday holda o‘yin bolalarga quvonch va foyda keltiradi, bu esa albatta tarbiyachi mahoratidan kelib chiqadi. Quyida bir qancha o‘yin turlari keltirib o‘tilgan:

1. *Qanday raqam yo‘oldi?* **Jihozlar:** 0 dan 20 gacha raqamlar yozilgan qog‘ozchalar (har bir bola uchun). Bolalar juftlikda o‘ynaydilar. Pedagog har bir juftga sonlarni 0 dan 10 gacha tartib bilan joylashtirishni taklif etadi. Keyin bir bola ko‘zları yopiq holda son qatoridagi sonlarni joyini o‘zgartiradi. U ko‘zini ochib qatorda nima o‘zgarganini aytadi. Agar u topsa, yetakchiga aylanadi. O‘yin shu tarzda davom etadi. Murakkab varianti. Sonli qator o‘zgartiriladi, 10 dan 20 gacha sonlarni yoyish taklif etiladi. Bu o‘yinni tayyorlov yoki katta guruh tarbiyalanuvchilari bilan sonlarga doir mashg‘ulotlardan so‘ng o‘tkazish mumkin.

2. *Juftini top.* **Jihozlar:** Raqamlar yozilgan qog‘ozchalar va doiracha chizilgan qog‘ozchalar. Bolalar ikki jamoaga bo‘linadi. Har bir jamoada o‘zining stoli bor. Bir stolda raqamli qog‘ozchalar, ikkinchisida doirachali qog‘ozchalar qo‘yiladi. Bolalar xona bo‘ylab chopib, pedagog ishorasi bilan stoldan qog‘ozchalarni oladilar, o‘zining juftini topishga harakat qiladilar. Keyin hamma juftlar to‘g‘ri topilganligi tekshiriladi. Qog‘ozchalar joyiga qaytariladi va o‘yin yana davom ettiriladi. Bu o‘yin orqali bolalar ddiqqati rivojlanadi, tezlik talab qilinadi.

3. *“Kim biladi-sanoqni davom ettirsin” o‘yini Jihozlar:* to‘p. Bolalar doira bo‘ylab turadi. Pedagog doira markazida turadi. U to‘pni birorta bolaga tashlaydi va 20 gacha sonlardan birini aytadi. Bola to‘pni ushlab olib, uni orqaga qaytaradi va undan bitta katta sonni aytadi. Masalan, —O‘n bir,- deydi pedagog.||O‘n ikki||,-deydi bola va to‘pni orqaga qaytaradi va h.k. O‘yin tez sur’atda davom ettiriladi.

4. *“Sana va xato qilma”o‘yini.* Bolalar yarim doira shaklida turadilar. Sanash bilan yetakchini tanlaydilar. Hamma ko‘zlarini yopadilar. Bu paytda yetakchi bir necha marta qarsak chaladi. Bolalar ko‘zlarini ochib, uning harakatlarini takrorlaydilar va nima uchun bunday qilganliklarini tushuntiradilar.

Yangi yetakchini tanlaydilar. O‘yin takrorlanadi. Murakkab varianti yetakchi bolalar eshitganlaridan bir marta ko‘p (yoki kam) qarsak chalib topshiriqni bajarishni taklif etishi mumkin.


Hozirgi zamonda yosh avlodda akseleratsiyalashuv jadallahmoqda. **Akseleratsiya** (lotincha, acceleratio-tezlashish) (biologiyada)-embrion (pusht) rivojlanishining ma’lum bosqichlarida uning ayrim a’zolari shakllanishining tezlashuvi. Yani bolalar dunyoqarashi, aqliy salohiyati yildan yilga oldinlab bormoqda. Masalan oldinlari maktabgacha yoshdagি bolalar uchun 20 gacha sanash bu yaxshi natija bo‘lsa, hozirgi kunda bu kichik yoshdagи bolalar uchun ham eng oddiy norma bo‘lib qolgan. Shu sababli davlat talablar, davlat standartiga har yili yangi o‘zgartirishlar kiritilmoqda. Bolalar uchun mashg‘ulot davomida o‘yinning har xil turlarini qo‘llash ta’lim tarbiya sifatini oshiradi.

Biz sizning e’tiboringizga *Miqdoriy munosabatlarni mustahkamlashga doir* o‘yin sifatida kiritilgan “**Raqamlarni toping!**” didaktik o‘yinini qisqacha mazmuda mashg‘ulotda foydalanish jarayonini ko‘rsatib o‘tishga harakat qilamiz.

**Mashg‘ulot maqsadi:** bu o‘yin orqali elementar matematika mashg‘ulotlarida maktabgacha yoshdagи tarbiyalanuvchilar son-sanoq tushunchalari, raqamlarni, raqamlarning ko‘rinishini, ular o‘rtasidagi farq, miqdor tushunchalarini o‘rganib oladilar. Bolaning tasavvuri, topqirlik, diqqat va ong darajasi oshadi. Chunki bolalar yangi ma’lumotni o‘yin orqali tez va qiziqish bilan o‘rganishadi. Ushbu didaktik o‘yin elementar matematika mashg‘ulotlarida kichik va o‘rta guruhda qo‘llansa bo‘ladi.


Tarbiyachi matematika mashg‘ulotlari davomida bolalarga son sanoq, miqdor tushunchalari, raqamlar va ularning ko‘rinishi, tartibini ko‘rsatib, tushuntirib o‘tadi. Bolalar 1 dan 10 gacha bo‘lgan raqamlar ko‘rinishini o‘rganadilar. Mashg‘ulotni mustahkamlash va bolalarni qiziqtirish uchun tarbiyachi o‘z qo‘llari bilan qog‘ozda tayyorlagan o‘yinni bolalarga taqdim etadi. Bolalar doira ichida ajratilgan nuqtalarni sanab qaysi raqamligini topishlari va qaysi raqamlar doirada yo‘qligini aniqlashlari kerak. Bolalar Nuqtachalarni sanash jarayonida sonlar o‘rtasidagi farq va miqdorni bilib olishadi va belgilaydilar. Tarbiyachi mashg‘ulot davomida o‘yin shartini to‘liq va oson qilib tushuntirishi bolalar uni ilg‘ab olishi lozim.

Bolalar nuqtachalarni sanab topgan raqamlarini shu doira bo‘lagi yoniga yozishlari yoki tarbiyachiga aytishlari mumkin. Doira bo‘laklari ichida 1, 2, 3, 4, 5, 8, 9 raqamli nuqtachalar berilgan. 6, 7 va 10 raqamlari berilmagan. Tarbiyachi bolalardan qaysi raqamlarni topganliklari, qaysi raqamlar doira bo‘lagi ichida yo‘qligini so‘rashi kerak.



Hozirgi rivojlangan zamonda bolalar bir xillikdan, shunchaki oddiy aytilgan ma’lumotlardan juda tez zerikishadi va tarbiyachini tinglashni xohlasmaydi. Shu sababli tarbiyachi o‘qituvchilar mashg‘ulotni qiziqarli qilib tashkillashtirishi, yangicha takrorlanmas o‘yinlardan foydalanishi kerak. Bu kabi o‘yinlar

bolalar yoshiga va fikrlashiga mos holda oson bo‘lgani uchun topshiriqni tezda bajarishadi, to‘g‘ri va to‘liq bajargan bolalar tarbiyachi tomonidan rag‘batlantiriladi, bundan ruhlangan tarbiyalanuvchilar mashg‘ulotga, yangi ma’lumot o‘rganishga yanada intilishadi.



Eng asosiysi mashg‘ulotdagi bunday o‘yinlar tarbiyachilardan hech qanday ortiqcha sarf-xarajat va texnologiya talab qilmaydi, oddiygina qog‘oz-qalam yordamida amalga oshiriladi.

**Xulosa.** Maktabgacha yoshdan boshlab bolalarda matematik bilimlarning yetarli bo‘lishiga katta ahamiyat berish zarurdir. Chunki, inson kundalik hayotida matematik hisob-kitoblarga tez-tez duch keladi, ya’ni matematik bilimlar har qadamda zarur bo‘ladi. Agar MTTlarda bolalarni maktabgacha yoshdan boshlab matematika olamiga turli qiziqarli usullardan foydalangan holda qiziqtira olsak, matematik bilimlar bilan yetarli darajada qurollantirsak, ular maktabda barcha bilimlarni o‘zlashtirishda a’lo baholarga o‘qib, yuqori natijalarga erishadilar, hayoti davomida xalqimiz uchun kerakli kasbni tanlash va chuqur egallashda qiyalmaydilar. Chunki qaysi kasbni olmaylik uni mahorat bilan bajarish uchun albatta matematik bilimlar kerak bo‘ladi. Shu sababli turli ta’limiy usullar, qiziqarli she’rlar, topishmoqlar ayniqsa matematik o‘yinlar orqali bolalarning yoshiga mos matematik bilimlar berib borishga katta ahamiyat berish muhimdir. Elementar matematik tushunchalarning qanchalik aniq va mukammal bo‘lishi, bolalarda mantiqiy fikrlash, xulosa chiqarish jarayonlarining kuchli bo‘lishini ta’minlaydi. Ya’ni matematika bolalarni mantiqiy fikrlashga, to‘g‘ri fikrlardan to‘g‘ri xulosalar chiqarishga o‘rgatar ekan, shuningdek nutqning takomillashuviga katta yordam beradi. Ilk matematik tushunchalar bolalarning yoshiga mos tarzda qiziqarli qilib har xil matematik o‘yinlardan foydalangan holda o‘rgatilsa, samarali natijalarga erishiladi. Hozirgi kunda turli tuman matematik o‘yin shakllari mayjud bo‘lib har qanday bolani mashg‘ulotga jalb qilish matematik ongni shakllantirish mumkun. Bunda tarbiyachi o‘yinni bolalarning yoshi, individual xususiyati, qiziqishidan kelib chiqib tanlashi, har bir mashg‘ulotga kreativlik bilan yondashishi samarali foya beradi.

#### Adabiyotlar:

- Mirziyoyev SH.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi.”-Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.–216-b.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 10

---

2. Новикова В.П. “Математические игры в детском саду и начальной школе. Сборник игр для детей 5–7 лет” -М.:«МОЗАИКА-СИНТЕЗ», 2011.
3. Bikbayeva N.U., Ibrohimova Z.I., Qosimova X.I. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish” – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1995. 98-b.
4. Salaeva M.S. Umumiy pedagogika. – Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti, 2021. – 598 b.
5. Edwards R., Usher R. Globalization and Pedagogy Spase Plase and Identity. – New York, 1999. – 602 p.
6. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod -moliya, 2011. – 420 b.
7. Юсупова П. Мактабгача тарбийа педагогикаси. – Ташкент: Ўқитувчи, 1993. – 264 б.
8. <http://www.ziyonet.uz>.

**KIMYO FANIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI  
TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

*Nizamova Saida Adilovna,*

*Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 28-sonli IUDM ning kimyo fani o‘qituvchisi, p.f.d.*

*Abdurahimova Gulhayyo Sodiqjonovna,*

*Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 28-sonli IUDM ning kimyo fani o‘qituvchisi*

*Umumta’lim maktablarida kimyo fanini o‘qitishni multimediali texnologiyalari asosida tashkil etish metodikasi to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan. Umumiyo‘rta ta’lim maktablarida kimyo fanida innovatsion va multimedia dasturlaridan foydalanib ta’limda samaradorlikka erishish metodlari va ularning qollanilnshi haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *kimyo fanini o‘qitish metodikasi, multimedya texnologiyasi, multimedia dasturiy vositalari, ta’limdagisi samaradorlik.*

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ С ПОМОЩЬЮ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРЕПОДАВАНИЯ ХИМИИ**

*В статье даны сведения о методике организации преподавания химии в общеобразовательной школе на основе мультимедийных технологий. Обсуждены методы достижения эффективности обучения с использованием инновационных и мультимедийных программ по химии в общеобразовательных школах и их применение.*

**Ключевые слова:** *методика преподавания химии, мультимедийные технологии, мультимедийные программные средства, эффективность обучения.*

**INCREASING EDUCATIONAL EFFICIENCY BY USING MODERN TECHNOLOGIES IN CHEMISTRY**

*The article provides information about the methods of organisation of chemistry teaching in comprehensive schools on the basis of multimedia technologies. The methods of achieving the effectiveness of teaching with the use of innovative and multimedia programmes in chemistry in secondary schools and their application are discussed.*

**Keywords:** *chemistry teaching methodology, multimedia technology, multimedia software tools, effectiveness in education.*

**Kirish.** Jahon ta’lim tizimida ro‘y berayotgan zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti kimyo ta’limi sohasida axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish va o‘qitishning metodik asoslarini rivojlanish tendensiyalariga muvofiq takomillashtirish amaliyotiga alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan : kimyo ta’limi sohasida axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish va o‘qitishning metodik asoslarini rivojlantirish; axborot texnologiyalarini o‘qitish jarayoniga tatbiq etish asosida o‘quvchilarning bilim olishlarini faollashtirish; kimyo o‘qitish sifatini yaxshilash uchun innovatsion va axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish;; o‘quvchilarning aqliy salohiyati, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy metodik ta’minotni yaratish; kimyo o‘qitish sifatini yaxshilash, ta’lim jarayoniga multimedia texnologiyalari va ularning dasturiy vositalarini tatbiq etish kabi masalalarga alohida e’tibor berilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda umumo‘rtata’lim maktablarida kimyo fanini o‘qitish sifatini yaxshilash, ilg‘or ta’lim texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali, o‘quvchilarning innovatsion o‘quv faoliyati mazmuni shaxsiy-refleksiv (tezkorlik, ziyraklik, uddaburonlik), kognitivlik (fikrlash, moslashuv, anglash, bilish), kreativlik (yaratuvchanlik, nostandart yondashuv, muammolar tahlili), motivatsion-faollashuv (qiziqish, ishtiyoq, harakat) kabi fazilatlarini rivojlantiriladi.

Buni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdaggi PQ-4805-son «Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-con “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini

tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son”O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlarida ta’limga bo‘lgan e’tiborni kuzatish mumkin.

Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashni takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishdir. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish, uzuksiz ta’lim tizimining tuzilmasi va mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajribaga tayangan holda tub islohotlarni ko‘zda tutadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzuksiz ta’lim tizimi orqali shaxsnинг har tomonlama barkamol fuqaro bo‘lib etishishini ko‘zda tutadi. Shaxs esa, uzuksiz ta’lim va kadrlar tayyorlashda ta’lim xizmatlarining iste’molchisi, ishtirokchisi hamda ishlab chiqaruvchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

ta’limning belgilangan vazifalaridan biri Kimyonи yuqori saviyada o‘qitishni ta’minlash va kelgusida dolzarb yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtining talabasi bo‘lishni rejalashtirgan akademik litsey o‘quvchisining malakali kadr bo‘lib etishib chiqishi uchun, uni zarur zamonaviy ta’lim dasturlari asosida tayyorlashdan iborat. O‘sib kelayotgan shaxsni o‘qitish jarayonida ularga ta’lim olish sharoitlarini yaratadi. O‘quvchilarining bilimga ehtiyoji va qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning yo‘naltirilgan bo‘lishi o‘qituvchi faoliyatining ma’suliyatini oshiradi.

**Asosiy qism.** Umumta’lim maktablarida kimyo multimediali texnologiyalar asosida tashkil etishda quyidagilarga alohida e’tibor berilishi kerak:

- umumta’lim maktablarida kimyo multimediali texnologiyalar asosida tashkil etishda o‘qitish mazmuni belgilangan maqsadga, yo‘nalishga va hajmga ega bo‘lishiga;

- darsni multimedia dasturiy vositalari asosida tashkil etishi uchun: ta’lim mazmunini tashkil etuvchi me’yoriy hujjatlar bilan ishlashni, yangi avlod adabiyotlarini to‘g‘ri tanlay bilishi, zarur pedagogik shart-sharoitlarni, ta’limni tashkillashtiruvchi shakllarni, bosqichlarni, interfaol metodlarni to‘g‘ri tanlay bilishi; o‘quvchilar bilan hamkorlikda ishlashi, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni bajarishi uchun moddiy-texnik negizning etarli bo‘lishi va kimyo xonasi zamonaviy jihozlangan bo‘lishi lozim.

Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida kimyo fanida innovatsion va multimedia dasturlaridan foydalanib ta’limda samaradorlikka erishish uchun fan o‘qituvchilarini quyidagilarlarni bilishi shart:

- o‘qituvchi dars jarayonida samaradorlikka erishishi uchun innovatsion ta’lim texnologiyalaridan va multimedia dasturlaridan to‘g‘ri foydalanish yo‘larini bilishi;

- fan o‘qituvchisi qaysi fan bo‘lishidan qatiy nazar o‘z kasbini seva bilishi, o‘zining egallagan bilmini mehr bilan o‘quvchilarga etkaza bilishi;

- o‘qituvchi o‘quvchilarining kimyo fanidan o‘zlashtirish samaradorligini aniqlashni kvalimetrik mezonlardan : davra suxbatlari, anketa savollar,darslarni kuzatish va taxlil qilish, test topshiriqlari, ekspertiza umumlashtirish, taxlil qilish, matematik-statistik taxlil qilish orqali o‘quvchilarining fanni qay darajada o‘zlashtirayotganini aniqlashni ;

- o‘qituvchi dars berish jarayonida na faqat kasbiy mahoratga balki pedagogik, psixologik va uslubiy maxoratga xam ega bo‘lishi kerakligi;

- o‘qituvchining tashqi ko‘rinishi, madaniyati va xarakatlari, o‘qituvchining nutq madaniyati xammaga ibratlari bo‘lishi;

- o‘qituvchi o‘quvchi bilan doimo xamkorlikda, yakka tartibda yoki ommaviy tartibda ishslashga ulgurishi; o‘qitishning turli metodlaridan foydalanishni bilishi va qo‘llashi; dars davomida o‘quvchilarining bergen savollariga va javoblariga diqqat bilan e’tibor berib javob berishi shart.

- o‘qituvchi dars berish jarayonida ko‘zlagan maqsadiga erishish uchun darsning texnologik xaritasini ishlab chiqib uni to‘g‘ri taqsimlay bilishi kerak ;

- dars jarayonida o‘qituvchi o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan faolligi, ijodkorligi va mustaqillikka erishi uchun xarakat qilishi, maxsus malaka va ko‘nikmalarning rivojlantirilishiga intilishi, o‘quvchilarining darsda intizomliligi va qiziqishlari darajalarini yuqori bo‘lishiga xarakat qilishi;

- o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga muammoli savollarning qo‘yilishi, muammoli vaziyatlarning yaratilishi natijasida o‘quvchilarining bu muammolarning echimini to‘g‘ri topa bilishga o‘rgatish, darslikdan unumli foydalanishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yan bo‘lishi kerak.

Multimedia dasturlaridan foydalanib ta’limda samaradorlikka erishishda kutiladigan natijalar:

- kimyo fanidan mavzularni o‘rganishda beriladigan bilimlar bir tizimga keltiriladi va o‘zaro bog‘liq ravishda o‘rganiladi;

- kimyo fanini o‘qitish jarayonida mavzularni o‘zlashtirishda o‘quvchilarining bilimi faol ravishda kengaytirilib boriladi;

- bunda har bir o‘rganilayotgan jarayon ko‘rgazma asosida o‘rganiladi va mavzu bo‘yicha o‘quvchilarida etarli darajada ko‘nikma va malaka hosil qilinadi;

- kimyo fanidan bajarilayotgan va ko'rsatilayotgan tajribalar o'quvchilarni shu fanga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi, o'quv materialini puxta o'zlashtirish, nazariy bilimlarini amaliy holda mustahkamlashga yordam beradi;
- mavzu bo'yicha kimyo fanidan to'liq axborot olishga imkoniyat yaratiladi;
- kimyo fanida texnik vositalardan foydalanish orqali darsning sifati yaxshilanadi samaradorlik ortadi;
- o'quvchilarning kimyo fanidan mavzu bo'yicha egallagan bilimlaridagi bo'shliqlar o'z vaqtida aniqlanib, uni bartaraf etishga yordam beradi;
- kimyo fanidan o'quvchilarning faolligini oshirishga imkoniyat yaratiladi.

Kimyo – eksperimental fan, shuning uchun maktabda Kimyo ta'limi assosini tajriba va kuzatuvalar tashkil etadi. Lekin bu holat nazariyaning rolini etarlicha baholamaslikka olib kelmasligi kerak. Uzviylashtirilgan o'quv dasturida Kimyo o'qitishda nazariy masalalar, eksperiment va tajribalarni demonstratsiya (namoyish) qilishga e'tibor kuchaytirilgan. Laboratoriya ishlarini bajarish va masalalar echish o'quvchilarda amaliy ko'nikma va malakalar shakllanishini ta'minlaydi.

Ta'limning non'anaviy pedagogik texnologiyada markaziy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Kimyo ta'limini noan'anaviy o'qitish va o'rganish, ularni ajratish o'chovlarini aniqlash va bir-biridan farqlash, o'quv ishlari jarayonini qat'iy chegaralash, shubhasiz, qator yutuqlarga olib keladi. Har bir davr uchun yaroqli ta'lim vositalarini tanlash imkoniyatlarini kengaytiradi. O'rganilgan va endi o'rganiladigan bilimlar o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash uchun imkoniyatlar yaratiladi; u yoki bu o'quv materialini to'liq o'zlashtirish uchun zaruriy takrorlash chegarasi aniqlanadi; ta'limning oqilona harakati uchun shart-sharoit tayyorlanadi.

Ta'limda mavjud noan'anaviy texnologiyasini dastur asosida o'qitiladigan molekulyar Kimyo bo'limi misolida ko'ramiz.

Kimyo fanining ilk kursi mexanika va boshqa bo'imgari bilan tanishganingizda, jismlarning harakat qonuniyatlarini o'rganishda ular bir butun, yaxlit jism deb qaraladi. Ammo qizdirilgan qattiq jismlarning hajmlarining ortishi, qizdirilish davom ettirilsa suyuq holatga o'tishi, shuningdek, suyuqliklarning qizdirilganda bug' holatga o'tishi har qanday qattiq va suyuq modda kichik ko'zga ko'rinnmas zarralar – molekulalardan tashkil topganligi haqidagi fikrga olib keladi. Barcha agregat holatdagi (qattiq, suyuq, gaz) moddalar ana shu molekulalardan tashkil topgan. Qattiq moddalarning suyuqlik va gaz holatga o'tishi, gazlarning ham suyuq, qattiq holatga o'tishi, suyuqliklarning qattiq yoki gaz holatga o'tishi bu fikri tasdiqlaydi. Moddaning barcha ximiyaviy xossalari o'zida mujassamlashtirgan eng kichik zarrasiga uning molekulasi deyiladi.

Moddani tashkil etuvchi ko'p sondagi zarralar – molekulalarning xarakati bilan bog'liq xossalari, moddaning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi kabi jarayonlar va ularning qonuniyatini o'rganish bilan molekulyar Kimyo fani shug'ullanadi.

Moddaning molekulyar tuzilishi haqidagi tasavvur juda qadim zamonlardoq paydo bo'lgan. Ammo bu tasavvurlar ilmiy asoslanmagan va tajribada isbotlanmagan tasavvurlar edi.

O'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarning qo'llanila boshlashi bilan bo'lim mavzularini ta'limning birmuncha kichik birligi sifatida qarash mumkin bo'lgan “o'quv elementi”i deb nomlanuvchi birlikka ajratish ma'qul variant bo'lib qolmoqda. Molekulyar Kimyo bo'limi bo'yicha har bir mashg'ulotning borishida o'quv elementlarinnig o'zlashtirilishi ketma-ket tarzda amalga oshiriladi. Boshlang'ich holatda 1-o'quv elementi o'rganilib, mustahkamlangach, natija tekshirilib navbatdagi 2-o'quv elementiga o'tiladi. 2-o'quv elementini o'rganish ham shu kabi tashkil etiladi. O'zlashtirilishi talab qilingan o'quv elementiga oid ma'lumotlarni va axborotlarni qabul qilish; ularni mustahkamlash; o'zlashtirilishini tekshirish. Talabalar o'zlashtirishida kamchilik bo'lsa, oldingi axborot yana takrorlanadi, ta'limga qo'shimchalar kiritiladi, so'ngra 3-o'quv elementini o'rganishga o'tiladi.

Ta'limning noan'anaviy texnologiyasi g'oyalariiga ko'ra o'quv elementlari bo'yicha axborot to'plash, unga ishlov berish, o'zlashtirish natijasini tekshirish ketma-ket olib boriladi. Molekulyar Kimyo bo'limi bo'yicha ta'limni shu tarzda tashkil etish ham o'quv ishlarining tabaqalashgan guruhlarda o'tkazish imkoniyatini oshiradi.

Kimyo kursining Molekulyar Kimyo bo'limidagi molekula, molekulyar kinetik nazariya (MKN) tushunchalarini kiritishda oddiy tajribalar – diffuziya hodisasi namoyishini kiritishish mumkin. Bu tushunchani berish bilan molekulyar Kimyo bo'limini o'qitishning dastlabki davri boshlanadi, davrning bosqichlariga mavzu bo'yicha axborot to'plashga tayyorlanish, turli manbalardan axborotlarni qabul qilish va axborotlarni mustahkamlash kiradi. Bosqichlarni tashkil qiluvchi kichik o'quv birliklari, ya'ni o'quv elementlarini ko'rsatish mumkin.

Molekulyar Kimyo bo'limini o'rganish jarayoni – o'rganuvchilarning o'zlashtirishlari tabiiy va ijtimoiy jarayonlar kabi o'z davrlariga ega. Mavzuning boshlanishi, har bir mavzu matnining mazmuni, so'z

va tushunchalarning o‘zaro bog‘lanishini, bayon qilingan g‘oya, Kimyoviy hodisa, ta’rif va jarayonlar nuqtai-nazaridan tahlil qilish, ularni umumlashtirish lozim.

Molekulyar Kimyo bo‘limini o‘rganishni tashkil qilishda bo‘limni o‘rganishning maqsadi, vositasi, natijasi mo‘ljalga olinadi. Bundagi aniq belgilangan maqsad asosiy o‘rin egallaydi, vositalar mazkur maqsad asosida tanlanib, joriy natijalar tekshiriladi, tashhislanadi. Molekula, molekulyar kinetik nazariya va undan keyin davrlarda o‘rin olgan qator mavzularda aytildigan fikrlar kartotekalar tarqatish, ko‘rgazmadagi rasmga qarab gapirib berish, jun va matoga ishqlangan ebonit tayoqchasi va shisha tayoqchaning engil jismlarni tortishi, elektrioskop orqali zaryadni payqash kabi qator eksperimentlar (ayrimlari o‘quvchi tomonidan bajariladi) orqali takroriy bajarish yo‘li bilan, bilim va malakalar hosil qilishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar tuzatiladi, to‘ldirishlar kiritiladi, mustaqil ravishda gilzalar yasashni topshiriq berish orqali bilimlar mustahkamlanadi, bu takroriylikda aynan ta’limning davriyligi namoyon bo‘ladi.

Pedagogik texnologiya talablariga ko‘ra, o‘qituvchi, ta’limning ilk davrida o‘zining to‘rt xil tashkiliy-boshqaruv maqsadini qo‘yadi: 1. O‘quvchilarni yangi mavzuni o‘rganishga tayyorlash; 2. Yangi mavzuni o‘rganishni tashkil etish. 3. Yangi mavzuni dastlabki mustahkamlash. 4. Ta’lim natijasini sinash.

Tevarak-atrofimizdagи tabiatdagi issiqqlik hodisalarini o‘rganish mobaynida noaniq va to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlar paydo bo‘lib qolsa-da, bu elektromagnetizm bo‘limiga taalluqli bilimlarni egallash jarayoniga xalaqit berolmaydi. Bu ma’lumotlar asosida, o‘rganilayotgan elektr hodisalarini davriylik texnologiyasi bo‘yicha o‘rganish grafikasi yaratildi. Grafik ularning xususiyatlarini mumkin qadar to‘laroq aks ettirishi zarur.

Molekulyar kimyo bo‘limini o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida o‘qituvchi Kimyo mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga bo‘lim bo‘yicha ma’lumotlar berishda quyidagi Internet saytlaridan ham foydalanishi mumkin:

- <http://physics.mipt.ru/SII> MetodTD)
- <http://lib.mipt.ru/>
- <http://www.ph4s.ru/>
- <http://www.lib.berkeley.edu/node>, molekulyar Kimyo bo‘limiga oid ma’lumotlar keltirib o‘tiladi.

**Xulosa.** Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning o‘qish faoliyatini tubdan o‘zgartirib, kelajakda yetuk va erkin fikrlovchi shaxs bo‘lib yetishishiga imkon yaratiladi. O‘quvchilarning o‘qish faoliyatini tubdan yaxshilash va ta’limda samaradorlikka erishish uchun Olmazor tumanidagi 28-kimyo va biologiya faniga ixtisoslashtirilgan umum davlat maktabining zamon talablariga javob beradigan kimyo xonasida 7-11-sinf o‘quvchilari uchun didaktik topshiriqlar majmuasi, mavzular kesimidagi testlar to‘plami, 9-11-sinflar uchun elektron dasrliklar, amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlarini bajarish metodikasi kabi o‘quv qo‘llanmalarning elektron variantlari mavjud. O‘qituvchi ustozlar ana shu metodik qo‘llanmalardan unumli foydalangan holda ta’limda samaradorlikka erishmoqda.

### Adabiyotlar:

1. Nizamova S.A.Kimyo fanini multimedya texnologiyalari asosida o‘qitish metodikasi.- Monografiya.Toshkent.Muharir nashiriyotti 2022yil 276 bet.
2. Nizamova S.A Kimyo fanini o‘qitish metodikasi. - Monografiya.Toshkent.- Muharir nashiriyoti. - 2022-yil, 278 bet.

**“BUMERANG” TEXNOLOGIYASI ORQALI “METALLARDA ELEKTR TOKI”  
MAVZUSINI O’QITISH**

*Hayitov Dilshod Ergashovich,  
Buxoro muhandislik- texnologiya instituti  
“Aniq fanlar” kafedrasi dotsenti*

*Maqolada “Metallarda elektr toki” mavzusini “Bumerang” texnologiyasi yordamida o’qitish usuli yoritilgan. “Bumerang” texnologiyasi turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo’lgan mavzularni o’rganishda qulay bo’lib, o’z ichiga og’zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg’ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o’quvchi yoki o’qituvchi rolida bo’lishi, kerakli ballni to’plashiga imkoniyat beradi, o’quvchilarini mashg’ulot jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o’rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so’zlab bera olish, fikrini erkin bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o’quvchilarini baholay olishga qaratilgan.*

**Kalit so’zlar:** metallarda elektr toki, “Bumerang” texnologiyasi, dars, o’quvchi, o’qituvchi, mavzu, baholash, guruh, o’quv materiallari.

**ПРЕПОДАВАНИЕ ТЕМЫ «ЭЛЕКТРИЧЕСКИЙ ТОК В МЕТАЛЛАХ» ПОСРЕДСТВОМ  
ТЕХНОЛОГИИ «БУМЕРАНГ»**

*В статье описана методика преподавания темы «Электрический ток в металлах» с использованием технологии «Бумеранг». Технология «Бумеранг» удобна для изучения тем различного содержания и характера (проблемных, спорных, разнообразного содержания), включает устную и письменную формы работы, причём в течение одного занятия каждая позволяет участнику выполнять различные задания, находиться в роли ученика или преподавателя поочередно набрать необходимые баллы, помочь учащимся работать с различной литературой и текстами вне занятий, запоминать изученный материал, она направлена на то, чтобы уметь держаться, уметь говорить, уметь свободно выражать своё мнение и уметь оценивать всех учащихся в течение одного урока.*

**Ключевые слова:** электрический ток в металлах, технология «Бумеранг», урок, ученик, преподаватель, тема, оценка, группа, учебные материалы.

**TEACHING THE SUBJECT OF «ELECTRIC CURRENT IN METALS» THROUGH  
«BUMERANG» TECHNOLOGY**

*The article describes the method of teaching the topic "Electric current in metals" using the "Boomerang" technology. "Boomerang" technology is convenient for learning topics of different content and nature (problematic, controversial, diverse content), includes oral and written forms of work, and during one session, each allows the participant to perform various tasks, to be in the role of a student or a teacher in turn, to collect the necessary points, to help students to work with various literature and texts outside of class, to remember the learned material. It is aimed at being able to stay, to be able to speak, to be able to express one’s opinion freely and to be able to evaluate all students during one lesson.*

**Keywords:** electric current in metals, “Boomerang” technology, lesson, student, teacher, topic, assessment, group, educational materials.

**Kirish.** Hozirgi vaqtida ilg’or pedagogik texnologiyalar (interfaol usullar) mashg’ulot turlari ko’p bo’lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko’zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlichay tayyorgarlik ko’riladi. Bu fizika fani darslarini o’tishda juda muhim hisoblanadi. Bunda o’quvchilarning tayyorgarliklariga o’ziga xos talablar qo’yiladi. Xususan: mashg’ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o’zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o’zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrash, o’z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko’nikmalarini va boshqalarini.

**Asosiy qism.** Otilgan buyumming otuvchiga qaytib kelishini ta’minlovchi o’roqsimon otish quroliga bumerang deyiladi. Ta’limda bumerang metodining ma’nosini pedagog tomonidan tashlangan muammoli masala yoki mavzuning o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilgan holda o’qituvchiga og’zaki yoki yozma shaklda qaytishidan iborat.

1. Darsda o’rganiladigan mavzuning rejasida 4 ta qism mavzular bo’lsa, o’quv xonasidagi o’quvchilar ham 4 guruhgaga ajratiladi. Rejadagi birinchi qism mavzu o’qituvchi tomonidan tayyorlangan javoblari bilan birinchi guruh o’quvchilarining har biriga taqdim etiladi. Shu tariqa rejadagi boshqa qism mavzular ham

Javoblari bilan birgalikda o‘ziga mos nomerdagи guruhlarning o‘quvchilariga tarqatiladi. Har bir guruhdagi o‘quvchilar o‘zlariga javoblari bilan taqdim etilgan bitta qism mavzuni o‘qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda o‘rganib chiqadilar.

2. Shundan keyin 4 guruh o‘quvchilari aralashtirilib, yangi tarkibdagi 4 guruh tashkil etiladi. Bu yangi guruhlarning har birida dastlabki 4 guruhlarning barchasidan bir nechtadan o‘quvchilarning ishtirot etishiga erishiladi. Natijada butun o‘quv materialini yaxlit jamoa bo‘lib o‘rganish imkoniyati tug‘iladi. Muhimi, o‘quvchilarda o‘quv materialini mustaqil o‘rganish, hamkorlikda ishslash, bilganlarini boshqalarga tushuntira bilish ko‘nikma va malakalari shakllanadi.

3. O‘qituvchi tomonidan belgilangan reglamentda mavzuni jamoa bo‘lib o‘rganish yakunlangach, o‘quvchilar dastlabki guruhlariga qaytishadi va savol - javoblar boshlanadi. O‘qituvchining tashkilotchiligi asosida savollar boshqa guruhlar tomonidan bitta jamoaga beriladi. Jamoa ichidan o‘zlarini tanlagan bir o‘quvchi sheriklarining to‘plagan ballarini yozib, jamlab, natijalarini o‘qituvchiga topshiradi. Barcha guruhlar shu tarzda savol - javobdan o‘tkaziladi. Bunda qo‘yilgan savolga to‘g‘ri javob bergan o‘quvchiga 3 ball, to‘g‘ri qo‘sishimcha qilganga 2 ball, to‘g‘ri replika qilganga 1 ball, umuman fikr bildirmaganga 0 ball qo‘yiladi.

4. Har bir guruh mavzu bo‘yicha o‘zlarini bittadan savol tuzib, unga javob berishni boshqa jamoalarga taklif etadi. To‘g‘ri javob bergan jamoaning umumiy baliga 3 ball qo‘silib, boshqalarga 0 ball qo‘yiladi. Hech kim javob bera olmasa, savolni tuzgan jamoaning o‘zi javob bersa, ularning umumiy baliga 3 ball qo‘sib qo‘yiladi.

5. Endi har bir o‘quvchini baholash uchun ularga mavzu bo‘yicha oldindan tayyorlangan test topshirqlari tarqatiladi. Bir guruhning ish natijalarini boshqa jamoa o‘quvchilari tayyor javoblar asosida tekshirib, o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan shkala bo‘yicha ball qo‘yiladi.

6. Dars o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar ishtirotida mustahkamlanadi va umumlashtiriladi. Guruhlar va o‘quvchilarga to‘plangan ballar e‘lon qilinib, rag‘batlantirish amalga oshiriladi. Kelgusi dars uchun kerak bo‘ladigan topshiriq va vazifalar shakllantiriladi.

Guruh o‘quvchilarining tayyorgarlik darajasiga, o‘quv materiallarning hajmi, oson yoki qiyinligiga bog‘liq ravishda dars vaqtida yetishmovchilik kutilsa, to‘rtinchli bosqichni o‘tkazmaslik mumkin.

### Bumerang texnologiyasini o‘tkazish bosqichlari.

**1 – bosqich.** Guruh o‘quvchilari 4–5 kishidan iborat kichik guruhlarga bo‘linadi;

- o‘qituvchi har bir guruh va uning har bir a’zosiga mustaqil o‘rganish, fikrlash va yodda saqlab qolish uchun alohida - alohida aniq yozma tarqatma material beradi. Ularning soni guruhlar va o‘quvchilar soniga bog‘liq. Agar 5 ta kichik guruh bo‘lsa, u holda umumiy mavzu 5 ta kichik matnlarga bo‘linib har bir guruhga beriladi;

- faoliyat samarali bo‘lishi uchun har bir guruhga berilgan matndan har bir o‘quvchiga beriladi. Shunday qilib, 5 ta guruh umumiy mavzu asosida 5 xil matnga, har bir o‘quvchi esa o‘z guruhiga tushgan matnga ega bo‘ladi.

Namuna sifatida “Metallarda elektr toki” mavzusini 5 ta qismga ajratib kichik guruhlarga tarqataylik:

1. Amper.
2. Volt.
3. Joul.
4. Lens.
5. Krixgoff.

**2 - bosqich.** Guruhlarga berilgan matnni guruh a’zolari yakka tartibda alohida o‘rganishlari, matnni eslab qolishlari, keyin esa kerak bo‘lsa boshqalarga yoki o‘qituvchiga gapirib berishlari, iloji boricha matnni o‘zlashtirib olishlari kerakligini o‘qituvchi uqtiradi va tayyorgarlik uchun matnni katta yoki kichikligiga qarab 10 - 15 daqiqa vaqt beradi. O‘zi esa guruh va o‘quvchilarning ish faoliyatini kuzatadi.

**3 - bosqich.** O‘qituvchi oldindan tayyorlab qo‘yilgan raqamlar yozilgan kichik qog‘ozlar bilan har bir guruh yoniga kelib guruh a’zolaridan ushbu qog‘ozlardan bittadan raqam tortib olishlarini so‘raydi (qog‘ozlar soni guruhdagi o‘quvchilar soniga bog‘liq, masalan guruhda 5 kishi bo‘lsa, qog‘ozdagi raqamlar 1,2,3,4,5 etib tayyorlanadi). Kichik guruhlardagi barcha o‘quvchilar raqamlar yozilgan qog‘ozdan olishlari kerak. Nechta guruh bo‘lsa, shuncha guruh a’zolari soniga qarab raqamlar yozilgan qog‘ozlar tayyorlanadi.

O‘qituvchi raqamlar bo‘yicha o‘quvchilardan yangi guruhlar tuzishlarini so‘raydi. Masalan, hammada 1 - raqamini olganlar bitta yangi guruh, 2 - raqamlilar ikkinchi, 3 - raqamlilar uchinchi guruhni, 4 - raqamlilar to‘rtinchli guruhni, 5 - raqamlilar beshinchli guruhni tashkil etishlarini so‘raydi. Guruh a’zolari yangi guruhga o‘zlarini bilan o‘rgangan matnlarini ham olib o‘tishadilar.

**4 – bosqich.** Raqamlar bo‘yicha yangi guruhlar tuzilganda har bir yangi guruhda avvalgi guruhlardan bittadan vakillar o‘z - o‘zidan to‘planib qoladi, ya’ni 5 xil matn o‘rganilgan bo‘lsa, bu yangi guruhda har bittasidan bittadan vakil to‘planadi, umumiy mavzu bo‘yicha 5 o‘quvchi va 5 xil matn to‘planadi.

**5 – bosqich.** Yangi tuzilgan guruhning har bir a’zosi endi o‘ziga 2 ta vazifa, ya’ni o‘qituvchi va o‘quvchi vazifasini oladi va quyidagicha faoliyat ko‘rsatadi:

- o‘qituvchi (o‘rgatuvchi) sifatida, o‘zi avval o‘rgangan materialni gapirib beradi, o‘zi mustaqil o‘rgangan materialning asosiy joylariga barchaning diqqatini jalb qiladi, boshqa guruh a’zolarining tushunish va o‘zlashtirish qobiliyatlarini tekshiradi.

- o‘quvchi sifatida, guruh a’zolarining navbatma - navbat so‘zlab, tushuntirayotgan, gapirayotgan matnlarini eshitadi, tahlil qiladi, fikrlaydi va yodda saqlab qolishga harakat qiladi.

- o‘qituvchi esa ularga o‘z matnlarini faqat so‘zlab berishlari kerakligini uqtiradi va bunga 20 daqiqacha vaqt beradi (matn hajmiga va umumiy mavzuning qiyin, osonligiga qarab vaqt ajratiladi).

Bu bosqichda trening boshlanishida tarqatilgan barcha material o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan hisoblanadi.

**6 – bosqich.** Guruhdagilar bir - birlariga o‘z matnlarini gapirib berib, barchalari ushbu matnlarni bilib olishgach, o‘qituvchi o‘rganilgan material guruh a’zolari tomonidan qanchalik o‘zlashtirib olganini tekshirib ko‘rish uchun har bir guruh a’zolarining bir - birlariga o‘z matnlaridan kelib chiqqan holda savollar berishlari mumkinligini tushuntiradi. Shunday qilib, guruh ichida nazorat, ya’ni savol-javob orqali o‘tkaziladi. Bu esa guruhdagi o‘quvchilarni bir - birlariga so‘zlab bergen materiallarini boshqalar tomonidan o‘zlashtirilganlik darajasini aniqlashga, o‘zining bilimini yanada mustahkamlashiga yordam beradi.

**7 – bosqich.** O‘qituvchi barcha o‘quvchilarni yana qaytadan avvalgi joylariga qaytishlarini so‘raydi, ya’ni o‘quvchilar yana mashg‘ulot boshlanishidagi guruhlariga qaytadilar.

**8 – bosqich.** O‘qituvchi o‘quv xonasidagi o‘quvchilarning barchasi hammaga tarqatilgan yozma materiallar bilan tanish ekanliklari, ular haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lganliklarini hisobga olgan holda, har bir o‘quvchidan o‘rganilgan materialni so‘rashi mumkinligini aytadi.

**9 – bosqich.** O‘quvchilarga tarqatilgan o‘quv materialining ular tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o‘qituvchi o‘quvchilarning nazorat savollariga bergen javoblarini reyting ballari orqali baholashini tushuntiradi, masalan, savollarga berilgan javoblar - agar to‘liq javob bo‘lsa - 3 ball, qo‘sishma qilinsa - 2 ball, o‘tirgan joydan luqma tashlansa - 1 ball, javob berilmasa - 0 ball qo‘yilishi belgilanadi.

Baho sistemasida - to‘liq javob uchun 5 baho, qo‘sishma uchun 4 baho, luqma tashlansa 3 baho, javob bermasa 2 baho qo‘yishni belgilash mumkin.

Guruh a’zolarining javoblarini yuqorida ko‘rsatilgan tartibda baholash, ballarni qo‘yib borish, umumlashtirish uchun har bir guruh o‘ziga guruh qatnashchilaridan birini “hisobchi” etib tayinlashi mumkin (“hisobchi” ham davrada bo‘layotgan savol - javoblar muloqotida ishtirop etadi).

**10 – bosqich.** O‘qituvchi tarqatma materiallar asosida tuzilgan savollar (5 - 6 ta) bilan o‘quvchilarga murojaat qiladi (savollar iloji boricha hamma matnlarga tegishli bo‘lgani ma’qul, shuningdek, o‘qituvchi o‘quv xonasidagi barcha o‘quvchilarni javob berish uchun qamrab olishga harakat qiladi).

Savollardan namunalar:

1. Potensiallar farqi deb nimaga aytildi?
2. Metallarda elektr tokini nimalar tashiydi?
3. Metallar qarshiliqi haroratga qanday bog‘liq?
4. Metallarda elektr o‘tkazuvchanlikni birinchi bo‘lib kim aniqlagan?
5. Metallarda elektr tokini elektronlar tashishini tajribada qaysi olimlar aniqlagan?
6. Elektr zanjirida tok oqayotgani qaysi asbob yordamida aniqlanadi?
7. Elektr tokining yo‘nalishi qanday aniqlanadi?
8. Nima sababdan metallardan katta miqdorda tok o‘tkazilsa ham ularning massalari o‘zgarmaydi?

Belgilangan savollarga javob berish tugagach, o‘qituvchi doskaga guruhlar tomonidan to‘plangan ballarni yozadi va mashg‘ulotning keyingi bosqichiga o‘tadi.

**11 – bosqich.** O‘qituvchi har bir guruhni o‘z yozma materiallarining mazmunidan kelib chiqqan holda bittadan savol tayyorlashlari kerakligini aytadi va guruhlarga savol tuzishlari uchun 5 - 7 daqiqa vaqt ajratadi.

**12 – bosqich.** Guruhlar bir - birlariga savollar beradilar, guruhlardagi “hisobchilar” esa guruh a’zolarining javoblarini yuqorida belgilangan tartibda baholab boradilar. Javoblar to‘g‘ri bo‘lsa, savol bergen guruh javobni to‘ldirmaydi.

**13 – bosqich.** O‘qituvchi guruh a’zolari to‘plagan ballarni yana bir marta doskaga yozadi va to‘plangan ballar (baholar)ning umumiy qiymatini aniqlaydi. To‘plangan ballar (baholar)ning umumiy qiymati barcha guruh a’zolariga teng bo‘linadi (kelishganlik asosida).

Izoh: agar to‘plangan ballarni guruh a’zolariga teng bo‘lishda o‘quvchilar tomonidan norozilik bo‘lsa, ya’ni ba’zi guruh a’zolari guruhnинг faoliyatida faol ishtirok etib, umumiy jamoaviy faoliyatda passiv bo‘lgan bo‘lishsa, yoki umuman ishtirok etmagan, qiziqmagan bo‘lishsa, bunday holatda vaziyatni yechishni guruh a’zolariga yuklatiladi. Guruhning yechimi to‘g’ri hisoblanadi, yoki o‘qituvchi o‘z fikrini bildirishi mumkin, chunki u dars jarayonida o‘quvchilarning javoblari, faol yoki passivliklarini kuzatib boradi.

Umuman olganda, agar o‘quvchi faollik ko‘rsatmagan, yoki savol - javoblarda ishtirok etmagan bo‘lsa ham uning shu dars jarayonida biron narsani eslab qolib o‘zlashtirganini hisobga olgan holda unga eng kichik ball berilishi mumkin. Bu o‘quvchini keyinchalik shu shakldagi darslarda faolroq bo‘lishga undaydi. Yuqorida gabi vaziyat vujudga kelsa uning yechimini har bir o‘qituvchi sharoitga qarab o‘zi hal etishi yoki guruh, jamoaga tashlashi mumkin.

Ba’zida guruhning “hisobchilari” ballarni qo‘yishda noaniqlik yoki qo‘sib yozishlari mumkin, natijada, ba’zi guruhlarning umumiy to‘plangan ballari boshqa guruhlarnikidan juda kam farq qilishi mumkin. O‘quvchilarning haqqoniy baholanishlari ularning tanlangan “hisobchi”lariga bog‘liq ekanligini o‘qituvchi oldindan eslatib o‘tadi. Agar umumiy to‘plangan ballarni guruh a’zolariga taqsimgandaga shu mashg‘ulot uchun belgilangan maksimal balldan ortib ketgan bo‘lsa, u holda shu mashg‘ulot uchun kerakli ballni olib qolib, ortiqchasini keyingi mashg‘ulotlarga yoki yakuniy nazoratga o‘tkazish mumkin.

**14-bosqich.** Har bir o‘quvchiga ballar qo‘yilgach o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi.

O‘quvchilarning faoliyatiga baho beradi, berilgan javoblarga o‘z fikrini bildiradi va quyidagi savollar bilan ularga murojaat qiladi:

- bugungi mashg‘ulotdan nimalarni bilib oldingiz?
- nimalarga o‘rgandingiz?
- nimalar siz uchun yangilik bo‘ldi?
- yana nimalarni bilihni istar edingiz?

**15-bosqich.** O‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini diqqat bilan tinglab ularga minnatdorchilik bildiradi va mashg‘ulotni yakunlaydi.

**Xulosa.** Mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo‘naltirilgan.

Maqolada keltirilgan texnologiya yordamida darslarni samarali tashkil qilish mumkin[1-8]. O‘quv mashg‘uloti davomida o‘quvchilarning qiziqishlarini orttirish maqsadida turli zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning nafaqat fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradib balki ularning chuqur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Sharipov M.Z., Hayitov D.E., Rizoqulov M.N. Magneto-optical properties of rare-earth terbium ferrite-garnet in the near the temperature of the orientation phase transition. // Materials Science Forum 1049, 186-191
2. Hayitov D.E. Fizikadan “O‘zinduksiya va o‘zaro induksiya” mavzusini o‘tishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. // “Развитие науки и технологий” Научно-технический журнал. – Бухара, 2017. - № 2. – С. 148 – 157
3. Sharipov M.Z., Hayitov D.E., Ro‘ziyeva D.S. Ishlab chiqarish jarayonida qo‘llaniladigan optik qurilmalar ish prinsiplarining fizikaviy asoslari. // “Развитие науки и технологий” Научно-технический журнал. – Бухара, 2022 - № 1. – С. 197 - 203.
4. Rashidov A.Sh. Use of differentiation technology in teaching mathematics. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8:3 (2020), Part II, pp. 163-167.
5. Rashidov A.Sh. Interactive methods in teaching mathematics: CASE STUDY method. XXXIX Международной научно-практической заочной конференции «Научные исследования: ключевые проблемы III тысячелетия» (Москва, 2-3 августа, 2020 года) сс.18-21.
6. Rashidov A. Sh. Matematika darslarida ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasi. // Центр научных публикаций. 2021 yil. 3-soni. 68-72 bet.
7. Rashidov A.Sh. Ijtimoiy-gumanitar ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun matematik fanlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish. // Science and Education №9. С 283-291.
8. Халлоқова О.О., Рашидов А. Пороговое собственное значение модели Фридрихса. // Молодой ученый, 2015 №15. С. 1-3.

## JISMONIY MADANIYAT VA SPORT

UO‘K 159.9:796.015.84

### SPORTCHILARNING DA’VOGARLIK DARAJASINI SPORT FAOLIYATIGA TA’SIRINI BELGILOVCHI YETAKCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

*Jurayev Vohidjon Muhammedovich,*

*Qo‘qon davlat pedagogika instituti*

*Psixologiya kafedrasи dotsenti ,P. f.f.d. (PhD)*

*vohidmuxammedovich31@gmail.com*

*Sportchilarning da’vogarlik darajasini faoliyat samaradorligiga ta’siri doirasidagi navbatdagi tadqiqotimizda da’vogarlikni sportchilarning musobaqalashuv hududi (tuman, viloyat, respublika va xalqaro), sport turi (jamoaviy va individual), jins (erkak va ayol) ga ko‘ra faktorli tahlil qilinadi. Dastlabki tahlil sportchilarning hududiy xususiyatlarga ko‘ra yoritiladi. Da’vogarlik darajasining sport faoliyatiga kompleks ta’sirini aniqlash asosida yetakchi omillar aniqlandi.*

**Kalit so‘zlar:** empirik o‘rganish, da’vogarlik darajasi, yetakchi psixologik omillar, musobaqalashuv hududi, tuman, viloyat, respublika, xalqaro sportchilari, sport turi, tadqiqot metodikalari.

### КЛЮЧЕВЫЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ВЛИЯНИЕ НА СПОРТИВНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УРОВНЯ ПРИТЯЗАНИЙ СПОРТСМЕНОВ

В нашем очередном исследовании влияния притязаний спортсменов на результативность учитывалось притязание по площадям соревнований (районные, областные, республиканские и международные), виду спорта (командные и индивидуальные), полу (мужские и женщины). Предварительный анализ был проведён с учётом региональных особенностей спортсменов. Выделены ведущие факторы на основе определения комплексного влияния уровня конкуренции на спортивную деятельность.

**Ключевые слова:** эмпирическое исследование, уровень притязаний, ведущие психологические факторы, регион соревнований, район, область, республика, международные спортсмены, вид спорта, методы исследования.

### LEADING PSYCHOLOGICAL FACTORS DETERMINING THE INFLUENCE OF THE LEVEL OF ATHLETES' PRETENSIONS ON SPORTS PERFORMANCE

*In our next study of the influence of athletes' pretensions on performance, we took into account the pretensions by competition areas (district, regional, national and international), type of sport (team and individual), gender (male and female). Preliminary analyses were carried out taking into account the regional characteristics of athletes. The leading factors were identified on the basis of determining the complex influence of the level of competition on sports activity.*

**Keywords:** empirical study, level of pretensions, leading psychological factors, region of competition, district, region, republic, international athletes, type of sport, research methods.

**Mavzuning dolzarbliği.** Sportchilarning da’vogarlik darajasini faoliyat samaradorligiga ta’siri doirasidagi navbatdagi tadqiqotimizda da’vogarlikni sportchilarning musobaqalashuv hududi (tuman, viloyat, respublika va xalqaro), sport turi (jamoaviy va individual), jins (erkak va ayol) ga ko‘ra faktorli tahlil qilinadi. Dastlabki tahlil sportchilarning hududiy xususiyatlarga ko‘ra yoritiladi. Da’vogarlik darajasining sport faoliyatiga kompleks ta’sirini aniqlash asosida yetakchi omillar aniqlandi. Faktorli tahlilni amalga oshirishda “Da’vogarlik darajasini aniqlash” metodikasi (V.K.Gerbachevskiy), “Da’vogarlik darajasi” (Y.Shvarslander), “Sport faoliyati motivatsiyasi”, “Shaxsning irodaviy sifatlari” (Chumakov), “O‘zini o‘zi baholash” metodikasi (Dembo-Rubinshteyn) tatbiq etishidan olingan ko‘rsatkichlarning talqini bo‘yicha amalga oshirildi. Quyida yuqorida aytib o‘tilgan yo‘nalishlar bo‘yicha yetakchi faktorlar aniqlanadi.

**Tadqiqot muammosining metodologiyasi.** Faktorli tahlil natijalariga ko‘ra sportchilarning da’vogarlik darajasi va unga bog‘liq faoliyat komponentlarini o‘zaro munosabatida uyg‘unlashib ketgan

holat kuzatildi. Faktorli tahlilning o‘ziga xosligi sportchilarning da’vogarlik darajasi va unga bog‘liq shaxsnинг psixikasi xususiyatlari (faoliyat motivlari, maqsad, irodaviy sifatlar, o‘zini o‘zi baholashi) o‘rtasidagi ichki bog‘liqliklar aniqlandi. Bu esa sportchining da’vogarlik darajasi faoliyatining turli xil yo‘nalishlarida namoyon bo‘lish xossalarni yoritish imkoniyatini berdi.

Faktorli tahlilning dastlabki natijasi viloyat miqyosidagi musobaqalar g‘oliblarida ishtirok etgan sportchining da’vogarlik darajasiga xos yetakchi omillar yoritildi. Tahlilda dastlab beshta faktor aniqlandi. Mazkur faktorlarda qayd etib o‘tilgan faoliyat xususiyatlaridagi o‘zaro aloqadorlik holatlarining bog‘liqliklari quyidagi tahlillarda yoritiladi.

**Tadqiqot muammosining tahlili.** Sportchilarning viloyat miqyosidagi ishtirokida da’vogarlik darajasini shartlovchi birinchi faktori faoliyatning oltita komponentidan tashkil topdi. Viloyat miqyosida ishtirok etayotgan sportchilarning da’vogarlik darajasini shartlovchi faktorning mohiyatini aks ettiruvchi komponentlari orasidan eng muhim ijobjiy vaznli koeffitsiyentga o‘zini o‘zi baholash mezonlari, ya’ni aql (0,617), yaxshi xarakter (0,604), qobiliyat (0,580), o‘z-o‘ziga ishongan (0,548) likni uyg‘unlashuvi sportchining natijalarining ahamiyatliligi (0,541)ni kuchayishiga va faoliyatni o‘zgartirish, natijalariga qiziqishning yo‘qolishini (qochish motivi, -0,517) oldini olishga xizmat qiladi deyish o‘rinlidir. Faktor tarkibiy komponentlarni umumlashtirgan holda “O‘zining imkoniyatlariga xoli munosabat” faktori deb nomlandi.

Ikkinchi faktor esa o‘z tarkibiga da’vogarlikni ta’minlovchi muhim komponentlar – o‘zini o‘zi kamol toptirishga ehtiyoj (0,644), rag‘batlanishtirishga ehtiyoj (0,639), talabgorlik darajasini (0,610), natijalarga erishganlik darajasini baholash (0,559), tengdoshlari orasidagi obro‘sni (0,521), muloqotga ehtiyoji (0,518) dan iborat yuqori ijobjiy vaznli koeffitsiyentlarga ega bo‘ldi. Sportchilarning da’vogarlik darjasini izohlashda o‘zini o‘zi baholash, maqsadni amalga oshirishga talabgorlik, sport faoliyat motivlari ishtirokidagi komponentlar aks etdi. Komponentlar orasidan eng yuqori ko‘rsatkich o‘zini o‘zi kamol toptirish ehtiyoji kuzatildi.

#### 1-jadval.

Sportchilarning da’vogarlik darajasini tavsiylovchi yetakchi omillar (viloyat miqyosidagi sport musobaqalarini ishtirokchilarini va g‘oliblari)

Komponentlar	O‘zining imkoniyatlariga xoli munosabat	O‘zini o‘zi kamol toptirishga ehtiyoj	O‘z imkoniyatlarini bahololmaslik	Irodasizlik	Muvaffaqiyatni kafolatlovchilar
Aql	0,617				
Yaxshi xarakter	0,604				
Qibiliyat	0,580				
O‘z-o‘ziga ishongan	0,548				
Natjalarning ahamiyatliligi	0,541				
Qochish motivi	-0,517				
O‘zini o‘zi kamol toptirishga ehtiyoj		0,644			
Rag‘batlanishtirishga ehtiyoj		0,639			
Da’vogarlik darjasasi		0,610			
Natjalarga erishganlik darjasining bahosi		0,559			
Tengdoshlar orasidagi obro‘sni		0,521			
Muloqotga ehtiyoj		0,518			
Musobaqalashuv motivi			0,563		
O‘z imkoniyatlarining bahosi			-0,530		
Matonat				-0,554	
G‘ayratlilik				-0,522	
Quvvatni safarbar eta olganlik darjasasi					0,547
Muvaffaqiyatga intilish motivi					0,528

Ushbu komponentni belgilovchi jihatni sifati faktor “O‘zini o‘zi kamol toptirishga ehtiyoj” deb nomlandi. Faktor tarkibidagi qolgan tarkibiy komponentlar ushbu ehtiyojni boyituvchi va to‘Idiruvchi vazifasini o‘taydi.

Ammo viloyat miqyosidagi musobaqlar g‘oliblarida sporchilarning yuqori natijalarga da’vogarliklari uchinchi va to‘rtinchı faktorlardagi ijobiy va salbiy yuqori vaznli koeffitsiyentlari bilan bog‘liqdir. Ularda musobaqlashuv motivlari mavjud (0,563), ammo o‘z imkoniyatlarini (-0,530) yetarlicha baholay olmaslik kuzatilayapti. Imkoniyatlarni baholashdagi yanglishishlar musobaqlashuv motivini pasaytirishiga sabab bo‘ladi. Faktorning nomini ushbu munosabatdan kelib chiqib “O‘z imkoniyatlarini baholay olmaslik” deb nomladik. To‘rtinchı omilda esa sporchilarning da’vogarlik darajasini belgilashda irodaviy sifatlarning yetishmasligi kuzatildi. Ularda matonatlilik (-0,554) va g‘ayratlilik (-0,522) yetishmas ekan. Shu sababli faktorni “Irodasizlik” deb nomlash maqsadga muvofiqdir.

Beshinchi faktor esa sportchilarning viloyat darajasidagi musobaqlarda ishtirok etishini ta’minlovchilar bo‘lishi mumkin. Ularda quvvatni safarbar eta olganlik darajasi (0,547) va muvaffaqiyatga intilish motivi (0,528) ijobiy yuqori vaznli koeffitsienlardan iborat. Faktorni “Muvaffaqiyatni kafolatlovchilar” deb nomlash o‘rnlidir.

Viloyat miqyosidagi sportchilarga mos ravishda navbatdagи tahlil respublika miqyosidagi musobaqlarda ishtirok etganlarning da’vogarlik darajasini shartlovchi faktorlarning ahamiyatini tahliliga bag‘ishlanadi.

Respublika miqyosidagi musoboqlar g‘oliblaridan iborat sportchilarning motivatsiyasini shartlovchi yetakchi faktorlarining birinchisida o‘zini o‘zi baholash, da’vogarlikning izohlovchi faoliyat komponentlari, sport faoliyat motivlari, irodaviy sifatlarning yuqori ijobiy vaznli koeffitsiyentlardan iborat. Faktorda aql (0,771), talabgorlik darajasi (0,701), natijalarning qonuniyati (0,694), erishishga ehtiyoj (0,689), o‘ziga ishongan (0,660), ziyrak (0,565), tirishqoqlik (0,552), tashabbuskorlik (0,538) komponentlari o‘rin olgan. Respublika miqyosidagi musobaqa g‘oliblarida da’vogarlik, o‘zini baholash va irodaviy sifatlar uyg‘unlashgan. Bu sportchilarning yuqori sport yutuqlariga erishishini shartlovchi psixologik faktorlarning muhimlari deyish mumkin.

## 2-jadval.

### Sportchilarning da’vogarlik darajasini tafsiflovchi yetakchi omillar (respublika miqyosidagi sport musobaqlari ishtirokchilari va g‘oliblari)

Komponentlar	Aql va iroda	Xususiyatlar uyg‘unligi	Natijalarning ahamiyatliligi qochish motivini susaytiruvchi	Muvaffaqiyatga intilish motivi	Ichki motiv va qat’ iyatililik	Irodaviy quvvat	Sog‘liq, sobitqadamlik va imkoniyatlar
Aqlli	0,771						
Talabgorlik darajasi	0,701						
Natijalarning qonuniyati	0,694						
Erishishga ehtiyoj	0,689						
O‘z-o‘ziga ishongan	0,660						
Ziyraklik	0,565						
Tirishqoqlik	0,552						
Tashabbuskorlik	0,538						
O‘z-o‘ziga ishonch		0,815					
Natijalarning ahamiyatliligi		0,736					
Faoliyatni almashtirish		-0,672					
Qobiliyatli		0,579					
Yaxshi xarakter		0,517					
Go‘zallik		0,510					
Quvvatni safarbar eta olinganlik darajasi			0,725				
Qochish motivi		-0,505	-0,688				
Natijalarning kutilganlik darajasi			0,558				
Muloqotga ehtiyoj			0,541				
Matonat			0,518				
Rag‘batlanishтирishga ehtiyoj			0,511				
Tashabbuskorlik				0,700			
Muvaffaqiyatga intilish motivi	0,530			0,596			

G‘ayratlilik				0,563		
Muvaffaqiyatga intilish motivi				0,507		
Ichki motiv				0,646		
Qat’iyatlilik				0,564		
Irodaviy quvvat				0,690		
Kurashishga ehtiyoj				0,541		
Sog‘lik					0,704	
Sobitqadamlik					0,548	
O‘z imkoniyatlarining bahosi					0,507	

Birinchi faktor eng yuqori vaznli koeffitsiyent aql, eng ko‘p uchraydigani irodaviy sifatlar tashkil etganligi sababli “Aql va iroda” deb nomlandi. Bundan ko‘rinadiki, aqli va irodali sportchi musobaqalar vaqtidagi kutilmagan vaziyatlarning yechimini topishga harakat qila oladi. Yuqori natijalarga erishish ehtiyoji yuqori, natijalarning qonuniyatiga doimo tayanadi.

Ikkinci faktor tarkibi yana da‘vogarlik darajasining komponentlaridan tashkil topgan. Bu esa sporchi natijalarning ahamiyatliliqi (0,736), qobiliyatli (0,579), yaxshi xarakter (0,517), go‘zallik (0,510) kabi yuqori ijobjiy va faoliyatni almashtirish (0,672) va qochish motivi (-0,505) kabi salbiy koeffitsiyentli komponentlardan iborat bo‘ldi. Bundan ko‘rinadiki, respublika miqyosidagi sport musobaqasi g‘oliblari yuqori yutuqlarga da‘vogarliklarida natijalarining ahamiyatini shaxsiy fazilatlari va individual-psixologik xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirganlar. Shu sababli ikkinchi faktor nomi majoziy ma’noda “Xususiyatlarni uyg‘unligi” deb nomlandi. Da‘vogarlik darajasini oshirishda xususiyatlarning o‘zaro qorishmasi tarzida yanada kuchliroq ko‘rinish olar ekan. Xususiyatlarning bunday tus olishi sport natijalarining ijobjiy bo‘lishiga xizmat qiladi.

Uchinchi faktorni esa da‘vogarlik darajasining shartlovchi faoliyat motivlari, sport faoliyati motivlari va irodaviy sifatlar tashkil etmoqda. U quvvatni safarbar eta olinganlik darajasi (0,725), natijalarning kutilganlik darajasi (0,558), muloqotga ehtiyoj (0,541), matonat (0,518), rag‘batlantirishga ehtiyoj (0,511) singari yuqori ijobjiy vaznli koeffitsiyentlar bilan birga salbiy yuqori vaznli koeffitsiyentli qochish motivi (-0,688)dan iboratdir. Ushbu faktor sportchilarining natijaga erishlarida yutuqlarning shaxsiy ahamiyat kasb etishi, matonatlilik va rag‘batlantirish hisobidan qo‘lga kiritilishi asosida “Natijalarning ahamiyatliliqi qochish motivini susaytiruvchi” deb nomlandi. Sportchi uchun erishish kutilayotgan natijaga ahamiyati ortsasida muvaffaqiyatsizlik va past natijalarga erishishdan qo‘rmaslik tuyg‘usi kuchayadi.

To‘rtinchchi faktor tashabbuskorlik(0,700), muvaffaqiyatga intilish motivi (0,596), g‘ayratlilik (0,563), muvaffaqiyatga intilish motivi (0,507)dan iborat yuqori vaznli koeffitsiyentlarni o‘z ichiga olgan. Faktor tarkibi tadqiqot sport faoliyat motivlari bilan da‘vogarlikni belgilovchi faoliyat komponenti va irodaviy sifatning birligidan tashkil topgan. Shunga ko‘ra faktorni ”Muvaffaqiyatga intilish motivi” deb nomlash ma’quldir. Shu o‘rinda G. Myurreyning ta‘rifini keltirib o‘tish o‘rinli: ”bu qiyinchiliklarni yengish uchun qat’iy shug‘ullanish, jismoniy narsalarni, odamlarni yoki g‘oyalarni boshqarish yoki tartibga solish, buni iloji boricha tezroq va mustaqil ravishda bajarish, to‘siqlarni yengib, yuqori darajaga erishish, boshqalar bilan raqobatlashish va ulardan ustun bo‘lish, qobiliyatlarini muvaffaqiyatli qo‘llash orqali o‘z qadr-qimmatini oshirishdir”

Beshinchi faktor esa ichki motiv (0,646) va qat’iyatlilik (0,564)ni o‘z ichiga olgan yuqori vaznli koeffitsiyentlardan iborat. Ular sportchilarining da‘vogarlik darajasi va irodaviy sifatlarini o‘zaro munosabatlarida aks etmoqda. Respublika miqyosidagi yutuqlarga erishgan sportchilarda ichki motivning yetakchilik qilishi ular tomonidan mashg‘ulotlardagi ko‘rsatmalarni amalga oshirishga harakat qiladilar va vazifalarni qat’iyatlilik bilan bajarishlaridan dalolat beradi. Shunga ko‘ra faktorning nomini “Ichki motiv va qat’iyatlilik” deb nomlash ma’quldir.

Oltinchi faktorni esa da‘vogarlikni ifodalovchi faoliyat komponenti bilan sport faoliyat motivatsiyasi tashkil etmoqda. Komponentlar irodaviy quvvat (0,690) va kurashishga ehtiyoj (0,541)lardan tashkil topgandir. Respublika miqyosidagi sport musobaqalari g‘oliblari vazifa ustida ishslash jarayonida ixtiyoriy harakatlarga katta urg‘u berar ekanlar. Murabbiylar tomonidan beriladigan har qanday topshiriqlar hech muammosiz bajariladi. Bu esa ularning musobaqlarda kurashish ehtiyojining ortishiga imkon beradi. Faktorni mazmuniga ko‘ra “Irodaviy quvvat” deb nomlaymiz.

Yettinchi faktor esa sportchilarining o‘zini o‘zi baholash, irodaviy sifatlar va da‘vogarlikni izohlovchi komponenglardan iborat. Ularning barchasi, xususan, sog‘liq (0,704), sobitqadamlik (0,548) va o‘z imkoniyatlarining bahosi (0,507) kabi yuqori vaznli koeffitsiyentlarga ega. Faktorning tarkibiy komponentlariga ko‘ra sportning bir jihatni subyektni salomatlik manbai sifatida baholashi, har bir erishiladigan yutuqlarda qat’iyatlilik, tirishqoq, shiddatlilik sifatlarini bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan

sobitqadimlikni va o‘z imkoniyatlarini baholashi natijasi sifatida gavdalamoqda. Faktor “Sog‘liq, sobitqadamlik va imkoniyatlar birligi” deb nomlandi. Respublika miqyosida musobaqa g‘oliblari bo‘lgan sportchilarning da’vogarlik darajasini ifodalovchi yetakchi faktorlar viloyat darajasidagi g‘oliblardan farq qilganligi singari xalqaro sport musobaqlari g‘oliblarining natijalarini ham tahlil etishga erishildi. Quyidagi tahlilda mazkur toifa sportchilarining da’vogarlik darajasini tavsiflovchi yetakchi faktorlarning xususiyatlarini yoritishga erishildi.

Xalqaro musobaqlar g‘oliblarining da’vogarlik darajasini shartlovchi yetakchi faktorlar tahlilida mutlaqo o‘ziga xoslik aniqlandi. Natijalar navbatdagi 3-jadvalda keltirilgan.

### 3-jadval.

#### Sportchilarning da’vogarlik darajasini tavsiflovchi yetakchi omillar (xalqaro miqyosdagi sport musobaqlari ishtirokchilari va g‘oliblari)

t/r	Komponentlar	Faktorlar		
		1	2	3
1.	G‘ayratlilik	0,998		
2.	Irodaviy quvvat	0,981		
3.	Musobaqalashuv	0,981		
4.	Mas’uliyatlilik	0,938		
5.	Qobiliyatli	0,933		
6.	O‘z-o‘ziga ishongan	0,909		
7.	Muvaffaqiyatga intilish motivi	0,892		
8.	Topshiriqlarning murakkabligi	0,868		
9.	O‘z imkoniyatlarining bahosi	0,806		
10.	Tirishqoqlik	0,791		
11.	Aqlililik	0,784		0,610
12.	Qochish motivi	-0,773	-0,613	-0,564
13.	Qat’iyatlilik	0,709		0,587
14.	Natijalarining kutilganlik darajasi	0,672		
15.	Tashabbuskorlik	0,672		0,564
16.	Ziyarklilik	0,644	0,536	0,546
17.	Natijalarining qonuniyati		0,986	
18.	O‘zini o‘zi kamol toptirishga ehtiyoj		0,973	
19.	Mustaqillik		0,973	
20.	Tashabbuskorlik		0,969	
21.	Go‘zallik		0,957	
22.	Da’vogarlik darajasi		0,949	
23.	Yaxshi xarakter		0,816	0,568
24.	Kurashishga ehtiyoj	0,555	0,812	
25.	Bilish motivi	0,614	0,788	
26.	O‘z imkoniyatlarining bahosi		0,784	
27.	Natijalarining ahamiyatliligi	0,634	0,740	
28.	Natijalarga erishganlik darajasining bahosi			0,968
29.	Rag‘batlanishtirishga ehtiyoj			0,942
30.	Faoliyatni almashtirish			-0,926
31.	Matonat			0,926
32.	Sog‘lik			0,897
33.	Sobitqadamlik			0,891
34.	Quvvatni safarbar eta olinganlik darajasi	0,552		0,782
35.	O‘zini e’zozlash motivi		0,651	0,759
36.	Erishishga ehtiyoj		0,676	0,726
37.	Muloqotga ehtiyoj	0,660		0,660

Respublika miqyosidagi musobaqa ishtirokchilari va g‘oliblarining da’vogarlik darajasini shartlovchi komponentlar boshqa toifa sportchilarnidan keskin farq qilganligining guvohi bo‘lindi. Xalqaro miqyosdagi sport musobaqlari g‘oliblarini da’vogarlik darajasi bilan bog‘liq uchta yetakchi faktorlar

aniqlandi. Ushbu faktorlar viloyat va respublika miqyosidagi sport musobaqalari g'oliblardan keskin farq qildi. Faktorlar soni kam bo'lsa-da, ammo ularning tarkibiy komponentlari hajmi keng ko'lamga ega.

Birinchi faktorning tarkibida o'n oltita komponent mavjud bo'lib, ularda irodaviy sifatlar, da'vogarlikni tavsiflovchi faoliyat motivlari komponentlari va o'ziga munosabat ko'rsatkichlari aks etgan. Faktorni tashkil etuvchi yuqori yuklamali koeffitsiyentlarning o'zini to'rtta darajaga ajratishga erishildi. ularning ifodalanishi quyidagi ko'rinishga ega

Ta'sir darajasi eng yuqori yuklamali koeffitsiyentiga ega komponentlarni irodaviy sifatlar, motivlar va o'ziga munosabat xususiyatlari qamrab olgan bo'lib,  $0,909 \div 0,999$  diapazondagi koeffitsiyentlarni o'z ichiga olgan. Ular sporchilarning xalqaro maydonlardagi g'alabalarini ta'minlashga da'vogarlik qilishini shartlovchilardir.

#### 4-jadval.

#### Xalqaro sport musobaqalari g'oliblari va ishtirokchilarining da'vogarlik darajasini tavsiflovchi birinchi tartibili faktor tuzilishi

Faktor: Sportchilarning da'vogarlik darajasining optimalligini shartlovchi irodaviy sifatlar va faoliyat motivlari			
Ta'sir darajasi eng yuqori vaznli koeffitsiyentlar: $0,909 \div 0,999$	Ta'sir darajasi yuqori vaznli koeffitsiyentlar: $0,806 \div 0,892$	Ta'sir darajasi o'rtacha vaznli koeffitsiyentlar: $-0,773 \div 0,791$	Ta'sir darajasi o'rtachadan past vaznli koeffitsiyentlar: $0,552 \div 0,672$
G'ayratlilik	Muvaffaqiyatga intilish motivi	Tirishqoqlik	Natijalarning kutilganlik darajasi
Irodaviy quvvat	Topshiriqlarning murakkabligi	Aqlilik	Tashabbuskorlik
Musobaqalashuv	O'z imkoniyatlarining bahosi	Qat'iyatlilik	Ziyaraklilik
Mas'uliyatlilik	-	Qochish motivi	Kurashishga ehtiyoj
Qobiliyatatlilik	-	-	Bilish motivi
O'z-o'ziga ishongan	-	-	Natijalarning ahamiyatliligi
-	-	-	Quvvatni safarbar eta olinganlik darajasi
-	-	-	Muloqotga ehtiyoj

Ta'sir darajasi yuqori vaznli koeffitsiyentlar esa  $0,806 \div 0,892$  chegaradan o'rin olgan bo'lib, ushbu sifatlar sportchilarning musoboqalarda erishadigan yutuqlarini boyituvchi vazifasini o'taydi. Ular orasidan eng muhim komponent sifatida muvaffaqiyatga erishish motivi o'rin olgan.

Navbatdagi koeffitsiyentlar esa ta'sir darajasi o'rtacha vaznli koeffitsiyentlar bo'lib, ular  $-0,773 \div 0,791$  diapazondagi koeffitsiyentlarga egadir. Bu esa sportchilarning sport faoliyati natijalariga ijobjiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar bilan bir qatorda, faoliyat natijalariga nisbatan e'tiborsizliklarning oldimi olishga ham xizmat qiladi.

To'rtinchini ta'sir darajasi o'rtachadan pastroq bo'lgan koeffitsiyentlar esa  $0,552 \div 0,672$  diapazondagi chegaralarni aks ettirgan. Bu koeffitsiyentni aks ettirgan sporchilarning musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida xizmat qiluvchi komponentlar hisoblanadi. Ushbu komponentlar ham sportchilarning faoliyat samaradorligini ta'minlashda belgilovchi da'vogarlik darajasini kompensatsiya qiluvchilardir.

Ushbu faktor “Sportchilarning da'vogarlik darajasini optimalligini shartlovchi irodaviy sifatlar va faoliyat motivatsiyalari” deb nomlandi.

Ikkinchi faktor esa o'z ichiga birinchi faktor singari ahamiyatga ega bo'lgan navbatdagi yuqori yuklamali sifatlarni o'z ichiga qamrab olgan. Mazkur faktorning yetakchi komponenti sporchilarning da'vogarlik faoliyatini ifodalovchi komponentlar bilan boshlanib, eng quyi darajasini ham aynan ushbu yo'nalishdagi komponent tashkil etgan (qochish motivi). Faktorning mazmunini ifodalovchi holatni navbatdagi 5-jadvalga taqdim etamiz.

Xalqaro sport musobaqalari g'oliblari va ishtirokchilarining da'vogarlik darajasi tuzilmasidagi ikkinchi faktorni tavsiflovchi komponentlar ham an'anaga muvofiq to'rtta darajaga ajratildi. Mazkur faktorning mazmuniy komponentlari sporchilarning musobaqaga tayyorgarlik ko'rish jarayonini samarali

tashkil etish va musobaqaga tayyorgarlik darajasini belgilovchi komponentlarni o‘z ichiga olganligini ko‘rsatmoqda.

**5-jadval.**

**Xalqaro sport musobaqalari g‘oliblari va ishtirokchilarining da’vogarlik darajasini tavsiflovchi ikkinchi tartibli faktor tuzilmasi**

<b>Faktor: Sportchilarning da’vogarlik darajasini stimullovchi faoliyat motivlari</b>			
Ta’sir darajasi eng yuqori vaznli koeffitsiyentlar: 0,949÷0,986	Ta’sir darajasi yuqori vaznli koeffitsiyentlar: 0,812÷0,816	Ta’sir darajasi o‘rtacha vaznli koeffitsiyentlar: 0,740÷0,788	Ta’sir darajasi o‘rtachadan past vaznli koeffitsiyentlar: -0,613÷0,676
Natijalarning qonuniyati	Yaxshi xarakter	Bilish motivi	O‘zini e’zozlash motivi
O‘zini o‘zi kamol toptirishga ehtiyoj	Kurashishga ehtiyoj	O‘z imkoniyatlarining bahosi	Erishishga ehtiyoj
Mustaqillik	-	Natijalarning ahamiyatliligi	Ziyaraklik
Tashabbuskorlik	-	-	Qochish motivi
Go‘zallik	-	-	-
Da’vogarlik darajasi	-	-	-

Sportchilarning yuqori natijalarga erishishi sportdagi ma’lum qonunlarni o‘z ichiga olganligi, o‘zini kamol toptirishga intilishi, shaxsiy fazilatlarni egallashi va faoliyatda keskinlik kuzatilgan sharoitda ham o‘zining natijalarga erishishdagi ishtiyoqini pasaytirmaslik kerakligini ko‘rstmoqda. Bu sportchilarning faoliyat natijalariga da’vogarlik qilishini kafolotlovchi faoliyat motivlari hisobidan ta’milanadi. Shu sababli mazkur faktor “Sportchilarning da’vogarlik darajasini stimullovchi faoliyat motivlari” deb nomlandi.

Shuningdek, tahlil qilinayotgan sportchilarning da’vogarlik darajasi tuzilmasini tashkil etuvchi uchinchi faktorning mazmun tahlili quyidagi munosabatlarni o‘zida aks ettirdi. Faktorning tuzilmaviy ko‘rinishi quyidagi 6-jadvalda keltirilgan. Uchinchi tartiblilik faktorda yuqori vaznga ega bo‘lgan komponentlar salmog‘i anchagina bo‘lib, ular sportchining birlamchi va ikkilamchi faktorlarini kompensatsiya qiluvchi hisoblanadi. Faktorning tarkibidagi komponentlarning eng muhimlari sifatida natijalarga erishganlik darajasining bahosi, rag‘batlanishirishga ehtiyoj, matonat, sog‘liq, sobitqadamlik, o‘zini e’zozlash, erishishga ehtiyoj, muloqotga ehtiyoj, aql, qat’iyatlilik, natijalarning kutilganlik darajasi, tashabbuskorlik, yaxshi xarakterni ko‘rsatib o‘tish mumkindir.

**6-jadval.**

**Xalqaro sport musobaqalari g‘oliblari va ishtirokchilarining da’vogarlik darajasini tavsiflovchi uchinchi tartibli faktor tuzilmasi**

<b>Faktor: Sportchining faoliyat natijalari va o‘ziga bo‘lgan munosabatning shakllanganligi da’vogarlik darajasini kafolotlovchisi sifatida</b>			
Ta’sir darajasi eng yuqori vaznli koeffitsiyentlar: -0,926÷0,968	Ta’sir darajasi yuqori vaznli koeffitsiyentlar: 0,891÷0,897	Ta’sir darajasi o‘rtacha vaznli koeffitsiyentlar: 0,726÷0,782	Ta’sir darajasi o‘rtachadan past vaznli koeffitsiyentlar: -0,564÷0,660
Natijalarga erishganlik darajasining bahosi	Sog‘lik	Quvvatni safarbar eta olinganlik darajasi	Muloqotga ehtiyoj
Rag‘batlanishtirishga ehtiyoj	Sobitqadamlik	O‘zini e’zozlash motivi	Aqli
Matonat	-	Erishishga ehtiyoj	Qat’iyatlilik
Faoliyatni almashtirish	-	-	Natijalarning kutilganlik darajasi
-	-	-	Tashabbuskorlik
-	-	-	Yaxshi xarakter
-	-	-	Qochish motivi

Faktorning mazmunidagi komponentlar sportchilarning musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rishi va ishtirokida natijalarga va o‘ziga nisbatan munosabatni shakllantirishni shartlovchi xususiyatlarni

mujassamlashtirgan. Ular natijalarga erishganlik darajasining bahosi, rag‘batlanishtirishga ehtiyoj, sog‘liq, muloqotga ehtiyoj, aql, natijalarning kutilayotganlik darajasidan iborat komponentlardan iboratdir. Bular sportchining faoliyat natijalari va ularni amalga oshirishda o‘ziga nisbatan munosabatlarning shakllanganligini belgilaydi. Shu sababli faktorni “Sportchining faoliyat natijalari va o‘ziga munosabatini shakllanganligi da’vogarlik darajasini kafolotlovchisi sifatida” deb nomlash o‘rinli bo‘ldi.

Xalqaro sport musobaqalari ishtirokchilari va g‘oliblari sifatida o‘rganilgan sportchilarning da’vogarlik darajasi viloyat va respublika miqyosidagi sport musobaqasi ishtirokchilari va g‘oliblariga nisbatan tizimga va yaxlitlikka ega ekanligi bilan ajralib turibdi. Ularning xalqaro darajada o‘sib o‘tishidagi da’vogarlik darajasi tizimlashgan tuzilmaga egaligi bilan bog‘liq deyish mumkin.

Sportchilarning ishtirok etgan musobaqasi va g‘oliblik ko‘rsatkichlariga muvofiq tahlillar sportchilarda yuqori da’vogarlik darajasi izchil, keng qamrovli va ixchamlashgan tizim hosil qilganligi bilan tafovutlanishini ko‘rsatmoqda. Quyi darajadagi sport faoliyati va natijalariga nisbatan da’vogarlik esa tarqoq va tizimlashmagandir.

Tadqiqotning ushbu bosqichidagi empirik natijalar tahliliga tayanib bob yuzasidan bir qator xulosalarga kelindi.

**Xulosa.** Sportchilarning da’vogarlik darajasi, faoliyat samaradorligini ta’minlashning yetakchi psixologik omillarini empirik o‘rganish yuzasidan qo‘lga kiritilgan ilmiy natijalarga ko‘ra quyidagi xulosalar chiqarildi.

1. Sporchilarning da’vogarlik darajasi faoliyat motivlari xususiyatiga ko‘ra to‘rtta darajaga ega bo‘lib, ular yuqori da’vogarlik, o‘rtacha da’vogarlik, quyi da’vogarlik va noadekvat da’vogarlik darajalaridan iborat.

2. Xalqaro sport musobaqalari ishtirokchilari va g‘oliblarining da’vogarlik darajasi “Sportchilarning da’vogarlik darajasi optimalligini shartlovchi irodaviy sifatlar va faoliyat motivlari”, “Sportchilarning da’vogarlik darajasini stimullovchi faoliyat motivlari”, “Sportchining faoliyat natijalari va o‘ziga munosabatini shakllanganligini kafolotlovchisi sifatida” kabi uch tartibli faktorlardan tashkil topgan ekan.

3. Sportchilarning ishtirok etgan musobaqasi va g‘oliblik ko‘rsatkichlariga muvofiq tahlillar sportchilarda yuqori da’vogarlik darajasi izchil, keng qamrovli va ixchamlashgan tizim hosil qilganligi bilan tafovutlanishini ko‘rsatmoqda. Quyi darajadagi sport faoliyati va natijalariga nisbatan da’vogarlik esa tarqoq va tizimlashmagandir.

### Adabiyotlar.

1. Бороздина Л.В. Исследование уровня притязаний : Учеб. пособие / Л. В. Бороздина. - 4. изд., доп. - Москва : Психология, 2000. – 181 с.
2. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. СПб.: Питер, 2000. 512 с
3. Сидоров К.Р. Концепт «Уровень притязаний» в истории зарубежной психологии // Вестн. Удм. ун-та. Сер. Философия. Психология. Педагогика. 2008. Вып. 2. С. 56-63.
4. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. СПб.: Питер; М.: Смысл., 2003. 860 с
5. Хекхаузен Х. Психология мотивации достижения. СПб.: Речь, 2001. 240 с.

## KURASHCHILARNING KOORDINATSION QOBILIYATI VA TEXNIK-TAKTIK HARAKAT DARAJALARLARINI ANIQLANTIRISH MASALALARI

Raximberdiyev Javlonbek Nasriddin o‘g‘li,  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Jismoniy madaniyat va sport kafedrasи o‘qituvchisi

*Ushbu maqolada kurash sport turining texnik-taktik harakatlarni aniqlantirish, kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari aniqlash, kurashchilarning musaboqalarga tayyorgarligining maqsadi hamda vazifalari haqida ma’lumotlar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** kurash sport turi, kurashchilar, texnika, taktika, tayyorgarlik, musobaqa, bellashuv, murabbiy, pedagog, baholashning differensial usuli, samaradorlik, mashg‘ulot, hujum va himoya harakatlari.

### ОПРЕДЕЛЕНИЕ КООРДИНАЦИОННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ БОРЦОВ И УРОВНЕЙ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДВИЖЕНИЙ

*В статье представлена информация об определении технических и тактических движений в борьбе, оценке показателей технической и тактической подготовленности борцов, а также об изложении целей и задач их подготовки к соревнованиям.*

**Ключевые слова:** борцовский вид спорта, борцы, техника, тактика, тренировка, соревнование, конкурс, тренер, педагог, метод дифференциальной оценки, эффективность, тренировка, наступательные и защитные действия.

### DETERMINING WRESTLING COORDINATION ABILITY AND LEVELS OF TECHNICAL-TACTICAL MOVEMENTS

*This article provides information on identifying the technical and tactical movements in the sport of wrestling, determining the indicators of wrestling technical and tactical preparation, as well as the goals and tasks of their preparation for competitions.*

**Keywords:** wrestling sport, technique, tactics, preparation, competition, contest, coach, pedagogue, differential method of assessment, effectiveness, training, offensive and defensive movements.

**Kirish.** Bugungi kunda yurt kelajagi bo‘lgan yosh kurashchilarni texnik-taktik harakatlarini aniqlantirish masalalari Jahon sport kurashlarida raqobatning kuchayishi ushbu sport turlarida tezkor tahlil qilish va koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish hamda samaradorligi va texnik-taktik harkatlarini oshirish yo‘llarini izlab topish talabini qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 19-martdagи Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish to‘g‘risidagi “Beshta muhim tashabbus” g‘oyasini ilgari surishi hamda, 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-sonli “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi” Qarori muhim hujjatlardan bo‘ldi. Qarorlar ijrosini taminlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Har bir xalq vaelatlarning asrlar davomida vujudga kelgan hamda shakllanib borgan o‘ziga xos milliy sport turlari bo‘lganidek o‘zbek milliy sport turidan biri-kurash va kurashdir.

Kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari yordamida malakali kurashchilar tayyorgarligi darajasini miqdoriy jixatdan aniqlash uchun musobaqa faoliyatining etish va kuzatishning har xil usullaridan foydalanish zarur. Bunday usullarga: kinoga olish, videomagnitofonga yozib olish va turli ramzlar yordamida stenografiya usulida qayd etish va boshqalar kiradi. Kinoga olish va videomagniton yozuvlari qimmatga tushadigan usullar bo‘lganligi uchun xar doim ulardan foydalanishning iloji bo‘lavermaydi. Shuning uchun bellashuv bayonnomalarida turli texnik-taktik xarakatlarni xilma-xil belgilarni foydalanib qayd etish qo‘l keladi.

**Asosiy qism.** Kurashchilarning texnik-taktik harakatlarni qayd etish uchun qo‘llaniladigan ramzlar tizimi ishlab chiqilgan. Mazkur tizim quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarlik darajalari o‘sishini baholash usullari. Kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarlik darajalaridagi o‘sish baholari, yuqorida aytib o‘tilganidek, texnik-taktik tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini mos ravishda bazaviy [asosiy] ko‘rsatkichlar bilan taqqoslash yo‘li orqali aniqlanadi.

Tadqiq etilayotgan masalalarning xususiyatlari qarab darajalar o’sishini baholashning quyidagi usullardan foydalanildi, ya’ni: differensial, majmuali va aralash usuli. Kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarlik darajasining o’sishi qanday ekanligini tushuntirib o’tamiz. Kurashchilar texnik-taktik tayyorgarlik darajasi qotib qolgan, turg‘un kattalik emas. Sport mashg‘ulotlari pedagogik jarayonidagi xilma-xil ijobjiy yoki salbiy omillar ta’sirida texnik-taktik tayyorgarlik darajasi vaqt o’tgan sayin goh yuksalib, goh pasayib turadi. Kurashchilar tayyorgarligining vaqt birligidagi bunday o’zgarishlari texnik-taktik tayyorgarlik darajasidagi dinamikasini ifodalaydi. Hatto yuqori malakali kurashchining o’zi “formani ushlab turganligi” ni ta’kidlayotgan bo’lsa ham, uning qandaydir texnik-taktik tayyorgarlik ko’rsatkichlari ushbu vaqt mobaynida o’zgarib turadi .

Mashg‘ulot davomiyligida murabbiy va pedagoglar har bir mashg‘ulot jarayonida sportchining har tomonlama tayyorlanishini ichki bir sezgi yordamida nazorat qilib boradilar, mashg‘ulotlar rejasiga muayyan o’zgarishlar kiritadilar, qo’yilgan vazifalarning amalga oshirilishiga erishadilar. Ammo miqdoriy baholar tizimining va usullarining yo’qligi sport mashg‘ulotlari samaradorligini pasaytirib yuboradi .

Sport tayyorgarligi pedagogik jarayonida tayyorgarlikni bir tomondan, bir necha tomondan va butun tayyorlanish jarayonini yaxlit holda baholash zaruriyat mavjud. Kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarlikni baholashning differensial usuli. Mazkur usulning moxiyati bir yuqori malakali kurashchining texnik-taktik tayyorgarlikdagi alohida ko’rsatkichlarini boshqa malakali kurashchining xuddi shunday ko’rsatkichlari bilan yoki muvofiq bazaviy ko’rsatkichlar bilan taqqoslashdan iborat. Kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarlik darajasini baholashning majmuali usuli. Kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarlik darajasini baholashning majmuali usuli chiqariladigan qarorlarni asoslash uchun texnik-taktik tayyorgarlik darajasini biringa ko’rsatkich orqali tavsiflash zarurati paydo bo’lganda qo’llanadi .

Kurashchilarini texnik-taktik tayyorgarlikning bunday ko’rsatkichi umumlashtirilgan ko’rsatkich deb, texnik-taktik tayyorgarlik darajasining shunga muvofiq bahosi majmuali baho deb ataladi. Kurashchilarini texnik-taktik tayyorgarlikning umumlashtirilgan ko’rsatkichi majmuali, texnik-taktik tayyorgarlikning barcha xususiyatlarini yoki muayyan xususiyatlari guruhini, ya’ni xujum yoki ximoya harakatlarini, xajm va hilma-xillikni va x.k. qamrab oluvchi ko’rsatkich hisoblanadi.

Kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarlik umumlashtirilgan ko’rsatkichlari mashg‘ulot jarayoni dasturlarini tahrir etish uchun maqsadli topshiriqlar bo’lib hisoblanishi hamda model tavsifnomalarining uchinchi darajali ko’rsatkichlari sirasiga kiritilishi lozim. Uchinchi darajali “model tavsifnomalari”-sport faoliyati samaradorligini tushirib yuborgan yoki uning o’sishiga yordam bergan ma’lumotlar yig‘indisi bo’lmish ko’rsatkichlardir, u mashg‘ulot jarayoni dasturiga taxrir kiritish uchun maqsadli topshiriqlar bo’lib qolishi kerak.

Kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarlik darajasini baholashning aralash usuli. Kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarlik darajasini baholashda o’rtaga qo’yiladigan masalalar doim ham yuqorida ko’rib chiqilgan bir yoki ikki usul: differensial yoki majmuali usullar yordamida hal etilavermaydi. Bu, masalan, quyidagi hollarda yuz beradi:

-texnik-taktik tayyorgarlik alohida ko’rsatkichlari yig‘indisi ancha keng imkoniyatlarga ega bo’lib, bazaviy ko’rsatkichlar yig‘indisi bilan shunday qo’shilib ketsaki, differensial usulning qo’llanilishi umumlashtirilgan xulosalar chiqarishga imkon bermasa;

-mayjud majmuali ko’rsatkich texnik-taktik tayyorgarlikdagi kurashchilarining tayyorgarligiga to’la baho berish uchun hisobga olinishi zarur bo’lgan muhim jixatlarini hisobga olmasa, bunday hollarda differensial va majmuali usullar ma’lum darajada birlashib ketgan aralash usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarlik darajasini aralash usul asosida baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi, ya’ni:

1. Baholashdan qo’yilgan vazifalarning qo’llanish o’rni, maqsadi va xususiyatlaridan kelib chiqib, yuqori malakali kurashchilarini texnik-taktik tayyorgarlikning alohida ko’rsatkichlari guruhlarga birlashtiriladi va har bir guruh uchun unga mos guruh ko’rsatkichi belgilanadi. Bunda texnik-taktik tayyorgarlikning eng muhim ayrim ko’rsatkichlari guruhlarga birlashtirilmasligi, keyingi taxlillarda alohida qo’llanilishi ham mumkin .

2. Shu tarzda guruhli va alohida ko’rsatkichlarning yuzaga kelgan yig‘indisi differensial usul bilan texnik-taktik tayyorgarlik darajasini baholashda yuqorida ko’rib chiqilgan tartibda qo’llaniladi. Shunisi muhimki, bunda ko’rib chiqiladigan ko’rsatkichlarning miqdori ancha kamayadi.


Kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarlik ko’rsatkichlarini aniqlash xususiyatlari. Kurashchilar texnik-taktik tayyorgarlik baholarini shakllantirish uchun sport kurashi bo’yicha texnik-taktik tayyorgarlik ko’rsatkichlari tizimi asos bo’lib xizmat qiladi. Biroq ularning qiymatlarini aniqlashda ayrim nomuvofiqliklar yuzaga keladiki, agar ular e’tiborga olinmasa, texnik-taktik tayyorgarlikni baholash xech qanday samara bermaydi.

Masalan, O‘zbekiston terma jamoasi kurashchilari guruhining respublika miqyosidagi musobaqlar bo‘yicha aniqlanadigan ko‘rsatkichlari bahosi bir xil darajaga ega bo‘lsa, xuddi shu guruhning yuqoriroq toifadagi musobaqlarda aniqlanadigan ko‘rsatkichlari bahosi boshqa darajada bo‘ladi. Muammo yuzaga keladi: yuqori malakali kurashchilarni tayyorlashda nimalarga e’tibor berish va nimalardan foydalanish kerak? Bu holda baholash uchun ko‘rsatkichlarning sport tayyorgarligi maqsadli vazifalariga muvofiq darajadan foydalanish zarur bo‘ladi. Ya’ni, agar murabbiy va yuqori malakali kurashchi O‘zbekiston birinchiligi yoki shunga teng darajadagi musobaqada muvaffaqiyatlari qatnashishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsalar, unda ko‘rsatilgan darajadagi musobaqlarga oid bellashuvlarda belgilangan ko‘rsatkichlardan foydalanadilar. Zero, texnik-taktik tayyorgarlikni baholash uchun maxorati taxminan bir xil bo‘lgan kurashchilarining bellashuvlari bayonnomalarini taxlil etishga to‘g‘ri keladi.

Demak, sport ustasi bilan ikkinchi toifali kurashchining bellashuvi texnik-taktik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari sport ustasi bilan ustalikka nomzodning bellashuvi ko‘rsatkichlariga qaraganda kamroq axborot berishga qodir.

Kurashchi tayyorgarligining maqsadi, osiyo va jaxon championatlari kabi eng yirik musobaqlarda ishtirok etishdan iborat bo‘lgan hollarda texnik-taktik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari yuqori malakali [eng kuchli] malakali kurashchilar bilan o‘tkazilgan bellashuv bayonnomalariga asosiy e’tiborni qaratish lozim. Bazaviy ko‘rsatkichlar darajasiga chiqolmagan malakali kurashchilar navbatdagi mashg‘ulotlar jarayoni rejalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritib, o‘sha g‘oliblar darajasiga erishishni o‘zlarini uchun yaqin vaqtlar ichida bajarilishi kerak bo‘lgan vazifa qilib qo‘ymoqlari zarur texnik-taktik tayyorgarlik darajasi bazaviy ko‘rsatkichlardan yuqoriroq bo‘lgan boshqa kurashchilar esa ko‘rsatkichlar qiymatini yana xam yuqoriroq toifadagi musobaqa natijalariga ko‘ra baholasalar maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu holda mazkur kurashchilar yanada mas‘uliyatlariq musobaqlarda sovrinli o‘rnlarni egallashni ko‘zlamoqlari kerak.

**Tahlil va natijalar.** Bugungi kunda kurashchilarda “MUBIN ZASK” Intellektual sensor texnologiyasi asosida sport tayyorligini boshqarish tizimi joriy etildi. Shu bilan birga koordinatsion va texnik-taktik harkatlarni rivojlantirish masalalarini yetakchi olimlarimizdan **p.f.d. DSc Adilov S.Q.** tamonidan quydagicha ko‘rinishda tahlil qilindi, ya’ni :



- bosh barmoqlarning asoslari og‘irlik yukining kichikroq foizini (birinchi navbatda, harkatlar va muvozanatni tartibga solish uchun) oladi.
- kichkina barmoqning asosi og‘irlik yukining nisbatan kichikroq foizini o‘zlashtiradi (harkatlarni tartibga solish va muvozanatini saqlashga yordam beradi).
- to‘pig‘i tana vazning katta qismini oladi va barqarorlikni ta’minlaydi (og‘irlik yukining ko‘proq foizini ko‘taradi).

Koordinatsion harakatlar bilan kurashchining tovonidagi 3 ta tayanch nuqtasi o‘rtasidagi bog‘liqliklar tovondagi uchta tayanch nuqtasi orasidagi bog‘liqliklar kurash paytida muvozanat va koordinatsiya uchun muhimdir. Og‘irlikni teng taqsimlash uchun taglikning uchta tayanch nuqtasi (tovan, oyoq bosh barmog‘i va kichik barmoq tagida) birgalikda ishlaydi. To‘piq kurash musobaqalarida barqarorlikni ta’minlaydi va tana vaznini qo‘llab - quvvatlaydi. Oyoqning bosh barmog‘ining asosi kurash paytida harkat va barqarorlikni saqlashda oyoq barmoqlarining asosiyuhim ro‘l o‘ynaydi. Tovondagi uchta tayanch nuqtasi orasidagi vazn taqsimotining nisbati kurashchining ishlashi va manyovr qobiliyatiga ta’sir qiladi.

**Xulosa.** Kurash bo‘yicha musobaqa faoliyati va o‘quv-mashg‘ulot jarayonini tahlil qilsh asosida kurashchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish va texnik - taktik harakatlar samaradorligini oshirishga bag‘ishlangan ilmiy-metodik adabiyotlar tahlilini o‘rganish imkonini berdi va o‘rganish natijasida kurashchilarning va texnik - taktik harakatlarini rivojlantirishning ilg‘or texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ilmiy izlanishlar yetarli emasligini ko‘rsatmoqda.

#### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi PQ-4881-sonli “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi” Qarori.
2. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariysi va usuliyoti. T, 2005 yil.
3. Adilov S.Q. Intellektual sensor tizimlaridan foydalangan holda sport kurashida koordinatsion va texnik-taktik harkatlarining integratsiyasi. Avtoreferat. Chichiq. 2024 yil.
4. Raximberdiyev J.N. Kurashchilarda texnik-taktik harakatlarni amalga oshirishning umumiy asoslari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 369-372 bet. Urganch: – 2024. yil.

## IQTISODIY TA’LIM VA TARBIYA

### MAXSUS IQTISODIY ZONALARНИ BOSHQARISH VA ULARNI IZCHIL RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Shonazarov Asror Maxmaisoyevich,  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
“Psixologiya” kafedrasi dotsenti,  
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Ushbu ilmiy maqolada yoritib berilishi nazarda tutilgan maxsus iqtisodiy zonalarni izchil rivojlanirishning ahamiyatli tomonlari keng qamrovli tahlillar asosida ijtimoiy-psixologik jihatdan ilmiy, nazariy va amaliy asoslangan holda ochib berilishi va ularni samarali boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlarining mazmun-mohiyatini amaliyotga tatbiq etish nazarda tutilgan bo‘lib, bunda boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini zamonaviy usul va vositalar yordamida “rahbar-xodim-jamoa” munosabatlarini yanada takomillashtirishga safarbar qilinishi belgilab olingan.

**Kalit so‘zlar:** maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada takomillashtirish, rahbarlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, boshqaruva jarayonlarini izchilligi, sifat va samaradorlik, boshqaruvning zamonaviy qiyofasi, bilim, ko‘nikma va malakalar.

### СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ОСОБЫМИ ЭКОНОМИЧЕСКИМИ ЗОНАМИ И ИХ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

На основе комплексного социально-психологического анализа на научной, теоретической и практической основе предстоит раскрыть важные аспекты последовательного развития особых экономических зон, которые призвано осветить в данной научной статье. Особенности их эффективного управления предполагается реализовать на практике, при этом определено, что организационно-экономические механизмы управления будут мобилизованы для дальнейшего совершенствования отношений «руководитель-работник-коллектив» с помощью современных методов и инструментов.

**Ключевые слова:** дальнейшее совершенствование деятельности особых экономических зон, социально-психологические характеристики руководителей, системность процессов управления, качество и эффективность, современный имидж управления, знания, навыки и квалификация.

### SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANAGEMENT OF SPECIAL ECONOMIC ZONES AND THEIR SUSTAINABLE DEVELOPMENT

*On the basis of complex socio-psychological analysis on a scientific, theoretical and practical basis, important aspects of the consistent development of special economic zones are to be disclosed, which are intended to be covered in this scientific article. The peculiarities of their effective management are supposed to be put into practice, and it is determined that the organisational and economic mechanisms of management will be mobilised to further improve the relations ‘manager-employee-collective’ with the help of modern methods and tools.*

**Keywords:** further improvement of the activities of special economic zones, socio-psychological characteristics of managers, systematic management processes, quality and efficiency, modern management image, knowledge, skills and qualifications.

**Kirish.** Milliy iqtisodiyotni rivojlantirmsandan turib, insonlarni iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik tushunchalarini tarkib toptirmsadam turib, ularni hayotga va kasbga to‘g‘ri yo‘naltirmsandan turib millatni rivojlanirish mushkul ish hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda har qanday tarmoq va sohani rivojlanirish uchun o‘z ishini mohir ustasi bo‘lgan bilimli hamda yuqori darajadagi kompetentlikka ega bo‘lgan rahbarlar hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shuning uchun ham jamiyatimizning har bir a’zosini ongiga yuqorida nazarda tutilgan ilmiy hamda nazariy bilim, zamonaviy dunyoqarashini shakllantirmsandan turib keng ko‘lamli rivojlanishga erishib bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining qat’iy siyosiy irodasi bilan keyingi yillarda mamlakatimizda inson huquq va manfaatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, bunda xalq farovonligini ta’minalash, inson qadrini ulug‘lash va yurtimizni har tomonlama yuksaltirish masalalariga jiddiy e’tibor qaratilib kelinmoqda. Shu tufayli bo‘lsa kerak, mamlakatimizda yashovchi 130 dan oshiq millat va elatlarni tashkil etuvchi xalqimiz roziligi yo‘lida qo‘l urilayotgan samarali islohotlar nafaqat yurtimiz ahlini, balki keng xalqaro jamoatchilikning ham yuksak e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida millat taraqqiyoti yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlarni bardavom bo‘lishiga xizmat qiladi albatta.

Darhaqiqat, bu olib borilayotgan islohotlar va oqilona siyosat, zamonaviy uslubdagi boshqaruv zamirida xalqimizni rozi qilish maqsadi mujassamlashganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, har qanday boshqaruv rahbardan aqliy salohiyat, metin iroda, tinimsiz mehnat, chidam, sabr-bardosh hamda sog‘lom ruhiy barqarorlikni talab etadi. Shu boisdan ham yer yuzida insoniyat paydo bo‘libdiki, hamisha jamoani faol boshqaradigan mahoratlari rahbarlarni tanlash masalasiga jiddiy e’tibor qaratilib kelingan.

Maxsus iqtisodiy zonalarni faoliyatini boshqarishga qodir bo‘lgan rahbar kadrlarning salmog‘ini oshirish, ishlab chiqarishning sifat va samaradorligini muntazam oshirib borishga e’tibor qaratish, tashkilotchi, tashabbuskor va kreativ qobiliyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan boshqaruvchilarini tayyorlash orqali iqtisodiy va ijtimoiy barqaror rivojlanishga erishish bugungi kun uchun muhim va hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolar hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ilmiy tahlillardan kelib chiqib ta’kidlagan holda ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligiga to‘xtalib o‘tamiz, bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bevosita ayni paytda yurtimizda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining samaradorligiga va ularning boshqaruv salohiyatiga bog‘liq hisoblanadi. Chunki ishbilarmonlik muhiti, ishlab chiqaruvchilarning aqliy va boshqaruvchanlik qobiliyati, sifatli mahsulot yaratishi, ularning kreativligi albatta ushbu hududni ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishga sabab bo‘ladi. Shu boisdan mamlakatimizda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishishning yangicha yo‘li bu albatta maxsus iqtisodiy zonalarni hajmini va sifatini bosqichma-bosqich oshirib borish hamda ularni boshqaruv subyektlarini faoliyatini iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tomondan ravnaq toptirish o‘ta dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu kabi o‘tkir muammolarni aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf etish orqali insonlarga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratib berish, ish o‘rinlarini yaratishga erishish mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, yirik loyiham bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilishi va xalqchil qarorlar qabul qilishi bu albatta davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun o‘ta dolzarb bo‘lgan masalalardan hisoblanadi. Chunki har qanday rivojlangan davlat va jamiyat o‘zining rivojlanishida tarixi davomida turli qarshiliklarga hamda to‘siqlarga duch kelgan.

**Asosiy qism.** Dunyo hamjamiyati oldida yurtimiz o‘zining obro‘-e’tibori va mavqeiyiga erishib keng qamrovli islohotlarni amalga oshirib kelinmoqda. Shu tariqa yurtimiz rivojlanayotgan davlatlar singari o‘zining bozor iqtisodiyoti sharoitlarini boshdan kechirmoqda. Bugungi kunda maxsus iqtisodiy zonalarni faoliyatini kengaytirish, ularni sifatli tashkil etish va boshqarishda belgilab qo‘ylgan davlat va jamiyat talablariga rioya qilmoqda. Shu tariqa maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirishga salbiy ta’sir etuvchi omillar tizimli tahlil asosida o‘rganilib o‘z vaqtida va o‘z o‘rnida bartaraf etish orqali ijtimoiy-psixologik va iqtisodiy barqarorlikka erishish ilmiy tadqiqot davomida hal etilishi zarur bo‘lgan maqsad va vazifalardan hisoblanadi.

Ushbi ilmiy tadqiqot ishidan ko‘zlangan maqsad shundaki, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalarni rahbarlarini boshqaruv jarayonlarini samaradorligini oshirish, ularni raqobatbardoshligini ta’minalashda usul va vositalardan keng qamrovli foydalanishga o‘rgatish, ishlab chiqaruvchi hamda ishchi-xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni mazmun-mohiyatini ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini yaratish orqali jahon bozorlari talablariga mos keluvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni sifatini hamda hajmini muntazam kengaytirib borishiga qaratilgan ilmiy va nazariy takliflar, amaliy tavsiyalar va xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Ilmiy tadqiqot ishining dolzarbliji va maqsadidan kelib chiqib hal etilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalarni belgilab olindi:

1) Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatiga salbiy ta’sir etadigan tashqi va ichki omillarni aniqlash va ularni tizimli tahlil asosida o‘z vaqtida bartaraf etish;

2) Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini boshqarish va ularni yanada samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan kreativ yondashuvlarni ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy va nazariy jihatdan tarkib toptirish;

- 3) Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini boyitishga qaratilgan adabiyotlarni tahlil qilish va mazmunan o‘rganish orqali amaliyatga joriy etishni yo‘lga qo‘yishga erishish;
- 4) Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini metodologik asoslash hamda ularni samarali boshqarishga qaratilgan usul va vositalardan keng qamrovli foydalanishga erishish;
- 5) Maxsus iqtisodiy zonalarni tartibga soluvchi ilmiy tavsiyalar, amaliy takliflar va tegishli xulosalar ishlab chiqish.

Ilmiy tadqiqotning obyekti sifatida yurtimizda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalar va ularni boshqaruvi subyektlarining keng qamrovli ta’sirchan mexanizimlar asosida maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini boshqarishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini nazariy, amaliy va ilmiy jihatidan yoritib berishdan iboratdir.

Ilmiy tadqiqotning predmeti haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalar va ularni rahbarlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini mazmun-mohiyatini keng ko‘lamli yoritib berish asnosida maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini ishlab chiqarish hajmini sifati va samaradorligini oshirishni tizimli tahlil qilgan holda o‘rganishdan iborat.

Ushbu keltirib o‘tilgan fikr-mulohazalar va ilmiy tahlillardan kelib chiqib ilmiy izlanishlarni natijalaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, yurtimizda amalga oshirilayotgan ushbu izchil islohotlarning barchasi milliy manfaatlarga xizmat qilishga qaratilgan bo‘lib, bunda davlat va jamiyat manfaatlarini keng qamrovli yuksalishiga olib keladi. Bularning barchasi iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar natijasida amalga oshiriladi. Shu o‘rinda iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar haqida to‘xtalib o‘tamiz hamda iqtisodiy islohotlarni mazmun-mohiyatini oshib berishga harakat qilamiz.

**Iqtisodiy islohotlar** – xo‘jalik yuritish tizimida, iqtisodiyotni boshqarishda, iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yo‘llari va usullarida yirik qayta qurishlar, o‘zgartirishlar samaradorligi past muayyan iqtisodiy tizimni takomillashtirish yoki eski tizimdan yangisiga o‘tish maqsadlarida amalga oshiriladi. Iqtisodiy tizimning samaradorligi qoniqarsiz bo‘lgan, iqtisodiy tangliklar yuz bergan, iqtisodiyot kishilarning ehtiyojlarini yetarli qondirmagan hollarda, mamlakat o‘z taraqqiyotida boshqa mamlakatlardan orqada qolgan sharoitlarda o‘tkaziladi.

**Ijtimoiy islohotlar** – Aholini jamoat va davlat ishlarini boshqarishga faol jalb etish fuqarolarning huquqiy madaniyati va yuridik savodxonligini oshirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta’minalash, tegishli sohalarda davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda samarali qarorlar qabul qilishning g‘oyat muhim sharti hisoblanadi.

Ilmiy izlanishlardan kelib chiqib jamoatchilik fikrini tahlil etish, fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini kengaytirish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining yanada ochiqligini ta’minalash asosida boshqaruvi qarorlari qabul qilinishini sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarish maqsadida yurtimizda keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga keng qamrovli imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, mamlakatni sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirishning jadal sur’atlari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda fuqarolar, nodavlat va notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatni boshqa institutlarining ishtirok etishlaridagi rolini oshirish, xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan tamoyillari va normalarini inobatga olgan holda ushbu yo‘nalishdagi yondashuvlarni hamda ularning faoliyatini avj oldirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratishini taqozo etmoqda.

Maxsus iqtisodiy zonalarning boshqarish va ularni faoliyatini takomillashtirish muhim hisoblanadi. Strategik islohotlar agentligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati tahlil qilinib, investitsiya muhitini yaxshilash va maxsus iqtisodiy zonalarni boshqaruviga yirik operatorlarini jalb qilish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratishga doir takliflar ishlab chiqildi.

Yurtimizda milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirish va 2024-yilning 1 avgustga holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 20 ta maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat ko‘rsatib, ularda 771 ta korxona rezident sifatida ishlar olib borilmoqda. Joriy yilning 1-choragida maxsus iqtisodiy zonalarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 trln so‘mga yetib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 25,7 foizni tashkil etgan. Shuningdek mazkur davrda 1,8 trln so‘m investitsiyalar o‘zlashtirildi, bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 28,6 foizga ko‘pdir.

Tahlillarga ko‘ra bugungi kunga qadar O‘zbekistonda 45 mlrd dollardan ortiq xorijiy investitsiyalar, jumladan, maxsus iqtisodiy zona loyihalari doirasida 800 mln dollar jalb qilingan, bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar umumiyligi hajmining atigi 1,8 foizini tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich: (Xitoyda – 80 foiz, Vietnamda – 65 foiz, Birlashgan Arab Amirliklarida – 40%) va hakazolarni tashkil etadi.

Ilmiy tadqiqotning diqqat markazida bo‘lgan va o‘rganish obyekti bo‘lgan maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati boshqarish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida xorijiy investitsiyalarini jalb qilish darajasini 2024-yil 1-avgustgacha bo‘lgan holatini tahlil qiladigan bo‘lsak,

ma'lumot o'rniда aytish joiz, so'nggi yillarda qonunchilikni takomillashtirish va qulay investitsiya muhitini yaratish bo'yicha ko'rilyotgan muhim chora-tadbirlar natijasida 13 ta hududda 25 ta maxsus iqtisodiy zona faoliyat olib bormoqda. Ularda umumiy qiymati 47,1 trln so'mlik 650 ta loyiha amalgalashirildi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarning yanada rivojlanishiga ijobjiy ta'sir etuvchi quyidagi asosiy omillar mavjudligi aniqlandi:

1. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalarning mavjud resurslardan va tashqi infratuzilmadan (*gaz, suv, elektr energiyasi, avtomobil yo'llari, kanalizatsiya, temir yo'l liniyasi*) kabilardan oqilona va tejamkor texnologiyalar asosida to'liq foydalanish orqali investitsiya loyihalarini sohani rivojlanishiga imkon qadar jalb qilishni bilishga o'rgatishni yo'lga qo'yish.

2. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish va ularni boshqarishda rahbarlarga xos ijtimoiy-psixologik ilmiy bilimlarni nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ko'nikmalarni, malakalar va tajribalarni davomli ravishda o'rgatib borishni yo'lga qo'yishni joriy etish.

3. Maxsus iqtisodiy zonalarni faoliyatini boshqarishda hamda ularni sifat va samaradorligini mutnazam oshirib borish davomida boshqaruvchilar rivojlangan davlatlar tajribalaridan milliy va madaniylashtirish asosida andozalar hamda foydalanish orqali ijtimoiy-psixologik yondashuvlar bilan hamohang tarzda amaliyotga joriy etib borishni bilishga o'rgatib borishni yo'lga qo'yishga erishish.

4. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada rivojlantirib manfaatlari va samarali boshqaruvga erishishlari uchun rahbarlarning zamonaviy boshqaruv uslublari va vositalardan oqilona foydalanishga o'rgatish orqali ishchi-xodimlarga motivatsiya berib borishlariga ijtimoiy-psixologik tomondan keng imkoniyatlar yaratib berishni yo'lga qo'yishga o'rgatib borish.

5. Mazmundor boshqaruvga erishish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqaror va sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratishga erishish.

6. Maxsus iqtisodiy zonalarda ishlab chiqiladigan mahsulotlarni raqobatga bardoshligini ta'minlashni mutnazam oshirib borish orqali bozorlardagi talab va taklifni hamda xaridorlarni ruhiyatiga ijobjiy ta'sir etadigan ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish jarayonlarini barqarorashtirish, barcha turdag'i maxsus iqtisodiy zonalarni faoliyatini tizimli tahlil qilish asosida ularni yetarli darajada o'rganishni yo'lga qo'yishga erishish.

7. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalarda ishlab chiqarilayotgan barcha turdag'i tovarlar va mahsulotlarni sifatiga jiddiy e'tibor qaratishni samarali yechimlarini ishlab chiqishni yo'lga qo'yishga erishish.

8. Maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarish va ularning faoliyatini yanada samaradorligini oshirish mobaynida "rahbar-xodim-jamoa" munosabatlarini har tomonlama takomillashtirishga qaratilgan o'zida ijtimoiy-psixologik mazmun-mohiyat kasb etuvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishga erishish.

9. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularni rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni izlab topish, ularni qay darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aniqlash hamda tizimli tahlil asosida ularni bartaraf etishni choralarini ko'rishga erishish.

10. Maxsus iqtisodiy zonalarni samaradorligiga ta'sir etuvchi mavjud muammolarni hal qilish maqsadida maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan takliflar, tavsiyalar ishlab chiqish va ishlab chiqarish obyektlarida qo'llashga erishish.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib ta'kidlaydigan bo'lsak, boshqaruvga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlardan kelib chiqib olib borilgan ilmiy tahlillar va yondashuvlardan kelib chiqib rahbarlarning bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish orqali har qanday korxona, tashkilot yoki muassasa o'z-o'zidan rivojlanmaydi va samaradorlikka erishmaydi. Ularni boshqarish uchun zamonaviy ishbilarmon, yuqori boshqaruv qobiliyatlariga ega bo'lgan va kreativ fikrlaydigan, boshqaruvchanlik fazilatlariga ega bo'lgan, bilimdon, aqliy salohiyatga ega bo'lgan, yuqori darajadagi ijtimoiy-psixologik kompetentli, tashabbuskor va tashkilotchi hamda ishbilarmon rahbar faol harakat qilishi hamda tashabbusni o'z qo'liga olishi kerak bo'ladi. Chunki har qanday boshqaruv jarayoni yuqorida keltirib o'tilgan boshqaruvchiga xos ijtimoiy-psixologik sifatlarga ega bo'lgan zamonaviy rahbarlarga muhtojlik sezadi.

Ushbu yuqorida keltirib o'tilgan tahlillar natijalaridan kelib chiqib quydagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada ravnaq toptirish va ularni boshqarishning yangicha qiyofasini yaratish.

2. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalarni faoliyatini samaradorligini oshirish orqali ularni jahon standartlari moslashtirishga erishish.

3. Maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarishda rahbarlarni kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, mehnat jamoasidagi ishchi-xodimlarni samarali faoliyat yuritishlari uchun qulay shart-sharoyitlarni yaratib berish.

4. Maxsus iqtisodiy zonalardagi ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali import-eksport darajasini muntazam oshirib borishni samarali tashkil etishni yo‘lga qo‘yish orqali ushbu sohani yanada rivojlantirishga erishish hamda xalqaro investorlarni ishlab chiqarish sohalariga jalg qilish.

5. Yurtimizda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalarda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitini yaratish orqali raqobatga bardoshli zamonaviy mexanizmlarni yaratishni yo‘lga qo‘yish.

6. Maxsus iqtisodiy zonalarni qamrovini kengaytirish orqali sifatlari boshqaruvni tashkil etish va boshqauvni ilmiy, nazariy va amaliy asoslarini mazmun-mohiyatini hamda ahamiyatli tomonlarini olib berishga erishish.

Ilmiy izlanishlarimizdan kelib chiqib fikr yuritadigan bo‘lsak, ushbu tadqiqot materiallari va metodologiyasini asoslab o‘tishimiz mumkin.

Asilni olganda maxsus iqtisodiy zonalarni yaratish, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, ularni salmog‘ini kengaytirish, sifat va samaradorligini muntazam oshirib borish, ishlab chiqarishning talab va taklifga moslasligini ta‘minlash, boshqaruv jarayonlarini ijtimoiy-psixologik xususlyatlarini olib berish davlat va jamiyat manfaatlari uchun muhim hisoblanadi.

**Maxsus iqtisodiy zona deganda** — tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalg etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimiga ega bo‘lgan hudud hisoblanadi. Shu o‘rinda keltirib o‘tadigan bo‘lsak, maxsus iqtisodiy zonalar quyidagi turda tashkil etilishi mumkin:

- erkin iqtisodiy zonalar;
- maxsus ilmiy-texnologik zonalar;
- turistik-rekreatsion zonalar;
- erkin savdo zonalar;
- maxsus sanoat zonalar.

Yurtimizda faoliyat yuritishga moslashtirilgan maxsus iqtisodiy zonalar o‘z xususiyatiga ko‘ra bo‘sh turgan va faoliyat ko‘rsatmayotgan davlat mulki obyektlari, ma’muriy-hududiy tuzilmalar hududlari negizida, shuningdek qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlarda tashkil etiladi.

Maxsus iqtisodiy zona hududida joylashgan davlat mulki obyektlari mahalliy davlat hokimiyati organlarining o‘z vakolati doirasidagi qaroriga ko‘ra maxsus iqtisodiy zona direktsiyasiga davlat aktivlarini boshqarish bo‘yicha vakolatli organ bilan kelishgan holda operativ boshqaruvga berilishi mumkin, bundan xususiyashtirilmaydigan strategik davlat mulki obyektlari bundan mustasno.

Davlat mulki obyektlari maxsus iqtisodiy zona direktsiyasiga maxsus iqtisodiy zona faoliyat ko‘rsatadigan butun davr uchun operativ boshqaruvga beriladi.

Umuman olganda maxsus iqtisodiy zonalarni faoliyatini yanada samaradorligini oshirishga qaratilgan quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqish lozim deb topildi:

- ✓ maxsus iqtisodiy zonalarni boshqaruv faoliyatini manzilli rivojlantirishga erishish;
- ✓ barcha turdag‘i maxsus iqtisodiy zonalarning boshqaruv subyektlarini faoliyatini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tartibga solishni ta‘minlash;
- ✓ raqobatga bardosh biradigan rahbar va ishchi-xodimlar bazasini yaratish hamda ularning barqaror natijadorligini ta‘minlash;
- ✓ ularning o‘zaro munosabatlarga kirishish davomida sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratish;
- ✓ maxsus iqtisodiy zonalarni faoliyatini boshqarish va ularni tashkil etishning strategiyasini belgilab olish;
- ✓ maxsus iqtisodiy zonalarni faoliyatini boshqarish va ularni tashkil etishda me’yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya qilish va faoliyat yuritish tartibiga amal qilish.

Ushbu keltirib o‘tilgan ilmiy va amaliy tahlillardan kelib chiqib fikr yuritadigan bo‘lsak, mamlakatimizning barcha mintqa va hududlarni izchil rivojlantirish uchun hukumat ularning mavjud holati va xususiyatidan kelib chiqib maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etishi hamda ularni boshqarish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Yurtimizda faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalarni faoliyatini natijadorligi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga bog‘liq hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotning yangi yo‘nalishdagi sohalari va tarmoqlari yildan-yilga tarmoqlanib takomillashib bormoqda. Shuning uchun ham ushbu sohani sifat va samaradorlikka erishivi uchun iqtisodiy siyosat sohasida yangi mezonlar va maqsadlar joriy etilishi talab qilinadi. Faqat erishilgan yutuqlarni shunchaki mustahkamlash emas, balki iqtisodiy o‘sishning yangi sifatini ta‘minlaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi. Aynan shunday jihatlardan biri, fikrimizcha, mamlakat hududlarining investitsiya salohiyatini tahlil qilish, xorijiy investitsiyalarni jalg qilish natijasida erishiladigan samaralarga, jumladan xorijdan zamonaviy texnika va

texnologiyalarni olib kirish orqali ularni ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilish hamda boshqaruv tajribalarini o‘zlashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish asnosida aholini manfaatlariga xizmat qiladigan maxsus iqtisodiy zonalarni faoliyatini kengaytirish muhim hisoblanadi.

Yuqoridagi keltirib o‘tilganlarni hisobga olib fikr yuritadigan bo‘lsak, umumiy ma’noda ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarni shakllantirishimiz mumkin:

1. Mamlakatimizda boshqaruv sohasida ko‘plab psixologik tajribalar o‘tkazilgan bo‘lib, ular yuqorida nazarda tutilganidek, rahbar shaxsi va unga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi hamda boshqaruvga xos bo‘lgan funksional, vaziyatlari, kompetentsiyaviy, kreativ va boshqa ko‘plab qobiliyatlarni mujassamlashtirgan jarayon sifatida qaraladi. Aynan boshqaruv jarayoni ushbu yondashuvlar asosida ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilib berilgan.

2. Maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarishdagi rahbarga xos bo‘lgan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar ta’sirchan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar asosida jamoadagi shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtirishga, boshqaruv faoliyatdagi ijtimoiy vaziyatlarni tarkib toptirish orqali ularni barqarorlashtirishga, konstruktiv, empatiyaga xos bo‘lgan, o‘zaro tolerantlikka asoslangan munosabatlar tizimini yaratilishiga xizmat qiladi.

3. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki rahbarning jamoadagi shaxslararo munosabatlar tizimida o‘z qo‘1 ostidagilarga ta’sir eta olish qobiliyati, ijtimoiy vaziyatlarda qo‘1 ostidagilarning qobiliyati, iqtidori, aqliy salohiyati va hissiy-emotsional holatiga ko‘ra muloqot qilishi, muomala madaniyatiga amal qilishi kabilarni o‘zida mujassamlashtiradi va aynan ijtimoiy-psixologik tomondan ularni mohiyati oolib berilgan.

**Xulosa.** Ayni paytda axborot oqimining harakatlanish tezligi va jadallahushi, ko‘p jihatdan barcha sohalarni rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu esa maxsus iqtisodiy zonalardagi boshqaruv subyektlaridan amalga oshirilayotgan islohotlarni o‘z vaqtida anglab olish kerakligini zamonaviy rahbarlardan talab etmoqda. Shu tariqa rahbar shaxsi kognitiv, iqtisodiy ong, iqtisodiy tafakkur va kreativlilik sohasiga qo‘yadigan talablarning ortishi hamda rahbar xodimlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillarni o‘rganish orqali uni rivojlantirishning amaliy imkoniyatlarini izlab topishi zaruratini anglab yetishi muhim hisoblanadi.

### Adabiyotlar:

1. Mukumova D.I., Fayzullaev R.X., Jumanov A.A., Yarova S.B.. –Boshqaruv psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: “TIQXMMI” MTU bosmaxonasi., 2023. 88-102 betlar.
2. 1- Prezident I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat. – 2008 yil, 133-134 b.
3. Hayitov O.E. – Boshqaruv psixologiyasi: Darslik. – T.: “Istiqlol” nashriyoti, 2021. - 234 b.
4. Axmedjanov K.B., Xolov A.X. – Yosh rahbar kadrlarda samarali qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish. O‘quv qo‘llanma // Toshkent. -“Tafakkur qanoti”, 2020. 96 bet
5. To‘ychiyeva S. Boshqaruv texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma // Toshkent.-“Navro‘z” nashriyoti, 2020. 148 bet
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. <https://stat.edu.uz/>, lex.uz.
7. Shonazarov M. Kasb psixologiyasi. “O‘quv qo‘llanma” – Samarqand. SamDU Nashr-matbaa markazi, 2023 yil, 337 bet.
8. A.M.Shonazarov. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini boshqarish va ularni samaradorligini oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // “Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi” ilmiy-amaliy jurnal, ISSN 3030-3710 (P), ISSN 3030-3095 (E), (№4, 2024) <http://buxpxti.uz> 180-185 betlar.
9. Shonazarov A.M. Maxsus iqtisodiy zonalarni boshqarishning uslubiy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari “Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi” ilmiy-amaliy jurnal, ISSN 3030-3710 (P), ISSN 3030-3095 (E), (№5, 2024) <http://buxpxti.uz> 87-94 betlar.
10. Xasanov A. “Boshqaruv ma’naviyati va rahbar ma’naviy qiyofasi” uslubiy qo‘llanma /. – Toshkent: XK “Umid Design”, 2021.-96 b.

## INKLYUZIV TA’LIM

### NOGIRON BOLALARNING JAMIYATGA MOSLASHUVIDA OILA FAROVONLIGINING ASOSI

*Hamraqulova Maftunaxon Shuxratovna,  
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

*Ushbu maqolada, nogiron bolalarni turli tadbirlar va mashg‘ulotlarga jalb qilish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilish nogiron bolaning psixologik emotsiyal holatiga ijobjiy ta’sir qilishi nogiron bolaning farovonligini oshishiga olib kelishi, nogiron farzandlarni jamiyatda moslashuvida oila farovonligi asosiy omil ekanligi haqida yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** nogironlik, ijtimoiy muhit, moslashish, oila, farzand, farovonlik.

### ОСНОВА СЕМЕЙНОГО БЛАГОСОСТОЯНИЯ В АДАПТАЦИИ ДЕТЕЙ-ИНВАЛИДОВ К ОБЩЕСТВУ

*В данной статье идёт речь о том, что вовлечение детей-инвалидов в различные виды деятельности и занятий, содержательная организация их свободного времени положительно влияют на психологическое и эмоциональное состояние ребёнка-инвалида, приводит к повышению его благополучия. и что благополучие семьи является основным фактором адаптации детей-инвалидов в обществе.*

**Ключевые слова:** инвалидность, социальная среда, адаптация, семья, ребёнок, благополучие.

### BASIS OF FAMILY WELL-BEING IN ADAPTATION OF DISABLED CHILDREN TO SOCIETY

*In this article, it is explained that the involvement of disabled children in various activities and trainings, the meaningful organization of their free time has a positive effect on the psychological and emotional state of a disabled child, leads to an increase in their well-being, and that the well-being of the family is the main factor in the adaptation of disabled children in society.*

**Keywords:** disability, social environment, adaptation, family, child, well-being.

**Kirish.** Nogironlik global va keng tarqalgan hodisadir. Jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik o‘zgarishlar, jismoniy va ruhiy nuqsonga ega bo‘lgan bolalarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining statistik ma'lumotlariga ko‘ra, dunya aqliy va jismoniy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan 400 milliondan ortiq odamlar bor, ularning aksariyati bolalardir. O‘zbekistonda 760 ming nafardan ziyod nogironligi bo‘lgan shaxs, shu jumladan, 100 mingdan ortiq 16 yoshgacha nogironligi bo‘lgan bolalar istiqomat qiladi. Sog‘lom avlod deganda nafaqat jismonan, aqlan sog‘lom farzandlarni ma’naviy, madaniy, jismoniy yetuk qilib voyaga yetkazish ham nazarda tutilgan. Bunda eng avvalo jamiyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgan nogiron farzandlar taqdiri, ta’lim-tarbiyasi, ijtimoiy muhofazasi a‘lovida o‘rinda e’tiborga olinmoqda. Sog‘lom bolani voyaga yetishi uchun ota-onaning sog‘lom bo‘lishi, farovon turmush tarzida xayot kechirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Nogiron farzandi bor oilalarni qo‘llab quvvatlash, ota-onalarni rivojlanishida muommolari bo‘lgan farzandlari bilan o‘zoro munosabatini yaxshilash, bu usullarni to‘g‘ri anglash dolzarb masalardan birdir.

Nogiron bolalarni tarbiyalash maxsus maktablarda amalga oshirilsa-da, bunday bolalarni tarbiyasida oila asosan muhim o‘rin tutadi. Bolaning atrofdagilar bilan har doim me’yoriy muloqatda bo‘lib turishi uning aqliy rivojlanishiga, jamiyatga moslashuvida zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yaratadi. Nuqsonli bolalarda bu xol ozmi-ko‘pmi chegaralangan shuning uchun ham, ota-onalar oilada bolalarning ana shu holatiga alohida ahamiyat berishlari zarur.

**Asosiy qism.** Nogironlik o‘z qobiliyatlarini namayon qilishga, jamiyatga qo‘shilishiga, kerakli faoliyatni amalga oshirishga to‘sinqinlik qiladi. Nogiron bolalar jamoaga, ko‘pincha shafqatsiz jamiyatga moslashishga majbur. Ko‘pgina bolalar ijtimoiylashuv va ta’limda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ko‘pincha ular o‘zlarini yolg‘iz va begona his qilishadi.

L.S. Vygot斯基ning so‘zlariga ko‘ra, maxsus bolalarni jamiyatga integratsiya qilishdagi qiyinchiliklar nogironlik bilan bog‘liq emas. Asosiy sabab-bolaning jamiyat bilan aloqasini buzadigan “ijtimoiy dislokatsiya” dir. Bolalarning turli ijtimoiy rollari, ularning mohiyatini, funktsiyalarini va to‘plangan tajribasini hayotda qo‘llashni o‘zlashtirishi vaziyatni tuzatishga yordam beradi. Buning uchun bolalar sog‘lom, bag‘ri keng tengdoshlari bilan muloqot qilishlari kerak.

V.V.Saburovning (1999) fikricha, ota-onalarning aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tuzatishga yo‘naltirilgan ta’limga tayyorligining mezonlari pedagogik savodxonlik, o‘quv jarayonida faol ishtirop etish va bolaga bo‘lgan qadriyatlarga asoslangan munosabatdir. V.V.Saburov tomonidan mакtab va oila o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning texnologik modeli ota-onalar bilan individual amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi; sinf va mакtab miqyosidagi tadbirdirlarda ota-onalar va bolalarning birgalikdagi faoliyati, bolalarni kattalarning mehnat hayotiga jalb qilish; o‘qituvchilar va ota-onalar uchun anonim va maxfiy psixologik-pedagogik maslahatlar; birgalikda ota-onalarning individual rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

L. I. Shipitsyna (2002) ishining alohida boblari (6,7) og‘ir va chuqur aqliy zaif bolalarni tarbiyalayotgan oilalarda onalarning shaxsiy xususiyatlarini va munosabatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

I. F. Ryul (1839, 1840) ruhiy kasallarning ota-onalari va yaqinlari uchun “Qisqa ko‘rsatma” tuzdi. Uning qo‘llanmasi oila a‘zolarining ruhiy kasalga nisbatan qo‘llashi kerak bo‘lgan tavsiyalarni belgilab berdi. Ular orasida bir-birlari bilan suhbatda do‘stona xulq-atvor bo‘lish lozimligi va ijobiy odatlar hamda turmush tarzi barqarorligi qayd etilgan. Ota-onalar farzandlari bilan tushuntirish suhbatlari olib borishlari, ularni foydali mashg‘ulotlar bilan band qilishlari talab qilindi.

O‘zbek olimlaridan G‘.B.Shoumarov- “Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar maxsus maktabini bitirgan yosh oilalarda ijtimoiy - psixologik muammolar” mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

K.Q.Mamedov “Maktabgacha yoshdagi bolalar va o‘quvchilaming aqliy rivojlanish xususiyatlari (psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida)” mavzusida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

Ijtimoiy moslashuv - maqsadi nogiron yoki nogiron bolaning ko‘nikmalarini rivojlantirish, unga jamiyatning to‘la huquqli a‘zosi bo‘lishga yordam berish va bolalar bog‘chasida, mакtabda, kollejda yoki ishda tengdoshlari bilan muloqot qilishda muammolarga duch kelmaslikdir. Ijtimoiy moslashuv o‘qish, mehnat, yordamchi vositalardan foydalanish, ijodkorlik, sport, san’at va hunarmandchilikka asoslangan.

Jamiyatimizda barcha ijtimoiy institutlar tomonidan nogiron bolasi bor oilaga e’tibor kuchaymoqda. Bu jamiyatda rivojlanayotgan, og‘ir bo‘lsa-da, ob’ektiv jarayonlar, ijtimoiy-madaniy munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, bolalarni rivojlantirish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirishda oilaning ustuvorligini anglashning kuchayishi bilan izohlanadi. Shu munosabat bilan barcha sa’y-harakatlarni oila tuzumlarini tiklash, oilalarda o‘zaro tushunishni rivojlantirish, ota-onalarning pedagogik madaniyatini yuksaltirish, oilaning tarbiyaviy salohiyatini yuksaltirishga yo‘naltirish zarur .

Rivojlanishda muammolari bo‘lgan bolaning ijtimoiylashuviga uning, ota-onasining bu jarayonda ishtirokisiz erishib bo‘lmaydi. Oila ijtimoiy institut sifatida bolani ijtimoiylashtirishga chaqiriladi (Z. Freyd). Aynan oilada bolaning insoniy qadriyatlar, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning tabiatini haqidagi ilk tasavvurlari, axloqiy fazilatlar shakllanadi. Shuning uchun rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolaning oilasi ham uning birinchi ijtimoiylashuv institutiga aylanishi kerak. Bolaning ijtimoiylashuvining birinchi bosqichi uning oilaga moslashishi bo‘lishi mumkin. Ikkinci bosqich - maxsus ta’lim muassasasiga moslashish va oxirgi, eng muhim bosqich - bu jamiyatga moslashish, shu jumladan butun oilaning o‘zini moslashtirish.


Oilalarni nogiron farzandi bilan birga dam olish maskanlarida bo‘lishi, turli tadbirdirlarda birga ishtirop etishi, bolaning jismoniy salomatligini va ijtimoiy emaotsional farovonligiga ta’sir qiladi, qiziqishlarini oshiradi. Shuning uchun ota-onalar nogiron bolalarni qiziqishlari bo‘yicha kasblarga yo‘naltirish, mакtabdan tashqari bo‘sh vaqtini o‘tkazishda ko‘nikma va qiziqishlarini, do‘stlik tuyg‘usini rivojlantirish turli tadbirdirlarga jalb qilishga e’tibor qaratishlari lozim. Biroq, alohida ehtiyojli bolalar tadbirdirlarda kamroq ishtirop etadilar. Ular odatda uyda va yolg‘iz o‘tiradigan mashg‘ulotlarda qatnashadilar. Olib borilgan tadqiqotimizga ko‘ra oila va atrof-muhit, bolaning xususiyatlari: masalan yoshi, jinsi, qobiliyatlar, axvolining og‘irligi, qiziqishlari nogiron bolani jamiyat hayotida ishtirop etishiga ta’sir qiladi. Jismoniy va atrof muhit omillari masalan jismoniy to‘silalar, tengdoshlarining munosabati, boshqalar tomonidan qabul qilinishi ham bolaning ishtirokiga salbiy ta’sir qiladi. Oilaviy omillar orasida – ota-onal qadriyatlar va afzalliklari, oilaning ijtimoiy-iqtisadiy holati; daromadi, ta’lim darajasi ota-onananing sog‘lig‘i, oilaning faravonligi va barcha oilaviy resurslar bolaning faollik istagini shakillantirishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Oila bolaning ijtimoiylashuviga qobiliyatlarini shakillantirishda asosiy ahamiyatga ega. Ayniqsa o‘rta bolalaik davrida, oilaviy tajribadagi farqlar va o‘zaro munosabatlar dinamikasi oila a‘zolari bolalarda sezilarli o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Oila tomonidan qo‘llab quvvatlash va rag‘batlantirilantirish ijtimoiy hissiy jihatdan nogiron

bolalarni jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim ahamiyatga ega. Ba’zi ota-onalarning bola bilan ishlash istagi ham, imkoniyati ham yo‘q - bular, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli past bo‘lgan oilalar, nochor oilalar, madaniy rivojlanishi etarli emas. Boshqa ota-onalar bola bilan ishlash istagini bildiradilar, ammo tegishli moddiy va maishiy sharoitga ega emaslar. Farzandi bilan ishlashni xohlaydigan, mutaxassislarning barcha ko‘rsatmalariga rioya qilishni xohlaydigan, buning uchun tegishli shart-sharoitlarga ega bo‘lgan ota-onalar bor, lekin ular nima qilishlari kerakligini aniq bilmaydilar.

Biz olib borayotgan tadqiqot nogiron farzandi bor oilalarni nogiron bolalarini jamiyatda ijtimoiylashuviga ta’sir qiluvchi shaxsiy omillarni o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotga 140 nafar nogiron farzandi bor oilalar jalb qilingan. Ota-onalarning 24 nafari farzandini sport bilan shu’g‘ullanishini, 21 nafari san’at darslariga qatnashini, 15 nafari dam olish maskanlariga borishligini, 28 nafari do‘sstlari bilan muloqat qilishini, 18 nafari kampuyter o‘yinlari o‘ynashini, 17 nafari kafe va parklarga borishligini, 17 nafar ota-onalar esa ularda vaqt yetishmasligi, iqtisodiy muammolar, cheklangan resurslar, jamoa transportlarini moslashmaganligi sababli bolalarni, ularni qiziqishlari bo‘yicha to‘garakalarga olib borishmasligini ta’kidladilar.

### **Oilalarni nogiron bolalari bilan bo‘sh vaqtini o‘tkazishi**

- |  |  |
|--|--|
| <span style="color: #0070C0;">■</span> sport bilan shug‘ullanuvchilar<br><span style="color: #A9A9A9;">■</span> dam olish maskanlariga boruvchilar<br><span style="color: #0070C0;">■</span> kampuyter o‘yinlari o‘ynovchilar<br><span style="color: #0070C0;">■</span> uyda qoladigan | <span style="color: #C8512E;">■</span> sa‘nat darslariga qatnshuvchilar<br><span style="color: #F0A900;">■</span> do‘sler bilan muloqat qiluvchilar<br><span style="color: #6AA84F;">■</span> kafelarga, parkalarga boruvchilar. |
|--|--|



### **Nogiron farzandlarning bo‘sh vaqtlarini o‘tkazishi**

O‘tkazilgan so‘rovnoma da nogiron farzandi bor oilalarni 17% foizi farzandini sport bilan shug‘ullanishini, 15% foizi sa‘nat to‘garaklariga qatnashini, 11% foizi dam olish maskanlariga borib turishini, 20 % foizi do‘sstlari bilan muloqat qilishini, 13% foizi farzandi kampuyter o‘yinlari o‘ynashini, 12 % foizi kafe va parklarga borishini, 12% foizi oilalarda nogiron farzandini tarbiyalash, uni tengdoshlariga, jamiyatga qo‘sishiga yetarli ma’lumot va tajribani yo‘qligini ham ko‘rishimiz mumkin. O‘z farzandlarini nogironligidan uyalishini, atrofdagilar beradigan har xil savollardan ochishini aytdi. Ota-onalarni nogiron farzandini cheklashlari, ularni imkoniyatlarini yanada chegaralaydigan ikkilamchi nuqsonlarining chuqurlashib ketishiga, ijtimoiy jamiyatga moslashuvining qiyinlashuviga va boshqa ko‘plab salbiy oqibatlarga olib kelishiga sababchi bo‘lib qoladilar. Aksincha, ota-onalar o‘z farzandlari bilan birga bo‘lishi, jamoalarda turli hil tadbirlarda birgalikda ishtirok etishi, bolani o‘z sog‘lom tengdoshlari orasiga qo‘silib ketishi, xulq-atvorini yaxshilanishiga, ma’naviy shakillanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Sog‘lom va imkoniyati cheklangan bolalar o‘rtasida do‘stona munosabatlar shakillanadi. Nuqsonli bolalarni tevarak atrofdagilar bilan ko‘proq muloqatda bo‘lishi uning kelajagda ijtimoiy hayotga tayoranishiga zamin yaratadi.

Bola ko‘p vaqtini oilada o‘tkazadi, bu uning asosiy ijtimoiy muhitidir. Oila a’zolari bolaning o‘zi, boshqa odamlar va butun dunyo bilan munosabatlariga asos soladi. Oiladagi ruhiy nosog‘lomlik muammolarni yanada kuchaytiradi va buzilishlarning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Aksincha, oila a’zolari

o‘rtasidagi uyg‘un munosabatlar, o‘zaro g‘amxo‘rlik va qo‘llab-quvvatlash, nogiron bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi ehtimolini oshiradi.

Ovqatlanish, kun tartibi, bolaning jismoniy faolligi va u bilan muloqot qilish masalalari muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy moslashuv uchun gigiena ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga , bolani unga mavjud bo‘lgan faoliyatga, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarini rivojlantirishga va mehnatga ko‘nkitirish muhimdir. Dialogik va monolog nutqni rivojlantirish va bolalar bilan o‘yinlar tashkil etish bo‘yicha maqsadli ish olib borilishi kerak. Oila bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Musiqa, qo‘sishq aytish, raqsga tushish, rasm chizish, sport - bu jihatlarning har biri ham tarbiyaviy, ham korrektions-rivojlantiruvchi ahamiyatga ega. Alovida yordamga muxtoj bolalar ta’limtarbiyasi: ularni o‘qish, yozishga o‘rgatish muammolarini ijtimoiy xayotga moslashishlariga ko‘mak berish kasb-hunar o‘rgatish, oliy ta’lim tizimida bilim olishi va bu ishlarni samarali izlash, maxsus soha xodimlari hamda nogiron bolalar ota-onalariga amalii yordam ko‘rsatish kerak.

**Xulosa.** Bizda hanuzgacha keng omma orasida imkoniyati cheklangan bolalar xususida va ularning oilada tarbiyalanishi, ijtimoiy hayotga moslashishi va ta’lim olishiga oid ota - onalar va jamiyatning bilimlari yetarli emas. Ota-onalar nogiron bolalarini tadbirlarda ishtirot qilishiga tayyor bo‘lsalar-da, ularda malaka va uydan tashqarida jismoniy faoliyat yetarli emas. Bunday oilalarga psixologik maslahat ko‘rsatishimiz, ularni qo‘llab quvvatlashimiz lozim. O‘tkazilgan turli hil tadbirlar nogiron bolalarni hayotga undaydi, uydagi yolg‘izlikdan ajratadi. Bolalarni tengdoshlari bilan muloqat qilishga va munosabatlarni mustahkamlashga imkon beruvchi faoliyatlarga, turli tadbirlarga yo‘naltirish kerak. Bunda nogiron bolalarga oilaviy yordam berish muhim ro‘l o‘ynaydi. Oilaviy tarbiyaning asosiy vazifasi esa sog‘lom va imkoniyati cheklangan-nogiron farzandlarni tarbiyalshda eng muhim omillarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Nogironligi bor bolalarning ota-onalarini qo‘llab quvvatlash rivojlanishida muommolarini bo‘lgan bolalar bilan o‘zaro munosabatini yaxshilash, bu usullarni tog‘ri anglash va boshqa bir qator masalalarni ham xal etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Oilaga psixologik yordam ko‘rsatishda bolaning imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, uni yanada rivojlantirish yo‘llari bo‘yicha tavsiyalar berish, tuzatish va tarbiyaviy ta’sir tizimini aniqlash va ushbu holatga mos keladigan usullarni tanlash muhimdir

Oilalar bilan psixoterapevtik va psixokorreksiya ishlari tizimi turli vositalardan foydalanadi. Oilaviy psixokorreksiya ishlarining variantlari oila toifasiga va bolaning muammolariga qarab, oila ichidagi munosabatlarning hissiy variantlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Bola shaxsining har tomonlama rivojlanishini yaxshilash uchun oilada sog‘lom psixologik muhitni ta’minlash, terapevtik, sog‘lomlashtirish va tarbiyaviy xarakterdagи tavsiyalarga amal qilish kerak. Ota-onalarning inklyuziv madaniyatini shakllantirish dasturlarini ishlab chiqish kerak.

### Adabiyotlar:

1. Психология семьи и больной ребенок. Учебное пособие: Хрестоматия. — СПб.: Речь, 2007.- 400 с. ISBN 5-9268-0560-0
2. NurkeIdiyeva D.A., Hamidova M.U. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar diagnostikasi Toshkent – 2016
3. L.Sh.Nurmuhamedova, M. Ziyovuddinova alohida extiyojli bolalarni oilada tarbiyalash usullari. Toshkent-2016.
4. Candace Currie, Antony Morgan A bio-ecological framing of evidence on the determinants of adolescent mental health - A scoping review of the international Health Behaviour in School-Aged Children (HBSC) study 1983–2020 <https://doi.org/10.1016/j.ssmph.2020.100697>.

**INKLYUZIV TA’LIM JARAYONIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION  
TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI**

*Pirniyazova Gulchira Nietbaevna,  
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
Pedagogika kafedrası stajyor o‘qituvchisi*

*Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim ishtirokchilarining ta’lim jarayonini yanada rivojlantirish, bilimini oshirishga ijobjiy ta’sir etuvchi kommunikatsion texnologiyalar haqida nazariy ma’lumotlar berilgan, hamda ularning ta’lim sifatiga ta’sir jarayoni tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** kommunikatsion texnologiyalar, didaktik, kompensator, koxlear-implant, dasturlar.

**РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ  
ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

*В данной статье представлены теоретические сведения о коммуникативных технологиях, которые положительно влияют на дальнейшее развитие образовательного процесса, повышение знаний участников инклюзивного образования, а также анализируется процесс их влияния на качество образования.*

**Ключевые слова:** коммуникационные технологии, дидактика, компенсатор, кохлеарный имплант, программы.

**THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE  
PROCESS OF INCLUSIVE EDUCATION**

*This article provides theoretical information about the communication technologies that have a positive effect on the further development of the educational process, increasing the knowledge of the participants of inclusive education, and the process of their impact on the quality of education is analyzed.*

**Keywords:** communication technologies, didactic, compensator, cochlear-implant, programs.

**Kirish.** Hozirgi kunda texnika texnologiya kundan kunga rivojlanib bormoqda. Bu rivojlanish o‘z navbatida alohida ehtiyoji mavjud shaxslarning ham ehtiyojlaini hisobga olmoqda. Ushbu texnologiyalardan foydalanish orqali esa imkoniyati cheklanganlik darajasini bir qancha bartaraf etish imkonini bermoqda. Bu esa o‘z navbatida ularning ta’lim jarayoniga ham o‘zining ijobjiy ta’sirini o’tkazmasdan qo‘ymaydi. Inklyuziv ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalarining uchta asosiy o‘rni mavjud:

- Kompensator — an'anaviy ta’lim faoliyatini bo‘lgan o‘qish va yozish osonlashtirish uchun texnik yordam;
- Didaktik — barcha jarayonlarda axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish va shu bilan birga o‘qitish yondashuvlarining o‘zgarishi. Bu jarayonda mos o‘quv muhitini yaratish uchun axborot-kommunikatsion texnologiyalardan didaktik vositalar sifatida foydalanishning ko‘p imkoniyatlari mavjud;
- Kommunikatsion — bunda qo‘llab-quvvatlovchi muqobil aloqa tizimlaridan foydalanishni ko‘zda tutadi.

Inklyuziv ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan boshqa ta’lim jarayonlariga qaraganda ko‘proq foydalanish kerak. Negaki, bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan mabitab-internatlarining aksariyatida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- Shaxsiy kompyuter (planshet yoki smartfonlar);
- Interaktiv doska;
- Multimedia vositalari;
- Internet-resurslaridan foydalanish imkoniyati.

Bu holatda xulosa qilishimiz kerakki, inklyuziv ta’lim maxsus ta’lim va umumta’lim mifiktabidagi ta’lim jarayonidan ham yaxshiroq bo‘lishi kerak va albatta, yuqorida aytib o‘tilgan axborot-kommunikatsion texnologiyalarining imkoniyatlari inklyuziv ta’lim jarayonida bo‘lishi uning samaradorligini ta’minlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Inklyuziv ta’lim sifatli ta’limni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimini kengaytirish jarayonlaridan biridir. U bolalarning jismoniy, ruhiy, intellektual, madaniy-etnik,

til va boshqa farqlariga qaramay, sifatli ta’lim markazlariga o‘zgacha ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni qo‘sadi, barcha irkinishlarni yo‘q qiladi, ularning sifatli ta’lim olishini va ijtimoiy moslashuvini ta’minlaydi, o‘z-o‘zidan yo‘qolib ketgan ijtimoiy markazga kirishi mumkin. Zamonaviy ta’lim paradigmasi o‘qitishning o‘tkir uslubi sifatida bolalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’lim sharoitlariga moslashtiradi.

Ta’kidlash zarurki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712сонли “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” Farmoni [1] hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-il 22-avgustdagagi PQ-357-sonli “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Qarorining [2] qabul qilinishi ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalarining rolini oshirishda nihoyatda kata ahamiyat kasb etmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda tizimli-tahlil, tizimli-tarkibiy, funksional, kompleks yondashuv, institutsional yondashuv metodologiyalaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Bugungi kunda, ta’lim jarayonida **AKT vositalarining asosiy turlari** quyidagilardan iborat:

- standart texnologiyalar — masalan, nogironlar uchun mo‘ljallangan sozlamalarga ega kompyuterlar;
- muqobil ma'lumotlar formati — masalan, HTML, DAISY (Digital Accessibility Information System) audio kitoblari, shuningdek, Brayl alifbosи kabi “quyi texnologiyali” formatlar;
- yordamchi texnologiyalar — eshitish apparatlari, ekranidan o‘qish moslamalari, maxsus imkoniyatlarga ega klaviaturalar va boshqalar. Umuman olganda yordamchi texnologiyalar kiradi.

Yordamchi texnologiyalar (YoT) – “nogironligi bo‘lgan bolalarning funksional imkoniyatlarini kuchaytirish, qo‘llab-quvvatlash yoki yaxshilashga mo‘ljallangan qurilmalar, mahsulotlar, uskunalar, dasturiy ta’minot yoki xizmatlar”.

Yordamchi texnologiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- turli ko‘rinishdagi telefon qurilmalari va tizimlari;
- ma'lumotlarni uzatish vositalari va tizimlari;
- xavfsizlikni saqlovchi va ogohlantiruvchi vositalar va tizimlar;
- nazorat va o‘lchash uskunalar;
- eshitish apparatlari;
- radio va televidenie vositalari va tizimlari;
- elektron orgtexnika vositalari;
- elektr soatlash vositalari va tizimlari;
- boshqa texnik vositalar va tizimlar [3].

Nogironligi bo‘lgan bolalarni nuqsonlarini korreksiya va kompensasiyalovchi axborot-kommunikatsion texnologiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin.

**“Go Talk” nutq trenajeri** – Qurilma o‘qituvchining yordamida va mustaqil ravishda nutq malakalarini o‘zlashtirish, rivojlantirish yoki tiklash uchun mo‘ljallangan. U nutqiy trenajer va elementar nutq vositasi vazifasini bajaradi. Qurilmaning asosiy vazifalari - ovoz yozish moslamasining mavjudligi, uning yordamida oldindan yozilgan tovushlarni, bo‘g‘inlarni, so‘zlarni, jumلالarni yozib olib eshitish mumkin. O‘zlashtirilganlarni o‘chirish yoki yangi tovushlar, so‘zlar bilan to‘ldirish mumkin.

Qurilmani sog‘lom bolalar nutqini rivojlantirish uchun ham qo‘llash mumkin, shuningdek, aqliy rivojlanishda nuqsonlari va nutqida nuqsonlari (afaziya, alaliya, dislaliya, dizartriya) bo‘lgan bolalarni nutqidagi nuqsonlarni korreksiyalash uchun ham qo‘llash mumkin. Bundan tashqari, kattalarda uchraydigan miya shikastlanishi, insultdan keyingi reabilitatsiyasi jarayonida ham qo‘llash mumkin.

**Duxbury Braille Translator (DBT)** – Bu ikki tomonlama tarjimani amalga oshiruvchi dastur: oddiy shriftini Brayl alifbosiga va aksincha tarjima qiladi. Bundan tashqari, DBT to‘laqonli matn muharriri bo‘lib, uning yordamida istalgan hujjatni Brayl alifbosida bir necha tillarda, turli xil kodlashlarda chop etish mumkin.

**Duxbury BrailleTranslator (DBT)** xususiyatlari:

- fayllarni MS Word, WordPerfect, HTML formatiga aylantiradi;
- DBT muharririda ham matn yaratish mumkin;
- Uslublar, formatlash kalitlari va matnlar to‘plami shablon sifatida saqlanishi va keyinchalik boshqa hujjatlarni yaratish uchun ishlatalishi mumkin;
- 300000 ta so‘zdan iborat orfografik lug‘atni o‘z ichiga oladi;
- «Quick Find Misspelling» funksiyasi orfografik xatolarni tezda topish va bartaraf etishga yordam beradi;
- DBT dasturini Brayl yozuvida chop etuvchi printer modellarining deyarli barchasiga ulash mumkin.

**Eshitish apparati** - bu turg‘un eshitish kamchiliklari shakllarida tibbiy ko‘rsatmalar bo‘yicha ishlataladigan elektron ovoz kuchaytirgich qurilmasi.

Eshitish apparatlari eshitish buzilishlarini haqiqatan ham tuzatishga qodir emas - ular tovushlarni yanada erishimli bo‘lishiga yordam beradi halos.

Zamonaviy eshitish apparatlari elektr-akustik qurilmalar bo‘lib, 3 ta asosiy qismdan iborat:

- tovushni qabul qiladigan va uni elektr signaliga aylantiradigan mikrofon;
- mikrofondan signalni qabul qiladigan va keyin uni qabul qiluvchiga yuboradigan kuchaytirgich;
- qabul qilgich (telefon).

Ovoz signalini uzatish usuliga ko‘ra, eshitish apparatlari 2 ta asosiy toifaga bo‘linadi: suyak va havo o‘tkazuvchanligi, suyak o‘tkazuvchanligi apparatlari faqat jarrohlik yo‘li bilan eshitish buzilishlari og‘ir bo‘lgan hollarda o‘rnataladi. Havo o‘tkazuvchanligining eshitish apparatlari mutaxassis surdolog tomonidan tanlanishi va sozlanishi kerak.

Koxlear implant - jarrohlik yo‘li bilan o‘rnataladigan tibbiy protez bo‘lib, eshitish zaifligini kompensatsiya qilish imkoniyatini beradi. Eshitish qobiliyatini yo‘qotgan bemorlarning aksariyati uchun eshitish apparatlari kasallikning o‘rnini qoplash uchun etarli, ammo ba’zida ulardan foydalanish etarli darajada samarali emas. Koxlear implant - eshitish qobiliyatini yo‘qotish, eshitish vositalarining samarasizligi yoki samaradorligi past bo‘lgan hollarda ishlataladigan eshitishni protezlash orqali to‘ldirish vositasi [4,192].

“Koxlear implant” atamasi ostida protezlanadigan qism va butun “koxlear implantatsiya tizimi” tushuniladi. U quyidagi qismlardan iborat:

- implant - teri ostiga implantatsiya qilingan qabul qiluvchi va elektrod majmuasi (jarrohlik operatsiyasi orqali chig‘anoq ichiga kiritilgan elektrodlar zanjiri);
- nutq protsessori - mikrofon, mikroprotsessor va transmitter (tashqarida, soch yoki teriga o‘rnataladi);
- batareya yoki akkumulyator bo‘lmalari;
- masofadan boshqarish pultlari (agar mavjud bo‘lsa) va boshqa qo‘srimcha aksessuarlar.

Ikki apparatlarning o‘rtasidagi farqlar shundan iboratki, eshitish apparati faqatgina zaif eshituvchilar uchun koxlear implant bo‘sса zaif eshituvchilar kabi karlar ham foydalanishi uchun mo‘ljallangan.

Aqliy rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan va umuman olganda bolalarni aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ko‘pgina kompyuter va telefon ilovalari mavjud.

Sanab o‘tilgan barcha yordamchi texnologiyalar nogironligi bo‘lgan bolalarni ta’limdagи imkoniyatlarini oshirishga va ularni rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda. Inkluyuziv ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan boshqa ta’lim jarayonlariga qaraganda ko‘proq foydalanish kerak.

Hozirgi vaqtida inkluyuziv ta’limni amalga oshirishdagi aniq omillar obyektiv va subyektiv qiyinchiliklarga bo‘linadi. (1- rasm).



#### Subyektiv qiyinchiliklar:

- 1) standart protseduralar ishlab chiqilmaganligi ehtiyojlari turlicha bo‘lgan bolalarning o‘qish darajasini nazorat qilish maqsadida o‘qishni monitoring qilish uchun indikatorlarning yo‘qligi;
- 2) qoraqalpoq tilida o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarning kamligi;
- 3) o‘quv-tarbiya jarayonini tartibga solishda pedagoglarning maxsus bilimlarining yo‘qligi;
- 4) alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning muktabga kelishi uchun transportning yo‘qligi;
- 5) alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning shaxsiy muammolari, ya’ni ularning muktabga bormasligi matn tarkibi.

#### Obyektiv qiyinchiliklar:

- 1) moddiy-texnika bazasining pastligi erkin bo‘lmagan hududlarning yo‘qligi;
- 2) nogiron bolalarni o‘qitish jarayonida alohida til topishning qiyinligi;
- 3) qizlar uchun xonalarning yetishmasligi;
- 4) nogiron bolalarni o‘qitish bo‘yicha xodimlarga sezgirlik oshirish kurslarining o‘tkazilishi;
- 5) qoraqalpoq tilida o‘qitish bo‘yicha pedagog-defektologlarning kamligi;

6) tiflopedagoglar , logopedalar va surdopedagoglarning qishloq hududlarida maxsus muassasalarga yetib bormasligi.

**Xulosa va takliflar.** Inklyuziv ta’lim sharoitida pedagog o‘qish resurslari va ta’lim mazmunini o‘zlashtirish , o‘zaro munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha qo‘srimcha harakatlarni bajarishi kerak. Ushbu turdagi o‘zgacha ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishning turli shakllari bo‘yicha metodik ko‘rsatkichlarda ko‘rsatilgan talablar quyidagicha:

- o‘qitish imkoniyati cheklangan bolalarning sinfda o‘qishini ta’minalash uchun o‘qituvchilar har bir o‘quvchining ta’lim ehtiyojlariga mos o‘quv dasturlarini ishlab chiqsinlar;

- o‘qituvchilar va sinf rahbarlari boshqa ta’lim ehtiyojlar bo‘lgan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan qo‘llanmalarini kelgusi yo‘nalishlarda ishlab chiqsinlar: o‘quv jarayoni doirasida o‘zaro hamkorlikni rag‘batlantirsinlar.

Inklyuziv ta’lim va umuman ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalarini kiritish bu zamon talabiga aylanmoqda. Stiv Djoks aytganidek, “21-asrda muvaffaqiyatga erishish uchun ijodkorlik va texnologiyani uyg‘unlashtirish kerak”, aynan axborot-kommunikatsion texnologiyalarining uyg‘unlashuvi bizni ta’limda yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-soni “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 avgustdagli PQ-357-soni “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Qarori.
3. Shomaxmudova R. «Maxsus va inklyuziv ta’lim» /Toshkent «Chashmaprint» 2011.
4. Бадарч, Дендева. Информационные и коммуникационные технологии в образовании: монография / Бадарч Дендев/ Москва: ИИТО ЮНЕСКО, 2013. – 320 стр.  
<https://iite.unesco.org/pics/publications/ru/files/3214728.pdf>

## TA’LIM MENEJMENTI

### BOSHLANG‘ICH TA’LIM NATIJALARINI XALQARO DASTURLAR (EGMA EGRA) KRITERIYALARI ASOSIDA BAHOLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

*Baxronova Gulnoza Tursunovna,  
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi*

Ushbu maqolada EGRA va EGMA xalqaro baholash dasturlari va ular orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatish haqida ma’lumotlar berilgan. Maqola baholash dasturida savodxonlik, matematika va turli fanlardan yosh doiralardan qanday baholanishi metodlar orqali tushuntirib berilgan.

Ta’lim sifat va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarni o‘rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mayjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

**Kalit so‘zlar:** xalqaro dasturlar, mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish.

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ РЕЗУЛЬТАТОВ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОГРАММ (EGMA EGRA)

В этой статье представлена информация о международных программах оценивания EGRA и EGMA и о том, как с их помощью научить учащихся начальных классов самостоятельно мыслить.

Изучение зарубежного опыта и внедрение в систему требований международных стандартов имеют большое значение в повышении качества и эффективности образования. Важно изучать международный опыт по оценке качества образования, сравнивать его с существующей системой, тесно сотрудничать с международными и зарубежными организациями, внедрять в систему международные проекты по оценке качества образования, усовершенствовать подходящую национальную систему оценки, отвечающую требованиям времени.

**Ключевые слова:** международные программы, самостоятельное мышление, рефлексия.

### PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR THE ASSESSMENT OF PRIMARY EDUCATION OUTCOMES BASED ON THE CRITERIA OF INTERNATIONAL PROGRAMMES (EGMA EGRA)

This article provides information about the international assessment programmes EGRA and EGMA and how to use them to teach primary school students to think independently.

Studying foreign experience and introducing the requirements of international standards into the system are of great importance in improving the quality and efficiency of education. It is important to study the international experience on education quality assessment, compare it with the existing system, closely cooperate with international and foreign organisations, introduce international projects on education quality assessment into the system, and improve a suitable national assessment system that meets the requirements of the time.

**Keywords:** international programs, independent thinking, reflection.

**Kirish.** O‘zbekistonda 15-noyabrdan 7-dekabrgacha boshlang‘ich sinflarda o‘qish (EGRA) va matematika ko‘nikmalarini baholash (EGMA) bo‘yicha ilk tadqiqot o‘tkazilmoqda. USAID va Xalq ta’lim vazirligi o‘rtasidagi qo‘shma loyiha ushbu fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirishga yordam beradi. AQSh xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) Xalq ta’limi vazirligi bilan hamkorlikda .Bu haqda AQShning O‘zbekistondagi elchixonasi xabar berdi EGRA va EGMA — umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonlik va hisoblash ko‘nikmalarini baholashga mo‘ljallangan ilmiy asoslangan modellarga tayanadi. 17-noyabr kuni poytaxtdagi 232-maktabda o‘quv boshlanishiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-

dekabrdagi 997-soni “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirdari to‘g‘risida”gi Qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida “Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi” tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahoning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lidan shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro me’zon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalarini bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

**Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar.** Jamiyat va hayotda sodir bo‘layotgan yangilanishlar ta’lim tizimiga ham yangicha innovatsion yondashuvni, ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini yanada tezlashtirishga zamin yaratadi, natijada yangicha innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalalar qatoridan joy oldi. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda xorij tajribalarni o‘rganish, tizimga xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, tizimda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi. PIRLS – boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash; TIMSS - 4- va 8-sinf o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash; TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiyligi o‘rtalama tizim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarining ish sharoitlarini o‘rganish; PISA — 15 yoshli o‘quvchilarining o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash. EGRA - (The Early Grade Reading Assessment) baholash modelining maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq malakalarini rivojlantirish, nutqiy ko‘nikma va malakalarini hamda o‘qish savodxonligini oshirishdan iborat. EGMA - (The Early Grade Mathematical Assessment) baholash modelining maqsadi 2-4 sinf o‘quvchilarining og‘zaki hisoblash malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish, matematik savodxonligini oshirishdan iborat. Bu loyihalar o‘quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko‘nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya bilan bog‘liq barcha sohalar o‘zaro hamkorlikda ish olib borishi zarur. Mustahkamlash maktab pedagogik jamoasi va o‘quvchilar o‘rtasidagi ijodiy muhit, ishni takomillashtirish uslubiy birlashmalarning ichki natijalarini pedagogik kengashda muhokama qilish, ta’minalash fan o‘qituvchisining dars jarayoniga integratsiyalashuvi ham imijni oshirishga yordam beradi. Bu esa ta’lim jarayonoini yangi sifat va natijaga mos bo‘lishini ta’minalashi, shubhasiz.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta’lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtiroy etish O‘zbekistonga nima beradi? Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o‘rnini to‘g‘risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Milliy ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo‘llaniladi. Xalqaro tadqiqotlar ta’lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o‘tkazishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. PISA - inglizchadan olingan qisqartma bo‘lib, Program for international student assessment – o‘quvchilarini baholash xalqaro dasturi degan ma’noni anglatadi. Ushbu dastur OECD tomonidan amalga oshiriladigan bo‘lib, u dunyo bo‘ylab 15 yoshli o‘quvchilarining o‘qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholovchi xalqaro tadqiqotdir. Tadqiqot an‘anaviy ravishda 3 yilda bir marotaba o‘tkazilib, har bir davriylikda bittadan yo‘nalishga ustuvorlik beriladi hamda bitta innovatsion yo‘nalish kiritiladi. 2022 - yilda o‘tkazilishi rejalahshtirilgan tadqiqotda innovatsion yo‘nalish sifatida o‘quvchilarining kreativ fikrlash kompetensiyalari ham baholanadi. Unda o‘quvchilar mакtabda egallagan bilimlarini qanchalik eslab qolganliklari emas, balki

olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishlari, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalari baholanadi. PIRLS - ingliz tilidagi Progress in international reading and literacy study so'zlaridan olingen bo'lib, o'quvchilarning o'qib tushunish darajasini baholashga mo'ljallangan xalqaro tadqiqot dasturidir. Mazkur dastur IEA tomonidan har 5 yilda bir marotaba amalga oshirilib, unda PISAdan farqli ravishda boshlang'ich ta'liddagi 4-sinf o'quvchilarining badiiy tajriba orttirish, axborot olish va undan foydalanish ko'nikmalari baholanadi. Ushbu xalqaro dastur bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida katta ahamiyat kasb etib, boshlang'ich ta'lida tahsil olayotgan o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi. PIRLS dasturida asosiyligi e'tibor 4-sinf o'quvchilariga qaratiladi, buning boisi, ushbu rivojlanish davrida o'quvchilar o'qish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lib, endi bu ko'nikmadan boshqa fanlarni o'rganishda foydalanayotgan bo'ladi So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'limga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro tadqiqotdir. Mamlakatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining xususiyatlarini aniqlash va baholashga qaratilgan turli darajadagi yutuqlarga olib keladigan turli xil ta'limga tizimlari bilan bog'liq bo'lgan dastur. Albatta, bunday tadqiqot ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar va ularning otaonalarini uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar Xalqaro ta'limga assotsiatsiyasi tomonidan muvofiqlashtirilgan. PIRLS loyihasi 4-sinf o'quvchilarining o'qish qobiliyatining rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida tashkil etilgan. Xalqaro ekspertlarning fikricha, bugungi kunda maktab o'quvchilarining boshlang'ich maktabda keyingi ta'liddagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor qo'yilgan. PIRLS 2016 da ishtiroy etib, xalqaro tadqiqot PIRLS-2016 XEA ensiklopediyasi eng yaxshi o'quv dasturlari va ishlab chiqish tajribasi bo'yicha noyob axborot materiallarini taqdim etdi. PIRLS tadqiqoti O'zbekistonda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ravon so'zlash darajasini xolisona baholash ta'limga ochiqligi va integratsiyasini ta'minlash maqsadida, shuningdek, O'zbekistonning dunyoning yetakchi ta'limga tizimlari xalqaro hamjamiyatga kiritishga tayyorgarlik ko'rilmoxda. TIMSS xalqaro baholash dasturida 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta'limga farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'limga mazmuni, o'quv jarayoni, ta'limga muassasasining imkoniyatlari, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilalari bilan bog'liq omillari o'rganiladi. TIMSS dasturi o'zining birinchi tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo'lib, 2019-yilga qadar har to'rt yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejallashtirilgan. Ta'limga yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan, bu 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va ijtimoiy fanlar bo'yicha bilim sifati, darajasi, munosabati va qiziqishlarini aniqlaydi. U har 4 yilda bir marta o'tkaziladi. Ushbu tadqiqot ham PIRLS tadqiqoti singari maktab ma'muriyati va o'qituvchilari o'rtasida qo'shimcha so'rovlar o'tkazadi, fanga xalaqit beradigan asosiy omillarni aniqlab, ta'limga standartlarini taqqoslash imkonini beradi. TIMSS 2015 so'roviga ko'ra, AQSH, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya va Buyuk Britaniya ta'limga tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, bularda mamlakatlarda yuqori texnologiyalar, sanoatlashtirish muhim omil etib belgilangan. Guruhlar va sinflardagi talabalar soni esa 16 nafardan oshmaydi. Hozirgi kunda o'quvchilarning o'qish (EGRA) va matematika (EGMA) bo'yicha qobiliyatlarni baholash tadqiqotlarini tizimga tatbiq etish boshlangan. Mazkur tadqiqotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini yaxshilash hamda ta'limga jarayonidagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu baholash tizimi dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlarida qo'llaniladi. Shuningdek, PISA, TIMSS, PIRLS kabi o'quvchilar bilimi darajasini baholash uchun xalqaro tadqiqotlar hamda dasturlar tayyorlash uchun yaxshi vosita hisoblanadi. EGRA va EGMA tadqiqotlari boshlang'ich sinflarni o'qitishda tizimli bo'shliqlarni tashxislash va ularni hal etishning eng maqbul yechimlarini aniqlovchi, o'qish hamda savodxonlik ko'nikmalarini sinovchi ilmiy asoslangan modellar hisoblanadi. Bu tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan AQShning Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) bilan hamkorlikda olib borilmoxda. Mazkur loyiha 2019 yil 28 sentyabrda XTV va USAID o'rtasida 50 million dollarga imzolangan besh yillik rivojlanish maqsadlari to'g'risidagi bitimning birinchi tarkibiy qismidir AQShning O'zbekistondagi elchisi Deniyel Rozenblyumning ta'kidlashicha, EGRA va EGMA boshlang'ich sinf o'qivchilarining savodxonligi va matematika bo'yicha ko'nikmalarini baholovchi oddiy, arzon va kuchli vositadir. Bu vosita bolaning bilimi, o'qituvchining dars berishi yoki direktorning maktabni boshqaruv ko'nikmalarini tekshirmaydi. Shuningdek, jarayonda o'tish yoki yomon baho bo'lmaydi. Tibbiyot xodimlari bemorga muolaja belgilash, ko'rikdan o'tkazishdan avval uni tekshiradi. EGRA va EGMA esa boshlang'ich sinflarda o'qish hamda matematika bo'yicha ko'nikmalariga baho beradi. Baholash natijalariga ko'ra yangi o'quv dasturlari, o'qitish uslubi va yondoshuvlar O'zbekiston yosolarining

yaxshi natija ko‘rsatishi uchun moslashtiriladi. EGRA (The Early Grade Reading Assessment) baholash modelining maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq malakalarini rivojlantirish, nutqiy ko‘nikma va malakalarini hamda o‘qish savodxonligini oshirishdan iborat. EGMA (The Early Grade Mathematical Assessment) baholash modelining maqsadi 2-4 - sinf o‘quvchilarining og‘zaki hisoblash malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish, matematik savodxonligini oshirishdan iborat. Boshlang‘ich sinflar davomida matematikadan olingan mustahkam poydevor kelajakdagi muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Shuningdek, matematika kelajakda ish joyidagi ko‘nikmalar va bilimlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan fandir. EGMA bolalarning asosiy ko‘nikmalarini rivojlatirayotganligini aniqlash imkonini beradi, boshqa matematik ko‘nikmalar hosil qiladi va harakatlarni eng yaxshi tomonga yo‘naltiradi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishda juda muhim. EGMA quyidagi: raqamni identifikasiya qilish (raqamni aniqlash); kattalik haqida mulohaza yuritish (raqamlarni kamsitish); raqamlarni tan olish (yo‘qolgan raqam); qo‘sish va ayirish; birinchi va ikkinchi darajalar va so‘z muammolarini o‘z ichiga oladi. Mamlakatimiz buyuk kelajak sari intilib taraqqiy etgan mamlakatlar atoridan munosib o‘rin egallab bormoqda. O‘sib kelayotgan avlodning ta’lim tarbiyasini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, shuningdek o‘quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga o‘rgatish maqsadida turli dastur va texnologiyalardan foydalananish zamon talabiga aylanib qolmoqda. TALIS - (ta’lim muassasalarida rahbarlar va o‘qituvchilarning ta’lim va xalqaro xizmati) O‘quv va ta’lim muhitini va ta’lim ish sharoitlarini tashkil etish. Ushbu tadqiqot birinchi marta 2008-yilda 24 kishi ishtirokida o‘tkazilgan. Ikkinchi bosqich 2013-yilda o‘tkazilgan va unda 3 ta davlat ishtirok etgan. 2018-yilda 46 davlat ishtirok etdi. TALIS tadqiqotning mohiyati o‘qituvchilar bilan so‘rov o‘tkazishdan iborat. So‘rovda asosan maktab boshqaruvi bo‘yicha fikrlar maktab rahbarlari, direktorlar, o‘qituvchining ish faoliyatini baholash, maktab muhiti va ularning ishidan qoniqish va ko‘p madaniyatli muhitni baholash jarayoni ro‘y beradi. O‘qituvchilarning so‘rovi shuni ko‘rsatdiki, turli sohalar mavjud kasbiy rivojlanish, butun o‘qituvchilik faoliyati, o‘qitishni amalga oshirish o‘qituvchining muayyan sinfdagi faoliyati va maktab bilan ijobiy munosabat jamiyatini tuzishga dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, TALIS yagona so‘rovlar jamoasidir. O‘quv muhitini tashkil etish va o‘qituvchilarning ish jarayoni va ta’lim muassasasini baholash muhim vazifadir. Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi. O‘zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o‘tkazish madaniyati rivojlanadi, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi. Milliy ta’lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo‘llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

**Xulosa.** O‘zbekistonda ta’lim tizimiga xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning bilim darajasini baholash va monitoring qilishning “Milliy dasturi”ni yaratish hozirgi kun talabiga mos keladi. Yana shuni aytish joizki, ushbu dastur zamon bilan ham nafas qadam tashlaydi hamda o‘zining baholash mezonlarini zamnaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. O‘qituvchilar o‘zlarida xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o‘quv topshiriqlarini tayyorlash ko‘nikmasini hosil qilishlari uchun ko‘proq o‘z ustida ishlashlari, xalqaro tajribalarni o‘rganishlari, xorijiy tillarni o‘rganishlari, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalana olish malakasiga ega bo‘lishlari, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganib, ularni inobatga olishlari, hamkasblari bilan ko‘proq tajriba almashishlari lozim bo‘ladi. Bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab ta’lim sifatini baholashning yangi shakllari qo‘llanilmoqda. Bizning mamlakatimizda ham ta’lim sohasida xalqaro talabalarni baholash dasturlarining qo‘llanilayotganini kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa, bugungi kunda mavjud xorijiy baholash dasturlarini tashkil etish va solishtirish muhim ahamiyatga ega. Zamnaviy talablarga javob beradigan tegishli milliy baholash tizimini ishlab chiqish xalqaro ta’lim muassasalari bilan hamkorlik ishlarini olib borish ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot materiallari va metodologiyasi O‘zbekistonning xalqaro ta’lim sifatidagi ishtirokini har tomonlama o‘rganish baholash dasturlari va ushbu dasturlarda ishtirok etishini ta’minalash doirasida bir qator vazifalar qo‘yilgan. Bular quyidagilar:

1. Darajani baholash yoki monitoring qilish milliy dasturini ishlab chiqish, talaba yoshlarga xalqaro tajribaga asoslangan bilimlarini berish;
2. O‘rgatuvchi turli xorijiy dasturlarni amalga oshirishni hisobga olgan holda, bu dasturning eng ilg‘or natijalarini nashr etilishini ta’minalash. Maktablarda ingliz tilida ilmiy yutuqlar va ingliz tilidagi adabiyotlarni joriy etish;
3. Mas’ul mutaxassislarining malaka talablarini belgilash maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’limni aniq mezonlar bo‘yicha va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ish olib borish;

4. Talabalar sonining maksimal va minimal ko‘rsatkichlarini aniqlash mактабгача va umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi guruhlar va sinflar sinovdan o‘tgan uslublar assosida xalqaro amaliyotda ta’limning ilg‘or tajribalari bilan faoliyatni muvofiqlashtirish;

5. Har bir mактабда iqtidorilarni aniqlash, 8-9 yoshli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan sinflar tashkil etish, boshlang‘ich sinflardagi bolalar bilan psixologik testlardan foydalangan holda ish olib borish. Yuqoridagi talablardan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasining Bu jarayonda, fan metodistlari, inspektor metodistlari, malaka oshirish tizimi, mакtab ma’muriyati, fan o‘qituvchilar, ota-onalar va o‘quvchilar ham faol bo‘lishlari talab etiladi. Ushbu jarayonda quyidagi ishlarni bajarish kerak:

1. Fan metodistlari o‘qituvchilarga to‘liq, to‘g‘ri va xalqaro baholash dasturlari haqida uzluksiz ma’lumot;

2. Mакtab darslarining mazmuni tadqiqotga tayyorgarlik ko‘rishga qaratilishi kerak;

3. Tanlovlар, festivallar va turli tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish talab etiladi;

4. O‘qituvchilar esa doimiy ravishda o‘quvchilar natijalarini tahlil qiladilar,

5. An‘anaviy nazorat tuzilmalari asta-sekin yangi qoliplarga aylantirilishi kerak;

6. Kasbiy ta’lim tizimi o‘quv rejasiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘srimchalarni rivojlantirish,

7. Malakali o‘qituvchilarni xalqaro baholash doirasidagi tadqiqot ishlariiga jalb etish dasturi;

8. O‘qituvchilarni xorijiy olimlar adabiyoti bilan tanishtirish,

9. Dars yakunida berilgan bahoga muvofiq amaliy ish olib borish dasturlarini ishlab chiqish;

10. Ota-onalar va jamoatchilik o‘rtasida xalqaro baholash dasturlarini targ‘ib qilish

### **Adabiyotlar:**

1. Updating and conducting the quality of primary education on the basis of modern methods. Baxronova Gulnoza Tursunovna, Jo‘rayeva Dilnoza O‘ktam qizi, Ne’matova Shirinoy Nizomiddinova, Mustafoyeva Mehrangiz Shukurulloevna  
<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=15945983713562668087&btnI=1&hl=ru>

2. Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak tarbiyachi pedagoglarning kasbiy malakalarini ta’limda baholash “Jo‘rayeva D.O‘., Prospects and main trends in modern science, 2023  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=tyK5ka0AAAAJ&citation\\_for\\_view=tyK5ka0AAAAJ:d1gkVwhDpl0C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=tyK5ka0AAAAJ&citation_for_view=tyK5ka0AAAAJ:d1gkVwhDpl0C)

3. Kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilarda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini tarbiyalashning mazmunids Toyirova, Scholar, 2024  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=X4yLIR0AAAAJ&citation\\_for\\_view=X4yLIR0AAAAJ:d1gkVwhDpl0C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=X4yLIR0AAAAJ&citation_for_view=X4yLIR0AAAAJ:d1gkVwhDpl0C)

## UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

*Xalimov Muxammad Raximberdievich,  
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti  
Akademik faoliyatni muvoviqlashtirish bo‘limi boshlig‘i*

*Mazkur maqolada jahon maktab ta’limi tizimida xodimlarni boshqarishning zamonaviy usullari, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan olimlar, shuningdek, bugungi ta’lim tizimidagi islohotlardan kelib chiqib, mакtabda xodimlarni boshqarish, ya’ni xodimlarga intellektual resurs sifatida yondashish, maktablarda inson resurslarini rivojlantirish borasida olib borilayotgan ishlar yuzasidan tajriba-sinov tadqiqotlari o‘tkazilganligi va uning tahliliy natijalari haqida fikrlar yuritilgan hamda tegishli xulosalar chiqarilgan.*

**Kalit so‘zlar:** inson resurslarini boshqarish, maktab, direktor, rahbar xodimlar, inson resurslarining ta’milanganligi, inson resurslarini rivojlantirish, inson resurslarini yo‘naltirish.

### СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В СРЕДНИХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

*В данной статье на основе современных методов управления персоналом в мировой системе школьного образования, ученых, проводивших научные исследования в этом направлении, а также реформ в современной системе образования, анализируется управление персоналом в школах, то есть подход к персоналу как интеллектуальный ресурс, кадровый потенциал в школах. В связи с проводимыми работами в области развития сложились мнения о проведении экспериментальных исследований и их аналитических результатах, сделаны соответствующие выводы.*

**Ключевые слова:** управление человеческими ресурсами, школа, директор, управленческий состав, обеспечение человеческими ресурсами, развитие человеческих ресурсов, ориентация человеческих ресурсов.

### IMPROVING HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

*In this article, based on the modern methods of staff management in the world school education system, scientists who have conducted scientific research in this regard, as well as the reforms in today’s education system, staff management in schools, that is, approaching staff as an intellectual resource, human resources in schools in connection with the works being carried out in the field of development, there were opinions about the conduct of experimental research and its analytical results, and relevant conclusions were drawn.*

**Keywords:** human resource management, school, director, management staff, provision of human resources, development of human resources, orientation of human resources.

**Kirish.** Jahonda bo‘layotgan ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar mamlakatimiz ta’lim sohasiga ta’sir qilmay qolmaydi. Dunyoda ta’lim sohasi tez o‘zgarmoqda va rivojlanmoqda, bu birinchi navbatda dars mazmuni bilan bog‘liq bo‘lsa, keyingi o‘rinlarda darsni tashkil etish va boshqarish bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va yangiliklar bevosita ta’lim tizimini rivojlantirish, uni jahon standartlari darajasiga olib chiqish, zamonaviy o‘qtish-o‘rgatish uslub va metodlaridan foydalanish, malakali pedagog kadrlar tayyorlash va ta’lim muassasalarini boshqarishda HRM tamoyillari va strategiyalarini keng joriy qilish maqsad qilingan.

Bu borada, Prezident Sh.Mirziyoyev “maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur” deb ta’kidlab, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha ulkan ishlarni amalga oshira boshladi [1].

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-mayda PF-134-son «2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonida [2]:

-maktab ta’limiga ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o‘quv dasturini to‘laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish;

-jamiyatda o‘qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag‘batlantirish;

-o‘qituvchilarning yoshlarga ta’lim va tarbiya berishdagi mas’uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish;

-umumiyl o‘rta ta’lim muassasalari uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilg‘or mifik direktori va namunali o‘qituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish va boshqa ko‘plab muhim vazifalarni bajarish belgilab qo‘yilganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ta’limda IRBning ahamiyatiga to‘xtalishdan oldin inson resurslarini boshqarish yondashuvi bilan personalni boshqarish yondashuvi orasidagi farq va o‘xhashliklarni aniqlab olish lozim.

Personalni boshqarish – bu unchalik katta bo‘Imagan funksiyalarini qamrab olgan bo‘lib, korxonalarda ishga qabul qilish, ishdan bo‘shatish va xodimlarni hisobga olish kabi operatsiyalarini nazarda tutadi. Shuningdek, u korxona faoliyatida strategik rolga ega emas. Unda xodimlar o‘z funksiyalarini bajaradilar va tashkiliy qarorlar qabul qilishda ishtirok etmaydilar [3].

1980-yillarning boshida inson resurslarini boshqarish tushunchasi o‘rtaga chiqdi, ammo boshlanishida ushbu konsepsiyaning mazmunidagi noaniqlik tufayli uni ifodalash juda qiyin edi. Shu bois, IRB dastlab yangi ma’no qo‘shmasdan personalni boshqarish o‘rniga ishlatildi. Shu bilan birga, 1990-yillardan inson resurslarini boshqarish tushunchasi keng qo‘llanila boshlandi [4].

Xodimlarning hisobini yuritish, ish haqi, qo‘shimcha nafaqalar, sug‘urta to‘lovlari, ta’tillar, dam olish kunlari soni, ishdan bo‘shatish va ishga kechikish kabi masalalarni hisobga olishdan nariga o‘tmaydigan personalni boshqarish yondashuvi zamonaviy sharoitlar, o‘zgarishlar va talablarga javob bera olmay qoldi. Shu sababli, ishchi kuchining tarkibiy o‘zgarishiga va mehnat bozoriga xizmat qiladigan yangi kadrlar siyosatini yo‘lga qo‘yish zarurati paydo bo‘ldi [5].

Bu borada tadqiqotchilar Agunva, Ouen va Ekpe ta’lim tashkilotlarining samarali faoliyatida xodimlarni boshqarish muhim rol yo‘nalishini ta’kidlagan holda, ta’lim menejerining xodimlarni boshqarish funksiyalarini keltirib o‘tadi va ushbu funksiyalarga rioya qilinsa, u har qanday maktabni o‘z maqsadiga va samaradorligini oshirishiga erishiladi. Tadqiqotchilarga ko‘ra, ta’lim menejmentining xodimlarni boshqarish funksiyalariga quyidagilar kiradi: xodimlarni rejalashtirish; ishga qabul qilish, yollash jarayoni; tanlash; joylashtirish; oriyentatsiya (yo‘naltirish); ta’lim va rivojlanish; kompensatsiya; integratsiya; ish tahlili; ish samaradorligini baholash; ishni baholash; lavozimida o‘sish yoki rag‘batlantirish; kadrlar ishini yuritish; xodimlar bilan munosabatlar; intizom; xodimlarning shikoyati; xodimlar salomatligi va xavfsizligini boshqarish [6]. Tadqiqotchilar Agunva, Ouen va Ekpelarning fikricha, yuqoridaq vazifalar to‘g‘ri va aniq bajarilganda, maktablarda inson resurslarini boshqarish rivojlanadi va u maktab faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [6].

Ushbu o‘zgarishlar bilan an’anaviy personalni boshqarishdan zamonaviy xodimlarni boshqarish, ya’ni inson resurslarini boshqarishga o‘tish sodir bo‘ldi. Bu ayniqsa, yirik tashkilotlarda muvaffaqiyatli amalga oshdi. Vaqt-i-vaqt bilan, garchi inson resurslarini boshqarish va personalni boshqarish tushunchalaridan foydalanish sinonim sifatida qo‘llanilsa-da, amalda ular orasida muhim farqlar borligini aytish mumkin. Jumladan, inson resurslarini boshqarish tashkilot strategiyasini aniqlash, amalga oshirish va nazorat qilishni o‘z ichiga olsa, personalni boshqarish asosan jismoniy shaxslarga oid bir qancha funksiyalarini bajarish bilan cheklanadi [5].

Zamonaviy davrda mehnat bozoridagi o‘zgarishlar ta’limni ham unga moslashishini talab qilmoqda. Bu esa ta’lim boshqaruvida tez moslashuvchanlik, strategiyalarni to‘g‘ri qo‘yish, pedagog-o‘qituvchilarni qo‘llab quvvatlash, uzlusiz malakasini oshirish va boshqa muhim jihatlarni o‘z ichiga olgan inson resurslarini boshqarish (HRM yoki IRB) tamoyillariga o‘tishni taqozo qilmoqda. Ta’limda HRMning maqsadi o‘qituvchi-pedagoglarni ish faoliyati samaradorligini oshirish va ularning o‘z faoliyatidan mammuniyatini oshirishdan iboratdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zamonaviy davrda mehnat bozoridagi o‘zgarishlar ta’limda ham unga moslashishini talab qilmoqda. Bu esa ta’lim boshqaruvida tez moslashuvchanlik, strategiyalarni to‘g‘ri qo‘yish, pedagog-o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash, uzlusiz malakasini oshirish va boshqa muhim jihatlarni o‘z ichiga olgan inson resurslarini boshqarish (IRB) tamoyillariga o‘tishni taqozo qilmoqda.

Ilmiy-tadqiqot jarayonida umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida inson resurslarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga oid ishlar metodologiyasi ishlab chiqildi va tajriba-sinov tadqiqotlari o‘tkazildi.

**Tahlil va natijalar.** Tajriba-sinov tadqiqoti 2022-2024 yillar davomida Andijon, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlaridagi umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining rahbar va pedagog xodimlari o‘rtasida hamda


A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutida tajriba-sinov tariqasida umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarini direktori lavozimiga nomzodlar uchun tashkil etilgan menejerlik o‘quv kursi tinglovchilarida o‘tkazildi. Unda jami 618 nafar ishtirokchi qatnashdi va quyidagi natijalarga erishildi.

So‘rovnoma 2 qismidan iborat bo‘lib, ***birinchi qism*** – Muassasada inson resurslarining ta’minlanganligi; ***ikkinci qism*** - Muassasada inson resurslarini rivojlantirish.

So‘rovnomaning birinchi qismi, ya’ni “**Muassasada inson resurslarining ta’minlanganligi**” yuzasidan ishtirok etgan rahbar-xodimlarning ishtiroki tahlil qilinganda:

So‘rovnomaning birinchi qismi bo‘yicha ishtirokchilarning tahliliy natijalari quyidagicha, ya’ni 618 nafar ishtirokchining “**Muassasada inson resurslarining ta’minlanganligi**” bo‘yicha bildirilgan xulosalari o‘rtacha hisoblanganda 65 nafar (10,4%) ishtirokchi “To‘liq qo’shilmayman”, 59 nafar (9,6%) ishtirokchi “Qo’shilmayman”, 42 nafar (6,8%) ishtirokchi “Ikkilanayapman”, 343 nafar (55,4%) ishtirokchi “Qo’shilaman” va 110 nafar (17,8%) ishtirokchi “To‘liq qo’shilaman” degan fikrni bildirgan.


**1-diagramma.** Muassasada inson resurslarining ta’minlanganligi.



So‘rovnomaning ikkinchi qismi, ya’ni “**Muassasada inson resurslarini rivojlantirish**” yuzasidan ishtirok etgan rahbar va pedagog xodimlarning ishtiroki tahlil qilinganda:

So‘rovnomaning ikkinchi qismi bo‘yicha ishtirokchilarning tahliliy natijalari quyidagicha, ya’ni 618 nafar ishtirokchining “**Muassasada inson resurslarini rivojlantirish**” bo‘yicha bildirilgan xulosalari o‘rtacha hisoblanganda 54 nafar (8,8%) ishtirokchi “To‘liq qo’shilmayman”, 59 nafar (9,6%) ishtirokchi “Qo’shilmayman”, 39 nafar (6,4%) ishtirokchi “Ikkilanayapman”, 365 nafar (59,1%) ishtirokchi “Qo’shilaman” va 100 nafar (16,2%) ishtirokchi “To‘liq qo’shilaman” degan fikrni bildirgan.

**2-diagramma.** Muassasada inson resurslarini rivojlantirish holati



1-jadvalda inson resurslarini boshqarishning tarkibiy o‘lchovlari va umumiyl ishtirokchilar uchun inson resurslarini boshqarish bo‘yicha o‘rtacha umumiyl ball ko‘rib chiqilgan. Ushbu ko‘rib chiqish natijasida, ishtirokchilarning inson resurslarini boshqarish inventarining tarkibiy o‘lchovlari orasida inson resurslarini

ta’minlashda (kadrlar bilan ta’minlashda)  $X=12,58$ , inson resurslarini rivojlantirishda  $X=38,56$ , ish prinsiplarida  $X=25,32$ , yo‘naltirishda  $X=29,12$  va inson resurslarini boshqarish bo‘yicha umumiyligi balldan o‘rtacha  $X=105,60$  ballga ega ekanligi kuzatildi.

**1-jadval.**

**Ishtirokchilarning Inson resurslarini boshqarish tarkibiy o‘lchovlari va umumiyligi ballari  
bo‘yicha X va Ss qiymatlarining natijalari**

O‘lchov	n	X	Ss	Min	Max
Inson resurslarining ta’minlanganligi	618	12,58	3,88	4,00	20,00
Inson resurslarini rivojlantirish	618	38,56	9,68	11,00	55,00
Inson resurslarining ishslash prinsipi	618	25,32	6,29	7,00	35,00
Inson resurslarini yo‘naltirish	618	29,12	7,53	8,00	40,00
Jami ballari	618	105,60	24,35	36,00	150,00

Tadqiqotga kiritilgan direktorlar va o‘qituvchilarning o‘rtacha  $X=105,60$  ballni hisobga olgan holda, inson resurslarini boshqarish inventarining umumiyligi ballidan va inventarizatsiyaning umumiyligi ballidan olinishi mumkin bo‘lgan qiymatlardan (Min 30, Maks 150) baholanadi, shuni aytish mumkinki, direktorlar va o‘qituvchilar inson resurslarini boshqarishni o‘rta darajadan yuqori baholaydilar. Ushbu natijaga ko‘ra, mакtab ma’muriyati va o‘qituvchilar o‘z maktablarida kadrlar boshqaruvini yetarli deb bilishlarini aytish mumkin.

2-jadvalda inson resurslarini boshqarish bo‘yicha tarkibiy o‘lchovlar va ishtirokchilarning umumiyligi ballari gender o‘zgaruvchisiga qarab farqlanadimi yoki yo‘qmi, bu t-testi orqali tekshirildi. Tekshiruv natijasida ishtirokchilarning inson resurslarini boshqarish inventarining tarkibiy o‘lchamlari va gender o‘zgaruvchisiga ko‘ra umumiyligi ball o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan sezilarli farq yo‘qligi aniqlandi ( $t412=-2,987$ ,  $p=.925$ ).

**2-jadval. Ishtirokchilarning inson resurslarini boshqarish bo‘yicha tarkibiy o‘lchovlari va gender o‘zgaruvchisi bo‘yicha umumiyligi ballarining t-testi natijalari**

O‘lchov	Jinsi	n	X	Ss	s.d	t	p
Inson resurslarining ta’minlanganligi	Erkak	172	12,18	3,60	412	-1,677	,061
	Ayol	446	12,83	4,03			
Inson resurslarini rivojlantirish	Erkak	172	37,21	9,67	412	-2,244	,769
	Ayol	446	39,40	9,62			
Inson resurslarining ishslash prinsipi	Erkak	172	24,34	6,19	412	-2,513	,985
	Ayol	446	25,93	6,28			
Inson resurslarini yo‘naltirish	Erkak	172	27,37	7,36	412	-3,809	,633
	Ayol	446	30,22	7,43			
Jami ballari	Erkak	172	101,11	24,02	412	-2,987	,925
	Ayol	446	108,40	24,18			

$p>0,05$

Tahlil natijasida aytish mumkinki, inson resurslarini boshqarish bo‘yicha baholash jinsiga qarab o‘zgarmaydi, ayol rahbarlar va o‘qituvchilarning o‘rtacha soni erkak rahbar va o‘qituvchilarga qaraganda yuqori bo‘lsa-da, ham ayol rahbar va o‘qituvchilar, ham erkak rahbar va o‘qituvchilar bir-biriga yaqin baholashni amalga oshirdilar.

**Xulosa.** Shulardan kelib chiqib, bu borada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan quyidagi taklif va tavsiyalarni berib o‘tamiz:

1. Muassasalar uchun eng qimmatli resurs inson ekanligini anglab yetgandan so‘ng, kadrlar boshqaruvi bo‘limi har bir muassasa kabi ta’lim muassasalari uchun ham ajralmas qismiga aylandi. Har bir ta’lim muassasasida inson resurslarini boshqarish bo‘limi tashkil etilishi va uning ishini qo‘llab-quvvatlash zarur. Bu borada muvaffaqiyatga erishgan namunali maktablar tajribasi boshqa maktablarga tatbiq qilish mexanizmi yo‘lga qo‘yilishi lozim.

2. Axborotning ahamiyati ortishi bilan inson elementi birinchi o‘ringa chiqdi va shuning uchun inson resurslari bo‘limlarining ahamiyati ortib borar ekan, insonlar bilan ishslash samaradorligini oshirish zarurati ortmoqda. Bu kadrlar boshqaruvi amaliyotini markazlashtirilgan tuzilmadan imkon qadar ozod qilish va butun muassasa bo‘ylab yoyishni talab qilmoqda.

3. Maktablarda inson resurslarini boshqarish yondashuvi, inson resurslarini boshqarish menejerlari o‘zlarini rivojlantirishlari va yetakchilik fazilatlariga ega bo‘lishlari kerak. Ushbu yondashuvdan samarali foydalanish uchun menejerlar tashkilotning maqsadlarini tajriba darajasida bilishlari, yuqori ma’lumot va

madaniyatga ega bo‘lishlari, keng dunyoqarashga ega bo‘lishlari va texnik taraqqiyotni tekshirishlari kerak. Barchani maktab muassasasi uchun birdek mas’uliyatini ta’minlash haqiqiy HRMning yutug‘idir.

4. Maktablarda inson resurslarini boshqarish funksiyalarida yuzaga kelgan muammolarni va ularni hal qilish yo‘llarini o‘rganish uchun bu kabi tadqiqotlar muntazam o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

**Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 23-avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi: «Maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur», 23.08.2019 <https://uza.uz/uz/posts/maktab-talimini-rivojlantirish-umumxalq-xarakatiga-aylanishi-23-08-2019>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-maydagi «2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni.
3. Doaei H. A. and Najminia R., How Far Does HRM Differ From PM. // European Scientific Journal, June edition vol. 8, No.13. 2012.
4. Hendry C. Personnel and Human Resource Management in Britain. Zeitschrift für Personalforschung // German Journal of Research in Human Resource Management, 8. Jahrg., H. 3. 1994, pp. 208-238
5. Surbhi S. Difference Between Personnel Management and Human Resource Management. February 12, 2022. <https://keydifferences.com/difference-between-personnel-management-and-human-resource-management.html>
6. Agunwa Judith N., Owan Valentine J., Ekpe Mercy B., Personnel Management: Implications for the Effectiveness of the School System. // International Journal of Research and Innovation in Social Science (IJRISS), Vol. III, Issue X, October 2019, pp. 391-395.

## ILG’OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

### “CHAQIRIQQACHA BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK” FANI MAVZULARIDA PREZI.COM YORDAMIDA TAQDIMOTLAR YARATISH METODLARI

Saxibov Aljon Xudoykulovich,  
Toshkent kimyo-tehnologiya instituti  
Yangiyer filiali erkin izlanuvchisi

Ushbu maqolada talabalarga prezzi.com saytida ro‘yxatdan o‘tish algoritmini tushuntirish, saytda ishslash usullarini ko‘rsatish va prezzi.com saytida mutaxassislikka oid taqdimot yaratishni o‘rgatishdan iborat. Talabalarga boshlang‘ich harbiy ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish tuzilmasi, Chaqiruvga qadar boshlang‘ich ta’lim fani orqali talabalarning ko‘nikmalarini shakllantirish tuzilmasi ishlab chiqilgan bo‘lib, mustaqil ta’lim olish, o‘quv materialini tarqatish, qiziqtirish, nazariyani amaliyat bilan bog‘lash tamoyillari keng yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** prezzi.com, taqdimot, ro‘xatdan o‘tish, elektron pochta login, menu, sayt, maydon, ssilka, shaxsiy ma‘lumotlar, registratsiya, shaxsiy kabinet, akkaunt, prezzi.com uskunalar, interfeys, uskunakar paneli, ish sohasi, shablonlar, sozlamalar paneli, kompyuter.

### МЕТОДЫ СОЗДАНИЯ ПРЕЗЕНТАЦИЙ ПО ПРЕДМЕТУ “НАЧАЛЬНАЯ ДОПРИЗЫВНАЯ ПОДГОТОВКА” С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ PREZI.COM

Эта статья объясним студентам алгоритм регистрации на prezzi.com, покажет, как работать на сайте, и научит создавать презентацию специальности на prezzi.com. Разработана структура формирования основных навыков военного образования студентов, структура формирования навыков студентов через предмет начального образования до призыва, а также принципы самостоятельного обучения, распределения учебного материала, интереса, были подробно объяснены связи теории с практикой.

**Ключевые слова:** prezzi.com, презентация, регистрация, вход по электронной почте, меню, сайт, область, ссылка, личная информация, регистрация, личный кабинет, учётная запись, оборудование prezzi.com, интерфейс, аппаратная панель, рабочая область, шаблоны, панель настроек, компьютер.

### METHODS OF CREATING PRESENTATIONS ON THE SUBJECT ‘INITIAL PRE-CONSCRIPTION TRAINING’ USING PREZI.COM

This article covers the algorithm for registering on prezzi.com for students, shows how to work on the site, and teaches how to create a presentation of a specialty on prezzi.com. The structure for developing the basic skills of military education for students, the structure for developing the skills of students through the subject of primary education before conscription for military service, independent learning, dissemination of educational material, interest, principles of connecting theory with practice are widely covered.

**Keywords:** prezzi.com, presentation, registration, login by email, menu, site, area, link, personal information, registration, personal account, account, prezzi.com equipment, interface, hardware panel, work area, templates, settings panel, computer.

**Kirish.** Axborot asrida insoniyat tarixida sanoat va fan olamida olamshumul yutuqlar qo‘lga kiritildi. Dunyoda axborot eng qimmat narsaga aylandi. Kompyuter ixtiro qilinishi insonlar bajaradigan yumushlarni yengillashishiga olib keldi. Fan, ta’lim sohalarida o‘qitish o‘rganishning zamonaviy vositalari joriy qilindi.

Ta’lim jarayonini axborotlashtirishda hamda axborot texnologiyalari asosida bilim olish darajasi sifatini oshirish borasida so‘nggi yillarda kuchli o‘zgarishlar yuz bermokda. Bu o‘zgarishlarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi Farmoni va unga asosan, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 6-iyundagi 200-son “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori asos bo‘ldi. Unda jumladan, ta’lim sifatini oshirish maqsadida standartlariga muvofiq elektron o‘qitish bazasini yaratish vazifasi yuklatilgan.

Ta’lim olish sifati-kompleks tushuncha bo‘lib, bir qator ko‘rsatkichlar bilan xarakterlanadi. Uni shakllantirishda boshlang‘ich manbalar (ya’ni, kitoblar qo‘llanmalar, lug‘atlar, ma’lumotnomalar va x.k.)

# “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 10

shuningdek, o’rta (pedagogik texnologiyalar, o’quv jarayonini tashkili) va nihoyat, ta’lim berish subyekti-o’qituvchi ishtirok etadi.


**Tadqiqot obyekti va qo’llanilgan metodlar.** Yangi axborot-pedagogik texnologiyalarning yorqin namoyondasi bo’lgan -elektron darsliklar muhim o’rin egallaydi. Ular zamonaviy axborot texnologiyalarning maxsuli hisoblanib, ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. Elektron darsliklar ta’lim olishning yangi shakli bo’lgan masofaviy o’qitishning metodologik asosi hisoblanadi.

Prezi.com - bu chiziqli bo’lidan tuzilishga ega interaktiv multimedia prezentsiyalarini yaratishga imkon beruvchi veb-xizmat.

Prezi.com prezentsiyalar yaratish xizmati video materiallar, grafikalar va h.k.lardan foydalanib taqdimotlarni tasavvur qilish uchun juda ko’p imkoniyatlarni taqdim etadi.


Talabalar va barcha shakl va turdagи ta’lim tashkilotlarining pedagogik xodimlari uchun bosqichma-bosqich ro‘yxatdan o’tish algoritmini ko‘rib chiqamiz. Ushbu tarif bilan ishlash uchun maxsus ro‘yxatdan o’tish sahifasidan foydalanish kerak bo’ladi - <http://prezi.com/pricing/edu/>.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Prezi.com veb-saytida ro‘yxatdan o’tgandan so‘ng o‘zimizning shaxsiy kabinetga kirib(1-rasm) prezi.com veb-sayti orqali mavzuga mos taqdimot yaratishni ko‘rib chiqamiz.




1-rasm. Prezi.com veb-saytida shaxsiy kabinetga kiritilgan holat

Shaxsiy kabinetga kirgandan so‘ng, chaqiriqqacha harbiy ta’lim yo‘nalishi uchun «Zamonaviy armiya rivojlanish nazariyasi va amaliyoti» fanidan “Sovuq urush davrida strategik qurollarning rivojlanishi va turlari” ma’ruza mashg’ulotining taqdimotini tayyorlash jarayoni bilan tanishib chiqamiz. Birinchi navbatda mavzuga mos taqdimot turini tanlaymiz(1-rasm). Taqdimot turini tanlab bo’lgach, qo’shimcha ravishda taqdimotimizga yangi frame qo’shishimiz mumkin. Taqdimotga o’rnatalgan frameni mavzulashtirib uning ma’lumotlarini kiritib bo’lgandan so‘ng, uni video ko‘rinishida saqlab olishimiz mumkin. Tayyorlangan taqdimotni turli formatlarda ya’ni video, taqdimot, pdf fayllari ko‘rinishida saqlab olish kabi prezi.comning bu xususiyatlarni rejamizning oxirida ko‘rib chiqamiz.



2-rasm. Taqdimot turini tanlash




3-rasm. Taqdimotga Frame qo'shish

Mavzuga mos bo'lgan taqdimot turini tanlab mavzu hamda mavzuga mos bo'lgan rejalarini taqdimotning birinchi slaydiga joylashtiramiz(2-rasm). Slayd tayyorlashda menyuning yuqori qismida matnni tahrirlash qismi mavjud bo'lib, menyudan matnning rangini o'zgartirish uchun, avval kerakli matn tanlanadi va uning rangini A belgisini bosish orqali ranglar palitrasidan tanlash mumkin(3-rasm).


Matnning o'lchamlarini o'zgartirish uchun, kerakli matn tanlanib, kattalashtirish uchun A+ hamda matn hajmini kichraytirish uchun A- menyularini tanlaymiz(3-rasmida qizil bilan belgilangan qism). Bundan tashqari yozuvning bir necha bizga ma'lum bo'lgan turlarini 3-rasmida ko'rsatilgan menyular orqali tanlashimiz va yozuv ko'rinishlarini o'zgartirishimiz mumkin.

4-rasm. Taqdimot turini tanlash hamda ma'lumotlarni kiritish




5-rasm. Matn rangini o‘zgartirish

Keyingi qadamda 3-rasmida ko‘rsatilgani kabi rejalarini joylashtiramiz. Har bir reja uchun bizga avtomatik tarzda yangi slayd yaratiladi ya’ni aylana shaklni ustiga bosish orqali foydalanuvchi bosingan rejaning asosiy qismiga o‘tib boradi(4-rasm). Asosiy reja ma’lumotlariga o‘tganda shakllarning har biriga qisqacha ma’lumot joylashtirish va joylashtirilgan qisqacha ma’lumotning tasnifiga o‘tish mumkin. Bu holatda biz chegaralanmagan miqdorda slayd osti slaydlar yaratishimiz mumkin.




6-rasm. Slayd osti slaydning ko‘rinishi

Shu tartibda barcha slaydlar yaratib olingandan so‘ng, present tugmasi orqali taqdimot namoyishini ko‘rish mumkin (7-8-rasmlar). Present tugmasi orqali taqdimotning namoyishini turli ko‘rinish ya’ni video, taqdimot kabilarda ko‘rish mumkin(10.7-rasm).




7-rasm. Present tugmasi bosilganda hosil bo‘ladigan oyna

Prezi.com veb-saytining asosiy qulayliklaridan yana biri bu yaratilayotgan taqdimotga turli fayllar, videolar, grafik fayllar, ovozli yozuv kabi turli ma'lumotlarni joylashtirish hisoblanadi. Buning uchun yuqoridagi menyudan “Insert” tugmasini bosamiz(7-rasm).



**8-rasm. Qo'shimcha ma'lumotlarni joylashtirish “Insert” bo'limi yordamida**

Misol tariqsida taqdimotimizga video favlni o'rnatishni ko'rib chiqamiz. Buning uchun birinchi navbatda “Insert” bo'limiga kiramiz va Video menu osti menyusini tanlaymiz, bizga veb-sahifaning o'ng tomonida qo'shimcha oyna hosil bo'ladi(8-rasm). Hosil bo'lgan oynadan “Add from my library” tugmasini bosish orqali kutubxonada mavjud video fayllarni o'rnatish mumkin yoki pastqi qismidan “EMBED YOUTUBE” matnli oynasiga youtube.com saytidagi bizga kerakli bo'lgan videoning url manzilini kiritib taqdimotimizga o'rnatishimiz mumkin.



**9-rasm. Taqdimotga video faylni o'rnatish**



**10-rasm. Present tugmasi bosilgandagi holat**

⦿ Prezi ko‘plab kompyuterlarda, hatto noutbuklarda yaxshi ishlaydi. Sizning kompyuteringiz Prezi prezentatsiyalarini yaratish uchun tizim talablariga javob beradimi yoki yo‘qligini osongina aniqlashingiz mumkin: prezi-prezentatsiyalar katalogiga o‘ting (<http://oprezi.ru/catalog.html>) va katalogdagi har qanday taqdimotga qarang. Agar taqdimot kechiktirmsandan va buzilishlarsiz namoyish etilsa, u holda ushbu kompyuterda Prezi taqdimotlarini yaratishingiz mumkin.

⦿ Tezkor protsessor, katta hajmli xotira , kuchli grafik karta juda ko‘p grafik elementlarni o‘z ichiga olgan Prezi taqdimotlarida qulay ishlashni kafolatlaydi.

⦿ Qo‘llab-quvvatlanadigan brauzerlar: Google Chrome, Yandex brauzeri, Mozilla Firefox, Internet Explorer, Opera, Safari.

⦿ Qo‘llab-quvvatlanadigan operatsion tizimlar: Windows XP / Vista / 7/8, Mac OS, Linux

**Xulosa.** Bugungi rivojlanish davrida ta’lim oluvchilar o‘z ustida mukammal ishlashi, bilim va malakasini oshirishi lozim bo‘ladi, chunki bugungi kunda bozor iqtisodiyoti mutaxassislarga yuqori talablar qo‘yiladi. Bitiruvchi talaba o‘qishni bitirgandan so‘ng aniq mutaxassisligi bo‘yicha kafolatlangan ish joyiga ega bo‘lishi kerak va kelajakda o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yetuk mutaxassis, har tomonlama raqobatbardosh bo‘lishi, ham bilim jihatdan, ham shaxs sifatida kompetentli bo‘lib yetishishi lozim.

### **Adabiyotlar:**

1. Atamuradov J.J., Xazratov F.X., Raximov F.B. Chaqiriqqacha boshlang‘ich tayyorgarlikni o‘qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. Buxoro-2021. 407 b.
2. Парпиев А., Марахимов А., Ҳамдамов Р., Бегимқулов У., Бекмурадов М., Тайлоков Н. Янги ахборот технологиялари. ЎзМЭ давлат илмий нацириёти.-Т.: 2008, 104 б.
3. Abduqodirov A., Xaitov A., Shodiev R. Axborot texnologiyalari – T.: O‘zbekiston, 2002 y.
4. Aripov M. va boshqalar Informatika va informasion texnologiyalar. Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik T. 2005 y.
5. Aripov M.va boshqalar. Axborot texnologiyalari. o‘quv qo‘llanma. – T.: 2009.
6. Saxibov A.X. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikda axborot texnologiyalar. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 108 bet.
7. Ismoilov O.A., Nazarov Sh.Q. Ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar – T. Fan va texnologiya, 2012, 40 bet.

## TABIY FANLARDA LOYIHA ISHLARINI TASHKIL ETISHDA 5E YONDASHUVI

Rahmonov Ulfat Ubaydullayevich,

Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi  
fizika va astronomiya fani metodisti, mustaqil tadqiqotchi  
[ulfatrahmonov775@gmail.com](mailto:ulfatrahmonov775@gmail.com)

Ushbu maqolada tabiiy fanlarda loyihaviy ishlarni samarali tashkil etishda “5E yondashuvi” (Engagement, Exploration, Explanation, Elaboration, Evaluation) modeli haqida so‘z yuritiladi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarining ilmiy izlanishlarini rivojlantirish va ularning mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada har bir bosqichning mazmuni va ularning loyiha ishlarni bajarish jarayonidagi o‘rni batafsil tushuntirilgan. Shuningdek, ushbu pedagogik yondashuvning tabiiy fanlarni o‘qitishda qo‘llanishi bo‘yicha amaliy misollar keltirilgan. 5E modeli orqali o‘quvchilar bilimlarni o‘zlashtirishda faollik ko‘rsatib, ilmiy muammolarni hal qilishda ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

**Kalit so‘zları:** loyiha ishi, 5E modeli, jalb qilish, tadqiq qilish, tushuntirish, qo‘llash, baholash, ilmiy hodisa, babs-munozara, amaliy ishlar, o‘quv jarayoni, tanqidiy fikrlash, ilmiy muammolarni hal qilish.

### 5E ПОДХОД К ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЕКТНОЙ РАБОТЫ ПО ЕСТЕСТВЕННЫМ НАУКАМ

В данной статье рассказывается о модели «подхода 5E» (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) для эффективной организации проектной работы в области естественных наук. Такой подход важен в развитии научных исследований студентов и формировании их способностей к самостоятельному обучению. Содержание каждого этапа и их роль в процессе проектной работы подробно раскрыты в статье. Также представлены практические примеры использования данного педагогического подхода в преподавании естественных наук. С помощью модели 5E учащиеся активно приобретают знания и развивают творческие способности и навыки критического мышления при решении научных задач.

**Ключевые слова:** проектная работа, модель 5E, участие, исследование, объяснение, применение, оценка, научное явление, дебаты, практическая работа, процесс обучения, критическое мышление, решение научных проблем.

### 5E APPROACH TO ORGANIZING PROJECT WORK IN NATURAL SCIENCES

This article talks about the "5E approach" (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) model for effective organization of project work in natural sciences. This approach is important in the development of students' scientific research and the formation of their independent learning abilities. The content of each stage and their role in the process of project work are explained in detail in the article. Practical examples of the use of this pedagogical approach in teaching natural sciences are also presented. Through the 5E model, students actively acquire knowledge and develop creativity and critical thinking skills in solving scientific problems.

**Keywords:** project work, 5E model, engagement, research, explanation, application, evaluation, scientific phenomenon, debate, practical work, learning process, critical thinking, solving scientific problems.

**Kirish.** Yangi O‘zbekistonda tabiiy fanlarni rivojlantirish hamda ta’limini yaxshilash borasida qator qarorlar qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagи PQ-4805-sonli “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzlusiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 484-sonli “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qarorlarida ko‘rsatilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishini alohida ta’kidlash lozim. 2023-yilda matematika, kimyo-biologiya va geologiya yo‘nalishida ixtisoslashgan maktablar tashkil etildi, o‘quvchilar malakasi oshirildi, o‘quv dasturlari yangilandi. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, tabiiy fanlarsiz zamonaviy texnologiyalarini rivojlantirish va global miqyosdagi yutuqlarga erishish qiyin bo‘ladi.

Shuningdek, tabiiy fanlar bo‘yicha xalqaro hamkorlik va zamonaviy darsliklar yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xalq ta’limi tizimida o‘qituvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularga yangi metodikalarni o‘rgatish muhim yo‘nalish sifatida belgilangan.

5E modeli tabiiy fanlarda loyiha ishlarini o‘rganishda qo‘llaniladigan zamonaviy yondashuv bo‘lib, beshta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi (1-jadval):

**1-bosqich. Diqqatni jalb qilish (engagement)** - Ushbu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarni yangi mavzuga qiziqtirish va diqqatlarini jalb qilishga harakat qiladi. Bu jarayon savol-javoblar, real hayotdan misollar yoki muammolar orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilarni o‘z bilimlarini aniqlash va mavjud bilimlarini yangi bilimlar bilan bog‘lashga yordam beradi.

**2-bosqich. Tadqiq etish (exploration)** - Bu bosqichda o‘quvchilar mustaqil ravishda tajribalar o‘tkazish, ma’lumot yig‘ish va muammolarni o‘rganishga kirishadilar. O‘quvchilar ilmiy kuzatuvarlar va amaliy tajribalar orqali yangi bilimlarni kashf etadilar, bu esa ularning qiziqishini yanada oshiradi.

**3-bosqich. Tushuntirish (explanation)** - Ushbu bosqichda o‘quvchilar yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilib, yangi bilimlarni o‘z so‘zlar bilan tushuntiradilar. O‘qituvchi ularga tushuntirishga yordam berib, ilmiy tushunchalarni to‘g‘ri ifoda etishga yo‘naltiradi.

**4-bosqich. Qo‘llash (elaboration)** - Bu bosqichda o‘quvchilar o‘rganilgan tushunchalarini yanada chuqurlashtirib, ularni boshqa sohalarda qo‘llash yo‘llarini o‘rganadilar. Bu bosqichda loyihamalar va ijodiy ishlar orqali yangi bilimlarni amaliyatga tatbiq etish muhim rol o‘ynaydi.

**5-bosqich. Baholash (evaluation)** - Oxirgi bosqichda o‘quvchilar o‘z bilim va ko‘nikmalarini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu bosqichda testlar, baholar va o‘zaro tahlillar orqali bilimlar qay darajada o‘zlashtirilganligi aniqlanadi [1].

#### 1-jadval.

#### 5E modeli asosida loyiha ishini tashkil etish bosqichlari

5E modeli bosqichlari	Ana’naviy darslarda loyiha ishlarini bajarish	5E modeli asosida loyiha ishi darslarini tashkil etish
Jalb qilish	Faoliyatlarni muvofiqlashtirish	Oldingi bilimlarni faollashtirish va baholash
Tadqiq qilish	O‘tilgan mavzuni takrorlash	O‘qituvchi umumiyligi tajribani butun sinfga taqdim etadi
Tushuntirish	Yangi mavzu bayoni	O‘quvchilar tushuntiradilar
Ishlab chiqish	Loyihani bajarish	G‘oyani yangi vaziyatlarda qo‘llash(mustaqil)
Baholash	O‘qituvchi o‘quvchilar ishini baholaydi	O‘qituvchi ham, o‘quvchilar ham baholaydilar

5E modeli tabiiy fanlarda loyihaviy yondashuvni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib, o‘quvchilar o‘z qiziqishlariga ko‘ra ilmiy loyihalarni tanlaydilar. Misol tariqasida fizika fanida energiya manbalarini tadqiq qilish, biologiya fanida ekologik loyihalarni o‘rganish yoki kimyo fanida yangi muddalarni sintez qilish kabi loyihalar keltirilishi mumkin. Har bir bosqich o‘quvchilarni ilmiy muammolarni yechishga yo‘naltiradi va ularning nazariy bilimlarini amaliyat bilan bog‘lash imkonini beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tabiiy fanlarda loyiha ishlarini tashkil etishda qo‘llaniladigan yondashuvlar bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar mavjud. Xususan, konstruktivistik pedagogika nazariyasi asosida ishlab chiqilgan 5E yondashuvi samaradorligi ko‘plab ilmiy ishlar orqali tasdiqlangan. Mazkur yondashuvni dastlab Bybi, Leyr va Jozef (Bybee, Laird, & Joseph, 1997) tomonidan ishlab chiqilgan va tabiiy fanlar ta’limida innovatsion uslub sifatida joriy qilingan. Ularning tadqiqotlarida o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish va ularni ilmiy izlanishlarga yo‘naltirish uchun samarali vosita ekanligi ko‘rsatilgan [2],[3].

Bundan tashqari, 5E modeli o‘quvchilarning amaliyotda bilimlarni qo‘llash va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi konstruktiv yondashuv sifatida O‘zbekistonda ham joriy etila boshlandi. Xususan, O‘lkashunos va pedagog O. Xamidov (2020) o‘z tadqiqotlarida 5E yondashuvining tabiiy fanlarda talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etadilar. Ularning fikricha, bu model o‘quvchilarni mavzu bilan faol shug‘ullanishga undaydi va loyiha ishlar orqali bilimlarni mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi.[4]

Shuningdek, 5E yondashuvi bo‘yicha amalga oshirilgan xalqaro tadqiqotlar ham uning samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, Harlen (2010) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar 5E modeli o‘quvchilarning o‘z bilimlarini kengaytirish va amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini yaxshilashini ko‘rsatadi.

Tabiiy fanlar o‘qitishda o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va bilimlarni puxta o‘zlashtirishda yondashuvning har bir bosqichi muhim ahamiyatga ega ekani tasdiqlangan.[3][5]

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili 5E yondashuvi tabiiy fanlarda loyihaviy ta’limning samarali tashkil etilishi uchun kuchli vosita ekanini ko‘rsatadi. Ilmiy adabiyotlar ushu yondashuvni o‘quvchilarning mustaqil izlanish, amaliyatda bilimlarni qo‘llash va nazariy tushunchalarni chuqurroq anglash qobiliyatlarini rivojlanтирувчи innovatsion model sifatida tavsiflaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot tabiiy fanlarda loyiha ishlarini tashkil etishda 5E yondashuvining samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot metodologik yondashuvlar asosida amalga oshirildi va unda empirik va nazariy usullar qo‘llanildi. Empirik tadqiqot loyihaviy yondashuv asosida o‘quvchilarning ilmiy izlanishlarini kuzatish va ularning bilimlarini baholashga qaratildi. Nazariy tadqiqot esa 5E yondashuvi va loyihaviy ta’limning asosiy pedagogik jihatlarini tahlil qilish orqali amalga oshirildi.

Tadqiqot davomida kuzatuvlar orqali tabiiy fanlardan 5E modeli asosida tashkil etilgan darslar va loyihalar jarayoni kuzatilib, o‘quvchilarning faoliyati va qiziqishlari tahlil qilindi. Turli xil so‘rovnoma malar orqali o‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan suhbatlar tashkil qilinib, ularning 5E modeli asosidagi dars jarayonlariga munosabati va tajribasi o‘rganildi.

Eksperiment sifatida tabiiy fanlar bo‘yicha bir guruh o‘quvchilarga 5E yondashuvi asosida loyiha berilib, ular tomonidan bajarilgan ishlar baholandi va natijalari o‘rganildi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

**Boshlang‘ich bosqich:** Tabiiy fanlarda loyihaviy ta’lim va 5E yondashuvi bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi va o‘rganildi. Tadqiqot metodologiyasi va tanlanma guruhlari shakllantirildi.

**Amaliy bosqich:** 5E modeli asosida tashkil etilgan darslar va loyihalar jarayoni kuzatildi. O‘quvchilar va o‘qituvchilardan so‘rovnoma malar o‘tkazildi. O‘quvchilar ishtirokida tajriba o‘tkazilib, loyiha natijalari tahlil qilindi.

**Yakuniy bosqich:** Olingan ma’lumotlar asosida 5E modeli samaradorligi tahlil qilindi, olingan natijalar umumlashtirildi va xulosalar chiqarildi.

O‘quvchilar va o‘qituvchilardan olingan ma’lumotlar statistik tahlil qilish vositalari yordamida qayta ishlanib, tadqiqot natijalari grafik va jadval ko‘rinishida ifodalandi. Eksperiment natijalari esa sifatli va miqdoriy tahlillar orqali baholandi.

Ushbu metodologiya asosida tadqiqotning asosiy maqsadi – tabiiy fanlarda loyihaviy ta’limni tashkil etishda 5E yondashuvining o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga ta’sirini o‘rganish va uning samaradorligini baholash – muvaffaqiyatlari amalga oshirildi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot davomida tabiiy fanlarda loyihaviy ta’lim jarayoniga 5E yondashuvini qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilim olish darajasi va ilmiy izlanish qibiliyatlarini qanday o‘zgarganini o‘rganishga qaratilgan kuzatuvlar va eksperimentlar o‘tkazildi. Quyida olingan ma’lumotlar asosida tahlil va natijalar keltirilgan:

Jalb etish (*engagement*) bosqichining natijalari:

O‘quvchilar yangi mavzuni qiziqish bilan boshladilar, ularning tabiiy fanlarga qiziqishi sezilarli darajada oshdi. 5E yondashuvi asosida boshlang‘ich savollar va real hayotiy misollar bilan mavzuga kirish o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilishga yordam berdi. Savollarga faol javob berish va fikr almashish kuzatildi.

Tadqiq qilish (*exploration*) bosqichining natijalari:

O‘quvchilarning o‘zları tajribalar va amaliy ishlarni bajarish imkoniyati yaratildi. Bu bosqichda 5E yondashuvi asosida tabiiy fanlar bo‘yicha mustaqil izlanishlar amalga oshirildi. O‘quvchilarning ilmiy izlanish qibiliyatlarini rivojlandi, ular ko‘plab kashfiyotlar qilishdi.

Tushuntirish (*explanation*) bosqichining natijalari:

O‘quvchilar yig‘ilgan ma’lumotlar va tajribalari asosida yangi bilimlarni o‘z so‘zları bilan tushuntirib bera boshladilar. Ushbu bosqichda talabalarning nazariy tushunchalarni amaliyat bilan bog‘lash qibiliyati kuchaydi. O‘qituvchi tomonidan bilimlar aniq va sodda tarzda tushuntirildi va o‘quvchilarning bilimlari mustahkamlandi.

Ishlab chiqish (*elaboration*) bosqichining natijalari:

O‘quvchilar oldin o‘rganilgan bilimlarini boshqa muammolarni yechishda qo‘lladilar. Ushbu bosqichda loyihalar va amaliyotlar orqali o‘quvchilarning ijodkorlik va mustaqil fikrlash qibiliyatlarini rivojlandi. O‘quvchilarning loyihalari nazariy bilimlarini amaliyatda qo‘llay olish imkonini berdi.

Baholash (*evaluation*) bosqichining natijalari:

O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari baholandi. Ushbu bosqichda testlar, savol-javoblar va o‘zaro tahlil orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini baholadilar.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tabiiy fanlarda loyiha ishlarini tashkil etishda 5E yondashuvi o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga samarali ta’sir ko‘rsatib, ularning o‘quv va ilmiy izlanish qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi[6].

**Xulosa va takliflar.** Ushbu tadqiqot tabiiy fanlarda loyihami tashkil etishda 5E yondashuvining samaradorligini o‘rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 5E modeli o‘quvchilarning ilmiy izlanish qobiliyatlarini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash, va interfaol ta’lim muhitini yaratish uchun juda samarali vosita hisoblanadi.[7] O‘quvchilar o‘quv jarayonida faoliyot ko‘rsatib, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirishga muvaffaq bo‘lishdi. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar 5E yondashuvining o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va ularning o‘z-o‘zini baholash imkoniyatlarini yaratishga imkon berishini tasdiqlaydi.

**Takliflar:** O‘qituvchilarni 5E yondashuvi asosida darslarni tashkil etish bo‘yicha muntazam ravishda treninglar o‘tkazish zarur. Bu ularning metodologik ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi[8].

Darslar davomida interfaol usullar, guruhli ishlash, va amaliy tadqiqotlar orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirishga harakat qilish kerak.

O‘quvchilarning ilmiy izlanish faoliyatini rag‘batlanirish uchun loyihami tashkil etilishi lozim. Bu orqali o‘quvchilarning ijodkorlik va tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin[9].

5E yondashuviga mos keladigan yangi o‘quv materiallari va resurslarni ishlab chiqish, shu jumladan onlayn platformalardan foydalanishni kengaytirish zarur.

5E yondashuvi asosida o‘tkazilgan darslarning samaradorligini doimiy ravishda monitoring qilish va olingan natjalarni tahlil qilish maqsadida, maktablarda tizimli baholash mexanizmlarini joriy etish kerak[10].

#### **Adabiyotlar:**

1. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
2. Bybee, R. W., Taylor, J. A., Gardner, A., Van Scotter, P., Powell, J. C., Westbrook, A., & Landes, N. (2006). *The BSCS 5E Instructional Model: Origins and Effectiveness*. Colorado Springs: BSCS.
3. Harlen, W. (2010). *The Teaching of Science in Primary Schools*. Routledge.
4. O‘lkashunos, R., & Xamidov, S. (2020). Konstruktiv pedagogika yondashuvlarining tabiiy fanlar ta’limida qo‘llanilishi. Tashkent: Ma’rifat nashriyoti.
5. Bybee, R. W., & Landes, N. M. (1997). *Science for Life and Living: An Elementary School Science Program from Biological Sciences Curriculum Study (BSCS)*. BSCS.
6. Trowbridge, L. W., Bybee, R. W., & Powell, J. C. (2008). *Teaching Secondary School Science: Strategies for Developing Scientific Literacy*. Pearson/Merrill/Prentice Hall.
7. Gabel, D. (2003). *Handbook of Research on Science Teaching and Learning*. New York: Macmillan Publishing Company.
8. Kauchak, D., & Eggen, P. (2011). *Introduction to Teaching: Becoming a Professional*. Pearson Education.
9. Piaget, J. (1970). *Science of Education and the Psychology of the Child*. Orion Press.
10. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.

## 4K MODELINING XORIJIY MAMLAKATLARDA QO'LLANILISH TENDENSIYALARI

Kurbanbayev Ilxam Maxsetovich,  
Qoraqalpoq davlat universiteti,  
Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi assisstanti

Maqolada 4K modelining mohiyati, uning xorijiy mamlakatlarda til o'rganish maqsadida qo'llanilishi, metodologik asoslari, samaradorligi hamda ta'lif tizimidagi ahamiyati muhokama etiladi. Maqola nazariy tahlil hamda qiyosiy solishtirish metodida olib boriladi.

**Kalit so'zlar:** 4K modeli, metod, xorijiy til, o'qitish, dars, texnologiya.

### ТЕНДЕНЦИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ 4К-МОДЕЛЕЙ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

В статье рассматривается сущность модели 4K, её использование в зарубежных странах с целью изучения языка, её методические основы, эффективность и значение в системе образования. Статья проведена методом теоретического анализа и сравнительного сравнения.

**Ключевые слова:** 4K-модель, метод, иностранный язык, обучение, урок, технология.

### 4K MODEL USAGE TRENDS IN FOREIGN COUNTRIES

The article discusses the essence of the 4K model, its use in foreign countries for the purpose of language learning, its methodological foundations, its effectiveness, and its importance in the educational system. The article is conducted in the method of theoretical analysis and comparative comparison.

**Keywords:** 4K model, method, foreign language, teaching, lesson, technology.

**Kirish.** Bir qator tadqiqotlarda milliy ta'lif kun tartibiga kiritilgan turli xil mavzular, professional kadrlarni shakllantirish, ta'lif berish sifatini oshirish va uni o'rganishga qaratiladi. Ushbu ko'nikmalarini rivojlanish sur'ati oshib borayotgan davlatlardan Gonkong, Janubiy Koreya, Singapur, Yaponiya, shuningdek, Osiyo, Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlardan tortib to Vyetnamgacha o'sib bormoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu mamlakatlarning ta'lif siyosati va ta'lif standartlarini belgilaydigan hujjatlarda eng ko'p uchraydigan masalalar sifatida o'quvchilarlar tomonidan shakllantirilishi kerak bo'lgan munosabat va boshqa ta'lif natijalarini ko'rish mumukin. Ular orasida birinchi o'rinnlarni tanqidiy fikrlash va innovatsion yoki ijodiy fikrlash, o'zini boshqarish va boshqalar bilan o'zaro munosabatda bo'lish qobiliyati egallaydi.

**Adabiyotlar sharti.** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-dekabr kuni Xalqaro kongress markazida “Ta'lif sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir!” mavzusidagi zamonaviy darsliklar ko'rgazmasida: “XXI asr kishisi uchun eng zarur bo'lgan “4K” ko'nikmasi bo'yicha ishlab chiqilgan (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) ko'nikmalar, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish” masalalariga alohida e'tibor qaratish va “...darsliklar quruq ma'lumotlarni yodlatish, yoki shunchaki o'qish-yozishni o'rgatish bilan cheklanmasligi, ular orqali o'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganishi” zarurligini ta'kidlash bilan birga, yangi darsliklarni tayyorlashda o'qituvchilar majburiyatları haqida “...bugun darsliklar o'zgaryapti. Shunga yarasha o'qituvchilar ham o'zgarishi kerak”[1], - deb aytgan fikrlari 4K tamoyili asoda ingliz tilidan o'quvchilarning nutqiyo qoiliyatini rivojlanirish jarayonini yana da kuchayttirishni talab qiladi. 2023-yildan maktab ta'lifini xalqaro ta'lif dasturlari asosida butunlay isloq qilish ta'lifni tizimli yo'lga qo'yish, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg'or ta'lif standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriylar tashkillashtiradi.


“4K” mezonlarga asoslangan baholash orqali ularning har bir vakolatlarini va ularning tajribalarini rivojlanirishini anglatadi. .... “XXI asr ko'nikmalar: darsda qanday shakllantirish va baholash kerak?” .... masalalarida E.Kadenkova, A.Ushakov, I.Babenkovalar medodik fikrlari keltirilgan [2; 243].

### OSIYO-TINCH OKEANI SABOQLARI

Asosiyo ko'nikmalar va XXI asr savodxonligi.	Ko'rinishlar / xususiyatlar
Tanqidiy va innovatsion fikrlash	Ijodkorlik, tadbirkorlik, amaliy ko'nikmalar, aks ettirish, qaror


	qabul qilish
Shaxslararo ko‘nikmalar	O‘z-o‘zini tarbiyalash, avtonomiya, moslashuvchanlik, xabardorlik, qat’iylik, yaxlitlik, o‘z-o‘zini hurmat qilish, motivatsiya
Intrapersonal ko‘nikmalar	Aloqa, tashkiliy, jamoaviy ish, hamkorlik, jamoaviylik, hamandardlik, ijtimoiy
Global savodxonlik	O‘z-o‘zini tarbiyalash, avtonomiya, moslashuvchanlik, xabardorlik, qat’iylik, yaxlitlik, o‘z-o‘zini hurmat qilish, motivatsiya
Media va axborot savodxonlik	Topish va tahsil qilish qobiliyati AKT orqali ma’lumot, tanqidiy media ma’lumotlarini tortish, axloqiy AKTdan foydalanish
Boshqalar (masalan, diniy, tibbiy savodxonlik)	Sog‘lom turmush tarziga sodiqlik, diniy qadriyatlarga hurmat

**Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.** Rossiya Federal davlat ta’lim standartining biri XXI asrning “4K” ko‘nikmalarini (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik, kommunikatsiya ko‘nikmalarini ushbu davlat ta’lim standarti talablariga qanday mos kelishini batafsil tahlil qilamiz. Bunda muhim meta-fan natijalaridan va boshqa aloqasi bilan muhimdir (1-rasm).



**1-rasm. XXI asrdagi Rossiya Federal davlat ta’lim standartindagi “4K” ko‘nikmalarini**

Tadqiqot ishimiz jarayonida “4K” tamoyili asosida Avstraliya umumiyligi ta’lim standartining tuzilishi bilan tanishib chiqqdik (2-rasm).




**2-rasm. Avstraliya umumiyligi ta’lim standartining tuzilishi [4]**

Gonkong umumiyligi davlat ta’lim standartining tuzilishida [5;22] “4K” modeliga qo‘yiladigan asosiy talablar o‘rganildi (3-rasm).



**3-rasm. Gonkong umumiyligi ta’lim standartining tuzilishi**


Shuningdek, XXI asr ko‘nikmalarini hayot uchun yeng muhim vazifa sifatida foydalanib, turli sohalardagi mutaxassislar tayyorlashda Kanada davlati ham peshqadamlikni qo‘ldan bermay kelayotgan davlatlar hisoblanadi. Ular XXI asr ko‘nikmalariga hayot uchun eng ahamiyatli deb bilgan ko‘nikmalar: xarakterni tarbiyalash, fuqarolik savodxonligi, aloqa, tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish, hamkorlik, kreativlik ko‘nikmalariga urg‘u berib o‘tgan. Bizningcha, chet tili darslar orqali o‘quvchilarning XXI asr ko‘nikmalari uchun xarakter hususiyati ahamiyatli hisoblanadi (4-rasm).



**4-rasm. Kanada ta’lim standartida ta’lim natijalari modeli [6]**

Ushbu rasmlarda keltirilgan ma’lumotlar XXI asr ko‘nikmalari orqali hayotga tayyorlaydi. Aks holda ular ular maktab bitiruvchilariga kerak bo‘lgan turli xil savodxonlik turlari bilan bir qatorda ta’limning majburiy natijasi sifatida maqsadiga erisholmaydilar.


Tadqiqotimiz jarayonida Finlyandiyaning ta’lim standarti ta’lim natijalari modeli ham o‘rgandik [7]. Tadqiqotda Finlyandiyaning ta’lim standarti shaxs va shaxsning fuqaro sifatida rivojlangan tamoyili asosida ish olib boriladi. Fikrlash va mahorat; madaniy kompetensiya, o‘zaro ta’sir va o‘zini namoyon qilish; o‘zi haqida o‘ylash va kundalik hayotni boshqarish; multi savodxonlik; AKT savodxonligi; karyera rivojlanishi va tadbirkorlik; barqaror kelajakni qurish va ishtirok etishga jalg qilishga qaratiladi (5-rasm).



**5-rasm. Finlyandiyaning ta’lim standarti**

Bizningcha, Finlyandiyaning ta’lim standarti bo‘yicha XXI asr ko‘nikmalari modeli bugungi kunda inson hayotida muhim rol vazifasi fikrlash va mahorat; madaniy kompetensiya, o‘zaro ta’sir va o‘zini namoyon qilish; o‘zi haqida o‘ylash va kundalik hayotni boshqarish; multi savodxonlik; AKT savodxonligi; karyera rivojlanishi va tadbirkorlik; barqaror kelajakni qurish masalalari hayotda muhim rol hisoblanadi.

**Natijalar.** Olim sifatida B.Lukasning modelida ijodiy fikrlashni baholash va ishlab chiqishda ijodkorlikning alohida tarkibiy qismlarini o‘rgangan [8;86]. Ushbu modelda taqdim etilgan ijodkorlik tarkibiga topshiriq ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarining harakatlarini baholash uchun eng mos keladigan kichik o‘zgarishlar kiritildi (6-rasm).



### 6-rasm. B.Lukas modeli

Ijodiy fikrlash modeli muallifi B.Lukas darsda ijodiy vazifani ishlab chiqishga yordam beradigan bir nechta muhim tamoyillarni taklif qiladi. Vazifalarni ishlab chiqish va bolalarda “4K” ko‘nikmalari shakllanadigan darslarni o‘tkazish, ijodiy vazifaning tavsiflarini uddalay olishini hisobga olgan. U quyidagicha:

#### 1. Qiziquvchanlik (topshiriqqa faol qiziqish):

- atrofdagi dunyoga qiziqish (vazifa holatlari) va ko‘proq ma’lumot olish istagi, atrofdagi dunyo haqida (vazifa holatinining turli jihatlari to‘g‘risida);
- o‘z savollariga javoblarni mustaqil izlash. Yangi axborotni faol qidirish (shu jumlada kutilmagan manbalardan).

#### 2. G'oyalarni yaratish (tasavvur). O‘z g'oyalarni ishlab chiqish. Bu yerda ikki jihat ajralib turadi:

- taklif etilgan g'oyalarning o‘ziga xosligi;
- moslashuvchanlik yoki harakatchanalik, ko‘p sonli g'oyalarni ishlab chiqarish qibiliyati.

#### 3. Taklif etilgan g'oyalarni rivojlantirish:

- taklif etilayotgan g'oyalarni turli pozitsiyalardan baholash va ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, fikrni yaxshilash yoki rad etish;
- o‘zgargan sharoitda o‘z faoliyatini tezda tiklash qobiliyati va tadqiqot obyekti haqida yangi ma’lumotlar paydo bo‘lishi. Ammo, shuni yodda tutish kerakki, o‘quvchilar kreativligini rivojlantirishga nafaqat maxsus tuzilgan vazifalar, balki faoliyatni maxsus tashkil etish ularni bajarish istagi ham qo‘sishni mumkin [9;216].

Freyer modeli [10] – o‘quv tuzilishi, o‘quvchilarga o‘rganilayotgan narsalarni chuqur tushunish va o‘qtirishga yordam berish. Ishtirokchilar har qanday narsani konsepsiyaning turli tomonlaridan ko‘rib chiqadilar va uning majburiy va ixtiyoriy xususiyatlari, misollar va antiprimerlarni o‘rganadi. Ushbu o‘quv

tuzilishi hozirgi zamonning grammatik mavzusini o‘rganish, grammatik misollar yozish va antiprimerlar vaqtning ixtiyoriy belgilari uchun ishlatalishi mumkin.

**Xulosa va munozara.** Shunday qilib aytish mumkinki, A1 darajali o‘quvchilarga ingliz tilidan nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda semantik o‘qishni rivojlantirish asosida meta-subyektiv ko‘nikmalar va metaobyektiv ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiluvchi usullar o‘rganildi. Bu esa A1 darajali o‘quvchilarga XXI asr ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiluvchi intesiv usul sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotda “4K” tamoyili asosida ingliz tilidan o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini shakllantirish modeli ishlab chiqildi. Unda “4K” tamoyili asosida o‘quvchilarining ingliz tilidan nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlar ishlab chiqildi. Ushbu model “4K” tamoyili asosida ingliz tilidan o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasi mezonlari belgilandi. Modelda o‘quvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan motivatsion, kognitiv, faoliyatili va refleksiv mezonlar o‘quvchilarining ingliz tilidan nutqiy ko‘nikmalarining shakllanishiga dastlabki qadam bo‘lib xizmat qiladi.

### Adabiyotlar:

1. [https://uza.uz/uz/posts/darsliklar-ozgaryapti-shunga-yarasha-oqituvchilar-ham-ozgarishi-kerak\\_440060](https://uza.uz/uz/posts/darsliklar-ozgaryapti-shunga-yarasha-oqituvchilar-ham-ozgarishi-kerak_440060).
2. Сегодня уроков не будет! Игровые и фасилитационные форматы для работы в школе / Е.Каденкова, А.Ушаков, И. Бабенкова. – СанктПетербург: Эко-Вектор Ай-Пи, 2022. – 243 с.
3. UNESCO. School and teaching practices for twenty-first century challenges: lessons from the Asia-Pacific region, regional synthesis report. — 2016.
4. Система школьного образования в Австралии ([kiwieducation.ru](http://kiwieducation.ru))
5. Bancino R., Zevalkink C. Soft Skills: The New Curriculum for Hard-Core Technical Professionals // Techniques: Connecting Education and Careers. — 2007. — № 5. — P. 20-22.
6. Key Competences and New Literacies: From Slogans to School Reality: rep. by the Higher School of Economics [Text] / ed. by Maria Dobryakova, Isak Froumin, Kirill Barannikov, Igor Remorenko; Nat. Research Univ. Higher School of Economics. — M., 2018.
7. Key Competences and New Literacies: From Slogans to School Reality: rep. by the Higher School of Economics [Text] / ed. by Maria Dobryakova, Isak Froumin, Kirill Barannikov, Igor Remorenko; Nat. Research Univ. Higher School of Economics. — M., 2018.
8. Lucas B., Claxton G., Spencer E. Progression in Student Creativity in School: First Steps Towards New Forms of Formative Assessments // OECD Education Working Papers. — Paris: OECD Publishing, 2013. — № 86.
9. Lucas B., Spencer E. Teaching Creative Thinking: Developing learners who generate ideas and can think critically. Crown House Publishing, 2017. 216 p.

**TEXNOLOGIK TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINING 3D MODELLASHTIRISHGA  
OID KREATIVLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

*Baxtiyorova Sobiraxon Ixtiyor qizi,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Texnologik ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi  
[sobiraxonbaxtiyorova2@gmail.com](mailto:sobiraxonbaxtiyorova2@gmail.com)*

*Ushbu maqolada bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining 3D modellashtirishga oid kreativligini oshirishning samaralari va kasbiy faoliyat jarayonida beradigan foydalari haqida, shuning bilan bir qatorda kreativ pedagoglar sifatli ta’limning kafolati ekanligi haqida batafsil ma‘lumotlar berib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** 3D, modellashtirish, kreativlik, metodika, o‘quv jarayoni, ta’lim, texnologiya, zamonaviy, takomillashtirish, model, mahsulot tayyorlash jarayoni, milliy ko‘rinishga ega bo‘lgan liboslar, dizayn, ta’lim texnologiyasi.

**МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ  
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В 3D МОДЕЛИРОВАНИИ**

*В данной статье представлена подробная информация о пользе повышения творческих способностей будущих учителей технологического направления в области 3D-моделирования и их пользе в процессе профессиональной деятельности, а также о том, что креативность педагогов является залогом качественного образования.*

**Ключевые слова:** 3D, моделирование, творчество, методика, учебный процесс, образование, технология, современный, совершенствование, модель, производственный процесс, одежда с национальным обликом, дизайн, образовательная технология.

**METHODOLOGY OF FORMATION OF CREATIVITY OF STUDENTS OF  
TECHNOLOGICAL EDUCATION IN 3D MODELING**

*This article provides detailed information about the benefits of increasing the creativity of future teachers of technology science in 3D modeling and their benefits in the process of professional activity, as well as about the fact that creative pedagogues are a guarantee of quality education.*

**Keywords:** 3D, modeling, creativity, methodology, educational process, education, technology, modern, improvement, model, production process, clothing with a national appearance, design, educational technology.

**Kirish.** Bugungi kunda jamiyatimizning maktab oldiga qo‘yayotgan talablari kundan kunga ortib bormoqda va bu talablarga to‘g‘ri yondashgan holda bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini yetuk malakali kadrlar qilib tarbiyalash bugungi kunning eng ustuvor vazifalaridan biri deyishimiz mumkin. Hozirgi jamiyatimizda o‘qituvchi eng faol pozitsiyadagi shaxs sifatida zamonaviy bilimlarini egallab borishi, tinimsiz izlanuvchan va fidoiy bo‘lishi lozim chunki, u kechiktirib bo‘lmas jarayon shaxsni intellektual hamda ma‘naviy qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Bugungi zamonaviy ta’lim jarayoni standartlarini amalga tatbiq etish o‘qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o‘z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi.

Rivojlangan davlatlar ta’lim tizimiga va innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirot etish qobiliyatini rivojlantirish oliy ta’lim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi. Shu boisdan kreativlik tushunchalarini turlicha ko‘rinishda aks ettirishimiz mumkin. Kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

**Asosiy qism.** Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyatni hisoblanadi. O‘qituvchining kreativligi o‘z tajribasini qayta ko‘rib chiqishi va yaxshilashi hammaga ma’lum narsalarni o‘zgartira olishi va ijodiy foydalana olishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Kreativlik tushunchasi(lot., ing. “create”-yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima

qilinganda ijod ma’nosini anglatadi. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o‘ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkun.

Kreativlik — bu qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g‘oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayondir.

Kreativlik — bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo‘ladigan shaxsning shaxsiy sifati (fazilati)dir

Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug‘atlariga asoslanib bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kreativligi deb uning fikirlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta‘riflash mumkun. Kreativlik insonda mavjud ma‘lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Shu o‘rinda shuni aytish joizki “Kreativlik otasi” nomi bilan mashhur Pol Torrans to‘rtta kreativlik ko‘nikmasini aniqlagan hamda uzoq yillar olib borgan tadqiqotlarida kreativ ko‘nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkun degan xulosaga kelgan. Bular quyidagilar:

**1. Ravonlik.** Ko‘plab g‘oyalarni o‘ylab topish ko‘nikmasi ko‘p degan so‘zga asoslanadi.

**2. Moslashuvchanlik.** Turli g‘oyalarni o‘ylab topish ko‘nikmasi o‘zgartirish degan so‘zga asoslanadi.

**3. O‘ziga xoslik.** Boshqalarga o‘xshamagan, ajralib turuvchi g‘oyani o‘ylab topish ko‘nikmasi noyob degan so‘zga asoslanadi.

**4. Yaratuvchanlik.** G‘oyalarni kengaytirish ko‘nikmasi qo‘shish degan so‘zga asoslanadi.

- bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kreativlik asosida shakllantirilgan texnologiya darslarida ajoyib g‘oyalarni o‘ylab topish (o‘ziga xoslik);

- ularni kengaytirish (ishlab chiqish);

- yoki boshqa g‘oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog‘liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko‘nikmalar bir-biri bilan kesishadi kabi g‘oyalar ilgari surilgan.

Mashhur pedagog Patti Drepeau tomonidan ham shaxsda kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning to‘rtta yo‘li ko‘rsatilgan:

- Kreativ fikirlash ko‘nikmasini shakllantirish;
- Amaliy kreativ harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish
- Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish;
- Kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish.

Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning ayniqsa bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisining kreativligi ijodiy jarayonni tashkil etishga ruhlantiradi. Kreativlik tushunchasi bilan birga Modellashtirish va 3D modellashtirish tushunchalariga to‘xtalib o‘tish lozim. Ushbu tadqiqot ishida talabalarning kreativlik asosida 3D modellashtirish jarayonini amalga oshirish jarayonlari haqida so‘z boradi hamda 3D modellashtirish tushunchasini va berilgan buyruqlarni to‘g‘ri bajara olish ko‘nikmalariga quyidagicha ta‘riflar beriladi:

**3D modellashtirish** — bu uch o‘lchovli grafikani hosil qilishning dastlabki bosqichlaridan biri hisoblanadi. Uch o‘lchovli modellashtirish tushunchasi kompyuterda obyektlarning uch o‘lchovli modellarini yaratishni anglatadi. Bunda yaratilgan mahsulot 3D model deb ataladi. 3D modellar asosan ikki xil usulda amalga oshiriladi. Bular: avtomatik yoki qo‘lda yaratilishi mumkin.

3D kompyuter grafikasi uchun geometrik ma‘lumotlarni tayyorlashning qo‘lda modellash jarayoni haykaltaroshlik san‘atiga o‘xshaydi. 3D model 3D bosib chiqarish moslamalari yordamida yaratilishi mumkin, ular modelning 2D qatlamlarini uch o‘lchamli material bilan bir vaqtning o‘zida birga tashkil qiladi. 3D modellashtirish dasturi 3D modellarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan 3D kompyuter grafikasi dasturlari sinfidir. Bu sinfnинг SketchUp kabi dasturlar modellashtirish ilovalari deb ataladi.

Uch o‘lchovli modellashtirish, qisqacha 3D-modellashtirishni ishlab chiqishda dasturiy tillardan yoki dasturiy ta‘minotlardan foydalanish mumkin.

3D-modellashtirishni tayyor dasturiy ta‘minotlardan foydalangan holda ishlab chiqish samaraliroq hisoblanadi. Bu orqali obyektlarni yaratish tezroq va osonroq bajariladi.

3D-modellashtiruvchi eng keng tarqalgan dasturiy ta‘minotlarga Autodesk kompaniyasining “3D MAX” hamda “Maya” dasturlarini misol qilish mumkin. Bu dasturiy ta‘minotlarning imkoniyatlari juda keng bo‘lib, ular orqali istalgan 3D-modellarini ishlab chiqish mumkin.

3D-modellashtirish amalga oshirilgandan so‘ng uni dastur bilan bog‘lab, dasturlarni ishlab chiqish uchun dasturiy tillarni qo‘llash kerak bo‘ladi. C/C++, Java, Python, JavaScript, C# dasturiy tillar shular jumlasidandir. Tayyor 3D-modellarini dasturiy holga keltirish uchun translyatorlarda dasturiy kodlar yozilishi talab etiladi. Bu esa ko‘plab dasturiy kodlarni talab etadi. Mazkur ishlarni optimallashtirish maqsadida bir qator grafik dasturiy ta‘minotlar ishlab chiqilgan. 2005-yilda ishlab chiqilgan „Unity 3D“ dasturi shular jumlasidandir. „Unity 3D“ bu 3D dasturiy mahsulotlar hamda o‘yinlar ishlab chiqarishdagi eng qulay

dasturiy ta'minotlardan biri hisoblanadi. „Unity“ da tayyor 3D modellarni yuklab olish mumkin hamda ularga C# yoki Javascript tillarida skript kodlar yozib birlashtirish mumkin. „Unity 3D“da ishslash ancha qulay:

- yaratilayotgan dastur uchun kerakli materiallarni bitta katalogga avtomatik nusxalab saqlab qo'yish imkoniyati;

- skript kodlar alohida yozilib keyin obyektlarga birlashtirilishi;
- tayyorlanayotgan dasturiy mahsulotni ko'rib turish qulayligi va eng asosiysi;
- ko'pgina platformalar uchun dasturni kompilyatsiya qilish imkoniyati mayjudligidir.

Dastur ustida ishlar bajarilgandan so'ng uni quyidagi platformalar uchun mos qilib chiqarish mumkin:

- Linux, Windows, Mac shaxsiy kompyuterlar uchun;
- iOS, Android va BlackBerry telefonlari uchun;
- Windows Store va Windows Phone uchun;
- WebGL ko'rinishida;
- Tizen, Xbox uchun;
- PlayStation 3 va 4 uchun;
- Samsung TV televizorlari uchun.


Bir vaqtning o'zida ko'pgina platformalar va qurilmalar uchun kompilyatsiya qilish imkoniyati bu „Unity“ning eng yaxshi jihatlaridan biridir.

Kelajak avlod uchun tayyorlayotgan zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan kadrlar yani bo'lajak texnologiya fani o'qituvchi (talaba)larining 3D modellashtirishga bo'lgan qiziqish va qobiliyat (kreativlik)laridan foydalangan holda turli bichim va o'lchamga ega bo'lgan kiyimlarning 3D modellarini yaratish va mana shu modellar asosida kiyimlarga turli xil bezaklar kiritish yani modellashtirishni amalga oshirish jarayoni bilan tanishtirish, jarayonlarni tushuntirish bosqichlarida talabalarning shu sohaga oid bilimlaridan foydalanib talabalar kreativligini oshirishga xizmat qiluvchi komponentlardan foydalanish, o'quv (maruza, amaliy hamda lobaratoriya dars) mashhg'ulotlarida bunday bilimlardan foydalanib zamonaviy ta'llimga asoslangan dars jarayonlarini tashkil etish bugungi kun zamonaviy ta'llim tizimining eng muhim bosqichlaridan biridir. Talabalarga 3D MAX dasturi orqali kiyim(ayollar milliy liboslari va yubka)larning 3D modellashtirilgan ko'rinishlarini hosil qilgan holda tashkillashtirish, kompyuter dasturi asosida taxlamali yubkaning asos to'r chizmasini hosil qilish va texnologik jarayonlar ketma ketligi asosida taxlamali yubkaning 3D ko'rinishini hosil qilish dars jarayonida talabalarga vaqtadan yutishiga va yuqori saviyadagi kreativliklarining oshishiga olib keladi.




**1-rasm. Taxlamali yubkaning 3D Max dasturida tayyorlanish bosqichlari**

Texnologiya darsliklarida berilayotdan mavzular yuzasidan bir nechta mavzular saralab olinganda ayollar uchun mo'ljallangan turli millat ayollar kiyimlarini bichish va tikish texnologiyalari mavzularida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilariga mavzuni soda va tushunarli qilib dasturiy ta'llim vositalaridan foydalanib tashkil etish jarayonida AutoCard dasturlari orqali xorijiy davlatlarning ayollar milliy kuylagini loyihalash, kompyuter dasturi orqali ko'yakni rejalashtirish va tayyor ko'rinishini aks ettirish bilan talabalarga yanada mukammal dars jarayonini tashkil etiladi.



**2-rasm. Ko‘ylak bo‘yin o‘mizini dasturga qo‘yish**



**3-rasm. Ko‘ylak old asosini 3D ko‘rinishini tasvirlash**

Bunday hollarda tashkil etilgan ma’ruza dars mashg‘ulotlarida talabalar belgilangan vaqt davomida ko‘ylakni loyihalashi, modellashtirishi va so‘ngi ishlov berishdan tortib ko‘ylakning tayyor yaqqol ko‘nishi hosil bo‘ladigan barcha jarayonlar bilan tanishib chiqishi mumkin. Tabiiyki bunday ko‘rinishdagi zamonaviy ta’limga asoslangan darslarni tashkil etish albatta yuqori natijalar beradi.

**Xulosa.** Barcha tatbiqlarni inobatga olgan holda bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini qobiliyatli, kreativ hamda shu bilan birga 3D modellashtirishga oid bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarini orttirish orqali zamonaviy ta’lim tizimida yuksak salohiyatli kadrlar bo‘lib yetishtirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda.

#### **Adabiyotlar:**

- Бахтиярова С. И. Совершенствование методологии использования инновационных педагогических технологий при подготовке специалистов в вузах // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 18. – С. 507-511.
- Baxtiyorova S. I., Ganjayeva Z. O. Texnologik ta’limda xalqaro baholash tizimini joriy etish metodikasi // Golden brain. – 2023. – Т. 1. – №. 33. – С. 67-72.
- Hamdamova N., Hamidov R. Texnologiyani o‘rta talim maktablarida rivojlantirish usullari // Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 116-120.
- Muqimovna, H. N, Boboqulovna, X. N, (2023). Innovative teaching methods. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(9), 39–42. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/1310>

5. Bakhtiyorova S. I., Sharopova M. F. “Improving the teaching process of materials science on the basis of foreign experience //E-Conference Globe. – 2021. – C. 46-48.
6. Bakhtiyorova S. I., Sharopova M. F. “Improving the teaching process of materials science on the basis of foreign experience //E-Conference Globe. – 2021. – C. 46-48.
7. Baxtiyorova S. I., Jo‘rayeva D. B. 5 sinf texnologiya darslarida “materiallarga ishlov berish bo‘limi” ni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish //GOLDEN BRAIN. – 2023. – T. 1. – №. 33. – C. 73-79.
8. Бахтиёрова С. И. Использование программного обеспечения в преподавании материаловедения //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-2 (77). – С. 80-83
9. Baxronova S., Davlatova N. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tikuvcchilikka oid kreativ rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 144-148.
10. Baxronova S., Davlatova N. Texnologiya fanidan mashg‘ulotlarni tashkil qilishning zamonaviy kompetensiyalari //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 64-68.
11. Davlatova N. Texnologiya fanining “servis xizmati” yo‘nalishidan talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari //Science and innovation in the education system. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 82-86.
12. Islamovna B. S., Ubaidilloyevna D. N., Norjona P. Modern competences of organizing technology courses //Samarali ta’lim va barqaror innovatsiyalar. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 146-151.
13. Ahmadovna S. D., Khudoyberdovich K. S., Qizi B. S. I. Increasing the professional creativity of students in teaching specialties // Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 12-2 (157). – С. 32.

## TA’LIMDA GAMIFIKATSİYANING AHAMIYATI VA AMALGA OSHIRISH USULLARI

*Chorshanbiyev Choriyor Ismadullo o‘g‘li,  
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti(PhD)  
choriyorc@gmail.com*

*Ushbu maqolada ta’limda gamifikatsiya metodining ahamiyati, uni qo’llash usullari va samaradorligi tahlil qilingan. Gamifikatsiya ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali o‘quvchilarini qiziqtirish, motivatsiyani oshirish va darslarning samarasini oshirish uchun ishlataladi. Maqolada Educaplay platformasi misolida gamifikatsiya usullarini ta’limga joriy etishning afzalliklari va kamchiliklari batafsil ko‘rib chiqiladi. Gamifikatsiya jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish va o‘quvchilarining bilim olishiga moslashtirish orqali ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari muhokama qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** Gamifikatsiya, ta’lim texnologiyalari, motivatsiya, Educaplay, interaktiv o‘quv mashg‘ulotlari, o‘yin elementlari, onlayn platforma, ta’lim samaradorligi, interaktiv metodlar.

### ЗНАЧЕНИЕ ГЕЙМИФИКАЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ И МЕТОДЫ РЕАЛИЗАЦИИ

*В данной статье анализируется значение метода геймификации в образовании, способы его применения и эффективность. Геймификация используется для вовлечения учащихся, повышения мотивации и повышения эффективности уроков за счёт внедрения игровых элементов в учебный процесс. В статье подробно рассматриваются преимущества и недостатки внедрения методов геймификации в образование на примере платформы Educaplay. Обсуждались пути повышения эффективности образования за счёт правильного планирования процесса геймификации и его адаптации к обучению учащихся.*

**Ключевые слова:** геймификация, образовательные технологии, мотивация, Educaplay, интерактивное обучение, игровые элементы, онлайн-платформа, эффективность обучения, интерактивные методы.

### IMPORTANCE OF GAMIFICATION IN EDUCATION AND METHODS OF IMPLEMENTATION

*This article analyzes the significance, application methods, and effectiveness of the gamification method in education. Gamification is used to engage students, enhance motivation, and increase lesson efficiency by incorporating game elements into the educational process. The article examines the advantages and disadvantages of implementing gamification in education through the example of the Educaplay platform. The discussion focuses on how to enhance educational efficiency by properly planning the gamification process and adapting it to students’ learning needs.*

**Keywords:** gamification, educational technologies, motivation, Educaplay, interactive learning activities, game elements, online platform, educational efficiency, interactive methods.

**Kirish.** Zamonaviy ta’lim tizimi, dars mashg‘ulotlarini tashkil qilishda o‘quvchilarining qiziqishini oshirish, ularni bilim olish jarayoniga faol jalb qilish va o‘rgatilayotgan materialni samarali o‘zlashtirish kabi muhim vazifalarini bajarish uchun doimiy yangiliklar kiritishni talab qiladi. Shunday yangiliklardan biri gamifikatsiya metodidir. Gamifikatsiya — bu ta’lim jarayonlariga o‘yin elementlarini qo‘sish orqali o‘quvchilarini o‘qishga jalb qilish va motivatsiyasini oshirish usuli hisoblanadi[1]. Ushbu metod o‘quvchilarini darslarga yanada faolroq jalb qilish, bilimlarni qiziqarli va samarali o‘zlashtirish imkonini beradi[1,2]. Ushbu maqolada Educaplay platformasi misolida gamifikatsiya usullarining afzalliklari, kamchiliklari va qo’llash usullari tahlil qilinadi. Bu usullarni to‘g‘ri rejalashtirish va o‘quvchilarining ehtiyojlariga moslashtirish orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkinligi muhokama qilinadi.

**Asosiy qism.** Gamifikatsiya — bu ta’lim jarayonlariga o‘yin elementlarini kiritish orqali darslarni qiziqarli va samarali qilish metodidir[1,2,4]. Bu uslubda o‘yinlardan olingan elementlar, masalan, ballar to‘plash, reytinglar, darajalar, mukofotlar, musobaqlar va jamoaviy o‘yinlar qo’llaniladi[3]. Gamifikatsiya o‘quvchilarining motivatsiyasini oshirish maqsadida qo’llanadi. Gamifikatsiyaning asosiy elementlari (1-shakl).

## Gamifikatsiyaning asosiy elementlari




**1.Ballar (Points)** - O‘quvchilar yoki ishtirokchilar topshiriqlarni bajargani uchun ballar to‘plashadi.



**1.Darajalar (Levels)** - Ma’lum bir darajaga yetish orqali yangi bosqichlar ochiladi.



**1.Mukofotlar (Rewards)** - Topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajargan ishtirokchilar rag‘batlantiriladi.



**1.Reytinglar (Leaderboards)** - Ishtirokchilar o‘zlarining natijalarini boshqalar bilan solishtirib, reytinglarda o‘z o‘rnini ko‘rib turishadi.



**1.Bosqichlar (Challenges)** - Turli darajalar va vazifalarni bajarish orqali o‘quvchilar darsni yaxshi o‘zlashtirishadi.



**1.Qayta aloqa(Feedback)** - O‘quvchilarga natijalar bo‘yicha darhol qayta aloqa beriladi, bu ularga qaysi jihatlarda yaxshilanish kerakligini ko‘rsatadi.

### 1-shakl. Gamifikatsiyaning asosiy elementlari

#### GAMIFIKATSIYANING ASOSIY MAQSADLARI

✓ **Motivatsiyani oshirish** - O‘yin elementlari o‘quvchilarga yoki ishtirokchilarga yanada ko‘proq ishtirok etishga undaydi.


✓ **Faol ishtirokni ta’minalash** - Gamifikatsiya orqali o‘quvchilar jarayonlarga faolroq kirishadilar va vazifalarni zavq bilan bajaradilar.

✓ **Ma’lumotni yaxshiroq o‘zlashtirish** - O‘yinlar orqali o‘rganish o‘quvchilarning bilimlarni qiziqarli va samarali tarzda qabul qilishiga yordam beradi[5].


Gamifikatsiya ta’lim jarayonni qiziqarli o‘yinlar bilan boyitish, interaktiv, interfaol o‘quvchilarni darsga jalb qilish uchun ishlatalidigan samarali metodlardan biri hisoblanadi[5, 6].

**Gamifikatsiya** metodini ta’lim jarayonida qo‘llash samarali bo‘lsada, uning o‘ziga xos yutuqlari va kamchiliklari ham mavjud. Quyida bu metodning afzalliklari va kamchiliklarini batafsil ko‘rib chiqamiz.

#### GAMIFIKATSIYANING YUTUQLARI (AFZALLIKLARI)[3].



### 2-shakl. Gamifikatsiya metodining afzalliklari



### 3-shakl. Gamifikatsiya metodining kamchilliklari

Ta'limda gamifikatsiya metodini qo'llashni, EducaPlay platformasi orqali ko'rib chiqamiz.

**Educaplay** — bu o'qituvchilar va o'quvchilar uchun interaktiv ta'lim faoliyatlarini yaratish va ulardan foydalanish imkoniyatini beradigan onlayn platformadir[7]. Educaplay yordamida turli o'quv mashg'ulotlarini interaktiv va o'yinli shaklda yaratish, ulardan foydalanish va o'quvchilarning bilim darajasini baholash mumkin[7, 8]. Platformada o'yinlashtirilgan ta'lim vositalari yordamida turli xil faoliyatlarni o'quvchilarga taqdim etish imkoniyati mavjud.

#### EDUCAPLAY IMKONIYATLARI

1. **Interaktiv o'quv mashg'ulotlari yaratish** - Educaplay orqali viktorinalar, krossvordlar, audiovizual testlar, xaritalar bo'yicha savollar va boshqa ko'plab interaktiv faoliyatlar yaratish mumkin.

2. **O'yinlarni tashkil qilish turlari quyidagilar**[9].

- ✓ **Krossvordlar** (Crosswords)
- ✓ **Viktorinalar** (Quizzes)
- ✓ **Audio-vizual mashg'ulotlar** (Audio-video quizzes)
- ✓ **Xaritalar ustida ish** (Map-based questions)
- ✓ **Boshqotirmalar** (Puzzles)
- ✓ **So'z topish o'yinlari** (Word search)
- ✓ **Ketma-ketlik** (Sequencing activities)

3. **Google Classroom bilan integratsiya** - Educaplay Google Classroom bilan birlashtirilib, o'quvchilarning natijalarini avtomatik ravishda kuzatish va baholash mumkin.

4. **Moslashuvchanlik** - Ushbu platformada mashg'ulotlarni turli darajadagi o'quvchilar uchun moslashtirish va ularni o'z maqsadlariga ko'ra sozlash imkoniyati mavjud.

5. **O'quvchilarni jalg qilish** - Platformadagi turli o'yinlar va interaktiv mashg'ulotlar o'quvchilarni faol ishtirot etishga va dars materiallarini qiziqarli tarzda o'rganishga undaydi.

#### EDUCAPLAY PLATFORMASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI[9, 10]

- **Qulay interfeys** - Ta'lim mashg'ulotlarini yaratish va boshqarish oson va qulay.
- **Interaktiv ta'lim** - O'quvchilar darslarni o'yin shaklida o'rganadilar, bu esa ularning bilimlarni o'zlashtirishiga yordam beradi.
- **Turli faoliyat turlari** - Turli xil o'quv shakllari orqali har xil ta'lim maqsadlarini qamrab oladi.
- **Onlayn foydalanish** - Mashg'ulotlar va resurslar internet orqali tezkor va istalgan vaqtida ishlatish imkonini beradi.

Educaplay o'qituvchilarga ta'lim jarayonini o'yinlashtirish va qiziqarli shaklda o'tkazishga katta yordam beradi. Bu platforma orqali o'quvchilarning ishtirokini oshirish va ularning bilim olish jarayonini yanada samarali tashkil etish mumkin.

Buning uchun <https://www.educaplay.com/types-of-activities/> EducaPlay platformasiga kiramiz va ro'yxatdan o'tamiz. Ro'yxatdan o'tib New activity bo'limiga kirganimizda quyidagi oyna hosil bo'ladi ya'ni:



New activity

Yes or No Show cards with text and multimedia to be answered with Yes or No.	Froggy Jumps Create a path of questions that Froggy Jumps crosses to get safely to shore.	Video Quiz Enter questions in YouTube video clips	Riddle Give text, image, audio and/or letter hints to find out the solutions	Map Quiz Point out elements on a picture to be identified by clicking or writing.
Matching Game Create cards with elements to be grouped.	Quiz Create a quiz with text and multimedia files.	Alphabet Game Create a circle of letters where each one corresponds to a word that they have to guess.	Memory Game Place cards face down with your texts, audio and images to match them.	Matching Pairs Generate two columns with text or multimedia elements to match them.
Word Search Puzzle Hide words to be found in a square full of letters.	Crossword Puzzle Make rows and columns of intersecting words to fill in their letters.	Fill in the Blanks Game Place blanks in a text that players fill by typing or clicking.	Unscramble Letters Game Mix up the letters of one or more words to put them in order.	Unscramble Words Game Mix up the words of one or more sentences to put them in order.

### 1-rasm. New activity oynasi

Bunda berilgan yo‘nalishlardan birini o‘zimizning mavzuyimizga moslab tanlaymiz. Misol uchun python dasturlash tiliga oid qiziqarli pazl yaratamiz. Buning uchun World Search Puzzle ni tanlaymiz va quyidagi oynada python dasturlash tiliga oid terminlarni kiritamiz. (2-rasm).

1 Word search puzzle

2 Options

3 Information

Preview

1- PYTHON

2- OPERATOR

3- SIKL

4- ALGORITM

5- DASTUR

+ Add word

### 2-rasm. Python dasturlash tiliga oid terminlar

dasturlash tilida berilgan terminlarni qiziqarli pazl ko‘rinishida ya’ni o‘yinga aylantiramiz.

Bunda kiritgan terminlarimizni so‘z o‘yiniga avtomatik platformaning o‘zi o‘tkazadi. Endi kiritgan terminlarimizni o‘yin shaklida ishlatalamiz buning uchun Preview buyrug‘ini tanlaymiz va quyidagiga ega bo‘lamiz.

Dasturlashga oid qiziqarli pazl  
Sopa de letras

Choriyor Chorshanbiyev

Comenzar

### 3-rasm. Pazlni ko‘rish

Hosil bo‘lgan natijani ishlatib ko‘ramiz.

PYTHON OPERATOR SIKL ALGORITM DASTUR

A	A	U	X	X	C	Y	R
P	L	I	X	W	H	O	M
Y	U	G	X	F	T	R	I
T	S	U	O	A	M	R	P
H	Y	I	R	R	T	U	T
O	C	E	K	Y	I	I	R
N	P	A	M	L	O	T	G
O	D	A	S	T	U	R	M

### 4-rasm. Pazlni ishlatish

Bu tuzilgan pazlni guruh bo‘lib yoki guruh qatnashchilari yakka tartibda ham ishlashlari mumkin. Buning uchun hosil qilingan pazlni ulashish orqali amalga oshiramiz ya’ni.



Word Search Puzzle

Dasturlashga oid qiziqarli pazl


★★★★★

Dasturlashga oid qiziqarli pazl



### 5-rasm. Pazl ulashish

Ga kelamiz va pazl linkini guruhgaga yuboramiz.



### 6-rasm. Pazl linkini ularashish

Educaplay platformasini Google Classroom va Microsoft Teams lar bilan ham integratsiya qilish, Educaplayda olinayotgan natijalarni Google Classroomda olish, guruhni boshqarish, natijalarini tahlil qilish mumkin.

**Maqolaning ilmiy yangiligi.** Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, ta’limda gamifikatsiya metodining samaradorligi Educaplay kabi zamonaviy onlayn platformalar misolida keng tahlil qilinadi. Ushbu platformaning imkoniyatlari, o‘quvchilarning darslarga qiziqishini oshirishdagi roli va ta’lim jarayoniga qo‘shegan hissasi chuqur o‘rganilib, gamifikatsiya elementlarini ta’limga integratsiya qilish uchun tavsiyalar beriladi. Shuningdek, maqolada gamifikatsiyaning afzallikkleri va kamchiliklari o‘rganilib, ularni dars mashg‘ulotalarini tashkil etishda qo’llash orqali dars jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qilish yo‘llari aniqlanadi.

**Xulosa.** Gamifikatsiya metodi ta’lim jarayonini jonlantirish va o‘quvchilarning qiziqishini oshirishda samarali natija berishiga qaramasdan, uni to‘g‘ri rejalashtirish va boshqarish muhimdir. O‘yin elementlari bilan darslarni ortiqcha murakkablashtirmaslik orqali o‘quvchilarning bilim darajasini inobatga olish zarur. Gamifikatsiyaning yutuqlari va kamchiliklarini balansi saqlanib, ta’lim mazmuniga moslashtirilgan holda ishlatisa, dars jarayonini mazmunli tashkil qilish mumkin.

### Adabiyotlar:

1. Barata, G., Gama, S., Jorge, J.A., Gonçalves, D.J. (2014). Relating gaming habits with student performance in a gamified learning experience. In Proceedings of the first ACM SIGCHI annual symposium on Computer-human interaction in play-CHIPLAY ’14. <https://doi.org/10.1145/2658537.2658692>. ACM, (pp. 17–25).
2. Jia, Y., Xu, B., Karanam, Y., Voida, S. (2016). Personality-targeted gamification: a survey study on personality traits and motivational affordances. In Proceedings of the 2016 CHI Conference on Human Factors in Computing Systems - CHI ’16. <https://doi.org/10.1145/2858036.2858515>. ACM.
3. Dichev, C., & Dicheva, D. (2017). Gamifying education: what is known, what is believed and what remains uncertain: a critical review. // International Journal of Educational Technology in Higher Education, 14(1), 9.
4. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From Game Design Elements to Gamefulness: Defining “Gamification”.
5. Kapp, K. M. (2012). The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education.
6. Zichermann, G., & Cunningham, C. (2011). Gamification by Design: Implementing Game Mechanics in Web and Mobile Apps.
7. Educaplay Platformasi. (2024). Interaktiv ta’lim vositalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari. URL: <https://www.educaplay.com/types-of-activities/>.
8. Graça, M., Lopes, J., & Silva, A. (2022). The Integration of the Digital Platform Educaplay in the Teaching and Learning Process.
9. Surachmi, S. S., & Sison, K. J. (2021). Educaplay as Teaching Media in Virtual Classes.
10. Ayala, A. (2015). Función y Características de la Plataforma Educaplay.com.

**TALABALARNING INTEGRATIV-KREATIV KOMPETENSIYALARINI  
RIVOJLANTIRISHDA KO'RGAZMALI TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING  
DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

*Qaxorov Sobir Xudoyberdiyevich,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
“Texnologik ta'lism” kafedrasи o'qituvchisi  
Qaxorov –Sobir@mail.com*

“Talabalarning integrativ-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda ko'rgazmali ta'lism vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari” maqolasi talabalarning ijodiy va integrativ ko'nikmalarini rivojlantirishda ko'rgazmali ta'lism vositalarining o'rni va ahamiyatini tadqiq qiladi. Ushbu maqolada ko'rgazmali vositalar orqali ta'lism jarayonining interaktivligi oshirilishi va talabalarning bilimlarni yanada samarali o'zlashtirishlari uchun qanday imkoniyatlar yaratish mumkinligi ko'rib chiqiladi. Mualliflar ko'rgazmali vositalardan foydalanish, ayniqsa, integrativ va kreativ yondashuvlarni shakllantirishda talabalar ongiga chuqurroq ta'sir qilishini ta'kidlaydilar. Mazkur usullar orqali o'quvchilar nafaqat bilimlarni eslab qolish, balki ularni mustaqil ravishda qo'llash, o'quv jarayonida ijodiy yondashish va muammolarni hal etishda innovatsion fikrlash imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Maqolada ko'rgazmali ta'lism vositalarining nazariy asoslari, ularning didaktik afzalliklari va amaliy foydalanish yo'llari tahlil qilinadi hamda bu vositalar yordamida ta'lism jarayonining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Shu bilan birga, maqola talabalarni kelajakdag'i kasbiy faoliyatlariga tayyorlashda ko'rgazmali ta'lism vositalarining integrativ va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli haqida chuqur ilmiy tahlilni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** ta'lism oluvchi, integrativ-kreativlik, kompetensiya, ko'rgazmali ta'lism, vosita, usul, metod, didaktik imkoniyat, kompetentlik.

**ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАГЛЯДНЫХ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В РАЗВИТИИ ИНТЕГРАТИВНО-ТВОРЧЕСКИХ  
КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ**

В статье «Дидактические возможности использования наглядных средств обучения в развитии интегративно-творческих компетенций студентов» исследуется роль и значение наглядных средств обучения в развитии творческих и интегративных умений студентов. В данной статье рассматривается, как повысить интерактивность учебного процесса и создать возможности для более эффективного усвоения знаний обучающимися с помощью наглядных пособий. Автор подчёркивает, что использование наглядных пособий оказывает более глубокое воздействие на сознание студентов, особенно при формировании интегративного и творческого подходов. Благодаря этим методам учащиеся могут расширить свои возможности не только запоминать знания, но и самостоятельно применять их, проявлять творческий подход в процессе обучения, нестандартно мыслить при решении задач. В статье анализируются теоретические основы визуальных образовательных средств, их дидактические преимущества и способы практического использования, а также предлагаются предложения по повышению эффективности образовательного процесса с помощью этих средств. При этом статья включает глубокий научный анализ роли визуальных средств обучения в развитии интегративных и творческих компетенций при подготовке студентов к будущей профессиональной деятельности.

**Ключевые слова:** обучающийся, интегративно-творчество, компетентность, наглядное образование, инструмент, метод, метод, дидактическая возможность, компетентность.

**DIDACTIC POSSIBILITIES OF USING EXHIBITION EDUCATIONAL TOOLS IN  
DEVELOPING STUDENTS' INTEGRATIVE-CREATIVE COMPETENCES**

The article “Didactic possibilities of using visual educational tools in the development of integrative-creative competences of students” explores the role and importance of visual educational tools in the development of creative and integrative skills of students. This article examines how to increase the interactivity of the educational process and create opportunities for students to acquire knowledge more effectively through visual aids. The authors emphasize that the use of visual aids has a deeper impact on the

*minds of students, especially in the formation of integrative and creative approaches. Through these methods, students can expand their opportunities not only to remember knowledge, but also to apply it independently, to be creative in the learning process, and to think innovatively in solving problems. The article analyzes the theoretical foundations of visual educational tools, their didactic advantages and ways of practical use, and offers suggestions for increasing the effectiveness of the educational process with the help of these tools. At the same time, the article includes an in-depth scientific analysis of the role of visual educational tools in the development of integrative and creative competencies in preparing students for their future professional activities.*

**Key words:** learner, integrative-creativity, competence, visual education, tool, method, method, didactic opportunity, competence.

**Kirish.** Bugungi kunda ta’lim jarayonida talabalar ongida bilim va ko‘nikmalarni chuqurlashtirish, ularga keng qamrovli tafakkur va amaliy malaka berish zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning integrativ-kreativ kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish bugungi zamonaviy jamiyat talablariga mos kadrlar tayyorlashda katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki mazkur kompetensiyalar o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishiga, balki o‘z fikrini mustaqil va ijodiy tarzda ifoda etishga, turli muammolarni yechishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar orqali o‘zlarining intellektual salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘quv jarayonida ko‘rgazmali ta’lim vositalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini o‘rganish va amalda qo‘llash ham ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ko‘rgazmali vositalar o‘quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushunishlari, eslab qolishlari va o‘rganilayotgan bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida mustahkamroq asosga ega bo‘lishlari uchun zarur. Bu esa, o‘z navbatida, talabalar tafakkurini yanada faollashtirib, ularning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ko‘rgazmali ta’lim vositalari talabalar orasida hamkorlik va interaktiv o‘qitishni rag‘batlantirib, ularga ijodiy o‘rganish jarayonlarini yaratishga yordam beradi.

Mazkur maqola talabalarning integrativ-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda ko‘rgazmali ta’lim vositalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni pedagogik jihatdan to‘g‘ri qo‘llash metodlarini ochib berishga qaratilgan. Shu asosda, o‘quv jarayonida ushbu vositalarning qo‘llanishi talabalar o‘rtasida mustaqil, ijodiy, va integratsiyalangan bilimlarni shakllantirishga ko‘maklashadi.

**Asosiy qism.** Hozirgi ta’lim tizimida talabalarning integrativ-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib, zamonaviy o‘quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Integrativ-kreativ kompetensiyalar talabalarni faqat bilim olish bilan cheklanib qolmasdan, ular o‘zlarini turli sohalarda keng qamrovli, ijodiy fikrlaydigan, analitik va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qiladigan shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi. Bunda, bиринчи navbatda, talabalarning o‘rganayotgan fanlar bo‘yicha asosiy bilimlarini bir-biri bilan integratsiya qilish, ulardan yangi g‘oyalari, muammolar yechimini topishda foydalanish maqsad qilingan. Shu bilan birga, kreativ yondashuv talabalar fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ularga o‘z qobiliyatları va intellektual salohiyatlarini namoyon qilish imkoniyatini beradi.

Integrativ-kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishda amaliyot asosidagi metodlar, ko‘rgazmali ta’lim vositalari, loyihibiy yondashuv va muammoli vaziyatlarda o‘qitish usullari o‘ziga xos ahamiyatga ega. Masalan, turli o‘quv mavzularini ko‘rgazmali ta’lim vositalari orqali tushuntirish talabalarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradi. Bu orqali ular o‘zlar o‘rganayotgan mavzuni aniqroq tasavvur qiladi, o‘zlar uchun qiziqarli bo‘lgan mavzular ustida yanada ijodiy ishlashga intiladilar. Bundan tashqari, o‘quv jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish orqali talabalar o‘zlariga xos tarzda muammoni hal qilishga o‘rganadilar. Bu esa ular orasida mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va kreativ yechimlar topishga yo‘naltiradi.

**Talabalarning integrativ-kreativ kompetensiyalari** – bu talabalarning turli fanlar va sohalar bo‘yicha bilimlarni birlashtirib, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali yangilik yaratishga qaratilgan ko‘nikma va malakalardir. Ushbu kompetensiyalar talabalarni zamonaviy muammolarni hal qilishda, yangi g‘oyalarni ishlab chiqishda va mavjud bilimlarni amaliyotda qo‘llashda samarali shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Integrativ-kreativ kompetensiyalarning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. **Fanlararo bilimlarni birlashtirish:** Talabalar turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtirish orqali yangi bilimlarni yaratish, murakkab muammolarni ko‘p qirrali yondashuv bilan hal qilish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Masalan, biologiya va texnologiyani birlashtirib, yangi innovatsion yechimlar ishlab chiqish.

2. **Ijodiy fikrlash qobiliyati:** Talabalarda mavjud ma’lumotlar asosida yangi g‘oyalari yaratish, noan’anaviy yechimlar topish, turli muammolarga ijodiy yondashish qobiliyati shakllanadi. Ijodiy fikrlash

o‘quvchilarni faqatgina tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki o‘z nuqtai nazarlarini rivojlantirishga yo‘naltiradi.

**3. Muammolarni hal qilish ko‘nikmasi:** Talabalar o‘z oldilariga qo‘yilgan muammolarni tanqidiy tahlil qilib, ular uchun mos va samarali yechimlarni topishga o‘rganadilar. Bu ko‘nikma talabalarni hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga va ularga ijodiy yondashishga tayyorlaydi.

**4. Tanqidiy fikrlash:** Talabalar o‘z fikrlari va qarorlarini chuqur tahlil qiladi, turli fakt va dalillarga asoslangan holda xulosa chiqarishga o‘rganadilar. Bu qobiliyat ularning mantiqiy tahlil qilish, asoslangan qarorlar qabul qilish va aniq ma’lumotlardan foydalangan holda o‘z nuqtai nazarlarini shakllantirishlariga yordam beradi.

**5. Innovatsion yondashuv va moslashuvchanlik:** Talabalar tez o‘zgarib borayotgan texnologiyalar va bilimlar muhitida moslashuvchanlikka ega bo‘lib, yangi yondashuv va metodlarni qabul qilishga ochiq bo‘lishadi. Bu esa ularni o‘z sohasida yetakchi va yangilik yaratishga qodir shaxs sifatida shakllantiradi.

Talabalarning integrativ-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish ularga zamonaviy bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish, tanqidiy va ijodiy yondashish orqali o‘zlarini keng qamrovli mutaxassis sifatida shakllantirish imkonini beradi. Bu ko‘nikmalar talabalarni shaxsiy va professional hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishiga asosiy zamin yaratadi.

Talabalarning ijodiy salohiyatini yuksaltirishda loyihami shishlar va ilmiy tadqiqotlarga jalg qilish, ularga o‘z qiziqish va tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish imkonini beradi. Loyihalar asosida ishslash talabalarni bir-biriga yordam berishga, o‘z bilimlarni boshqalar bilan o‘rtoqlashishga undaydi, shuningdek, ularning integratsiyalashgan bilimga asoslangan yondashuvlar orqali ijodiy yutuqlarga erishishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, integrativ-kreativ kompetensiyalarning shakllanishi va rivojlanishi uchun o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorligi katta rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, zamonaviy ta’lim jarayonida integrativ-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish ta’limning sifatini oshirish, talabalarni zamon talablari darajasidagi ijodiy va innovatsion shaxs sifatida tarbiyalashda asosiy o‘rin tutadi.

Ko‘rgazmali ta’lim vositalari ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimlarni samarali o‘zlashtirishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu vositalar o‘quvchilarga mavzuni yanada yaxshiroq tushunishga, eslab qolishga va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ko‘rgazmali ta’lim vositalarining didaktik imkoniyatlari ulardan nafaqat vizual va audiovizual ma’lumotlarni taqdim etish uchun, balki o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish va bilimlarni yanada aniqroq o‘zlashtirish uchun foydalanish imkonini beradi. Ta’lim jarayonida bunday vositalardan foydalangan holda mavzuni ko‘rgazmali tarzda tushuntirish o‘quvchilarning diqqatini o‘ziga tortib, ularning mavzuga nisbatan qiziqishini oshiradi va ularda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ko‘rgazmali ta’lim vositalari o‘quvchilar ongida mavzuga oid asosiy tushunchalarni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Misol uchun, tabiiy fanlar yoki texnik fanlar darslarida turli ko‘rgazmali vositalar orqali mavzuga oid ko‘nikmalar va bilimlar vizual tarzda taqdim etilishi talabalar uchun yanada qulaydir. Rasm, grafik, diagramma, video va interaktiv taqdimotlar kabi ko‘rgazmali vositalar yordamida mavzuning mazmuni aniqroq va tushunarliroq bo‘ladi. Bu jarayon talabalar xotirasida chuqur iz qoldirib, ularda mavzu bo‘yicha olingan bilimlarni uzoq muddat saqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, ko‘rgazmali ta’lim vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning muloqot qobiliyatlarini, jamoa bilan ishslash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Masalan, ko‘rgazmali vositalar asosida amalgalashgan guruhiy loyihamalar yoki muammoli vaziyatlar ustida birgalikda ishslash jarayonida o‘quvchilar o‘z bilim va tajribalarini bir-biri bilan baham ko‘rishadi, bu esa ularning jamoaviy ishslash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘rganish jarayoniga faol ishtiroy etishlarini ta’minlaydi va ularning darsga nisbatan mas’uliyatini oshiradi.

Shunday qilib, ta’lim jarayonida ko‘rgazmali ta’lim vositalaridan samarali foydalanish nafaqat o‘quvchilarning bilim olish darajasini oshirish, balki ularning ijodiy, analistik va jamoaviy ishslash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Ko‘rgazmali ta’lim metodlari ta’lim jarayonida o‘quvchilarga mavzuni aniq, tushunarli va qiziqarli tarzda tushuntirishda keng foydalaniladi. Ushbu metodlar orqali talabalar mavzuga oid asosiy tushunchalarni ko‘rgazmali vositalar yordamida ko‘rib, eshitib va hatto tajriba qilib, o‘zlashtirishadi. Quyida keng tarqalgan ko‘rgazmali ta’lim metodlari keltirilgan:

**1. Illyustratsiya** – O‘quv materialini rasm, grafik va diagrammalar orqali taqdim etish. Bu metod ko‘pincha murakkab tushunchalarni oson tushuntirish uchun qo‘llaniladi va talabalar ongida asosiy tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi.

2. **Video va animatsiyalar** – Dars jarayonida mavzuga oid videolar, animatsiyalar yoki simulyatsiyalar ko‘rsatish orqali talabalar mavzuni chuqurroq va qiziqish bilan o‘rganadi. Bu ayniqla biologiya, kimyo, fizika kabi fanlarda juda samarali.

3. **Modellashtirish** – Murakkab tushunchalar va jarayonlarni tushuntirish uchun modellar yaratish. Masalan, molekulalar yoki organlarning modellari yordamida fanlarni o‘rganish yanada qulay va tushunarli bo‘ladi.

4. **Demonstratsiya (namoyish qilish)** – Amaliy mashg‘ulotlar yoki tajribalar orqali ma’lumotni ko‘rsatib berish. Bu metod fizik va kimyoviy jarayonlarni tushuntirishda ko‘pincha ishlataladi, chunki o‘quvchilar tajribani o‘z ko‘zi bilan kuzatib, bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirishadi.

5. **Interaktiv taqdimotlar** – Elektron doska yoki proyektor yordamida taqdimot o‘tkazish orqali o‘quvchilarni dars jarayoniga jalb qilish. Interaktiv taqdimotlar talabalarni faol ishtirot etishga undaydi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

6. **Krossvord va diagrammalar** – Krossvordlar va boshqa ko‘rgazmali diagrammalar orqali o‘quvchilar bilimlarini mustahkamlashadi va o‘rganilayotgan material bilan bog‘liq asosiy tushunchalarni takrorlash imkoniga ega bo‘lishadi.

7. **Plakatlar va jadvallar** – O‘quvchilar o‘zlari tayyorlagan plakatlar va jadvallar orqali mavzumi ko‘rgazmali tarzda o‘rganadilar va taqdim qiladilar. Bu usul o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantririb, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlanadiradi.

8. **Virtual laboratoriylar va simulyatsiyalar** – O‘quvchilarga masofadan turib yoki maxsus dasturlar orqali tajribalarni o‘tkazish imkonini beruvchi virtual laboratoriylar. Bu metod ayniqla amaliyot uchun maxsus jihozlar talab etiladigan fanlarda, masalan, kimyo yoki fizika darslarida muhimdir.

9. **Poster sessiyalar** – O‘quvchilarning o‘zlarining ilmiy ishlari va tadqiqotlarini ko‘rgazmali tarzda tayyorlab, taqdim etishi. Poster sessiyalar mavzuni chuqur o‘rganish, muloqot va o‘zaro muhokama qilish imkoniyatini beradi.

Ko‘rgazmali ta’lim metodlari ta’lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qilishga yordam beradi, talabalarning mavzuni aniq va chuqurroq tushunishiga, o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Talabalarning integrativ-kreativ kompetensiyalarini rivojlantrishda ko‘rgazmali ta’lim vositalaridan foydalanish didaktik jihatdan juda katta imkoniyatlar yaratadi. Ko‘rgazmali ta’lim vositalari talabalar ongida mavzuni aniq va chuqurroq tushunishga yordam berib, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantrish uchun qulay sharoit yaratadi. Ushbu vositalar o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirish, bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va turli fanlararo bog‘liqliklarni aniqlashga yordam berishi bilan ahamiyatlidir.

Integrativ yondashuvda ko‘rgazmali ta’lim vositalaridan foydalanish talabalarga o‘zlashtirilgan bilimlarni turli fanlar va vaziyatlar o‘rtasida uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Masalan, biologiya va kimyo kabi fanlarni birlashtirgan holda amaliy ko‘rgazmalar orqali ma’lumot berish o‘quvchilarga ushbu fanlar orasidagi bog‘liqlikni tushunish, bilimlarni yanada chuqurlashtirish imkonini yaratadi. Shuningdek, rasm, grafik, model va interaktiv taqdimotlardan foydalanish talabalarning mavzuni tasavvur qilish va uni mustaqil ravishda qayta ishlash imkonini beradi. Bu jarayon ijodiy yondashuvni qo‘llab-quvvatlab, o‘quvchilarning o‘z nuqtai nazarini shakllantirishiga yordam beradi.

Ko‘rgazmali ta’lim vositalari yordamida loyihibiy va guruhiy ishlarni tashkil etish o‘quvchilarda jamoa bilan ishlash, fikrlarni erkin ifoda etish va o‘zaro muhokama qilish ko‘nikmalarini rivojlantriradi. Masalan, amaliy loyihibalar asosida ishlash orqali talabalar nafaqat bilimlarni mustahkamlashadi, balki kreativ fikrlashni rivojlantrish, innovatsion yechimlar topishga intilishni o‘rganadilar. Ushbu jarayon talabalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirib, ularda ijodiy fikrlash va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantriradi.

Shuningdek, ko‘rgazmali ta’lim vositalari talabalar o‘rtasida interaktiv muloqotni rag‘batlantriradi, bu esa o‘z navbatida bilimlarni integratsiyalashgan holda tushunish va ulardan amaliyotda foydalanishga imkon yaratadi. Muammoli vaziyatlar orqali ishlash va ko‘rgazmali vositalardan foydalangan holda darslarni tashkil etish talabalarning bilimlarni mustaqil o‘rganishga qiziqishini oshiradi, ularni ijodiy va mustaqil qaror qabul qilishga tayyorlaydi.

Umuman olganda, ko‘rgazmali ta’lim vositalari talabalarning integrativ-kreativ kompetensiyalarini rivojlantrishda samarali metodlardan biri bo‘lib, ular orqali ta’lim jarayoni qiziqarli va o‘zlashtirishga yengil bo‘ladi. Bu yondashuv talabalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi va ularni zamonaviy muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

Talabalarning integrativ-kreativ kompetensiyalarini rivojlantrishda ko‘rgazmali ta’lim vositalaridan foydalanish ta’lim jarayonida samaradorlikni oshirishda katta didaktik ahamiyatga ega. Ko‘rgazmali vositalar o‘quvchilarning turli mavzularni chuqurroq o‘zlashtirishiga, turli fanlar orasidagi bog‘liqliklarni

ko‘rib chiqish va tahlil qilish orqali bilimlarini kengaytirishga yordam beradi. Bunday vositalar talabalarni o‘z bilimlarini mustaqil tahlil qilishga, ijodiy va tanqidiy yondashuv bilan yangi bilimlarni o‘zlashtirishga undaydi. Shuningdek, ko‘rgazmali ta’lim vositalari orqali o‘quvchilar uchun mavzularni ko‘rib chiqish, ko‘rgazmali tarzda o‘zlashtirish, va qiziqarli usullar orqali bilim olish imkoniyati yaratiladi, bu esa ularning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Ko‘rgazmali ta’lim vositalaridan foydalangan holda talabalarining ko‘nikmalarini rivojlantirish nafaqat mavzuga qiziqish uyg‘otadi, balki ularni o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyatga tatbiq etishga tayyorlaydi, bilimlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali innovatsion va ijodiy yechimlar topishga yo‘naltiradi. Ko‘rgazmali ta’lim vositalarining imkoniyatlaridan foydalanib, o‘quvchilar o‘z oldilariga qo‘yilgan masalalarni turli yo‘nalishlar va nuqtai nazarlarni hisobga olib yechishga intiladi. Shu bilan birga, ko‘rgazmali ta’lim vositalaridan foydalangan holda o‘quvchilarning jamoa bilan ishslash, muloqot qilish va fikrlarni samarali ifoda etish ko‘nikmalari ham rivojlanadi, bu esa ularni zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos, keng qamrovli fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantiradi.

**Xulosa** qilib aytganda, talabalarining integrativ-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda ko‘rgazmali ta’lim vositalari keng didaktik imkoniyatlar yaratadi. Ushbu vositalardan foydalanish talabalar bilimini yanada mustahkamlash, ularning o‘quv jarayonidagi ishtirokini oshirish va ularni ijodiy va integrativ fikrlashga yo‘naltirishda samarali usul hisoblanadi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishga va talabalarining shaxsiy hamda professional rivojlanishiga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847 "O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoni. - Manba: [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari - Toshkent, 2015. - 72-92-betlar
3. Fayzullayeva N. "Pedagogik bilimlar - oqituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi" // Uzluksiz ta’lim jurnali. - T.: 2006. 6-son. -102-b.
4. Torrance E.P. / Developing creative thinking through school experience // -N.V., 1962. -c. 215,
5. Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. - СПб.: Питер, 2009.
6. Махмудов А.Х. Узлуксиз таълим жараёнига компетентлик ёндашувини жорий килишнинг дидактик асослари // Узлуксиз таълим. - 2012. - № 4. 8-12 бетлар.
7. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Т.: «Fan va texnologiya», 2007. –541-b.

**PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O'QUVCHILARNING BILIM,  
KO'NIKMA VA MALAKALARINI ANIQLASH METODLARI**

*Jalolova Umida Mannobovna,*

*M.B.TMB-AU-22 Ta'lismuassasalarining boshqaruvi mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

*Qodirxonov Murodxon Rashidxonovich,*

*Kimyo fanlari bøyicha fan doktori*

*Oribboyeva Dilafruz Dadamirzayevna,*

*Namangan davlat pedagogika instituti Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD*

*Ushbu maqolada PISA (Program for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturining o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash metodlari tahlil qilinadi. PISA dasturi 15 yoshli o'quvchilarning ta'lismifatini baholash maqsadida keng qamrovli testlar, muammolarni hal qilish vazifalari, savol-javob metodlari, kontekstual baholash va o'quvchilarning o'z-o'zini baholashlari kabi innovatsion usullarni qo'llaydi. Ushbu metodlar o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyatga qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Natijalar ta'lismizlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.*

**Kalit so'zlar:** PISA, xalqaro baholash, o'quvchilar, bilim, ko'nikmalar, malakalar, keng qamrovli testlar, muammolarni hal qilish, kontekstual baholash.

**МЕТОДЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ЗНАНИЙ, НАВЫКОВ И НАВЫКОВ ОБУЧАЮЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ПРОГРАММЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ ОЦЕНКИ PISA**

*В этой статье будут проанализированы методы международной программы оценки PISA (программа международной оценки студентов) для определения знаний, навыков и компетенций учащихся. Программа PISA использует инновационные методы, такие как комплексные тесты, задачи по решению проблем, методы вопросов и ответов, контекстная оценка и самооценка учащихся, с целью оценки качества образования 15-летних учащихся. Эти методы помогают развить у учащихся умение применять теоретические знания на практике. Результаты важны для повышения эффективности систем образования.*

**Ключевые слова:** PISA, международная оценка, учащиеся, знания, навыки, компетенции, комплексные тесты, решение проблем, контекстная оценка.

**METHODS OF DETERMINING THE KNOWLEDGE, SKILLS AND SKILLS OF STUDENTS ON THE BASIS OF THE PISA INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM**

*This article analyzes the methods of determining the knowledge, skills and qualifications of students of the International Assessment Program PISA (Program for International Student Assessment). The PISA program employs innovative techniques such as comprehensive tests, problem-solving tasks, Q & A techniques, contextual assessment, and student self-assessment in order to assess the quality of education for 15-year-olds. These techniques help develop students' ability to put their theoretical knowledge into practice. The results are important in improving the effectiveness of educational systems.*

**Keywords:** PISA, international assessment, learners, knowledge, skills, qualifications, comprehensive tests, problem solving, contextual assessment.

**Kirish.** Dunyo mamlakatlarining ta'lismizidagi yutuqlarini baholash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazuvchi hamda islohotlarni amalga oshirishda ko'maklashuvchi nufuzli xalqaro tashkilotlar mavjud. O'zbekistonning ushbu tadqiqotlardagi ishtiroki va natijalari dunyo hamjamiyatida umume'tirof etilishi, yosh avlodni xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda yangi innovatsion usullarda ta'lismiz olishini ta'minlash hamda olgan bilimlarini amalda samarali qo'llay bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) turli sohalarda yuzaga kelgan muammolarning yechimini topish ustida izlanishlar olib boradi. Jumladan, ushbu tashkilot negizida ta'lismizining asosiy bo'g'ini bo'lgan umumiyo'rtta ta'lismi rivojlantirish maqsadida PISA (The Programme for International Student Assessment) – o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi.

PISA (Program for International Student Assessment) — o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashga mo'ljallangan xalqaro dastur bo'lib, uning asosiy maqsadi yosh avlodning ta'lismizining asosiy bo'g'ini bo'lgan umumiyo'rtta ta'lismi rivojlantirish maqsadida PISA (The Programme for International Student Assessment) – o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi.

sifatini o‘lchashdir. Ushbu maqolada PISA dasturining o‘quvchilar bilimini baholashdagi metodologiyasi va usullari ko‘rib chiqiladi [2].

**Adabiyotlar sharhi.** M.Oripova o‘z ilmiy maqolasida “tabiiy-ilmiy savodxonlik kuzatish va tajribalarga asoslangan xulosalar olish uchun ilmiy metodlar yordamida tekshirish va hal etilishida tabiiy-ilmiy bilimlarni ishlata olish qobiliyati, dolzarb muammolar haqida fikrlay olishi, shaxsiy, ijtimoiy, global muammolarga duch kelganda yechish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi, mushohada yuritish qobiliyati sinovdan o‘tkazilishi”[1] deb ta’rif bergan. PISA xalqaro baholash dasturi pedagogik amaliyatga keng qo‘llaniladigan “ta’lim” tushunchasi mazmunini ham tubdan o‘zgartirib yubordi. Pedagog olim va ta’lim bo‘yicha xalqaro ekspert A.Shlyaxer ta’lim tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan: “Ta’lim nafaqat o‘quvchilarga biror narsani o‘rgatish, balki ularga tobora murakkablashib va o‘zgarib borayotgan dunyoda, o‘ziga bo‘lgan ishonch bilan ildam harakatlanish uchun yordam beradigan zaruriy imkoniyatlar bilan ta’minalash jarayonidir”[2].

Bundan kelib chiqqan holda umumta’lim maktablari, pedagoglarning ham funksional vazifasi ham shunga mos ravishda o‘zgarib bormoqda. “Ta’lim” tushunchasining o‘zgarishi o‘quv adabiyotlari, o‘quv topshiriqlarining mazmunida ham o‘z aksini topadi. A.Ismoilov o‘z dissertatsion ishida umumta’lim maktabi o‘quvchilarining ta’limdagi yutuqlarini xalqaro tadqiqotlar hamda milliy tadqiqotlar asosida baholash orqali quyidagilarga erishish mumkin ekanligini ta’kidlab o‘tadi[3]:

- milliy ta’lim tizimining yutuq va kamchiliklari yuzasidan o‘z vaqtida axborot olish;
- ta’lim tizimida olib borilayotgan choratadbirlar va dasturlarning ta’sirini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi;
- ta’lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakatning nufuzini mustahkamlashga yordam beradi;
- o‘quvchilarning bilimi, salohiyati va savodxonligining qay darajada shakllanganligini bilish hamda xalqaro miqyosda taqqoslash;
- ta’lim muassasalaridagi joriy etilgan o‘qitish usullarini boshqa mamlakatlardagi usullardan farqli jihatlari haqida tasavvurga ega bo‘lish;
- o‘quvchilarning savodxonlikni rivojlantirishga oid darslar maktablarda qanday tashkil etilganligi haqida ma’lumot olish;
- ota-onalar tomonidan o‘quvchilarning bilimi va savodxonligini yaxshilashda qo‘shilayotgan hissalari salmog‘ini bilish;
- o‘quvchilarni fanlararo uyg‘unlik asosida baholash, dunyo bo‘yicha umumiyligi va har bir mamlakat kesimida ta’lim jarayonlarini chuqur tahlil qilish;
- ta’lim sifati va samaradorligiga yangicha qarash, zamonaviy, kompetentsiyaviy yondashuvlar, ya’ni o‘quvchilarning olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini baholash va rivojlantirish yondashuvini olib kirish;
- shuningdek tizimda tub islohotlar va burilishlarga sabab bo‘ladigan strategik qarorlar qabul qilish uchun zaruriy ma’lumotlarni olish imkoniyatlari yaratiladi.

#### **PISA dasturining asosiy maqsadi.**

PISA dasturi 15 yoshli o‘quvchilarni baholashga qaratilgan bo‘lib, asosiy e’tibor matematika, tabiatshunoslik va o‘qish ko‘nikmalariga qaratiladi. Dastur orqali ta’lim tizimlarining samaradorligi va o‘quvchilarning amaliy bilimlari aniqlanadi.

PISA baholash dasturi IHTTning bir qancha loyihalaridan biri bo‘lib, xalqaro doirada ta’lim natijalarini erishilgan bilim va ko‘nikmalar, ya’ni kompetensiyalar bilan taqqoslashga qaratilgan. PISA xalqaro baholash dasturi mazmunan real kundalik holatlarga qaratilgan bo‘lib, matabda erishilgan bilimga kamroq e’tibor berilgan. PISA xalqaro baholash dasturi birinchi navbatda majburiy ta’limning yakuniga qadar erishilgan umumiyligi ko‘nikma, bilim va yondashuvlarni va ularning matablar o‘quv rejasidagi bilim va tushunchalarga bog‘liqligini tekshiradi. Xalqaro ekspertlar guruhi dasturning umumiyligi konsepsiyasini yaratishadi va mazkur konsepsiya asosiy tayanch kompetensiyalarni o‘lchash imkonini beradi.

PISA xalqaro baholash dasturi ishtirokchi davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim o‘zgarishlar uchun turtki, keng jamoatchilik va ko‘plab ilmiy dastur ishlaringning bosh mavzusi bo‘libgina qolmay, o‘z navbatida ko‘p marotaba tanqid nishoniga ham aylangan. Alovida ta’kidlash joizki, dasturning maqsadi hamda qo‘llanilgan uslublar va dastur natijalarining interpretatsiyasi keng muhokama qilinmoqda. Dastur qariyb yigirma yildan buyon takomillashib kelmoqda. Buning natijasida esa ko‘plab davlatlar mazkur dasturda ishtirok etish fikrini bildirmoqda.

PISA xalqaro baholash dasturining tanqidiy jihatlari. Ma’lumki, PISA xalqaro baholash dasturi ta’lim, iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy sohalarga oid dastur hisoblanadi. Dastur qiyosiy taqqoslash yordamida davlatlarning matab ta’lim tizimi oldida turgan ko‘plab muammolar yechimini topishga yordam berib kelmoqda, davlatlar ta’lim siyosati yo‘nalishini belgilash, davlatlarda mutaxassislar tayyorlash, iqtisodiyot

sohalarini rejalashtirishda asosiy ma'lumotlar bazasi vazifasini o'tamoqda. Dastur natijalari turli ilmiy dastur sohalar nuqtai-nazaridan tahlil qilinmoqda. Jumladan, ta'lim siyosati, ta'limni moliyalashtirish, o'quv jarayonlarining tashkil etilishi, o'qituvchilarning malakasini oshirish, o'quvchilarning ota-onalarini ta'lim tizimiga ta'siri nuqtai nazaridan va hokazo [4].

### Baholash metodlari.

1. **Keng qamrovli testlar:** PISA dasturi doirasida o'tkaziladigan testlar matematik, tabiatshunoslik va o'qish bo'yicha keng qamrovli savollarni o'z ichiga oladi. Bu savollar o'quvchilarning nazariy bilimlarini emas, balki ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini ham baholaydi.

2. **Muammolarni hal qilish:** O'quvchilarga berilgan muammolarni hal qilishga qaratilgan vazifalar, ularning tanqidiy fikrlash va muammolarni yechish qobiliyatlarini baholashga yordam beradi. Bu usul o'quvchilarning amaliy tajribasini va real hayotda qanday muammolarni hal qilishlarini ko'rsatadi.

3. **Savol-javob metodlari:** O'quvchilarning bilimi va ko'nikmalarini baholashda savol-javob metodlari muhim rol o'ynaydi. Bu usul orqali o'quvchilarning fikrlash jarayonlarini va o'z bilimlarini ifoda etish ko'nikmalarini aniqlash mumkin.

4. **Kontekstual baholash:** O'quvchilarning bilimlarini baholashda real hayotdagi vaziyatlar va kontekstlar asosida savollar beriladi. Bu metod o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash qobiliyatini oshiradi.

5. **O'quvchilarning o'z-o'zini baholashlari:** PISA dasturi doirasida o'quvchilarning o'z-o'zini baholashlari ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini qanday baholashlarini bilish, ularning o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi.

PISA testlari uchta asosiy sohada: matematika, tabiatshunoslik va o'qish ko'nikmalarini baholaydi.

**Matematika:** Bu soha o'quvchilarning matematik tushunchalarini, masalalarni yechish qibiliyatlarini va real hayotdagi matematik muammolarni hal qilish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

**Tabiatshunoslik:** O'quvchilarning tabiiy fanlarga oid bilimlarini va ularni amaliyotda qo'llash qibiliyatlarini baholaydi.

**O'qish:** O'qish ko'nikmalarini aniqlashda matnlarni tushunish, ma'lumotni qidirish va analiz qilish kabi ko'nikmalar o'lchanadi.

PISA testlarida o'quvchilarga berilgan vazifalar, odatda, real hayotdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan.

**Kontekstual vazifalar:** O'quvchilar real vaziyatlarga asoslangan muammolarni yechishlari kerak, bu esa ularning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**Amaliy muammolar:** O'quvchilarning amaliy bilimlarini qo'llab-quvvatlaydi va ularning mantiqiy fikrlash qibiliyatini sinovdan o'tkazadi.

**Savol-Javob Metodlari.** Bu metod o'quvchilarning bilimi va ko'nikmalarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

**Aloqa va fikrlash:** O'quvchilar o'z fikrlarini va bilimlarini ifoda etishlari zarur. Bu ularning mantiqiy fikrlash qibiliyatlarini ko'rsatadi.

**Suhbatlar:** O'quvchilar o'rtaсидаги мухокамалар баҳолаш жаронини янада чуқурлаштиради, чунки бу жаронда о'заро фикр almashish ва yangi g'oyalarni ishlab chiqish mumkin.

### Kontekstual Baholash

PISA dasturi o'quvchilarning bilimlarini baholashda real hayotdagi vaziyatlar va kontekstlar asosida savollar berishga alohida e'tibor beradi.

**Kontekstual muammolar:** O'quvchilar hayotdagi aniq muammolarni hal qilishga harakat qilishadi, bu esa nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash qibiliyatini rivojlantiradi.

**O'quvchilarni rag'batlantirish:** Real vaziyatlarga asoslangan savollar o'quvchilarda qiziqishni oshiradi va bilimlarni ko'proq o'zlashtirishga yordam beradi.

O'quvchilarning o'z-o'zini baholashlari ham muhim ahamiyatga ega.

**Refleksiya:** O'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini qanday baholashlari, o'z-o'zini rivojlantirishga yordam beradi.

**O'z-o'zini rivojlantirish:** O'quvchilar o'z kamchiliklarini aniqlab, ularni bartaraf etish bo'yicha harakat qilishadi.

O'quvchilarning PISA xalqaro baholash dasturida tabiiy-ilmiy savodxonligi domeni bo'yicha yuqori natijalarni qo'lga kiritishi, o'quvchilarning kimyo, biologiya, fizika, geografiya, astronomiya va boshqa tabiiy fanlardan past ko'rsatkichga erishayotganligini oldini olish uchun tabiiy fanlar bo'yicha pedagoglarni tayyorlash jarayonini rivojlantirishga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish kerakligini anglatadi. O'quvchilarda tabiiyilmay savodxonlikni rivojlantirishning tashkiliy jihatlari yuzasidan quyidagi tavsiyalar shakllantirildi:

- pedagogika oliv ta’lim muassasalarida tabiiy fanlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish bo‘yicha imkoniyatlarni kengaytirish va ularni kerakli zamonaviy hamda innovatsion asbob-uskunalar bilan jihozlash;
- umumta’lim mакtablarida 7-sinfdan tabiiy fanlarni chуqurroq o‘rgatuvchi sinflar tashkil qilish;
- umumta’lim mакtablarida texnikalarning ishlash tamoyili, ularning tuzilishini o‘rganish, murakkab bo‘lmagan mashinalar modellarini yasash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- umumta’lim mакtablarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish maqsadida respublikada mavjud zavodlardan turli detal va texnik qismlar, motorlar, laboratoriya ishlari uchun jihozlar, vositalar, o‘lchov asboblari bilan to‘ldirish;
- tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishni targ‘ib qiluvchi yagona milliy tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan tanlovlardan tashkil etish;
- umumta’lim mакtab o‘quvchilar uchun barcha tabiiy fanlardan virtual internet olimpiadalarini tashkil qilish;
- tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan qonuniyatlar, murakkab masalalar va laboratoriya ishlarini ko‘rsatib va tushuntirib beruvchi internet saytlarni yaratish;
- o‘quvchilar uchun tabiiy fanlarni o‘rganish uchun teleko‘rsatuvalar, videodarsliklar sonini va sifatini uzluksiz rivojlantirish va targ‘ibot qilish;
- tabiiy fanlar bo‘yicha olimlar, yetakchi mutaxassislar ishtirokida umumta’lim mакtablarida treninglar, savol-javoblar, uchrashuvlarni tashkil etish;
- hududlarning o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda tabiiy fanlar negizida sayohatlar, ekspeditsiyalar, loyihamalar tashkil etish (hududda mavjud baliq turlari, tuproqning tuzulishi, havoning tarkibini aniqlash, shu kabilar)

**Xulosa.** PISA dasturi o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashda innovatsion va amaliy metodlarni qo‘llaydi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliy hayotda qanday qo‘llashlarini ham ko‘rsatadi. Bu esa ta’lim tizimlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. PISA baholashining natijalari ta’lim siyosatini takomillashtirishda va o‘quvchilarining ta’lim sifatini oshirishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Oripova M.Q. PISA – o‘quvchilarini ta’limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturining ahamiyati // Konferentsiya materiallari. – Toshkent, 2022. 166-169 B.
2. Schleicher A. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti. Ta’lim va ko‘nikmalar departamenti direktori, PISA dasturi asoschisi. <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/2c0d9903-en/index.html?itemId=/content/component/2c0d9903-en>.
3. Ismailov A.A. O‘quvchilarining yutuqlarini xalqaro tadqiqot dasturlari asosida baholash // “Ta’limdagi xalqaro tadqiqotlarning Yangi O‘zbekiston taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami – Toshkent: Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi, 2022. – 21-26 b.
4. PISA 2009 // <https://www.oecd.org/pisa/pisaproducts/46619755.pdf>. – p. 9.
5. Precht R. D. “Anna, die Schule und der liebe Gott” // Goldmann Verlag, 2014. – p.7.
6. Prenzel M., Sälzer C., Klieme E., Köller O. PISA 2012 Fortschritte und Herausforderungen in Deutschland // Waxmann, 2013. – p. 15.

## RAQAMLASHTIRILGAN TA’LIM

### TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O‘QUV JARAYONINI BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Buriyeva Xansuluv Baxtiyorovna,  
Oriental universiteti mustaqil izlanuvchisi  
[Buriyeva-Xansuluv@mail.com](mailto:Buriyeva-Xansuluv@mail.com)

*Ushbu maqolada ta’limni raqamlashtirish sharoitida o‘quv jarayonini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Ushbu xususiyatlar ta’lim tizimining samaradorligini oshirish, talabalarning o‘quv jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish va o‘qituvchilar bilan samarali hamkorlik o‘rnatish imkonini beradi. Maqola davomida interaktivlik, moslashuvchanlik, ko‘pkanalli aloqa va innovatsion yondashuvlar kabi asosiy jihatlar tahlil qilingan hamda ta’lim jarayonini raqamli muhitda muvaffaqiyatli boshqarish uchun zarur bo‘lgan asosiy tushunchalar ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** raqamlashtirish, texnologiyalar, ta’lim, platforma, o‘quv jarayon, metod, sifat.

### ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЦЕССОМ ОБУЧЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

*В данной статье рассматриваются особенности управления учебным процессом в условиях цифровизации образования. Эти особенности позволяют повысить эффективность образовательной системы, повысить участие обучающихся в образовательном процессе, наладить эффективное сотрудничество с преподавателями. В статье анализируются такие основные аспекты, как интерактивность, гибкость, многоканальная коммуникация и инновационные подходы. В ней раскрываются ключевые концепции, необходимые для успешного управления обучением в цифровой среде.*

**Ключевые слова:** цифровизация, технологии, образование, платформа, образовательный процесс, метод, качество.

### PECULIARITIES OF MANAGEMENT OF THE LEARNING PROCESS IN THE CONDITIONS OF DIGITALISATION OF EDUCATION

*This article examines the specific features of the management of the educational process in the context of digitization. These features make it possible to increase the efficiency of the educational system, increase the participation of students in the educational process, and establish effective cooperation with teachers. The main aspects such as interactivity, flexibility, multi-channel communication and innovative approaches are analyzed during the article. It reveals the key concepts needed to successfully manage learning in a digital environment.*

**Keywords:** digitization, technologies, education, platform, educational process, method, quality.

**Kirish.** Ta’limni raqamlashtirish sharoitida o‘quv jarayonini boshqarish zamonaviy ta’lim tizimining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ularning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi ta’limni yanada samarali, interaktiv va moslashuvchan qilishga yordam beradi. An’anaviy o‘qitish usullaridan farqli ravishda, raqamli muhit talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida yangi aloqalar va o‘zaro hamkorlik imkoniyatlarini yaratadi.

Bu jarayon, o‘z navbatida, ta’lim sifatini oshirish, talabalar motivatsiyasini kuchaytirish va ularning individual ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Raqamlashtirishning ta’lim jarayoniga ta’siri, o‘quv jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishi uchun yangi yondashuvlar va metodlarni talab qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Raqamlashtirish sharoitida o‘quv jarayonini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha adabiyotlar tahlili, ushbu jarayonning qanday amalga oshirilishi, qanday yondashuvlar va metodlarni talab qilishi haqida ko‘plab muhim jihatlarni ochib beradi. Quyida asosiy adabiyotlar va ularning taqdim etgan bilimlari tahlil qilinadi:

Ruth C. Clark va Richard E. Mayer tomonidan yozilgan “E-Learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning” nomli kitobida raqamli ta’lim va

multimedia o‘qitish usullarini samarali tashkil etish, o‘quv materiallarini tayyorlashda qoidalar va prinsiplarga asoslangan tavsiyalar, jumladan, grafikalar, matn va audio-tasvirlarning to‘g‘ri kombinatsiyasi yuzasidan so‘z yuritilgan [125-130]. Gordon Dryden va Jeannette Vos “The Learning Revolution: How to Teach and Learn Like a Pro” kitobida ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish va o‘rganish samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni taqdim etadi. Raqamli texnologiyalarning ta’limdagi roli va ularni qanday qilib samarali qo‘llash mumkinligi haqida fikrlar berilgan [175-187].

**Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.** Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan tashkiliy-pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish orqali mamlakatimiz intellektual salohiyatini yanada yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatlari ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” va “ilmiy- tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida xitoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish” [1] alohida dolzarblik kasb etadi. Shu sababli pedagogika oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash amaliyotida innovatsion texnologiyalarni joriy etish talab etiladi.


Mobil ta’lim – mustaqil ta’limning didaktik imkoniyatlarini kengaytirishga, o‘quv faoliyatiga nisbatan motivasiyani oshirishga, fan bo‘yicha asosiy bilimlarni egallashga, ularni tizimlashtipishga, talabalarning myctaql ishida o‘quv matepiallarini o‘zlashtipish bo‘yicha yyclibiy yordam bepishga yndaydigan hamda ularning mustaqil ta’lim olish kompetentligini rivojlantirishga mo‘ljallangan zamonaviy ta’lim muhiti [5].

Tadqiqotga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarni, ilmiy-metodik manbalarni hamda pedagogika oliy ta’lim muassasalaridagi mavjud o‘qitish holatining tahlili natijasiga ko‘ra, “Informatika o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishida “Web-dizayn” umumkasbiy fanini o‘qitish samaradorligini oshirishga oid pedagogik muammoning yechimi quyidagi asosiy vazifalarning bajarilishiga bog‘liq ekanligi ma’lum bo‘ldi: “Web-dizayn” fanini o‘qitishda an’anaviy usullar bilan bir qatorda, yangi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish (elektron ta’lim resurslari, mobil ta’lim texnologiyalari, interfaol o‘quv-uslubiy majmumarlar, elektron darsliklar, bulutli texnologiyalar, elektron trenajyorlar va boshqalar); talabalarda fanga nisbatan motivatsiyani yanada rivojlantirishga mo‘ljallangan innovatsion metodik loyiha ko‘rinishidagi muammoli va evristik xarakterdagisi o‘quv topshiriqlarini joriy etish; talabalar mustaqil ravishda innovatsion-metodik xarakterdagisi loyihalarni bajarishi uchun mo‘ljallangan mobil ilovalarni yaratish; talabalarni Internet texnologiyalari hamda tarmoqda joylashtirilgan ta’lim portallari, mobil ta’lim platformalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish. Global tarmoqning interfaol imkoniyatlari esa “Web-dizayn” fanini

o‘rganishning jamoaviy imkoniyatlarini ta’minlaydi. Talabalarda onlayn aloqa muhiti orqali hamkurslari bilan o‘quv loyihalarni jamoaviy bo‘lib bajarishimkoniyati paydo bo‘ladi.

Internet tarmog‘i orqali masofaviy o‘qitishni tashkil etuvchi o‘qituvchi esa talabalar bilan savol-javob va tushunmagan mavzularni tushuntirish uchun ma’lum vaqtini rejalashtirib, o‘sha vaqtning o‘zidayoq onlaysun munozaralar olib borish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Bu borada, xorijiy davlatlarda global tarmoqning interfaol imkoniyatlari hamda masofaviy o‘qitish va unga mos mobil ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha bir qancha axborot ta’lim muhitlari, mobil ta’lim portallari va platformalari yaratilib, ulardan keng ko‘lamda foydalanilib kelinmoqda.

Ushby tamoyillar asosida oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini, shu jumladan, talabalarning mustaqil ta’lim olish jarayonini, mobil ilovalar asosida tashkil etish uchun Internet tarmog‘ida <http://web.jspi.uz> ta’lim platformasi yapatildi, uning tarkibiy tuzilmasi (1-rasmga qarang) keltirilgan.



1-rasm. “Web-dizayn” fanidan mobil ta’lim platformasi tuzilmasi

Mazkup ta’lim platformasining asosiy jihatni mobil ta’lim texnologiyalarining didaktik asoslarini rivojlantirishdan iborat bo‘lib, u quyidagi imkoniyatlarga ega: ta’lim oluvchining o‘ziga qulay vaqt va joyda ta’lim olishi; foydalanuvchilarning o‘quv jarayoniga keng ko‘lamda qamrab olinishi imkoniyati; an’anaviy ta’limga nisbatan vizual (matnli, ovozli, video, animasiyalii, uch o‘lchovli) shaklda ko‘proq axborot olish imkoniyatining mavjudligi; ta’lim resursidan doimiy foydalanish imkoniyati mavjudligi sababli o‘quv jarayonining uzluksizligi va yaxlitlilagini ta’minlash; fikr-mulohazalarning tezkor almashinuvli tufayli mashg‘ulot sifatini yaxshilash; o‘qitish sifatini, tezkorligini, taqdim etuvchi xizmatlarni taqdim etish va ularning jozibadorligini oshirish va boshqalar [6].

Oliy ta’lim muassasalarida mobil ta’lim texnologiyalari yordamida “Web-dizayn” umumkasbiy fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda yuqorida e’tirof etilgan talablar va tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda talaba fanni mustaqil o‘rganish, kuzatish va tahlil qilish jarayonlarining mobil versiyasini bir necha marotaba ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Hatijada talabalarning “Web-dizayn” fanidan mustaqil ta’lim olish kompetensiyalari shakllanadi hamda mantiqiy va dizayn fikrlash ko‘nikmasi rivojlanadi.

Tajribalardan ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni talabalarning psixologik xususiyatlariga muvofiq tashkil etilsa, ular bilimlarni yaxshi o'zlashtiradilar. Bilimni samarali o'zlashtirishning muhim sharti, uni tushunish hisoblanadi. Talabalarning mustaqil va dizayn fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda mobil ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lib, ularning mantiqiy fikrlashga o'rgatadi, o'quv materiallarni o'zlashtirishni osonlashtiradi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi, bilimlarni mustahkam egallahsga yordam beradi, his-tuyg'ylarga ta'sir etgan holda mashaqqatli aqliy faoliyat natijasida fanga nisbatan ijobiy munosabatni yaratadi. Talabalarning ijodiy faolligi va o'quv faoliyatining to'g'ri tashkil etilishi, o'z navbatida, “Web-dizayn” umumkasbiy fanini mobil ta'lim texnologiyalari asosida o'qitishning samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ulardan foydalanib mustaqil ta'limning samarali tashkil etilishiga zamin yaratadi. Bu talabalarga mavzularni mustaqil o'rganish ko'nikmalarini egallahsga yordam beradi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy fanlarni, shu jumladan, “Web-dizayn” fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlaridan foydalanilsa, talabalarning o'quv-bilish motivlarini rivojlantirish, tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish va o'qitishni individuallashtirish, o'zlashtirgan bilimlarini tizimli shaklda nazorat qilish va baholash, ularning mustaqil ta'lim olishini samarali tashkil etish hamda kreativ fikrlashini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Bu talabalarga mavzularni mustaqil o'rganish ko'nikmalarini egallahsga yordam beradi. Shu bois, tadqiqot doirasida mobil ta'lim texnologiyalaridan foydalanib, umumkasbiy fanlar bo'yicha mustaqil ta'limni samarali tashkil etish modeli ishlab chiqildi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Mobil ta'lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlaridan foydalanib talabalarning mustaqil ta'limni tashkil etish modeli

Modelning maqsadli komponenti maqsadlar iyerarxiyasini o'zida saqlaydi, ulardan eng asosiysi esa innovatsion-metodik loyiҳalar asosida umumkasbiy fanlarni mobil ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish orqali talabalarda mustaqil ta'lim olish kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi [7].

Modelning mazmunli komponenti umumkasbiy fanlarga doir fundamental tushunchalar va o'rganiladigan nazariya, izchillik, tizimlilik, yaxlitlilik va singdiruvchanlik kabi tashkiliy-pedagogik hamda “Yagona format”, “Instrumental mustaqillik” va Krossplatformalilik kabi texnik-metodik tamoyillar asosida shakllantiriladi.

**Natijalar.** Umumkasbiy fanlardan ma'ruza mashg'ulotlarida esa muammoli, loyihali, kreativ o'qitish, mobilli o'qitish metodlari va ilovalardan hamda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, shuningdek, mustaqil

ta’limda esa Pre-Vodcasting, RequestBase, ExamSoft, mobil so‘rovnoma, mobil viktorina, Plickers kabi innovatsion loyihami metoddalaridan foydalanildi.

Modelning nazorat komponenti talabalarning bilimi va mustaqil ta’lim olish kompetentliligining shakllanganlik darajasini doimiy monitoring qilib, tashxis qo‘yib borishni nazarda tutadi.

Dizayn-fikrlash (ing. Design - thinking) texnologiyasi tahlilga emas, balki ijodiy yondashuvga asoslangan bo‘lib, muhandislik, pedagogik va boshqa sohalarda qo‘llaniladi. Dizayn-fikrlash texnologiyasini qo‘llash natijasida yangi g‘oyalar orqali muammoning yechimi topiladi. Dizayn-fikrlash texnologiyasi mavzu yuzasidan yechimi ma’lum bo‘lmagan muammolarni talabalarning orttirgan pedagogik tajribasidan kelib chiqib o‘rganish va to‘satdan paydo bo‘lgan g‘oyalarni ifodalashga imkon beradi. U talabalarda tasavvurni, ijodiy-yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirib, yangi g‘oyalarga ilhomlantirdi. Natijada ularda mavzu yuzasidan ilmiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmasi rivojlandi. Talabalarning tashkil etilgan mustaqil ta’limi jarayonida mustaqil bilim olish kompetensiyalarini rivojlantirishda SCAMPER, PMI, Kyubing, KWHL, Dizayn fikrlash kabi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samarali ekanligi asoslangan [8].

Oliy ta’lim muassasalarini “Informatika o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishida umumkasbiy fanlarni, jumladan, “Web-dizayn” fanini o‘qitishda axborot texnologiyalari vositalari qo‘llanilsa, talabalarning o‘quv motivlarini rivojlantirish, tabaqalashtirilgan ta’limni tashkil etish, o‘zlashtirgan bilimlarini tizimli shaklda nazorat qilish va baholash, ularning mustaqil va ijodiy izlanishlarini samapali tashkil etish hamda kreativ fikrlashini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

“Web-dizayn” umumkasbiy fanidan talabalarning ko‘nikmalari ma’ryza va laboratoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ta’lim olish vaqtida o‘quvma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishslash, ularning muhim jihatlarini ajratish, yangi o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini oldingilari bilan o‘zaro bog‘lash, umumlashtirish, takrorlash, ularni amalga tatbiq qilish orqali shakllanadi va rivojlanadi.

**Xulosa va munozara.** Mazkur ilmiy maqola doirasida olingan natijalar quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Oliy ta’lim muassasalarida “Web-dizayn” umumkasbiy fanini mobil ta’lim texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish uchun tadqiqotlar doirasida taklif etilayotgan o‘qitish tamoyillari, algoritmlari va bosqichlaridan foydalanish talabalarning muctaqil ta’limini samapali tashkil etishni ta’minkaydi.

2. “Web-dizayn” umumkasbiy fanini o‘qitishda mobil ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishni takomillashtirish uchun metodik ta’minotni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Shy bois, “Web-dizayn” umumkasbiy fanini o‘qitishda ta’lim platformasi yaratilib, unga videoma’ruzalar, izohli lug‘atlar, ko‘rgazmali qurollar, stendlar, onlayn standart va nostandart testlar, krossvordlar joylashtirilsa hamda ulardan bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda foydalanish metodikasi ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq buladi.

3. “Web-dizayn” umumkasbiy fanini bo‘yicha ma’ruza va laboratoriya mashg‘ulotlarini kompyuterning pedagogik-diagnostik dasturiy vositalari, mobil ta’lim va o‘qitish texnologiyalarini integratsiyalash asosida tashkil etish lozim. Bunda talabalarning ushby fanga bo‘lgan qiziqishi va motivasiyasi uyg‘onadi hamda mustaqil ta’lim olish kompetentligi rivojlanadi.

4. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan mobil ilovadan talabalarga o‘quv jarayonida foydalanish tavsiya etiladi. Bunda talabalar mustaqil bajarish uchun tavsiya etilgan va qiyinlik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlarni istalgan va joyda mobil qurilmalar yordamida bir necha marotaba bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

5. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarini “Informatika o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Web-dizayn” fanidan tashkil etilgan muctaqil ta’lim jarayonida tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ta’lim platformasidan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur platforma yordamida talabalar mobilli o‘qitish texnologiyalaridan va mobil ilovalardan mustaqil foydalanishi hamda o‘zini-o‘zi onlayn shaklda baholab borish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

6. Talabalarning “Web-dizayn” faniga bo‘lgan qiziqishini va kreativ fikrlashini yanada oshirishni ta’minalash uchun ushbu fanni mustaqil ta’lim vazifalariga mobil ilovalarni yaratishga oid topshiriqlarni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda talabalarni mustaqil izlanishga yo‘naltirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947-soni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>

2. Andreev A.A. Дидактические основы дистанционного обучения в высших учебных заведениях: Автореф. дисс... д-ра пед. наук. – MESI, 2004. – 82 б.
3. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiysi.- Toshkent: Sharq, 2002. - 13 b.
4. Toshtemirov D.E. Ta’lim portalining tarkibiy tuzilishi va uslubiy ta’minoti. // Kasb-hunar ta’limi, 2010. № 2. -. B. 88.
5. Turg‘unov O.M., Mustafaev Q.O. Oliy ta’limda masofaviy o‘qitishni tashkil etish. - Qarshi, 2012y. 217 b.
6. Raximov O.D., Mustafaev Q.O., Zoirov N.I. Masofaviy ta’limning didaktik ta’minoti. - Qarshi, 2012. - 175 b.
7. Raximov O.D., Turgunov O.M. va b. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. /Toshkent, «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2013.- 37b.
8. Murodov M.O., Ro‘ziev H.J. Ta’lim sifati va innovatsion texnologiyalar. Monografiya. // Toshkent, Fan va texnologiyalar|| nashriyoti, 2014. - 82b.
9. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. - T.: Fan, 2019. - 212 b.

## MA’NAVIYAT VA TARBIYA

### DARS ORQALI O‘QUVCHILARDA VATANGA E’TIQODNI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK JARAYONNING SAMARADORLIGINI TA’MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

*Abduraxmanov Sherzod Nazarbayevich,  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
Harbiy ta’lim fakulteti o‘qituvchisi*

*Ushbu maqolada dars-ta’lim va tarbiya ishlarining markaziy qismi hisoblanib, o‘quvchilarini bilim, ko‘nikma, malakalar bilan qurollantirish bilan birga, ularni milliy qadriyatlarimiz haqida tushunchaga ega bo‘lishi, milliy qadriyatlarda aks etgan axloqiy sifatlarni o‘quvchilarda hosil qilish muhim ahamiyatga ega ekanligi, didaktik talablarga javob berishi, jumladan, darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga tayanishi, undan foydalanish imkoniyatlari orqali o‘quvchilarda Vatanga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish haqida fikr boradi.*

**Kalit so‘zlar:** vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, elga hurmat va sadoqat, xalq tashvishi va quvonchiga hamdard bo‘lish, hamandardlik, chin qo‘snnichilik munosabatlari, ajdodlarga hurmat-ehtirom, ularning merosini ardoqlash, avaylab-asrash.

### ФОРМИРОВАНИЕ ПРИВЕРЖЕННОСТИ СТУДЕНТОВ РОДИНЕ ПОСРЕДСТВОМ УРОКА КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА

*В данной статье рассматривается центральная часть учебно-воспитательной работы, вооружающая учащихся знаниями, навыками и умениями, а также дающая им понимание наших национальных ценностей, нравственных качеств, отражённых в национальных ценностях, важно создавать, отвечать дидактическим требованиям, в том числе, исходя из характера предмета на уроке, опираясь на богатое педагогическое наследие нашего народа, формировать у учащихся любовь к Родине через возможности его использования.*

**Ключевые слова:** патриотизм, человеколюбие, гуманизм, трудолюбие, уважение и верность Родине, сочувствие народным заботам и радостям, сочувствие, истинное добрососедство, уважение к предкам, почитание их наследия, бережное сохранение.

### FORMATION OF STUDENTS' COMMITMENT TO THEIR HOMELAND THROUGH THE LESSON AS AN IMPORTANT FACTOR IN ENSURING THE EFFECTIVENESS OF THE PEDAGOGICAL PROCESS

*This article discusses the central part of educational work, equipping students with knowledge, skills and abilities, as well as giving them an understanding of our national values, moral qualities reflected in national values, it is important to create, meet didactic requirements, including on the basis of from the nature of the subject in the lesson, relying on the rich pedagogical heritage of our people, to form students' love for the Motherland through the possibilities of its use.*

**Keywords:** patriotism, philanthropy, humanism, diligence, respect and loyalty to the Motherland, sympathy for people’s cares and joys, sympathy, true good neighborliness, respect for ancestors, honoring their heritage, careful preservation.

**Kirish.** Bugungi kunda pedagogika fanining vazifasi ta’lim-tarbiya jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llashdir. Biz milliy qadriyatlarimizdan bo‘lmish xalq og‘zaki ijodi namunalarini tahlil qilar ekanmiz, ularning o‘quvchilarini Vatanga e’tiqodni tarbiyalashga ko‘rsatadigan ta’siri benihoya katta ekanini ta’kidlab o‘tmoqchimiz.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarini yurt go‘zalligini his etishga o‘rgatish orqali vatanparvarlik tuyg‘usi shakllantiriladi. Chunki har bir yozuvchi va shoир ijodini o‘lka go‘zalligini ulug‘lovchi, qadrlashga da’vat etuvchi, undan zavqlanish tuyg‘usini jo‘sh urdiruvchi satrlarsiz tasavvur etish qiyin, badiiy asarlarni o‘quvchilarga o‘rgatish orqali ularda vatanparvarlik, vatanni sevish tuyg‘usi mustahkamlanadi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni muayyan maqsadga yo'naltirilgan tizim bo'lib, unda barkamol shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Barkamollikning muhim belgilaridan biri esa inson faoliyatida Vatanga e'tiqodning namoyon bo'lishidir. Pedagogik jarayonning muayyan qismini o'quvchilarida xuddi mana shu vatanga e'tiqod tushunchasini shakllantirishga yo'naltirish zarur. Bu borada o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning asosiy omili bo'lgan dars jarayonining ahamiyati katta. Ushbu asosiy omil orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari “Vatan”, “Vatanparvarlik”, “Ona-Vatan”, “Istiqlol” kabi tushunchalarning mazmunini anglab, vatanga sadoqat, e'tiqod ruhida tarbiyalanib boradilar.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Dars – ta'lim va tarbiya ishlarining markaziy qismi hisoblanib, o'quvchilarni bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish bilan birga, ularni milliy qadriyatlarimiz haqida tushunchaga ega bo'lishida, milliy qadriyatlarda aks etgan axloqiy sifatlarni o'quvchilarida hosil qilishda muhim ahamiyatga ega. Bizga ma'lumki, sinflarda o'qitiladigan “Tarbiya” darslari ham umumiylididaktik talablarga javob berishi, jumladan darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga tayanishi, undan foydalanish imkoniyatlarini izlashi lozim. Shubhasiz, mustaqillik yillarda ta'lim sohasidagi islohotlardan ko'zlangan maqsadlardan biri ham dars jarayonida milliy qadriyatlar namunalarini o'rganish hamda ularda ilgari surilgan insonparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari orqali yosh avlodni barkamol insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlis qabul qilgan qaror, qonun va farmonlar dasturamal bo'lib xizmat qilmoqda. Bunda “Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari”, “Boshlang'ich ta'lim konsepsiya”si, “Maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiya”si kabi hujjatlar muhim ahamiyatga ega. Qabul qilingan barcha yuqorida hujjatlarda o'quvchi-yoshlarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor berilgan.

Dunyo ilm-faniga, madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan ulamo va fuzalolarimiz Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Al-Farobi, Al-Termizi, Mirzo Ulugbek, Zahiriddin Bobur, Ahmad Yassaviy, Ismoil Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoyi kabi ulug' zotlarning vatanga bo'lgan muhabbatni va sadoqati oldida ta'zim bajo keltirishni talab etadi. Shuningdek, xalq qahramonlari, bosqinchilariga qaqshatgich zarba bergen mard, dovyurak, vatan himoyasini o'z hayotidan ustun qo'ygan To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Muqanna, Temurmalik, bobomiz Amir Temurdek ulug' insonlar oldida tiz cho'kib, qasamyod etmok, Vatan himoyasini, el-yurt tinchligi va farovonligini asramoq har bir yoshning muqaddas burchi bo'lib qolishga da'vat etishini ham talab qiladi. O'quvchilar vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, avvalo, ona vatanga bo'lgan muhabbat, uni sevish, e'zozlash, uning ravnaqi uchun har bir inson hissa qo'shishini o'rgatishda adabiy asar qahramonlari, tarixiy shaxslar, vatan fidoyilari eng yorqin namuna bo'la oladi. Shuningdek, o'zbek xalqining madaniy merosi hisoblangan san'at, tarixiy va me'morchilik yodgorliklarini asrab-avaylash, ularning tarixi hamda bugungi kundagi ahamiyatini bilish talab etiladi. Zero, bir necha asrlar davomida yaratilgan obidalarimiz masjid, madrasa, saroy, observatoriya, osmonupar minoralar, maqbaralar, boy, ko'xna va navkiron tariximiz, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Turkiston yodgorliklari kimlarni hayratga solmagan deysiz. Ular o'quvchilar qalbida ham o'tmish tariximizga, ajoddolarimizning yuksak ilm va kasb mahoratiga cheksiz hurmat, ular bilan fahrlanish tuyg'usini uyg'otadi. O'qituvchi o'quvchi-yoshlarni o'z millatiga, ona vataniga, yurtiga sodiq bo'lishni o'rgatishi, ularda sog'gom kuch, tafakkur, iymon va pok vijdanni shakllantirish, vatan oldidagi mas'uliyati, millat manfaati bilan yashash, vatan taraqqiyoti, millat obro'siga hissa qo'shish, foyda keltirish, fidoyilik va halollik bilan sidqi dildan mehnat qilish, xalqning shon-shuxratini, manfaatini o'ylash, insonparvar bo'lishiga da'vat etishning turli usul va vositalarini ham topishga harakat qilgandagina o'quvchilarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga keng imkoniyatlarga ega bo'ladi.

**Natijalar.** Dars jarayonida o'quvchilarining dunyoqarashi shakllana boradi, mustaqil fikrleshga o'rganadi, dunyoviy bilimlar bilan tanishadi va ularning uzluksizligi rivojlanib boradi. Har bir darsning muvaffaqiyati uning oldiga qo'yilgan maqsadga bog'liqdir. Qachonki, maqsad aniq va puxta, o'quvchini har taraflama rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, darsning samaradorligi ta'minlanadi.

Vatanga e'tiqodni shakllantirish maqsadi ham pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. Bunda o'qituvchisi pedagogik jarayon oldiga quyidagi maqsadlarni qo'ya olishi kerak:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining faoliyati hamda milliy istiqlol negizida ifodalangan ona-Vatanga e'tiqodni shakllantirish haqidagi fikrlardan dars jarayonida unumli foydalanish.

2. Darsda o'rganilayotgan mavzudagi milliy qahramonlarning aynan vatanga bo'lgan e'tiqodini namuna sifatida ko'rsata olish (To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik va Amir Temur kabilari).

3. Mashhur allomalarining vatanga e'tiqod haqidagi fikr-mulohazalaridan unumli foydalana olish.

Bugungi kunda maktablarda sinf-dars shaklidagi mashg'ulotlardan foydalanib kelinmoqda va ularga qo'yilgan talablar ham o'zgarib bormoqda. Darsslarni qiziqarli uyuştirish uchun o'qituvchilar yangicha dars turlaridan, turli-tuman interfaol usul va vositalardan foydalanishlari mumkin. Boshlang'ich sinf

o‘qituvchilari milliy qadriyatlar vositasida vatanga e’tiqodni shakllantirishni maqsad qilib qo‘yan pedagogik jarayonni tashkil etishda darslikdagi mavzular bilan bog‘liq holda ertaklardan foydalanishlari muhim ahamiyatga ega.

Bu kabi mashg‘ulotlarni vatanga oid bo‘lim yuzasidan takrorlash darslarida uyushtirish mumkin. Bunday darslar ertaklar asosida uyuştiliradi, natijada o‘quvchilarining mashg‘ulotlarga nisbatan qiziqishlari yanada oshadi, bo‘lim yuzasidan olgan bilimlari mustahkamlanadi, vatanga muhabbat hislari tarkib topishi bilan birgalikda, jamoa bo‘lib ishlashga, birdamlikka o‘rganadilar. Ertaklarni bolalar ongiga yetkazishda ularni badiiy tarzda ifodalash, ayniqsa sahma darsi tarzida tashkil etish ertaklarning ta’sir kuchini yanada oshiradi. Darsliklarga kiritilgan ertaklarni bolalarning o‘zлари ishtirokida sahnalashtirish ularda vatanga bo‘lgan hurmatni kuchaytirish bilan birga, ularning axloqiy tarbiyasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi, yomonlik ustidan yaxshilik, qo‘rroqlik ustidan botirlik, yalqovlik ustidan mehnatsevar-likning g‘alaba qozonishiga ishocchi tarkib toptiradi.

Ertak asosida ssenariyli darslarni tashkil qilishda o‘qituvchining ijodkorlik qobiliyati asosiy o‘rin egallaydi. O‘qituvchi dars loyihalashda o‘quvchining yoshi, individual xususiyati va darsning davomiyligiga alohida e’tibor qaratishi, rollarni taqsimlashda barcha sinf o‘quvchilarining ishtirokini ta’minlashga harakat qilishi lozim. Ertak dars ssenariysini tuzishda o‘qituvchi o‘quvchilarining bilimlarini sinash va qiziqishlarini oshirish maqsadida boshqotirma, rebus, o‘yin-topishmoq kabi dars samaradorligini oshiruvchi vositalardan foydalanishi lozim.

**Muhokama.** Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning negizida yosh avlodni vatanga e’tiqodli, ma’naviy-axloqiy fazilatlari yuksak darajada shakllangan insonlar qilib tarbiyalash maqsadi yotadi. Mamlakatimiz islohotlar va rivojlanish jarayonlarini boshidan kechirayotgan bir paytda, yosh avlodda mustahkam e’tiqodni shakllantirish davr talabidir. O‘quvchi yoshlarda vatan ravnaqi yo‘lida xizmat qilish, vatan manfaatini o‘z manfaatlaridan ustun qo‘yish, vatanni qo‘riqlash, yurt tabiatini va boyliklarini asrash, eng asosiysi vatanga nisbatan chin e’tiqodni shakllantirish ota-onalar hamda tarbiyachi-pedagoglarning asosiy vazifasidir. Toki vatan muqaddas tushuncha ekan, shu vatan tuprog‘i va millat sha’ni uchun jon bergen ota-bobolar, akalarning xotirasini hurmati yoshlarimizni haqiqiy vatanga e’tiqodli insonlar qilib yetishtirishning ayni vaqtidir. Mamlakatimizni rivojlantirish, dunyo miqyosiga olib chiqish bugungi yosh avlodning burchi va vazifasidir. Buyuk alloma, mutafakkirlarimizning ma’naviy merosi, xalqimizning boy og‘zaki ijodi, yozma manbalari, go‘zal bayramlari hamda urf-odatlari, xalq hunurmandchiligi, tarixiy obidalari yosh avlodni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash borasida benihoya qimmatli boylikdir. Bizning ilmiy izlanishimiz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatanga e’tiqodni shakllantirishda ta’lim-tarbiya jarayonining o‘rnı beqiyos ekanligini ko‘rsatdi.

Umumiy o‘rta ta’limning dastlabki bosqichlarida - kichik yoshdagagi maktab o‘quvchilarida vatanga e’tiqodni shakllantirish quyidagilarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, elga hurmat va sadoqat, xalq tashvishi va quvonchiga hamdard bo‘lish, hamdardlik, chin qo‘shnichilik munosabatlari, ajdodlarga hurmat-ehtirom, ularning merosini ardoqlash, avaylab-asrash, o‘qib-o‘rganish singari ishlarni davom ettirish;

- oilaga sadoqat, ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi no‘maqul odatlarga berilmaslik, diyonatli va vijdonli bo‘lish, o‘z nomusi va oriyati uchun kurashish;

- ota-onaga va ustozga hurmat, kichik va katta yoshdagilarga mehribonlik, yordamga muhtojlarga mehr – shafqatli bo‘lish, g‘amho‘rlik qilish, adolatlilik, rostgo‘ylik, yaxshilikka intilish, go‘zallikni tushunish, moddiy qadriyatlarga ongli munosabat, yaratuvchanlik singari axloqiy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirish.

- O‘qituvchi o‘quvchi-yoshlarni o‘z millatiga, ona vataniga, yurtiga sodiq bo‘lishni o‘rgatishi, ularda sog‘lom kuch, tafakkur, iymon va pok vijdtonni shakllantirish, vatan oldidagi mas’uliyati, millat manfaati bilan yashash, vatan taraqqiyoti, millat obro‘siga hissa qo‘shish, foyda keltirish, fidoyilik va halollik bilan sidqi dildan mehnat qilish, xalqning shon-shuxratini, manfaatini o‘ylash, insonparvar bo‘lishiga da’vat etishning turli usul va vositalarini ham topishga harakat qilgandagina o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi. O‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish uchun yangi pedagogik texnologiyaning barcha ko‘rinishlaridan foydalanish, uning yangi-yangi shakllarini izlab topish va yaratish, eng avvalo, o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga vatanni ardoqlash qadrlash o‘rgatish lozim. Zero, vatan go‘zalligi shu qadar maroqli tushunchaki, u har bir yurt egasi qalbida faxr, g‘urur uyg‘otishga qodir.

**Xulosa.** Vatan hissi insonga Yurtidan olisda bo‘lganida yaqqol seziladi. Turli vajlar bilan o‘zga yurtlarda yashagan ko‘plab vatandoshlarimizning hayoti ayanchlari va qayg‘uli kechgani bizga tarixdan ma’lum.

Buning ifodasini buyuk sultanat egasi Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ham ko‘rishimiz mumkin. Bobur barcha imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, tug‘ilib o‘sgan Vatanidan olisda bo‘lgani uchun o‘zini baxtiyor inson deb hisoblamaydi.

O‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha metodini yaratilishi vatanparvarlik tarbiyasining mazmun, mohiyati va tashkiliy-uslubiy tomonlaridan aniqroq foydalanish lozimligini talab etadi. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarning tahlili vatanparvarlik tarbiyasining amaliyoti bilan berilgan va tekshirilgan an‘anaviy ko‘rinishlarini tanlash va mustahkamlash, o‘quvchi-yoshlarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifalarini zamonaviy sharoitlarda yanada to‘la tatbiq etishning zamonaviy shakllarini izlab topish zarur.

O‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ularning intellektual fikrlash xususiyatlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ammo bu nazariy xulosa bo‘lib, o‘qitiladigan fanlarning asoslarini, o‘qituvchilar o‘z bilimlarini amaliyotga to‘la tatbiq qilmaydi.

### **Adabiyotlar:**

1. Olimov T.X. Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi yoshlarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish // Ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini samarali joriy etish: muammo va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami. – Buxoro, 2021. – B.61-64.

2.Olimov T.X. Pedagogik-psixologiyada xulqi og‘ishgan bolalarni psixologik tarbiyalash // Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning muammo va yechimlari viloyat Ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. – Buxoro, 2018. – B.79-84.

3. Olimov T.X. Fuqarolik jamiyatida huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishning innovatsion usullari //Buxoroni turizm chorrahasiga aylantirish imkoniyatlari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya (1-qism). – Buxoro, 2019. – B 209-213.

4.Olimov T.X. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda shaxs faolligi // Zamonaviy xorij tajribasini milliy tarbiya jarayoniga samarali tatbiq etish: muammo va yechimlari mavzusida viloyat miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Buxoro, 2019. – B. 30-32.

5.Olimov T.X. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda “fuqaroviyl ong”ni shakllantirishning yo‘llari // Zamonaviy xorij tajribasini milliy tarbiya jarayoniga samarali tatbiq etish: muammo va yechimlari mavzusida viloyat miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Buxoro 2019. – B. 34-36.

**YOSHLARNI MILLIY HARBIY MEROSGA SADOQAT VA VATANPARVARLIK RUHIDA  
TARBIYALASH METODIKASI**

**Xaitov Bahodir Tursunovich,**  
*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti  
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi, dotsent*

*Ushbu maqolada yoshlarni milliy harbiy merosga sadoqat va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi haqida fikr bildirilgan. Yoshlarimizni To'maris, Shiroq, Spitamen, Temur Malik, Jaloliddin Manguberi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi xalq qahramonlari va sarkardalarimizning hayot yo'llaridan o'rnatishga chaqirilgan. Yoshlarga ta'lim berish davomida yangi pedagogik texnologiyalardan "assesment" metodining afzalligi haqida fikr yurtilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim-tarbiya, harbiy meros, vatanparvarlik, harbiy vatanparvarlik, tarixiy xotira, milliy armiya, xalq qahramonlari va sarkardalar, assessment metodi.*

**МЕТОДИКА ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЁЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА И  
ПРЕДАННОСТИ НАЦИОНАЛЬНОМУ ВОЕННОМУ НАСЛЕДИЮ**

*В данной статье высказывается мнение по вопросу воспитания молодёжи в духе преданности национальному военному наследию и военно-патриотическому духу. Молодёжь призвана брать пример с жизненных путей таких народных героев и полководцев, как Тумарис, Ширак, Спитамен, Тимур Малик, Джалалидин Мангуберди, Амир Темур, Захириддин Мухаммад Бабур. В ходе обучения молодёжи высказывалось мнение о преимуществе метода "assesment" перед новыми педагогическими технологиями.*

**Ключевые слова:** *образование-воспитание, воинское наследие, патриотизм, воинский патриотизм, историческая память, национальная армия, народные герои и полководцы, метод "assesment".*

**METHODOLOGY FOR EDUCATING YOUNG PEOPLE IN THE SPIRIT OF LOYALTY  
AND PATRIOTISM TO THE NATIONAL MILITARY HERITAGE**

*This article comments on the issue of educating young people in the spirit of loyalty and military-patriotism to the National Military Heritage. Our youth were called upon to follow the life paths of our folk heroes and captains such as Toomaris, Shiroq, Spitamen, Temur Malik, Jaloliddin Manguberi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Babur. During the education of young people, the idea of the advantage of the method of "assessment" from new pedagogical technologies was raised.*

**Keywords:** *education, military heritage, patriotism, military patriotism, historical memory, National Army, people's heroes and warlords, assessment method.*

**Kirish.** Bugungi globallashuv davrida yoshlarni milliy harbiy merosga sadoqat ruhida tarbiyalashda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyati katta bo'lib, ijtimoiy, tarixiy mazmun-mohiyatni o'zida aks ettirgan hamda harbiy-mafkuraviy tushunchalarni ular ongida dasturlaydigan, milliy davlatchilik va milliy armiyani shakllanish tarixi xususida yetarli va asosli ma'lumot beradigan fundamental asosga ega bo'lgan yangi fanlarni ta'lim jarayoniga olib kirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish davr talabi bo'lib qolmoqda. Mazkur ma'no va mazmunga ega bo'lgan fanlarni o'qitishning innovatsion va interaktiv metodlari yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshiradi, ayni paytda ularda ajadollar merosiga bo'lgan sadoqat va burchlilik hissini oshirib, Vatan yo'lidagi fidoyiliginini yanada mustahkamlaydi.

**Asosiy qism.** Yoshlarni, ayniqsa bo'lajak ofitserlarni milliy tariximiz, davlatchilik asoslarining qurilishi, mazkur jarayonni ongli anglash, faoliyat muvofiqligini ajoddlarning vatanparvarlik xislat va sifatlariga monand o'z shaxsida qaror toptirish ustuvorligi, ularga o'qitiladigan fan va metodikalarga bevosita bog'liq bo'lib, bu jarayon harbiy ta'lim muassasalarda faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarning kasbiy sadoqati, vatanparvarligi, kasbiy professionalligi hamda pedagogik mahorati bilan yuzaga chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim va fan sohasining barcha jabhalarida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning asosiy negizida, mamlakatimiz ertasi va kelajagi bo'lgan yoshlarning ta'lim-tarbiyasi va ularni

harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakat hayotida ko‘pgina vazifalarning hal etilishi yosh avlodda vatanparvarlik hissining rivojlantirish hamda vatanparvar-fuqaro qiyofasini shakllantirish kabi ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyojning borligi o‘z mamlakatining boy tarixiy merosi, harbiy sarkardalari timsoliga hurmat hissini rivojlantirish alohida ahmiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham Vatan himoyasida, avvalo, inson omili yetakchi o‘rinda turadi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda harbiy ilm-fanni rivojlantirish, uni zamonaviy talablar va jahon standartlariga moslashtirish, harbiy kadrlarni harbiy mutaxassisliklarga yo‘naltirish, bo‘lajak ofitserlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini rivojlantirish hamda harbiy mahoratini oshirishning meyoriy asoslari yaratilmoqda.

Harbiy ilmni rivojlantirish borasida harbiy mojarolar va zamonaviy jang amaliyotlarini hamda milliy harbiy san‘at tarixini chuqur o‘rganish va uni amaliyotda takomillashtirish muhim ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu esa, Qurolli Kuchlar akademiyasi, oly harbiy ta’lim muassasalari, harbiy ta’lim fakultetlari, “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseylari, umumiy o‘rtta ta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablarda harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishiga ixtisoslashtirilgan sinflarga yuqori professional salohiyatga ega harbiy kadrlarni tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

“Tarixdan yaxshi ma‘lumki, yer yuzida qaysi mamlakat o‘z davlat mustaqilligi, chegaralari daxlsizligi, xalqining tinch va osoyishta hayotini himoya qilib, taraqqiyot borasidagi yuksak maqsad-muddaolariga erishmoqchi bo‘lsa, avvalo, milliy armiyasini mustahkamlashga, uning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan jangovar tarkib, ya‘ni, askar va ofitserlar tarbiyasiga birinchi darjali ahamiyat beradi”, deb ta’kidlaydi muhtaram Prezidentimiz [1-128].

Davlatni mustahkamlash, uning milliy manfaatlarini himoya qilish, milliy armiyani professional vatanparvar kadrlar bilan ta’minalash, har bir fuqaroda burchlilik, mas’uliyat, ijtimoiy faoliyat va ma’naviy barkamollik fazilatlarini rivojlantirish muammolari insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichida dolzarb masalalardan bo‘lib, uning yechimi sifatida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim hamda o‘qitish texnologiya va metodlariga e’tibor qaratilishi lozim.

“Hozirgi tahlikali zamonda yurtimiz tinchligi va xavfsizligini ta’minlashning ishonchli kafolati bo‘lgan Qurolli Kuchlarimiz qudratini yanada oshirish ustuvor vazifamizdir. Shu maqsadda biz milliy armiyamiz qudratini, askar va ofitserlarimizning jangovar shayligi, jismoniy va ma’naviy tayyorgarligini kuchaytirishga e’tiborni yanada oshiramiz” [2-363].

Tarixiy milliy harbiy merosga sadoqat va ajdodlarga munosib voris bo‘lish sifatlarini bo‘lajak ofitserlar ongida dasturlash, uning o‘z faoliyatida namoyon bo‘lishi pedagogik tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadigan metodikalarni to‘g‘ri tanlanishining samarasini bo‘lib, ular ongida singish hamda vatanparvarlik sifatlarini barqaror shakllanishiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi [3-56-62]. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak ofitserlarni milliy harbiy merosga sadoqat ruhida tarbiyalash, o‘qitiladigan fanlar va tarbiyaviy ishlarning shakli va usullarini to‘g‘ri tanlash, ulardan samarali va maqsadli foydalanish, mazmun-mohiyatini ochib berishda pedagogik izchillikni o‘zida mujassamalashtirgan innovatsion metodikalardan foydalanishga ustuvorlik berish taqozo etiladi.

Pedagogika ensiklopediyasida **vatanparvarlik** (yunoncha “patriotes” vatandosh, “patris” – vatan) – tug‘ilib o‘sgan yurt, Vatanga muhabbat, sadoqat o‘z xatti-harakatlari bilan uning ravnaqi uchun xizmat qilish, Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g‘ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olivjanob faoliyatni, kishining o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan joy, zamin, o‘lkaga bo‘lgan mehr-muhabbati, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy xislatlari, fazilatini anglatadigan atama” sifatida talqin qilinadi [5].

“Falsafa” qomusiy lug‘atda esa: “Vatanparvarlik – Vatan oldidagi mas’uliyat va burchni anglash tushunchasi. Vatanparvarlik nihoyatda serqirra bo‘lib tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, rivojlanib boradi. Vatan manfaati, qadr-qimmatini, taqdirini, istiqbolini qancha ko‘p anglashilsa, kishilarda vatanparvarlik tuyg‘usi shuncha baland bo‘ladi.

Haqiqiy Vatanparvarlik millat, Vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo‘lida mehnat qilish hamda kurashishdir”, deyilgan [6-68].

**Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash** – yoshlarda Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga qaratilgan davlat va nodavlat tashkilotlari, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya institutlarining maqsadli, tizimli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritigan ilk kunlardan boshlab buyuk ajdodlarimizning tarixiy harbiy merosini o‘rganish va tadqiq etish, uning negizida milliy armiyani tashkil etish masalasiga e’tibor qaratib kelinmoqda. 1992-yil 14-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining huquqiy asoslari yaratildi va mazkur tuzilmaning tashkil etilganligi e’lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi respublika hududida joylashgan barcha harbiy qismlarni, harbiy ta’lim muassasalarini va harbiy boshqaruv organlarini O‘zbekiston Respublikasi tasarrufiga olish to‘g‘risida tarixiy qarorni qabul qildi. Ushbu kundan boshlab, mamlakatning tinch hayoti va xavfsizligini himoya qiladigan eng muhim davlat instituti – Qurolli Kuchlar, uning tuzilmalari o‘zbek xalqi va davlati manfaatlari nuqtayi nazardan zamonaviy va milliy professional kadrlar tayyorlash, ularni o‘qitish, avlodlarga munosib voris etib tayyorlashning ilmiy-nazariy va amaliy pedagogik jihatlariga e’tibor qaratildi.

1992-yil iyul oyida yangi harbiy qasamyod matni tasdiqlanib, millatimiz va xalqimiz yoshlari va harbiy xizmatchilari o‘z davlatiga, ya’ni O‘zbekiston Respublikasiga sadoqat bilan xizmat qilishi, ajdodlar ruhiga hurmat bajo keltirishi hamda Vatanni sevib, uni himoya qilishimi ta’kidlagan holda harbiy qasamyod qabul qilishni boshladi.

Yoshlarning harbiy vatanparvar bo‘lib shakllanishi va milliy harbiy merosga sadoqat ruhida tarbiyalashda harbiy qasamyodning o‘zi yetarli emas edi. Shu nuqtayi nazardan birinchi Prezident Islom Karimov tarixchilarga davlatimizning haqiqiy tarixini yozish, qadimgi buyuk ajdodlarimizning vatanparvarlik va yurt mudofaasi yuzasidan amalga oshirgan jasoratlarini haqqoniy yoritish masalasini kun tartibiga qo‘ydi.

Shuningdek, To‘maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna kabi xalq qahramonlarining dushmanlar bilan bo‘lgan jangdagи jasorati, o‘z davrining buyuk sarkardalari bo‘lgan Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur va xalqimizning boshqa milliy qahramonlari hayat faoliyati, millat va xalq hamda davlat va jamiyat tarraqqiyoti, milliy davlatchiligidan yo‘lida amalga oshirgan buyuk ishlarini zamonaviy yangi tariximizda yorqin yoritilishi hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o‘rnii nuqtayi nazardan yozilishiga ustuvorlik berildi. Mazkur yondashuv, boy tarixiy harbiy merosimizni chuqur ilmiy tadqiq etish uchun kuchli turki bo‘lib, tarixiy xotiramizni, milliy harbiy merosimizni tiklash uchun zamin bo‘lib xizmat qildi.

Milliy davlatchiligidan va milliy-tarixiy harbiy salohiyatimiz yuzasidan tadqiqot olib borgan bir qator rus tadqiqotchilari tomonidan yozilgan asarlar bir tomonlama yoritilgan. Ular tomonidan yozilgan asarlarda milliy davlatchiligidan va harbiy salohiyatimiz hamda ajdodlarimiz ilmiy salohiyati va harbiy san’ati, davlat boshqaruvi sayoz yoritilgan bo‘lib, yoshlarni milliy merosimizga nisbatan simpatiyasini pasaytirishga, vatanparvarlik ruhini tushirishga yo‘naltirilgan negativ, nohaqqoniy, “to‘qima tarixiy” ma’lumotlarga ustuvorlik berilgan.

Shu nuqtayi nazardan, milliy davlatchiligidan va milliy harbiy salohiyatimizni pragmatik ruhda yoritgan qadimgi yunon va rim tarixchilari Geradot, Poliyan, Arrianning asarlari, o‘rta asrlarda faoliyat olib borgan Abu Usmon Amir ibn Baxr (al-Johiz), Nizomiddin Shomiy, Alouddin Juvayniy, Ibn al-Asir, Shihobiddin Nasaviy kabi tarixchilarining asarlari, Yevropaning taniqli tarixchilari E.Gibbon, Jan Pol Ru, G.Veber, F.Shlosser va boshqalar tomonidan yozilgan asarlarga muvofiq o‘rganish maqsadga muvofiq deb topilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarda Ye.V.Rtveladze, G.A.Pugachenkova, R.G.Mukminova, A.Saidov, R.Alimov, B.Lunin, O.Bo‘riyev, D.Yusupova, A.O‘rinboyev, B.Ahmedov, H.Dadaboyevlarning tadqiqotlarida uzoq o‘tmishga ega bo‘lgan shavkatli milliy davlatchiligidan, ilmu-ma’rifatda tengsiz alloma ajdodlarimiz, milliy harbiy salohiyatimiz, Vatan qahramonlari va ularning jasorati, yuksak vatanparvarlik sifatlari yorqin va shaffof yoritila boshlandi [4].

Milliy davlatchiligidan, ajdodlarimizning jangovar harbiy qudrati, shonli tariximiz, xalqimizning buyuk sarkardalari, vatanparvar qahramonlari hamda milliy harbiy madaniy va ma’naviy merosi bilan faxrlanish bugungi yosh avlod uchun ma’naviy-ruhiy “ozuqa” bo‘lib, buyuk davlatchilikni qurish va uni asrashga yuksak kuch, teran tafakkur, bukilmas iroda va matonat hissini o‘z shaxsida shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda bo‘lajak ofitser va yoshlarning ajdodlarimizning milliy harbiy merosini o‘rganishi, buyuk sarkardalarimiz va mamlakatimizning tarixiy o‘tmishi bilan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirish – vatanparvarlikni shakllantirishning mustahkam poydevori sifatida qaralib, ularni ajdodlarga mos avlod bo‘lishiga munosib motiv beradi. Yoshlarning buyuk ajdodlarimizning harbiy merosi hamda ularning jahon harbiy san’at taraqqiyotidagi o‘rnini bilishi va o‘rganishi yuksak emotsiyonal qoniqishni yuzaga keltirgan holda o‘ziga va ertangi kuniga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi. Ushbu harbiy ma’naviy merosni avaylab, kelgusi avlodga transformatsiya qilish orqali millati, xalqi va davlatiga fidokorona xizmat qilish

hamda uni asrab-avaylash, mustaqilligini saqlash, suvirenitetini qo‘riqlashga bo‘lgan doimiy shaylikni ularning ongiga dasturlaydi.

Milliy armiyamizda ajdodlarimizning jangovar harbiy qudrati, shonli tariximiz, xalqimizning buyuk sarkardalari, vatanparvar qahramonlari hamda milliy harbiy madaniy va ma’naviy merosi bilan faxrlanish, u orqali bo‘lajak ofitserlarda harbiy vatanparvarlik hissini qaror toptirish, qo‘shinlarning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-axloqiy tayyorgarligini oshirish yuzasidan yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalarining harbiy ta’lim tizimiga joriy etilishi ularda o‘quv-metodik ishlarning takomillashishini ta’minlaydi.

Harbiy oliy ta’lim muassasalarida yoshlarni milliy harbiy merosga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda “Harbiy san’at tarixi, milliy harbiy meros va O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanining ahamiyati katta. Mazkur fan darsligi ikkita, ya’ni “Harbiy san’at tarixi va milliy harbiy meros” va “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” bo‘limlaridan iborat bo‘lib, 20 ta mavzuni o‘z ichiga oladi.

Mazkur fanni o‘qitishdan maqsad bo‘lajak ofitserlarni milliy davlatchilik, uning tarixiy harbiy salohiyati, milliy sarkarda va vatanparvar qahramonlarning jangovar jasorati, jangovar harbiy va ma’naviy merosi, jang olib borish usul va taktikalari, milliy jangovar salohiyatning davriy o‘ziga xos jihat va xususiyatlari, shuningdek dunyoning yetakchi davlatlari Qurolli Kuchlari tarixi, O‘zbekiston Qurolli Kuchlari yaratilishi tarixi va bugungi kunda harbiy salohiyat, professional harbiy kadrlar tayyorlashda davlatning taktik va strategik maqsadlarini o‘rgatishdan iborat.

Yoshlarni milliy harbiy merosga sadoqat ruhida tarbiyalash va vatanparvarlik sifatlarining barqaror jihatlarini qaror toptirish harbiy-mafkuraviy yo‘nalishdagi muammolardan biri hisoblanib, mazkur masalaning pragmatik yechimini topish, mas’ullar va soha vakillarining ijtimoiy, pedagogik-psixologik jihatdan muloqot doirasining kengayishi, ilmiy-amaliy dialog o‘rnatishdagi hamkorlikning ortishi, yechimlarni birgalikda izlash hamda tarbiyaviy vaziyatlarni barqarorlashtirishga xizmat qiluvchi o‘qitish metodikalarini ta’lim jarayoni amaliyotiga olib kirish ijodiy faoliyatning ustuvor jihatiga aylangan. Mazkur jarayonda uslubiy yangiliklarning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish interfaol o‘qitish va tarbiyalash texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lib, vaziyatlarni modellashtirish, simulyatsion yondashuvlarni fan mazmuniga muvofiqlashtirishga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida, bo‘lajak ofitserlarni milliy harbiy merosga sadoqat hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda rolli o‘yinlardan maqsadli foydalanish, teatrlashtirish, sun’iy muammoli vaziyatlarni yaratish, o‘qituvchi va tinglovchilar o‘rtasida konstruktiv muloqot “makoni”ni qaror toptirish, mavzularni tez va ijodiy o‘zlashtirishning konstruksiyasini ishlab chiqish, tanqidiy fikrlash, ongli qarorlar qabul qilish hamda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish bilan bog‘liq masalalar ijobjiy yechimga ega bo‘ladi.

“Harbiy san’at tarixi, milliy harbiy meros va O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanini o‘qitishda “Charxpalak”, “Bumerang”, “Rezyume”, “Assesment” va “Skarabey” metodlari orqali o‘qitish yuqori samaradorlikni beradi.

Jumladan, “**Assesment**” metodi o‘tilgan ma’ruzani seminar va amaliy mashg‘ulot jarayonida ta’lim oluvchilar tomonidan mukammal holda to‘rt bosqichli (test, simptom-ilmiy gipoteza, muammoli vaziyat va amaliy ko‘nikma) jarayonda o‘rganiladi. Shuningdek, mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha barcha mavzularni tinglovchilar tomonidan yodga olish, yoki biron-bir mavzu bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriq, vazifalarga mustaqil ravishda o‘z munosabatlarini bildirish orqali bilim, ko‘nikma, malakalarini egallaydi hamda o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha tinglovchilarni ilmiy-nazariy, tahliliy hamda amaliy jihatdan bilimlari, ko‘nikmalarini baholay olish imkoniyatini yuzaga chiqaradi.

“Assesment” metodidan fanga oid bo‘limdagи mavzularni yoritishda foydalanishdan maqsad quydagilar bilan **tavsiflanadi**: tinlovchi-kursantlarni mashg‘ulotda o‘tilgan mavzuni eglaganligi va mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, mustaqil ravishda o‘zlarining bilim darajalarini baholay olish, shuningdek, o‘z bilimlarini bir tizimga solish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Жаҳоннинг ривожланган мамлакатлари тажрибаларидан маълумки, мамлакат тараққиётини тамиллашда интеллектуал салоҳиятнинг ўрни алоҳида аҳамиятга эга. Шунинг учун ҳам Ўзбекистон мустақилликка эришган кунларданоқ интеллектуал салоҳиятни оширишнинг муҳим қисми бўлган кадрлар тайёрлаш сиёсатига алоҳида этибор қаратди. Айниқса, илм-фан соҳасини ислоҳ қилиш тараққиётимиз учун муҳим аҳамиятга эга. Бугунги кунда илм-фан соҳасида эришилаётган улкан қашфиётлар ва уларнинг ишлаб чиқаришга кенг миқёсда жорий қилиниши олимларнинг ижтимоий ва иқтисодий ҳаётдаги ролини кучайтириб юборди. Хусусан, жамият тараққиётига илмий-техника инқилоби ўз таъсирини кўрсата бошлаган дастлабки йиллардан жамиятнинг интеллектуал салоҳияти, унинг асоси бўлган кадрлар тайёрлаш муаммолари янада долзарблашди, шу боис у кўплаб тадқиқотлар обьекти бўлиб келмоқда. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иктисодий тараққиётida илмфанинг ролини ошириш, инновацион ривожлантириш, илмий кадрларни қайта тайёрлаш давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланди. Мамлакат тараққиётини мустаҳкамлаш, истиқболини белгилашда илмий-тадқиқот ишларини самарали ташкил этиш, фан, таълим ва ишлаб чиқариш ҳамкорлигини таъминлаш бугуннинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланмоқда. Илм-фан иқтисодиётнинг барча тармоқлари тараққиётida катта ўрин тутади. Ҳар қандай давлат бу йўлда, аввало, олимларга суняди. Бугунги кунда мамлакатимиз аҳолисининг катта қисмини ёшлар ташкил этаётганлиги хеч кимга сир эмас. Шу сабаб олимлар орасида ёшлар кўпчиликни ташкил этади.

Бугунги мустақиллик шароитида ёшлар тарбиясига муносабат ўзгача тус олди. Зеро, ёшларнинг ахлоқий ва маърифий қарапашларини шакллантириш, уларнинг келажак ҳаётларини, истиқболларини белгилаб берувчи омилдир[4.146]».

Бизнинг назаримизда, замонавий ёшлар тарбиясида миллий мустақиллик руҳида тарбиялаш, уларда миллий ғуур, миллий онг ва ўз-ўзини англаш, ватанпарварлик туйгуларини шакллантиришни тақозо этади. Ватанга меҳр ғоясини сингдириш, миллат ва ҳалқ ўтмишига, унинг қадриятларига бўлган ҳурмат-эҳтиром ҳиссини тарбиялашдан келиб чиқади. Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, ота-онанинг болага, боланинг ота-онага бўлган муҳаббати Ватан ва миллатга бўлган меҳр-муҳаббати билан йўғрилган бўлмоғи лозим.

“Биз янги Ўзбекистонни барпо этишга қарор қилган эканмиз,-дейди Ш. Мирзиёев,- иккита мустаҳкам устунга таянамиз, биринчиси – бозор тамойилларига асосланган кучли иқтисодиёт, иккинчиси – аждодларимизнинг бой мероси ва миллий қадриятларга асосланган кучли маънавият. “Агар жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир[5].

**Адабиётлар таҳлили ва методология.** Маълумки, Ўрта аср Шарқининг буюк мутафаккирлари ўзларига қадар мавжуд бўлган барча илм-фан ютуқларини ўзлаштириб, деярли ҳамма соҳаларда илмий асарлар яратдилар, бу билан ҳам кифояланмай, мавжуд илмларни тасниф қилдилар, хорижий тиллардаги машҳур асарларни араб, форс ва турк тилларига таржима қилиш ишлари билан шуғулландилар. Шундай хизматлари билан «ягона минтақа маданияти» деб аталиши мумкин бўлган тарихий янги жараёнга асос солдилар. Ўз навбатида ушбу тарихий жараён бошқа ҳалқлар илм-маърифатига кучли таъсир этиб, Уйғониш даври деб аталувчи улкан маърифатпарварлик даврининг бошланишига асос бўлди.

Шунинг учун ҳам, биз Форобий, Абу Али ибн Сино, Беруний, Хоразмий, Фарғоний каби буюк қомусий олимлар асарларида, уларнинг илмий-назарий таълимотларида таълим-тарбия масалаларига кенг ўрин берилганига, чунончи, тарбия муаммоларига жаҳон ма данияти мезонлари билан ёндашилганига гувоҳ бўламиз.

Жумладан, Форобий (873-950)нинг «Фозил одамлар шаҳри», «Баҳт-саодатга эришиш ҳақида кўрсатмалар», «Баҳт-саодатга эришиш ҳақида», «Фуқаролик сиёсати», «Давлат арбобининг афоризмлари» каби асарларида[6] жамиятнинг келиб чиқиши, мақсад ва вазифалари ҳақида фалсафий таълимот яратди, инсон жамоаларининг жамиятда тутган роли, давлат ва оила, уларни бошқариш ҳақидаги илмий билимлар тизимини яратди. Унинг фикрича, инсон жамоалари ва жамият кишиларнинг яшashi ва камолотга эришиши учун зарур бўлган модҳдий ва маънавий эҳтиёжларини қондириш учун интилишлари натижасида келиб чиқсан.

**Натижа.** Бинобарин, инсон якка ҳолда ҳеч қачон асл маънода баҳтли бўлолмайди: Ҳар бир инсон ўз табиати билан шундай тузилганки, у яшаш ва олий даражадаги етукликка эришмоқ учун кўп нарсаларга муҳтож бўлади; у бир ўзи бундай нарсаларни қўлга кирита олмайди, уларга эга бўлиш учун инсонлар жамоасига эҳтиёжи туғилади[7.134 б].

Тарихнинг бурилиш паллаларида жамият пойдевори бўлган ёшлар ва унинг тақдири ҳақида ана шундай умумлашмалар ва тадқиқотлар яратишга уриниш бўйича жуда кўп мисоллар бор бўлиб, бу борада жадид маърифатпарварларининг хизматларини алоҳида айтиб ўтишга тўғри келади. Жадидчилик намояндадари инсон ва мамлакат тақдири, уларнинг келажакда ютуқ ва ёки

бахтсизлиги, юксалиши ёки таназзули ёшлар билан узвий боғлиқлигини чукур ҳис этдилар ҳамда ёшларнинг жамиятда тутган мавқеи, оила тарбияси ва маънавияти хусусида илмий тадқиқотлар яратишга киришдилар, бадиий асарларида бу долзарб масалага алоҳида эътибор қаратдилар[8].

Жадидчилик намояндалари Махмудхўжа Беҳбудий, Абдулла Авлоний, Абдурауф Фитрат, Абдулла Қодирий ва бошқалар томонидан эълон қилинган бир қатор мақолаларда жамиятнинг маънавий қиёфаси ёшларнинг қандайлигига боғлиқлиги атрофлича таҳлил этилди.

Уларнинг фикрича, агар оиласда соғлом турмуш тарзи устувор бўлиб, фарзанд ҳар жиҳатдан тўғри тарбия топган бўлса, у шубҳасиз ўзидағи ижобий фазилатларни хизмат жараёнига кўчиради, ижтимоий меҳнат фаолиятида қўллайди, натижада жамиятдаги барча муносабатларга таъсир ўтказади. Бинобарин, ёшларнинг гўзал одоб-ахлоқ, хушмуомалалик, самимилик, меҳнатсеварлик, илм-маърифатга хурмат асосига курилган бўлиши фоят муҳим масала бўлиб, бу ижтимоий муносабатларга мунтазам таъсир этиб, унга куч-куvvват бериб турувчи ягона омилга айланади. Тарбия кўрган шахснинг юриш-туриши, маданий муомаласи, гўзал хулқ-атвори жамиятдаги ижтимоий муносабатлар характеристига таъсир эта бориб, Форобий айтганидек, фозил одамлар жамоасининг шаклланишига замин ҳозирлайди.

Президент Ш.Мирзиёев таъкидланганидек,- «Агар кимdir, маънавият масаласи- бу факат Маънавият маркази ёки тегишли вазирлик ва идораларнинг иши, деб ўйласа, хато қиласди. Буларнинг барчasi олдимизда турган энг асосий, энг муҳим вазифалардан биридир[9]» .

**Муҳокама.** Бинобарин, ота-онанинг бурчи, аввало, фарзандга таълим-тарбия бермоқдир. Шоир шу мақсадда асардаги барча воқеаларни, баҳсларни таълим атрофида олиб боради. Лекин билим, заковат қадрини ҳамма инсон ҳам билавермайди. Зар қадрини заргар билгани каби, билим қадрини ҳам доно, заколаргина билади. Демак, билимдон бўлиш, билимни англаш учун ҳам заковат, онглилик, истеъод зарур[10.32 б].

Мустақиллик шароитида ёш авлод ўртасидаги ўзаро муносабатлар ва уларнинг тарбия масалаларига янгича ёндашиш заруратининг моҳияти ана шундай муҳим сабаблар билан изоҳланади. Худди шунга ўхшаш, «ёшлар маданияти», «ёшлар маънавияти», «ёшлар ахлоқи (этикаси)» каби атамаларда ҳам шахснинг камолот йўлини бошлаб берадиган, ривожланиш босқичлари кейинчалик «жамият» деб аталмиш кенг фалсафий тушунчага бориб тақаладиган ўсиш-ўзгариш манбасига ўзига хос таъриф-тавсиф берилади.

Маънавият, ахлоқ-одоб ва маърифат-маданий мероснинг таркибий қисмлари бўлиб, уларда ҳалқимизнинг даҳолик кудрати, дунёкараши, маънавий-рухий қиёфаси, эзгулик, яхшилик ҳақидаги қарашлари ўз ифодасини топган бўлади. Бинобарин, маданият, маънавият, ахлоқ, маърифат, мерос фоят кенг камровли тушунчалар бўлиб, унда тарихан таркиб топган муайян ҳалқнинг кўп асрлар давомида тўплаган моддий ва маънавий бойликлари, тили, сўз санъати, қадриятлари, бой тарихи, тарихий ёдгорликлари, анъана ва расм-русумлари умумлашган, мужассамлашган бўлади. Маданият, маънавият, ахлоқ, маърифат оила тарбиясининг асоси, негиз тошидир. Маданият тушунчаси кенг маънони англатади.

**Хулоса.** Умуман олганда, мамлакатимизда соғлом авлодни шакллантириш ва ёшлар юксак маънавий-ахлоқий муҳитни қарор топтириш учун зарур шарт-шароит яратиш, ёшларни манфаатларини таъминлаш, соғлом фарзанд ўстириш, тарбиялаш ва вояга етказиш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилиган. Бунда, аввалимбор, ёшларнинг тафаккурини, онгини ўзgartiriшига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Қизларимиз онгиди оналик, ўғилларимизда эса, ота бўлиш масъулиятини шакллантириш, бунга уларни тайёрлаш, ёш оилаларнинг хуқукий саводхонлигини тубдан яхшилаш ва оиласда боланинг хуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган тадбирлар кўлами кенгаймоқда. Зоро, оила фаровонлиги миллат фаровонлигининг асосидир. Ҳаёт, тараққиёт доимий юксалишда, янги-янги мэрралар сари одимлайверади.

Юртимизнинг эртанги куни, тараққиётни учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир етук мутахассис ёшлар Ватанимиз ривожи йўлидаги эзгу саъй-ҳаракатларни амалга оширадиган, рӯёбга чикарадиган қудратли кучdir.

#### Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлини қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент : Ўзбекистон, 2018.1-жилд. –529-бет.
2. Ш. Мирзиёев Маънавий-маърифий ишлар таъсирчанлигини янада ошириш борасидаги долзарб вазифалар муҳокамасига бағишлиланган видеоселектор йигилиши. Тошкент. 19 январ 2021
3. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишининг илмий-назарий асослари.Т., „Ўқитувчи”, 1996.41-бет.

4. Шодмонова Ш.С. Оилада кичик мактаб ёшидаги болаларни миллий қадриятлар асосида ахлоқий тарбиялашнинг педагогик асослари: Пед. фанлари номзоди... дис./ Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети. – Тошкент, 2001. 14-бет.
5. Шавкат Мирзиёев: маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича видеоселектор . 19.01.2021. <https://president.uz/uz/lists/view/4089>.
6. Форобий. Рисолалар. – Тошкент: «Фан» 1975; Форобий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993.
7. Форобий, Рисолалар. – Т.: «Фан», 1974, 134-6.
8. Фитрат А., Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Тошкент: Маънавият, 2000; Ойина. – Тошкент: Академия, 2001
9. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг. – Тошкент: «Фан», 1990. 32-6.
- 10.Ochilova N. R.. The importance of spiritual education of young people with intellectual potential «scientific progress» Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 5 march 2021. 251-254. [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz)
- 11.Ochilova N. R. Journal Book Reading-Young People as a Factor of Spiritual and Moral Growth. // Central Asian Journal of social sciences and history. 2022/11/17.T3,№11, p-116-118.
- 12.Ochilova N. Yukh Manzarov. The development of aesthetic perception - Problems of Science, 2019, Publisher LLC "Olimp", No. 10 (46), 38-40.
- 13.Ochilova N. R. Modern civilization: similarities and differences. // Journal of the International Scientific-Practical Distance Conference. Publisher Scientific progress 2021. V.15, No. 15, pp. 24-26.
- 14.Ochilova N. R. National problems in the light of modern trends in the process of globalization. // International Scientific and Practical Conference World science. ROST publisher. 2017, V.5, No. 4, p-11-13.

## PEDAGOGIK TA’LIMOTLAR TARIXI

### JADIDLAR TOMONIDAN TA’LIMGA OID DARSLIK VA O’QUV QO’LLANMALARINING NASHR ETILISHI

Saidova Dilorom Erkinovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Ushbu maqolada jadid ma’rifatparvarlarining faoliyati va o’sha davrdagi ta’lim tizimi va ma’rifatparvarlarning pedagogik, ayniqsa, axloqiy tarbiyaga doir merosini o’rganishda ularning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo’ljallab yozilgan axloqiy-ta’limiy darsliklari haqida ma’lumotlar o‘z ifodasini topgan.

**Kalit so‘zlar:** jadid, ma’rifatparvarlar, ma’rifatparvarlik faoliyati, pedagogik meros, yangi usul maktabi, darslik, kutubxonalar.

### ИЗДАНИЕ ДЖАДИДАМИ УЧЕБНИКОВ И УЧЕБНЫХ ПОСОБИЙ ДЛЯ СФЕРЫ ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье деятельность современных просветителей и образовательная система того времени и образовательное наследие просветителей, особенно в части нравственного воспитания, выражены в их нравственно-воспитательных учебниках, написанных для младших школьников.

**Ключевые слова:** джадид, просвещённые люди, просветительская деятельность, педагогическое наследие, новометодная школа, учебник, библиотеки.

### JADID PUBLISHING TEXTBOOKS AND TEACHING AIDS FOR EDUCATION

In this article, the activities of modern enlighteners and the educational system of the time and the educational heritage of the enlighteners, especially in the part of moral education, are expressed in their moral-educational textbooks written for junior schoolchildren.

**Keywords:** jadid, enlightened people, enlightened activity, pedagogical heritage, new method school, textbook, libraries.

**Kirish.** Jadid ma’rifatparvarlari faqat yangi usuldagagi maktablar ochganlar deyish noo‘rin bo‘lur edi. Zero, ular o‘lka ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida faol ishtirok qilib, ma’rifatparvarlik sohasida asosan quyidagi ishlarni amalga oshirganlar:

- Turkistonda yangi usul maktabalarini ochilishi bevosita ularning faoliyati bilan bog‘liq;
- yangi usul maktabi tarafdarlari o’sha davr talabiga javob bera oladigan darslik kitoblarini yozganlar, nashr qildirganlar;
- bir qator ma’rifatparvarlar o‘z hisoblaridan bosmaxonalar tashkil qildilar;
- Turkiston xalqlarining siyosiy ongini oshirishga, o‘lka ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishga undash uchun bir qator gazeta va jurnallar tashkil qilganlar;
- yangi usul maktabi tarafdarlari Turkistondagi maktab-maorif ishlarni takomillashtirish va rivojlantrish uchun ko‘plab “xayriya jamiyat”larini tashkil qilganlar. Bu jamiyatlar orqali beva-bechoralarga, kambag‘al oilalarga va ularning bolalariga moddiy hamda ma’naviy yordam berib turganlar;
- Turkistondagi bir qator shaharlardan o‘quvchilarni tanlab olib o’sha davrda dunyoning rivojlangan Germaniya va Turkiya davlatlariga ta’lim olishga yuborganlar. Bu davlatlarga o‘qishga borgan toliblarni moddiy ta’minlash uchun jamg‘armalar tashkil qilinib bir qator qulayliklar yaratib bergenlar;
- jadidlar o‘lkada keng ko‘lamda madaniy-oqartuv ishlarni olib borganlar;
- kutubxonalar, kitob magazinlarini ochganlar;
- Markaziy Osiyo davlatlari tarixida teatr truppalarini tashkil qilish, bu truppalar uchun sahna asarlarini yozish va aktyorlar, rejessyorlarni tayyorlash bevosita yangi usul maktabi tarafdarlarining nomi bilan bog‘liq.

**Asosiy qism.** Darslik boshlang‘ich sinflar uchun o‘qish kitobi hisoblangan. Ushbu rasmlı darslikdagi hikoyalar bir-birini mazmunan to‘ldirib, boyitib boradi. Darslikda Sharq an’anaviy uslubi qo’llanilib, hikoyalar nihoyasida baytlar berilgan. Har bir hikoya tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, bolalar yoshi va

dunyoqarashiga mos sodda bayon uslubida yozilgan. Darslikda integratsiya tamoyillaridan unumli foydalanilgan bo‘lib, unda bolalarni axloq-odobga o‘rgatish, turli fan sohalaridan boshlang‘ich ma’lumotlar berishga harakat qilingan. Ushbu darslik o‘quvchilarning dunyoqarashi va fikrlash doirasini rivojlantirishga qaratilganligi bilan diqqatga molikdir. Mashhur yozuvchi va pedagog Sadriddin Ayniy «Buxoroi sharif birodarligi» jamiyatining taklifi bilan yangi milliy maktablari uchun «Tahzib us-sibyon» («Pok bola») o‘qish darsligini tuzgan bo‘lib, u ikki marta ( 1909; 1917 yillarda nashr etilgan. «Tahzib us-sibyon» kitobi adabiy-didaktik xarakterda ega bo‘lib, o‘quv materiallari bolalarga qiziqarli sodda tilda bayon etilgan, ular mazmuni o‘quvchilar yoshiga mos.

O‘sha zamon sharoiti va talablariga ko‘ra, kitobda diniy ma’lumotlar ham berilgan. «Tahzib us-sibyon» darsligida muallif, bolalarni rostgo‘y va vijdoni bo‘lishga targ‘ib qiladi. Bolaning shakllanishida oila tarbiyasi muhim o‘rin tutadi. Muallif bir hikoyada namuna usulidan foydalanib, o‘quvchilar hayotida ro‘y bergen voqeа misolida o‘quvchilarni halol bo‘lishga undash bilan birga, bunda oila tarbiyasi, onaning namunasi katta o‘rin tutishini ko‘rsatib beradi. Quyida ushbu hikoyadan parcha keltiramiz: «Bir kuni Tosh ismli bola maktabdan qaytayotganida o‘tkinchi kishi qopchig‘ini tushirganini ko‘rdi, uni olib uyiga keldi va onasiga ko‘rsatdi. Onasi achchiqlanib aytди: «Buning egasini tezroq top va unga qopchiqni qaytar, aks holda o‘rtoqlaring orasida seni o‘g‘ri deb e‘lon qilaman». Tosh qopchiq egasini topib, uni puli bilan qaytarib berdi».

XX asr boshida darslik yaratgan pedagoglar, ziyorilar darsliklardi matnlarni o‘z hayotiy tajribalaridan olganlar. Hikoya, rivoyat singari she‘r va to‘rtliklar ham bitib, darsliklarga kiritganlar. Jumladan, Sadriddin Ayniy ham «Tahzib us-sibyon» darsligining «Aqli bola» bobida bolalarni sahiylik ruhida tarbiyalovchi she‘r yozadi. Muallif «Tarbiya ko‘rgan bola», «Yaxshi, odobli bola» boblarida yoshlikdan o‘quvchilarda madaniy xulqni qaror toptirish, har bir o‘quvchining tozalikka rioya qilishi lozimligi haqida fikr yuritadi. Bundan tashqari, darslikda axloqiy tarbiya, ota-onani hurmatlash to‘g‘risida fikr yuritilib, ushbu yo‘nalishda yuksak badiiy saviyaga ega bo‘lgan savol-javob shaklidagi she‘r taqdim etilgan. S.Ayniy oilada mehr-oqibat yuqori darajada bo‘lishini xohlaydi. Darslikda insonparvarlik ruhidagi hikoyalari bilan bir qatorda, estetik tarbiya va o‘yin faoliyati bilan bog‘liq qisqa-qisqa matnlar ham berilgan. «Tahzib us-sibyon» keng qamrovli darslik hisoblanib, unda barcha fanlar, ularning inson hayotidagi o‘rnı beqiyosligi haqida fikr bayon qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Muallif har bir bola o‘zi o‘qish va yozishni bilishi shart deb hisoblaydi. Darslikda bolalar hayoti, tabiat, maktab, uy hayvonlari va parrandalarga oid bolalarning yoshiga mos qiziqarli hikoyalari mavjud. Sadriddin Ayniy kitobda o‘qituvchilar uchun metodik yo‘l-yo‘riqlar ham taqdim etgan bo‘lib, darslikning ayrim boblari o‘qituvchi va uning vazifalariga bag‘ishlangan. S.Ayniyning «Tahzib us-sibyon» darsligidan tashqari, «Yoshlar tarbiyasi» darsligini 1909-yilda chop etganligi ma’lum. Turkistonda jadidchilik harakatining otasi M.Behbudiy o‘zbek va tojik tillarida «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiyy», «Kitobat ul-atfol», «Muxtasari tarixi islom», «Madxali jug‘rofiyai umroniy», «Muxtasar jug‘rofiyai Rusiy» shuningdek, «Hisob» nomli darsliklar yaratgan.

U o‘zi yaratgan darsliklarda didaktikaning eng muhim tamoyili bo‘lgan onglilikka alohida e’tibor qaratgan. M.Behbudiy «Kitobatul-atfol» (1908 y.) darsligida o‘quv matnlari bayonida fors, arab va turk tilidagi so‘zlearning aralashtirib berilishi «bola zehnini ochmay, balki fikrining yo‘q bo‘lishiga sabab» bo‘lishini aytib, matn tuzdirishning grammatik, stilistik, tarbiyaviy jihatlarini yoritgan, xatlardan namunalar keltirgan . Abdulla Avloniy (1878-1934) Toshkentdagи Mirobod, so‘ngira Degrez mahallasida ochgan maktabida tovush usulida bolalarni o‘qitdi hamda ularning yoshiga mos darsliklar yozdi. Uning «Birinchi muallim» darsligi boshlang‘ich ta‘limga qo‘shilgan qimmatli hissa bo‘ldi. Buyuk ma’rifatparvar 1908-1909 yillardan o‘sha davrlarda darslik va o‘quv qo‘llanmalarga ehtiyoj kattaligini hisobga olib, darslik yaratishga kirishdi. Uning bir qator darslik va o‘quv qo‘llanmalari, jumladan 1911 yilda «Birinchi muallim», 1912 yilda «Ikkinchi muallim», 1913 yilda «Turkiy Guliston yoxud axloq», 1909-1915 yillarda 4 jildli «Adabiyot yohud milliy she‘rlar», 1915-yilda «Maktab gulistoni», 1917-yilda «Mardikorlar ashulasi» va 1933-yilda 7-sinf o‘quvchilari uchun «Adabiyot xrestomatiyasi» kabi kitoblari shular jumlasidandir. Pedagogning darsliklarida milliy iftixon, milliy tuyg‘u, milliy g‘urur yaqqol ko‘rinadi. Abdulla Avloniy darsliklarida milliylikka tayanib, ijodiy izlanish, o‘qish va o‘qitishning yangi shakl, uslub va vositalarini qidirib topish o‘qituvchining eng muhim sifatlaridan biri deb hisoblaydi. Uning darsliklari o‘zbek milliy didaktikasi tarixida muhim o‘rin egallyaydi. U o‘z darsliklarda oddiydan murakkabga borish usuliga amal qiladi, o‘quv materiallari oddiy tilda, yengil, qiziqarli bo‘lishiga e’tibor beradi, matn tanlashda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga oladi. Ustoz yaratgan darsliklarning ijobi yususiyatlaridan yana biri shundaki, ularning aksariyatida xalq og‘zaki ijodi namunalari, maqol va topishmoqlar keltirilgan. Darsliklaridagi matnlar yoshlarni odob- axloqli, do‘st-birodar, to‘g‘ri so‘zli qilib tarbiyalashga qaratilgan. Jadid ma’rifatparvari Mirzo Ho‘qandiy (taxallusi; asl ism-sharifi Xayrullaxon Said Nosir o‘g‘li Mirzo) (1880 -1943) 1910-yilda usuli jadid maktabini ochgan.

1912 yil mazkur maktab qoshida «Ma’rifat» nomli kutubxona va nashriyot tashkil qilgan. U «Tuhfat ul-atfol» (“Bolalar sovg‘asi”), «Turki avvali ilm» (“Dars rahbari”), «Rahbari alifbo» kabi darsliklarni tarjima qilib, nashr ettirgan. Shu bilan bir qatorda, «Gulshani Mirzo», «Gulshani xayol» nomli darsliklar tuzgan. A.Shakuriy 1907-yil «Jameul-hikoyat» (“Hikoyalar to‘plami”) darsligini (Toshkent va Samarqandda nashr qilingan) yozdi.

Darslik qayta tuzatib va to‘ldirilib 1911-yil ikkinchi marta nashr qilindi. U boshlang‘ich maktabning 2- sinfi uchun o‘qish kitobidir. Darslikning birinchi betida shunday deyiladi: «Bu risola boshlang‘ich maktablarning 2-sinfi shogirdlarini o‘qitish uchun tuzildi. Kitobni tuzishda o‘zbek va tojik tilidagi kitoblardan foydalandim». U 72 betdan iborat bo‘lib, chiroli xat bilan yozilgan. A.Shakuriyning «Zubdatul ash’or» nomli darsligi 36 betdan iborat bo‘lib, to‘plam tarzida tuzilgan. To‘plam mayda-mayda nasta’liq xatida, sahifa cheti (hoshiyalari) ga she’rlar shikasta xati bilan yozilgan. Har bir sahifada 40-46 misra she’r bor.. U darsliklarida dastlab bo‘g‘in metodi, keyinchalik tovushharf metodlardan foydalandi. Qo‘qonlik ma’rifatparvar pedagog A.Zohiri (1885-1937-42) ona shahrida bir qator maktablar tashkil qilgan. U ona tili grammatik qurilishi haqida qator darsliklar yaratdi.

A.Zohiri S.Oqayev bilan hammualliflikda «Turkiy xrestomatiya yoxud terma kitob» darsligini 1912 yilda chop etirdi. 1916-yilda esa u boshlang‘ich sinflar uchun o‘zbek tilida «Imlo» darsligini tuzib, Qozonda nashr qildirdi. Ma’rifatparvar Shokirjon Rahimi (1898, Toshkent-1938) 1912 yildan boshlab, yangi usul maktablari va turli o‘quv yurtlari uchun darslik hamda o‘quv qo‘llanmalar nashr etish ishiga boshchilik qildi. U 1918 yilda A.Fitrat va Q.Ramazonlar bilan hammualliflikda «Ona tili» darsligini tuzdi. Ushbu darslik o‘quvchilarga ona tilining grammatik tuzilishi, tinish belgilari haqida batafsil tushunchalar bergan. Ma’rifat darg‘asi Aliasqar ibn Bayramali Kalinin 1903-yilda ikkinchi sinflar uchun «Muallimi soniy» darslik-majmuasini yozgan. U majmuani tuzishda S.M.Gramenitskiyning «Книга для чтения» (1889) darsligiga tayandi. Muallif rus tilini yaxshi bilgani uchun A.S.Pushkin, S.Krilov, L.Tolstoylar ijodiga mansub bolalarning yosh xususiyatlari mos asarlarni tarjima qildi va darslikka kiritdi. XXasr boshlarida rus-tuzem maktablarning 1-2-sinflarida S.Aziziyning «Ustozi avval» alifbe darsligi o‘qitilgan. 3-4-sinflar uchun ham shunday darslik zarur edi. Ali Asqar Kalinin ushbu zaruratni his qilib, 1902 yil «Muallimi soniy» majmuasini tuzadi va Gramenitskiyga topshiradi. Uning darslik majmuasini 8 kishidan iborat komissiya ko‘rib chiqib, 1902 yil 20 mayda uni qayta ishlash uchun muallifga beradi.

Darslikdagi 75 ta matn 112 taga yetkaziladi. 1902-yil 24-sentabrda Gramenitskiy darslikni bosishga tavsiya qildi. 1902 yil 16 oktabrda Bosh inspektor «Muallimi soniy»ni 3000 dona bosishga ruxsat berdi va 1903 yil 14 avgustda u tarqatildi. 1907-yil ushbu darslik majmua tuzatilib va to‘ldirilib, Toshkentda ikkinchi marta nashr qilindi. «Muallimi soniy» darsligi «Ustodi avval»dan keyin o‘qitiladigan darslik majmua bo‘lib, unda avval bolalarga tanish uy, maktab, ko‘cha, uy hayvonlari haqida kichik-kichik matnlar berilgan, ularning hajmi asta-sekin kattalashib, mazmuni murakkablashib borgan. «Muallimi soniy» majmuasi 12 bobdan iborat bo‘lib, boblar: 1) Uy, 2) Maktabda, 3) Ko‘chada, 4) Uy hayvonlari, 5) Dalada, 6) Bog‘ va o‘rmonda, 7) Qushlar va yovvoyi hayvonlar, 8) Yil fasllari, 9) Turli hikoyalar, 10) Turli ma’lumotlar (tabiiyotdan), 11) Geografiya, 12) Tarix deb nomlanadi. Ali Asqar darslik majmuani boblarga bo‘lishda Gramenitskiyning «Вторая книга для чтения» darsligidagi 8 bo‘lim va «Третя книга для чтения» darsligidagi 4 bo‘limdan foydalangan.

«Muallimi soniy»dagi aksariyat matnlar rus tilidagi darsliklaridan olingan, ular Krilov, L.Tolstoy, A.S.Pushkinning asarlaridan olingan parchalardir. «Muallimi soniy» majmuasining 10-bobida foydali va zararli hasharotlar, ipak qurti, neft, temir yo‘l, elektr, «shu’lai rentgin», metall va qimmatbaho toshlar, «kompass, ya’ni qiblanoma», termometr, barometr, rus-tuzem maktablari haqida ma’lumotlar berilgan. 11-bobida geografiyadan boshlang‘ich ma’lumotlar keltirilgan. Yerning shakli, uning o‘z o‘qi va quyosh atrofidagi harakati, kurrai zamin (globus), quyosh va oyning harakati, havo, qit’alar, dengiz va daryolar, insonlar, Rossiya davlati, undagi xalqlar, Peterburg va Moskva shaharlari, Nijegorod yarmarkasi, Volga daryosi haqidagi ma’lumotlar bilan bir qatorda Turkiston viloyati, Sirdaryoga qurilgan ko‘prik haqida matnlar mavjud. Ushbu darslikmajmua Turkiston maktablari uchun yaratilgan bo‘lsada, unda Turkistonning tabiiy sharoiti, o‘lka xalqining urf-odati, Sharq mutafakkirlari asarlaridan olingan ma’lumotlar juda kam. «Muallimi soniy» majmuasining oxirigi bobida Rossiya davlati tarixiga oid ma’lumotlar, «Rusiya va musulmoniya maqollari» berilgan. 29 ta ruscha va o‘zbekcha maqollar keltirilgan. Masalan: «Hovli olma, qo‘sni ol», «So‘z chumchuq emas, og‘izdan chiqsa, tutib bo‘lmaydur» va h.k. Tabiiyot, geografiya, tarixdan boshlang‘ich ma’lumotlar berish o‘sha davr uchun yangilik edi. Darslikda paroxod, poyezd, globus rasmlari bilan berilgan. Ma’rifatparvar shoir H.H.Niyoziy darslik yozish, dars jarayoni, o‘quv ishlarini tashkil qilishda buyuk chek pedagogi Y.A.Komenskiyning pedagogik qarashlariga asoslangan. Masalan, sinf-dars tizimi, har bir darsning o‘z mavzusini va vazifasini bo‘lishi, dars jarayonida faollik va intizom bo‘lishi zarurligini uqtiradi.

U.K.Ushinskiy, Komenskiy, Pestalotssi, F.Disterveglarning ko‘rsatmali ta’lim metodikasini yangi usullar bilan boyitdi. H.H.Niyoziyning bir qator darsliklari singari, «Yengil adabiyot» kitobi 1- sinf bolalari uchun qo‘llanma bo‘lib, u 1914-yilda she’riy yo‘lda yozilgan. Darslikning bosh qismida ilm o‘rganishning ahamiyati haqida qisqacha muqaddima berilgandan keyin axloqiy xarakterdagi hikoyalar taqdim etilgan. Uning «O‘qish kitobi» ham 1914-yil she’riy yo‘lda yozilgan bo‘lib, axloqiy mavzudagi hikoyalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu to‘plamda 6ta hikoya berilgan. Bu hikoyalar Sharq hamda rus klassik adabiyoti manbalaridan olingan bo‘lib, Hamza ularni ijodiy qayta ishlab, she’riy shaklga solgan. Chunonchi, «Xiyonatdan hijolat» sarlavhali bиринчи hikoya L.Tolstoydan, «Toshbaqa bilan Chayon hikoyasi» nomli uchinchi hikoya Gulxaniyning «Zarbulmasal» asaridan olingan. H.H.Niyoziyning «Qiroat kitobi» 2-sinflar uchun qo‘llanma bo‘lib, u 1915 yilda nasriy usulda yozilgan. Unda berilgan hikoyalarning hammasi axloqiy-didaktik xarakterdagi asarlardir. Darslik 9 bobdan iborat bo‘lib, ularda turli axloqiy masalalar: adab, jahl, kibr, ilm va boshqa shu kabilalar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Muallif bayon qilingan har bir fikrning isboti uchun bittadan hikoya keltiradi.

Hamza 1915-1917-yillarda mashhur she’riy to‘plami «Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar» to‘plamini yozdi, ushbu to‘plam Qo‘qonda toshbosma yo‘li bilan bosildi. Bu turkumga kiruvchi asarlarning har biri yana alohida nom bilan ataladi: «Oq gul» - 1916-yil Qo‘qonda nashr qilinib, unda 4 ta she’r berilgan, ularda xalqni ilm o‘rganish va ma’rifatli bo‘lishga chaqiriladi; «Qizil gul» - 1916-yil Qo‘qonda nashr qilingan, 12 betdan iborat, lirk she’rlardan iborat; «Yashil gul» - 1916-yil Qo‘qonda nashr qilingan bo‘lib, undan o‘rin olgan she’rlarning aksariyati ma’rifatparvarlik ruhida yozilgan, shuningdek, o‘tkir satira ruhida yozilgan she’rlar ham mavjud; «Sariq gul» - 1916-yil Qo‘qonda nashr qilingan, 12 betdan iborat, 4 ta she’rni o‘z ichiga oladi, ular orasida satirik she’rlar ham mavjud; «Pushti gul» - 1916-yil Qo‘qonda nashr qilingan bo‘lib, 5 ta ma’rifat ruhida yozilgan lirk va satirik she’rlardan iborat; «Safsar gul» - 1917-yil Qo‘qonda nashr qilingan, u 12 betdan iborat bo‘lib, 4 ta she’rni o‘z ichiga oladi.

Hamzaning «Usuli savtiya» muallimlik kursida o‘qitgan shogirdlari uning o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishda “Havoyiji diniya”, “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Mu’omalot”, “Badrul hisob”, “Shifoziya”, “Istiftoh”, “Istikmol”, “Tarixi muqaddas”, “Namunai axloq”, “Tajvid”, “Munshaot”, “Adabiyot” kabilalar mazmuni bilan o‘z o‘quvchilarini tanishtirishga e’tibor bergenligini yozadilar. Manbalarda Hamzaning fizika fanini o‘qitish, xususan fizikadan laborotoriya ishlari o‘tkazishga oid tajribalarni o‘zlashtirishga intilgani haqida ma’lumotlar mavjud. Pedagogik tafakkurining serqirraligi va jo‘shqinligini anglashda Hamzaning Xo‘jayli internatidagi faoliyati diqqatga sazovordir. Unda o‘qish muddati 4 yilni tashkil etib, 1- 2-sinflarda ona tili, arifmetika, tabiatshunoslikka kirish fanlaridan saboq berilgan. 3-sinfdan boshlab esa fizik geografiya, umumiylar tarix, Xorazm tarixi, 4-sinfdan Xorazm geografiyasi o‘qitilgan. Toshkentlik ma’rifat darg‘alaridan biri Muhammadamin ibn Muhammadkarim (1894-1941) «Turkcha qoida», «Jo‘g‘rofiyai riyoziy», «Rahbari avval» nomli darsliklari mavjud.

Uning «Turkcha qoida» darsligi 1913-yili Toshkentda G‘ulom Hasan Orifjonov litografiyasida chop etilgan. Unda ibridoiy maktablarning 2-4-sinflarida o‘zbek tilini o‘qitish qonun-qoidalari haqida boshlang‘ich ma’lumot berilgan. “Shu paytgacha xat yozishda qoida yo‘q edi”, - deydi muallif, - “o‘zbek tilida 5 xil so‘z turkumi bor, ular: ism, sifat, zamir, adot, fe’l”. U so‘z turkumlari tasnifi bilan birga, ularning tavsif va qoidalarni ham taqdim etadi. «Turkcha qoida», «Rahbari forsiy» asaridan ijodiy o‘rganib yozilgan bo‘lib, «Turkcha qoida»da fe’llar uch zamonga bo‘lib beriladi. Shuningdek, darslikda tinish belgilari bayoniga ham o‘rin ajratilgan. «Turkcha qoida»da imloni o‘rgatishga alohida e’tibor berilgan. Darslikda har bir qoidadan keyin, mashqlar keltirilgan. Muallif rus, fors, arab tilidagi grammatika kitoblaridan foydalangan. Shuning uchun ham darslikda o‘zbek o‘quvchilarini tushunmaydigan so‘z va atamalar uchraydi. Ushbu darslik o‘zbek tili grammatikasini yaratish sohasidagi dastlabki urinishlardan biri bo‘lganligi uchun ham muhim ahamiyatga egadir . Toshkentlik ma’rifatparvar Abdullaxo‘ja Saidahmadxo‘jayevning ham darslik yaratish sohasidagi samarali mehnat qilgan. U 1916 yil «Rahbari soniy» rasmlari (21ta rasm bor) darsligini yarattdi. Darslikda maktab hovlisi, sinf xonasasi, o‘quvchilar bilan bir qatorda, uy hayvonlarining ham rasmlari mavjud. Muallif mavzu tanlashda rus va tatar pedagoglarining darsliklariga tayanadi. Darslikdagi hikoyalar oddiydan murakkabga tomon borib, o‘quvchilarini ilm olishga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, undagi rasmlar esa o‘quvchilarini yanada zukko bo‘lishiga ko‘maklashadi. XX asr Milliy uyg‘onish davrining yetuk namoyandalaridan biri, noyob iste’dod egasi, ko‘plab Sharq va G‘arb tillarining bilimdoni, o‘lkamizdagil matbaachilardan biri sifatida Vatan taraqqiyoti yo‘lida fidokorona xizmat qilgan Ishoqxon Ibrat nomini abadiylashtirish maqsadida

Jadidchilik harakatining yirik nomoyandalaridan biri Is’hoqxon Ibratning asarlari ichida “Lug‘oti sittati alsina” (“Olti tilli lug‘at”) muhim o‘rin tutadi. “Lug‘ati sittati alsina” asari arabcha, forscha, hindcha, turkcha, o‘zbekcha va ruscha so‘zlarni o‘z ichiga olgan lug‘at bo‘lib, 1901-yil Toshkentda V.I.II’in litografiyasida bosmadan chiqqan. Lug‘at 1898-yilda yozib tugallangan, uzoq qarshiliklardan keyin, chor

hukumatining tazyiqi ostida qiyinchilik bilan chop etilgan. Lug‘at mingdan ortiq so‘zni o‘z ichiga olib, ikki qism, 53 betdan iborat. Lug‘atning birinchi qismida alifbe tartibida tuzilib, har qaysi harfga alohida kichik-kichik boblar ajratilgan. Shuningdek, bu qismda fe‘llarning noaniq va kelasi zamон shakllari avval forscha, keyin arabcha, turkcha, o‘zbekcha, hindcha va ruscha tarjimalari berilgan. Is‘hoqxon Ibrat o‘zbek ma’rifatparvarlari orasida birinchi bo‘lib olti tildan iborat lug‘at yaratdi. Yozuvlar tarixini o‘rganish murakkab soha hisoblanadi. Shu jihatdan olganda Ibratning “Jome’ ul-xutut” (“Yozuvlar majmuasi”) asari muhim ahamiyatga ega. “Jome’ ul-xutut” 1912-yil “Matbaai Is‘hoqiya” (o‘zini nashriyoti)da chop etilgan. Asar 132 betdan iborat. “Jome’ ul-xutut”da yozuvlarning eng ibtidoysi-piktografik yozuvlardan boshlab, finikiya, yahudiy, suriya, arab, yunon, fors, slavyan, sanskrit, hind, lotin, arman, gruzin, uyg‘ur va boshqa qirqdan ortiq yozuvlar, ularning tarixi va taraqqiyotini ilmiy asosda ochib berdi. Ibrat asarida Kipr g‘orlaridan topilgan yozuv qoldiqlarini ham keltirib o‘tgani. U tovush-harf yozuv tizimi birinchi marta finikiya xalqlarida yaratilgan degan g‘oyani ilgari surgan. Qo‘suni xalqlar arab, yahudiy, suriyaliklar finikiya yozushi asosida vujudga kelgan. Chet tillarni o‘rganish lozimligi haqida Ishoqxon Ibrat “Jome’ ul-xuttut” asarida yozadi: “Dorixonoga borganda lotincha zarur. Hindistonga xat qilinsa, ingлизча bo‘lmasa olmaydur, Eronistonga fransaviy. Biz turkistonliklarga birinchi zarurimiz rusiya xatidurki, muni qozi va mudarrislar inkor qilmaslar.

Axborotnoma, rapurt yozsalar, mudarrislar bo‘lsa, o‘ruscha biladurgan kishiga oqcha berib, rapurt yozdurdurlar, olarga juda zarur. Savdogarlarga Maskovdan mol yozmoqqa zarur hukumat xati bo‘lub, binobarin, ehtiyoji xalqullohhama jihatdin buni bilmak zarurligi badehiy”. Ibratning “Lug‘ati sittati alsina”, “Jome’ ul-xutut” asarlaridan tashqari “Devoni Ibrat”, “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat”, “Lison uz-zamon” kabi asarlari mashhurdir. Is‘hoqxon Ibratning ma’rifatparvarlik faoliyatida maktabdorlik qilish muhim ahamiyatga ega. U “Matbai Is‘hoqiya” nashriyotida “San’ati Ibrat, qalami Mirrajab”, “Ilmi Ibrat” kabi darslik va qo‘llanmalarini nashr ettirdi. Birinchi marta 1866 yilda, keyin esa, 1907-yilda yana “usuli jadid” maktabini ochib, 25 nafar qishloq bolalarini o‘qitdi.

Darslik sifatida Saidrasul Aziziyning “Ustodi avval”, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi avval”, Ali Asqr Kalininning “Muallim us-soniy” va o‘zining “Lug‘ati sittati alsina”, “San’ati Ibrat, qalami Mirrajab” asarlarini manba qilib oldi. Ishoqxon Ibrat o‘sha davr vaqtli matbuotida faol ishtirok qilgan. Mashhur “Kutubxonai Ishoqiya”ni tashkil qilgan. Kutubxonada o‘zbek, tojik, fors, turk, tatar, rus tillaridagi o‘n mingga yaqin kitob, gazeta va boshqa vaqtli matbuot nashrlari, qo‘lyozmalar joy olgan. “Ishoqiya bog‘ini” tashkil qilgan. Ko‘plab jadid ma’rifatlari kabi Ishoqxon Ibrat ham 1937 yil 75 yoshida qatag‘on qurboni bo‘ldi. Uning asarlari mustaqillik sharofati bilan bir necha marta nashr qilindi. Ishoqxon Ibrat shoir va olim, ma’rifatparvar va matbachisi, din arbobi va fidoiy inson, vatanparvar sifatida xalqimiz shuurida, ongida abadul abad yashaydi. Ma’rifatparvarlardan biri Akbarzoda G‘ulomiddindir. Uning «Ta’limi soniy» deb nomlangan darsligi bo‘lib, u 1913-yil Toshkentda, G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasida nashr qilingan. Boshqa ma’rifatparvarlar singari Bobooxun Salimov (1874-1929) va Bekchan Raxmonov (1887-1929)lar hammualliflikda «Alifbe», «O‘qitish kitobi» darsliklarini yaratib, bu sohada faoliik ko‘rsatganlar. Toshkentda esa Abduvahob Ibodiyev (1877-1943)ning «Tahsil-ul alifbo» (Alifbo o‘qishi) darsligi tahsinga sazovordir. Ushbu darslik 1912-yilda Toshkentda nashr qilingan. Darslik o‘quvchilar uchun harflarni o‘rganish, savod chiqarishda katta ahamiyatga ega. A.Ibodiyevning yuqoridagi darsligidan tashqari o‘qituvchilar foydalanishlari uchun yozilgan «E’tiqodi islomiya» (“Islom e’tiqodi”) risolasi ham mavjud bo‘lib, u 1914 yilda Toshkentda chop etilgan.

Mirzo Hayrullo va Abdullaxon Ibodiylarning «Miftoxul alifbo» (1912), «Taxsiliy avval» (1914), Muxtor Bakirning «Savod» (1913), A.Zohiriyning «Imlo» (1916) singari darslik va o‘quv qo‘llanmalar 1917 yil to‘ntarishigacha yaratilgan. Jadid ma’rifatparvari Saidrizo Alizoda (1887-1945) ilk tahsilni Samarqandning Chorraha dahasida Abulqosim Alganjiyning jadid maktabida olgan. Jadid maktablari uchun «Ilmi hisob» (Samarqand, 1906) darsligini tuzgan. O‘zbek shoiri, tarjimon va hattot sifatida tanilgan Almaiy (Fazlulloh Mirjalol o‘g‘li (1851-1894) ning «Azvon ul-jumu» (“Vaznlar jam’i”) nomli she’riy asari ba’zi arab mamlakatlarida darslik vazifasini o‘tagan. Darslik yaratish sohasida ma’rifatparvar M.So‘fizoda o‘z o‘rniga ega. M.So‘fizoda 1913-yil Chustda yangi maktab ochdi, lekin o‘sha davrdagi mutaassiblar So‘fizodani kofir deya ayblab, uning maktabini yoptirdilar. Uni xalqqa ma’rifat tarqatishdek savob ishdan qaytara olishmagach, sazoyi qilib yurtdan badarg‘a qildilar. Manbalarda So‘fizodaning «Eski o‘zbek adabiyoti namunalari», «Aruz haqida» kabi ilmiy tadqiqotlari mavjudligi, «O‘zbek tili», «O‘zbek tili sarfi» (grammatikasi) darsliklari 1925-1930-yillar oraliq‘ida 5 marta qayta chop etilganligi ko‘satilgan. O‘tgan asrning 30- yillarda darslik yaratgan pedagoglardan A.Zohiriyning pedagogik faoliyati, darslik va lug‘at tuzish sohasidagi amaliy ishlari faollashgani yaqqol seziladi. U 1925-yilda «Ruscha - o‘zbekcha lug‘at» tuzib, o‘quvchilarga rus tilini o‘rganishlariga yordam berdi. Ushbu lug‘atdan ko‘pgina maktablarda til o‘rganishda foydalanildi. Shuningdek, A.Zohiri Cholpon bilan hammualliflikda 1926-yil «Adabiyot

parchalari» to‘plamini tuzgan. Ma’rifatparvar Shokirjon Rahimiy 1922-yilda «Kattalarga o‘qish», «Alifbe darsligi», 1924-yilda «Kattalar yo‘ldoshi», 1927-yilda «Kattalar alifbesi», 1930-yilda «Savod», 1932 yilda esa «O‘zbek tili. Ish kitobi», «Kattalarga o‘qish» singari darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratdi. Ushbu darsliklar o‘quvchilarga bilim berishda katta pedagogik ahamiyatga ega. Shuningdek, Sh.Rahimiy «Batraklar alifbesi» (1930), boshlang‘ich maktab o‘qituvchilar uchun dars o‘tish uslubiyatiga doir «Batraklar alifbesiga metodik qo‘llanma»(1930), «O‘zbek tili. Tuzuk yozuv, imlo, insho, til qoidalari o‘rgatuv va tilni ochuv yo‘lida» (1930), 3-4-sinflar uchun «O‘zbek tili, ona tili ish kitobi»(1931), «Kolxoz bolalari alifbesi» (1931) kabi darsliklar yozgan.

Sh.Rahimiyning «Til va imlo» (1920), «O‘zbek alifbosi» (1924) kabi ilmiy risolalari ham mavjud. XX asrning 20-30 yillarida jadid-ma’rifatparvarlari o‘ziga xos pedagogik ta’limotni yaratdilar. Ushbu ta’limotning mohiyati esa, bolalarni milliy ruhda ma’rifatli qilib tarbiyalash, ularni xalq orzu-umidlarini oqlay oladigan shaxs bo‘lib voyaga yetishishlarida ko‘maklashish, shular asosida yurtni mustaqillikka olib chiqish g‘oyasidan iborat bo‘lgan. Bunga erishishda ta’lim jarayonining asosiy vositasi bo‘lgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining o‘rnii kattadir. Shu nuqtayi nazardan ma’rifatparvar Abdurauf Fitrat o‘z pedagogik faoliyati davomida bir qator darslik hamda o‘quv qo‘llanmalari yaratdi. Uning «Adabiyot qoidalari» o‘quv qo‘llanmasi san’atga berilgan ta’rif bilan boshlanadi. Mazkur ta’rif san’atga ijtimoiy ong shakllaridan biri deb qaragan ma’lum nazariyani takrorlamaydi.

Chunki Fitrat san’atni bir yoqlama mafkuraviy nigoh bilan tahlil etish, uning boy imkoniyatlarini cheklab qo‘yishini yaxshi tushunadi. U darslikda san’atning ijtimoiy roliga ko‘p to‘xtalmagan bo‘lsa-da, «Maorif va o‘qituvchi» jurnalining 1927-yil 5-sonida bunga «San’atning manshai (kelib chiqishi)» maqolasida batafsил so‘z yuritadi. A.Fitratning bulardan tashqari «Rahbati najot» pedagogik asari mavjud. U shu asarida fanlar tasnifini bergan. Mazkur asar, yozuvchi Oybekning aytishicha, «maktab o‘quvchilar uchun go‘zal qo‘llanma bo‘lgan». Fitrat «Adabiyot qoidalari»gacha bir qator tadqiqotlarni amalga oshirgan, adabiyotshunoslikda voqeа bo‘lib qolgan maqolalar yozgan. U 1917 yil «O‘quv. Ibtidoiy maktablarning so‘ng sinf o‘quvchilar uchun» (Boku) darsligini yozdi, unda adabiyotning eng umumiy va asosiy jihatlarini bayon etdi. Serqirra ilmlar sohibi A.Fitrat 1925 yilda «Sarf» («Morfologiya») va «Nahv» («Sintaksis») nomli darsliklar yaratdi. Yuqoridaq ikkala darslik ham o‘quvchilarga o‘zbek tili qoidalari haqida batafsил ma’lumot berish uchun tuzilgan.

Ushbu darsliklar 1929-yil qayta nashr qilangan. Jadid ma’rifatparvarlaridan yana biri Mashriq Yunusov - Elbekdir, u pedagogik merosining salmoqli qismini o‘quvchilarga bag‘ishladi. Elbek 1917 yildan darsliklar yoza boshlagan, til-imlo masalalari va pedagogika ishlariga qiziqqanligi uchun bu to‘g‘rida maqola va asarlar yozgan. Manbalardan aniqlanishicha, Elbek «Sovg‘a» alifbe darsligi (1921 yil, Toshkent), adabiyot fanidan «Armug‘on» nomli o‘quv kitobi, boshlang‘ich sinflar o‘quvchilar uchun «O‘zbekcha o‘qish kitobi» (1922-yil, Toshkent), «Boshlang‘ich maktabda ona tili» nomli o‘qituvchilar uchun maxsus o‘quv qo‘llanmasi (1924-yil, Toshkent) darsliklarini yozgan.

Shuningdek, uning F.Sayfiy bilan hammulliflikda yozilgan birinchi kitob, birinchi o‘qish yili uchun (60 bet), ikkinchi kitob, ikkinchi o‘qish yili uchun (100 bet), uchinchi kitob, uchinchi o‘qish yili uchun (56 bet), «Go‘zal yozg‘ichlar. Xrestomatiya. Boshlang‘ich maktablarning to‘rtinchи bo‘limlari uchun o‘qish kitobi» (Toshkent, Turkdavnashr, 1924-yil, 86 bet), ikkinchi nashri 3-bosilishi (1925-yil, 108 bet), «O‘rnak» boshlang‘ich maktablarning uchinchi bo‘limlari uchun o‘qish kitobi (Toshkent, 1925-yil), “Xrestomatiya” birinchi yil uchun 2-nashri (92 bet); ikkinchi yil uchun (98 bet); uchinchi yil uchun, 2-nashri (91 bet), to‘rt bo‘limdan iborat «Bilim» boshlang‘ich maktablar uchun o‘qish kitobi (Toshkent, 1930-yil) kabi darsliklari mavjud. “Bilim” darsligi «Libnext» tajriba maktabining o‘qituvchilar bilan hamkorlikda tuzilgan bo‘lib, u to‘rt bo‘limdan iborat, uning birinchi bo‘limi birinchi yil uchun (48 bet), ikkinchi bo‘limi ikkinchi yil uchun (64 bet), uchinchi bo‘limi uchinchi yil uchun (248 bet), to‘rtinchи bo‘limi to‘rtinchи yil uchun (368 bet) mo‘ljallangan. Uning «Kuchsizlar dunyosi», «Qaysi biri bo‘ri?», «Itlarning o‘rtoqligi», «Quyon bilan Toshbaqa», «Ikki tulki», «Ot bilan odam», «Chumoli va chivin», «Sholi bilan kurmak», «Qora qushlar va Toshbaqalar», «Jining olov yoqishi», «Kampirning tovuqlari», «Ola qarg‘a va Qurbaqa», «Yer bilan tog‘ o‘rtasida» kabi bir qator masallari bo‘lib, ulardan o‘z o‘rnida ham foydalangan. U 1924-yilda «Go‘zal yozg‘ichlar» darsligini yozib, Toshkentda chop ettirdi. Ushbu darslik til va adabiyot masalalariga bag‘ishlangan. 1924-yil nash etilgan «Go‘zal yozg‘ichlar» darsligining hajmi 86 sahifa bo‘lsa, 1925-yildagi nashri esa 108 sahifadir. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, pedagoglik va darsliklar yozish Elbek faoliyatining asosini tashkil qilgan. Uning «Yozuv yo‘llari» (1924 y., 10 ming nusxa, Toshkent), «O‘rnak», «Boshlang‘ich maktabda ona tili», «O‘qish kitobi», «Adabiyot xrestomatiyasi» singari darsliklari o‘z davrida maktablarda asosiy qo‘llanma bo‘lib, ularning har biri bir necha martadan nashr etilgan. Elbek yaratgan har bir darslik va qo‘llanmada eng avvalo davr ruhi aks etgan.

**Xulosa.** Ularda sinflar bo‘limlarga bo‘linib, oddiydan murakkabga qarab boradi. Bunga misol qilib, 1925-yil Toshkentda «O‘zdavnashr» tomonidan bosib chiqarilgan boshlang‘ich maktablarning 1, 2 va 3-sinflari uchun tuzilgan «O‘rnak» deb nomlangan o‘qish kitobini olish mumkin. Uning birinchi yil uchun (1-sinflar uchun) tuzilgan «O‘rnak» o‘qish kitobi 87 sahifadan iborat bo‘lib, 12 qismidan tashkil topgan. Birinchi bo‘lim 9, ikkinchi bo‘lim 6, uchinchi bo‘lim 5, to‘rtinchchi bo‘lim 20, beshinchi bo‘lim 9, oltinchi bo‘lim 12, yettinchi bo‘lim 5, sakkizinchchi bo‘lim 4, to‘qqizinchchi bo‘lim 5, o‘ninchchi bo‘lim 3, o‘n birinchi bo‘lim 2, o‘n ikkinchi bo‘lim 5 bo‘limni o‘z ichiga oladi. Bularga birinchi sinf o‘quvchilarining ruhiyatiga mos holda matnlar tanlangan: ular maktab, uy, oila, jonivorlar, qo‘ylar, sog‘likni saqlash yo‘llari, fasllar, o‘simpliklar, ma‘danlar va kashshoflar bo‘limlariga ajratilib, bular tarkibida o‘quvchilarga maktab va unda ishlatalidigan asboblar bilan tanishtirish uchun matnlar berilgan. Elbek 1921-yil 30 sahifa hajmida 2-4 sinflar o‘qituvchi va o‘quvchilari uchun «Yozuv yo‘llari» nomli qo‘llanma chop ettirdi. «Kirish» va «So‘ng so‘z»dan tashqari 11 saboqni o‘z ichiga olgan bu qo‘llanma maktab o‘quvchilari va ona tili o‘qituvchilari uchun to‘g‘ri yozuv, imlo bo‘yicha ancha puxta va ilmiy-uslubiy jihatdan muhim asar edi. Elbekning o‘qituvchilar uchun yozgan «Boshlang‘ich muktabda ona tili» (1923-yil) nomli qo‘llanmasi o‘qituvchilar uchun ilmiy-uslubiy dastur vazifasini o‘tadi.

#### Adabiyotlar:

1. Mustafoyev B. Musiqa pedagogikasi Toshkent: Muhamarrir nashriyoti, 2022.
2. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent. 1993. – B. 10.
3. Matyoqubov O. Maqomot. - Toshkent. “Musiqa” nashriyoti. 2004. – B. 23-24.
4. Buxoro haqiqati // 1993.18 fevral
5. Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi.. Toshkent. “Fan”. 1993. –B. 24.
6. Saidova D.E. XIX asr oxiri XX asr boshlarida o‘zbek san’atining shakllanishi va rivojlanishi. // ISSN 2181-7138 Муғалим ҳәм үзлик сиз билимленидириў 5/3-сан 2023 Ноябрь 395-b.
7. Saidova D.E. The formation and development of uzbek art in the late 19<sup>th</sup> and early 20<sup>th</sup> centuries // Internentional Journal of discoveries and innovations in applied sciences.
8. Saidova D.E. Music science in the literary environment of Bukhara. // Academic research in modern science International scientific-online conference Researcher of BUHSU, teacher of BuhDPI
- 9.O‘zbek musiqasi tarixi. -T.: 1981.
10. XX asr O‘zbek adabiyoti. Darslik. T.: 1995.
11. Karimov N.“Jadidchilik nima” //San’at. -T.: 1990, №. 12.

## BUXORO JADIDLARINING ASARLARIDA MILLIY TARBIYANING MOHIYATI

*Ashurova Marhabo Sayfulloyevna,*

Buxoro davlat universiteti  
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi,  
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)  
[ashurova.marhabo84@buxdu.uz](mailto:ashurova.marhabo84@buxdu.uz)

Sharif Buxoro o‘zining ko‘p sonli madrasalari bilan nom taratgan. Dunyoning hamma erlaridan ilm tahsili uchun talabalar tashrif buyuradigan shahar hisoblangan. Bu an’ana keyingi asrlarda ham davom etgan. Shu sababli aksariyat mualliflar Buxoro haqida so‘z ketganda avvalo shu jihat bilan ta’riflaganlar. Xususan ashtarxoniyalar davri muarixi Mahmud ibn Vali Buxoroning ilm tarqatuvchi markaz sifatidagi xizmatini shunday baholaydi: “Olimlarning ko‘pligidan uni olimlar va ilm-fan bulog‘i deb ataydilar”.

**Kalit so‘zlar:** tarbiya, milliy tarbiya, jadidchilik, madrasa, oly maktab, usuli savtiya maktabi, Yosh buxoroliklar tashkiloti

### СУЩНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ В ТРУДАХ БУХАРСКИХ ДЖАДИДОВ

Священная Бухара славится многочисленными медресе. Она считается городом, куда приезжают учиться студенты со всего мира. Эта традиция продолжалась и в последующие столетия. Именно поэтому большинство авторов описывают Бухару именно с этой точки зрения. В частности, историк эпохи Аштарханидов Махмуд бин Вали оценивает миссию Бухары как центра распространения знаний так: «Из-за обилия учёных её называют источником учёных и знаний».

**Ключевые слова:** воспитание, национальное воспитание, джадидизм, медресе, Высшая школа, методическая школа, организация молодых бухарцев

### THE ESSENCE OF NATIONAL EDUCATION IN THE WORKS OF BUKHARA JADIDS

*The holy Bukhara is famous for its numerous madrasas. It is considered a city where students from all over the world come to study. This tradition continued in the following centuries. That is why most authors describe Bukhara from this point of view. In particular, Mahmud bin Wali, a historian of the Ashtar Khanid era, assesses Bukhara’s mission as a centre for the spread of knowledge as follows: ‘Because of the abundance of scholars, it is called the source of scholars and knowledge’.*

**Key words:** education, national education, jadidism, madrasah, high school, methodical school, organisation of young Bukharians.

**Kirish.** Sharif Buxoro o‘zining ko‘p sonli madrasalari bilan nom taratgan. Dunyoning hamma erlaridan ilm tahsili uchun talabalar tashrif buyuradigan shahar hisoblangan. Bu an’ana keyingi asrlarda ham davom etgan. Shu sababli aksariyat mualliflar Buxoro haqida so‘z ketganda avvalo shu jihat bilan ta’riflaganlar. Xususan ashtarxoniyalar davri muarixi Mahmud ibn Vali (XVII asr) Buxoroning ilm tarqatuvchi markaz sifatidagi xizmatini shunday baholaydi: “Olimlarning ko‘pligidan uni olimlar va ilm-fan bulog‘i deb ataydilar”. Buxoroga XIX asrda safar qilgan Ye.K.Meyendorf esa Buxoroning islom olamida tutgan o‘rnini qo‘yidagicha ta’riflaydi: “O‘zinig ko‘plab maktablari, olimlari hamda muqaddas qadamjolari sababli muslimonlarning ziyoratgohiga aylangan. Ehtimol shuning uchun u “sharif” nomiga sazovor bo‘lgandir”. Rus sayyohi N.Xanikov o‘z estaliklarida Buxoroni yirik ilm-fan va ma’rifat, diniy bilimning markazi sifatida ta’riflab: “Buxoro ilm tarqatuvchi markaz hisoblangan va hisoblanadi”, deydi. J.Kunits ham Buxoroni “arab – eron madaniyatining qal’asi”, Markaziy Osiyoning yuz yillik tarixidagi Islomning yuragi”, 250 masjid va madrasalar markazi deya atagan.

Madrasa o‘quv dasturining umumiyligi jihatlari X-XII asrlarda ishlab chiqilib keyinchalik takomillashib borgan. O‘rta asrlarda Buxoro madrasalari ilm maskani sifatida nafaqat Markaziy Osiyoda, balki muslimon Sharqida ham mashhur edi. Amir Temur va temuriylar davrida madrasalar olyi ma’lumot beruvchi markaz vazifasini o‘tagan. Movarounnahr hamda Xurosonda asosan davlat va davlatmand shaxslarning mablag‘lar hisobiga ko‘plab madrasalar qurilgan. Shu tariqa madrasalar ko‘payib, olyi o‘quv dargohi sifatida diniy soha vakillari, siyosiy arboblar hamda olimlari etishtiradigan olyi o‘quv yurtiga aylanib borgan. Madrasalar

asosan xon, amaldor, badavlat kishilar va ziyoli shaxslarning tashabbusi bilan barpo etilib, nomi o’sha shaxslar ismi, ba’zan madrasa joylashgan mahalla, guzar nomi bilan atalgan.

Madrasalar xolis xususiy mulk hisobidan qurulishi shart bo‘lib, xon va amirlar, yirik amaldorlar tomonidan bunday inshootlarni davlat mulkidan bunyod etilishi shariatga xi洛f hisoblangan. Madrasalarning asosiy daromadi vaqf mulklaridan bo‘lgani uchun yaxshi hosil olinmagan yillari qiyngagan talabalar va mudarrislar muammosini hal qilish maqsadida Mirzo Ulug‘bek madrasalarni davlat hisobiga kiritgan va ularga davlat byudjetidan mablag‘ ajratilgan. Madrasalarda nafaqat boylar, balki kambag‘allarning bolalari ham o‘qish huquqiga ega bo‘lgan va nafaqa, kiyim-bosh bilan ta’minlangan. O‘quv yili sakkiz yilga qisqargan va haftada besh kun ta’lim berilgan. Mirzo Ulug‘bek o‘quv dasturlarini ham yangidan boshlab chiqqan. Yangi o‘quv qo‘llanmalar yaratilib, Mirzo Ulug‘bek mashg‘ulotlarni yakka tartibda olib borishni man etib “jamoa” (guruh)larga bo‘lib o‘qitish uslubini joriy qilgan. Ma’ruzalar etmish kishidan iborat katta guruhlarga, amaliyotlar esa 10-15 kishidan iborat kichik guruhlarga bo‘lib olib borilgan.

Bu uslub keyingi asrlarda ham saqlanib qolganini arxiv ma’lumotlari ham tasdiqlaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ahmad Donish (1826-1897) va Sadri Ziyolar Amir Xaydar hukmronlik qilgan davrda ilm olish maqsadida Buxoroga dunyoning turli joylaridan talabalar kelganini, ilm fan taraqqiy etib, ilgari olimlar bunchalik yutuqqa ega bo‘limganligini ta’kidlashadi. Ingliz sayyohi A.Byorns esa Buxoro madrasalarida Erondan tashqari barcha mamlakatdan kelgan talabalarni uchratish mumkinligi, ular 7-8 yillik o‘quv kursini tugatib, o‘z vatanlariga bilim zahirasi bilan qaytishlarini qayd etadi.

Xorijdan kelgan ayrim talabalar o‘qishni tamomlagach, yurtiga qaytmasdan shu erda mudarris bo‘lib qolishi ham kuzatilgan. Jumladan, Muhammad Sharif ibn Muhammad Nakiy Shohmurod va Xaydar davrida yashab, Buxoro madrasalarining biriga tarix va adabiyot tarixidan dars bergan. O‘zi shoirlik qilgan. Abu Sharaf Muhammad Husayn ibn Abu Umar Bulg‘oriy esa o‘zi haqida shunday deb yozadi: “Faqir Bulg‘or shaharlaridan biri bo‘lgan Kargal shahridan 1231-1815 yilda Buxoroga kelib hozirgi kunga qadar (1261-1845 y) shu erda yashayapman”. Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti huzuridagi Sharq qo‘lyozmalari markazida №2640 raqam ostida saqlanayotgan kitobda u Amir Nasrulloxon (1826-1860 y.y) davrida saroyda adabiyot bilan shug‘ullangani va amir o‘g‘liga turli fanlardan ta’lim bergani haqida ma’lumotlar mavjud.

XIX asrning XX - yillariga oid ma’lumotlarga ko‘ra Buxoroda Rossiya fuqarolari bo‘lgan 3 mingga yaqin tatarlar yashagan bo‘lib, ularning 300 nafari madrasada ta’lim olish maqsadida kelgan.

Jumladan, XX asrning boshlarida Buxoroda madrasalar sonini o‘sha davrda yashagan Fitrat va Ayniy 200 ta, Sadr Ziyo 204 ta, Muhammad Ali Baljuvoniy esa 400 ga yaqin, Turkiston general-gubernatorligi hisoboti bilan bog‘liq arxiv hujjatlaridan birida 1914 - yilda Buxoro amirligida 350 ta madrasa faoliyat ko‘rsatyotganini qayd etgan. O‘zRMDA da saqlanayotgan “Qushbegi” fondidagi hujjatlarga tayanib, Buxoro shahrining o‘zida 160 tadan ortiq madrasa faoliyat yuritganini keltirib o‘tish mumkin. Bundan tashqari. XIX asrning 40 - yillari, rus sayyohi N.Xanikovning ko‘rsatma berishiga ko‘ra, Buxoroda amir ro‘yxatida ko‘rsatilagan 103 ta madrasa bo‘lib, ulardan 60 tasi eng katta madrasa hisoblangan. Ingliz sayyohi A.Byorns shaharda madrasalar soni 366 ta desa, P.P.Ivanov esa 150 dan ortiq madrasa faoliyat yuritgan va o‘quvchilarning soni 30 mingtaga etgan deb ko‘rsatadi. L.Klimovich amirlik poytaxtida 103 ta madrasa, talabalar soni 20 mingta deya ta’kidlaydi. Turli ma’lumotlar umumlashtirilganda Buxoro amirligida 200 dan 400 ga yaqin madrasa mavjud bo‘lgan.

**Muhokama va natijalar.** Madrasada turli sohadagi malakali mutaxassislar tayyorlangan. Bu ilm dargohni bitiruvchilarining aksariyati mudarris, diniy olim, adabiyotchi, amaldor, elchi, harbiy, imom, rassom, musiqashunos va hatto ma’rifatparvar bo‘lib etishgan.

Shuni ham qayd etish lozimki, madrasalaring moliyaviy xarajati vaqf daromadi hamda davdat xazinasidan ajratilgan qo‘sishma mablag‘ hisobidan qoplangan, hari bir madrasaning o‘z vaqf mulki va vaqfnomada madrasaning chiqimi, undagi xizmatchilar: mutavalli, mudarris, hoqiz, muhriy, naqib, farrosh, oshpaz va boshqalar, shuningdek, talabalar soni, ularga berilgan maosh va nafaqalar aniq ko‘rsatilagan. Har bir madrasaning xon tomonidan tayinlangan o‘z mutavallisi bo‘lgan. Mutavvali xodim va talabalarga to‘lanadigan haq, vaqf erlarida ishni tashkil etish, mardikorlar yollash, ijarachilar va hissadorlar bilan shartnoma tuzish, do‘konlar, tegirmonlar va madrasaning vaqfulkiga kiruvchi boshqa ob‘ektlardan ijara haqini undirish va undan boshqa ishlarga mas‘ul bo‘lgan. Shuningdek, madrasa xizmatchilari. Mudarrislar va talabalarga beriladigan yillik maosh miqdori naqd pul va ozuqalik don hisobidan ajratilgan.

Mutavalliga madrasadagi xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar (o‘qituvchi mudarrislardan tashqari) faoliyatini, ayrim hollarda esa talabalarning darsga qatnashish davomatlarini nazorat qilib turish yuklangan. Uning lavozimi otadan bolaga meros tariqasida o‘tishi yo‘lga qo‘yilgan. Vaqf daromadlari madrasa talabalarini, mudarrislar, mutavalli va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar o‘rtasida shariat ko‘rsatmalari asosida taqsimlangan.

Madrasadagi talabalar soni va ularning o‘qish muddati madrasa daromadiga bog‘liq bo‘lib, daromadga qarab madrasa xodimlarining soni ham belgilangan. Shuningdek, madrasalarning nafaqlari ham bir-biridan farq qiladi. Madrasalardagi ushbu tafovut arxiv hujjatlarida aniq ko‘rsatilgan.

Abdurauf Fitratning yozishicha, Buxoroda ikki yuzga yaqin madrasa bo‘lib, ular oliy, o‘rtta va qo‘yi toifalarga bo‘lingan. Madrasalarning yillik vaqfi ham turlicha bo‘lgan. Jumladan, oliy toifadagi madrasalarning (33 ta madrasa) yillik vaqfi 250000 tangadan 40000 tangagacha (jami: 2815000 tanga), o‘rtta toifadagi madrasalarniki (39 ta madrasa) 35000 tangadan 12000 tangagacha (jami: 961000 tanga), qo‘yi toifaga mansub madrasalar yuzdan ortiq bo‘lib, ularning vaqfi ming tangadan o‘n ming tangagachadir. Bu madrasalarning umumiy vaqf miqdori 500000 tangaga etgani ko‘rsatilgan. Shuningdek, arxiv hujjatlarida ham madrasalarni vaqf mulki va yillik daromadi qayd etilgan. Arxiv hujjatlari bilan tanishganda Buxoro shahridagi madrasalarda ijara turgan mudarrislar va talabalar haqida ma’lumotlarga duch keldik. Jumladan “Abdullaxon” madrasasida beshta, “Madrasai Oliy”da oltita hujra bo‘shab, bo‘sh hujralarga tavsiya etilgan talaba nomlari ko‘rsatilgan. Boshqa hujjatda esa Mullo Mir Yunus va Mullo Mir Sulaymon ismli talabalarga “Jo‘ybori Kalon” madrasasidan bir hujrani 18 tillo miqdorda ijara berish yozilgan va yana shunga o‘xshash ko‘plab hujjatlar ham mavjud.

Madrasaga asosan mакtabni tugatganlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan. Ye.K.Meyendorf, N.P.Ostromov, N.V.Xanыkov, P.I.Demezon, T.M.Aminov, V.L.Benin, D.N.Logofetlar tadqiqotlarida madrasa ta’lim 10 yildan 30 yilgacha bo‘lishi va darslarda qaysi fanlar o‘qitilishi haqida batafsil ma’lumot berilgan.

Talabalar madrasaga imtihon asosida qabul qilingan. Ular bilim darajasiga qarab uch guruhga bo‘lingan. A’lo (oliy), avsat (o‘rtta) va adno (qo‘yi). Ular madrasa yotoqxonalarida yashash huquqiga ega bo‘lgan. Toshkent islam universiteti “Manbalar xazinasi” fondida saqlanayotgan hujjatda ko‘rsatilishicha, Samarqandning “Shayboniyxon” madrasasida tahsil olayotgan 25 nafar a’lo (oliy) guruhi talabalariga 242 so‘m, 25 nafar avsat (o‘rtta) guruhi talabalariga 182 so‘m va 25 nafar adno (qo‘yi) guruhi talabalariga 122 so‘m miqdorida nafaqa berilgan.

Madrasa talabari asosan ikki guruhga bo‘lingan: darsga muntazam qatnashadigan, madrasa hujrasida yashab o‘qiydigan talabalar va darslarga erkin qatnashadigan talabalar. Madrasalarda bilim berish asosan suhbat va munozara uslubida olib borilgan, talabalarning mustaqil fikrlashiga alohida e’tibor qaratilgan. Madrasai oliylar nafaqat ta’lim-tarbiya, ayni vaqtida ilm-ma’rifat markazi sifatida alohida e’tibor qozongan. O‘quv yili oxirida talabalar o‘tilgan fanlar yuzasidan bevosita ota-onalar ishtirokida imtihon topshirishgan. Madrasani muvaffaqiyatlari tomonlagan talabalar shahodatnomasi-diplom berilgan.

Hatto, a’lo baholarga o‘qigan talabalar amir tomonidan turli sovg‘a va naqd pul mukofoti bilan taqdirlangan. Masalan, qo‘shrabotlik Kamoliddin Miri Arab madrasasini a’lo baholar bilan yakunlagach, unga amir Abdulahad sarupo kiygizib, “Qur‘oni Karim” va “Al-Jome’ as sahib” kitoblarini sovg‘a qilib saroyda ishlashga taklif etilgan. “Tarixi Nofeiy” da keltirilishicha, madrasada ma’lum vaqt ta’lim olgach, “Hidoya”ni o‘qib tugatishi bilan, yaxshi o‘qigan talaba amir buyrug‘iga ko‘ra dahyak (ushr) olgan hamda biror bir mansabga tayinlangan. Muallifning o‘zi ham imtihon topshirib, dahyak (ushr)ga sazovor bo‘lganini ham yozib qoldirgan. Miri Arab madrasasida uzoq yillar davomida tahsil olib, bosh mudarrislik lavozimigacha ko‘tarilgan Ahmadxon ibn Ismoilxon ham amirning buyrug‘iga binoan dahyak olgan. Bundan tashqari, O‘zRMDAdagi “Qushbegi fondi”da yuz nafar a’lo bahoga o‘qiydigan talablarni taqdirlash uchun muftiyining amiriga yozgan arizasi saqlanmoqda.

O‘z vaqtida talabalar ham o‘zlariga mudarris izlash va tanlashga haqli hisoblanib, unga qoniqmagan mudarrisdan boshqa mudarrisga borish imkonini berilgan. Ammo talabalarning bir madrasadan boshqa madrasaga o‘tishi juda kam hollarda uchragan. Ayrim madrasalarda ma’lum bir fan yoki kitobning dasturda kiritilmagani yoxud tugallanmay qolgani sababli boshqa madrasaga o‘sha dasturni tugatish maqsadida borilgan. Masalan, Samarqand, Sirdaryo va boshqa viloyatlardan ko‘plab talabalarining Buxoro madrasalariga kelgani hujjatlarda qayd etilgan.

Demak, madrasalarda tarbiysi alohida e’tibor kasb etgan. Ayni holda, talabalarning yalqovlik va xususan, axloqsizlik qilishiga yo‘l qo‘yilmagan. Madrasalardagi tarbiya jarayonini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:

Birinchisi- ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minalashga qaratilgan tarbiyaviy choralar;

Ikkinchisi – ta’lim bilan uzbviy bog‘liq bo‘lgan axloqiy tarbiyaga yo‘naltirilgan choralar.

Masalan, “G‘oziyon” madrasasi vaqfnomasida tarbiyaviy tadbirlar aniq ko‘rsatilgan. Ko‘pincha choratadbirlar moddiy jazo shaklida bo‘lgan. Darslarni o‘zlashtirish sohasida ta’lim dasturining bajarilmay qolgan qismi aniqlanib, bunday talabalarining o‘qish natijalari qoniqarsiz hisoblangan hamda o‘zlarini madrasa hujrasida yashash huquqididan mahrum etilgan va nafaqa berish to‘xtatilgan. Buxoroning hazrati Eshon Imlo ko‘chasida joylashgan “Amir Shohmurod” madrasasi vaqfnomasi-(Amir Nasrulloning muhri bosilgan)da

ham talabaning darslarga muntazam qatnashishi shart etib ko‘rsatilgan. Yana bir jazo chorasisiga ko‘ra, agar talaba bir hafta davomida darslarga uzsiz kelmasa, uning nafaqasi tegishli miqdorda kamaytirilgan. Agarda talaba madrasada olti oygacha ko‘rinmasa, u umuman nafaqa olish huquqidan mahrum bo‘lgan. Axloqiy tarbiya berish ham moddiy jazo asosiga yo‘naltirilgan.

Madrasa talabalarining yashash tartiblari, shart-sharoitlari haqida Sadriddin Ayniy, Fitrat kabi ma’rifatparvar kishilar ancha keskin va tanqidiy fikrlarni bildiradilar. Binobarin, Fitratning yozishicha, madrasada tahlil oluvchi mullalar olti oy o‘qib, qolgan olti oy mobaynida qishloqlarga borib, imomlik qilib, pul to‘plashgan. Mullalar bиринчи va ikkinchi o‘quv yilida kitoblardan tahlil olish uchun har kim qurbi etganicha: Masalan, yigirma tangadan 500 tangagacha mablag‘ to‘plab. Ustozlariga berishgan. Ayniying ham ta’kidlashicha, Buxoro madrasasida o‘quv yili 22- sentyabrdan, 22 – martgacha davom etgan.

Bu muddatda olti oyga puli etadigan yoki ochlikka bardoshli talabalarga o‘qiy olgan. Qishloqlardan kelgan talabalar kuz boshida kelgan bo‘lsa, yig‘im – terim vaqtida qishloqqa qaytib, hosisni yiqqan va pul to‘plab, Buxoroga qaytgan hamda o‘qishini davom ettirgan. Fevral oyida yana qishloqqa qaytgan. Masalan: o‘rtacha hisoblaydigan bo‘lsak, o‘quv yili boshida ellik kishi darsga ishtirot etgan bo‘lsa. Bir haftadan so‘ng, 20 kishi qolgan. Noyabr va dekabr oylarida sinf yana to‘lgan. O‘quvchilardan ikkinchi ketish vaqtida esa mart oyi boshlarida o‘nga yaqin talaba qolgan va shu 10 ta talaba o‘quv yilini yakunlagan. 19 yil ta’lim jarayoni shu ahvolda kechgan. Arxiv hujjatlari va mavjud tarixiy manblarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, amirlikda o‘z mavqeい bo‘yicha uchinchi o‘rinda turgan qozikalon xalq ta’limining ahvoli. Tarbiyaviy ishlarga mas’ul hisoblangan. Amirlikning barcha viloyatlari va shaharlarida vakillari bo‘lib, ular yuqorida kelgan topshiriquqlarni amalga oshirgan. O‘z o‘rnida talabalarga nafaqa ham ajratilgan. Demak, ta’lim tizimi hokimiyat nazaridan chetda bo‘lmay, o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni mamlakat taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda bajarib turgan. Shuningdek, qozikalon ayrim moliyaviy jihatidan qiynalgan talabalarga amirdan ruxsat so‘rab ish bilan ta’minalashni ham yo‘lga qo‘yan. Bu esa avvalambor, talabaning pul topish maqsadida ilmdan chetlashmasdan, o‘z sohasiga yaqin ish bilan ta’milansha, ikkinchi tomonidan olgan bilimini amaliyatga qo‘llash yaxshi imkoniyat, ilmini oshirishga va tajriba orttirishga qo‘l kelgan. Zatan, Mir Bahriiddin sadri rais “Mirzo Ubayd” madrasasi muazzini Mullo Abdurahimning vafoti sababli Mullo Muhammad Bilol ismli talabaning oilali ekanligi hamda oilasini boqish uchun uni maoshi 12 tillordan iborat bo‘lgan mazkur lavozimga tayinlashni so‘rab yozgan arizalari fikrimizni tasdiqlaydi.

Madrasalarda yasovuli ulamo lavozimida ishlaydigan xodim amir, qushbegiga o‘quv yilini boshlashga ruxsat so‘rab bayonot yozgan.

Ayniying yozishicha, Buxoro madrasalarida haftada to‘rt kun tahlil joriy etilgan, ya’ni yakshanbadan chorshanbagacha. Payshanba, juma, shanba kunlari dam olish kunlari hisoblanadi. Odatda mashg‘ulotlar sentyabrdan boshlanib, mart oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta’tilga chiqilgan.. Darslar bomdod namozidan keyin boshlangan. Dars ertalab soat 4 dan 10 gacha davom etgan. 12 da tushlik, so‘ngra bahs- munozara. 16:00 dan 18:00 gacha dam olingan. Kechki ovqatdan so‘ng yana tungacha bahs-munozara davom etgan. Talabalar o‘quv kursiga qarab emas, balki qaysi kitobni o‘qiyotganligiga qarab jamoa guruhlarga ajratilgan. Jamoa guruh soni talabalar miqdori va madrasa qamroviga qarab belgilangan. Katta madrasalarda har bir guruhda 5-10 dan 20 nafargacha talaba tahlil olgan.

O‘quv dasturlari uch qismga bo‘lib o‘rgatilgan: diniy adabiyotlar, umumta’lim fanlar va maxsus pedagogik fanlar. Madrasaning o‘quv kursi, odatda, “Avvali ilm” deb nomlangan fors tilidagi o‘quv qo‘llanmasini o‘zlashtirish bilan bashlangan. Madrasalarda to‘liq kursni o‘qib tugatish uchun talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxminan 137 ta darslik-qo‘llanmani o‘zlashtirish talab etilgan. Bu darsliklarning aksariyatini Markaziy Osiyolik allomalarining asarlari, jumladan, Imom Buxoriy va Iso Termiziyning hadis to‘plamlari, Abu Mansur Moturidiyning “Kitob at-tavhid”, Burhoniddin Marg‘inoniyning “Al - hidoya fi sharh al- bidoya”, Umar Qazviniyning “Ar-risola ash-shamsiya fil qavodd al-mantiqiyya”, Abdurahmon Jomiyning “Al-favood ad-diyoiya”, Mahmud ibn Ahmad Mahbubiyning “Viqoyat ar-rivoya fi masoilil Hidoya”, Ubaydulloh ibn Mas‘ud Mahbubiyning “An-nuqoya” kabi asarlari tashkil etgan.

Bundan tashqari, talabalar qiziqishlari va mudarrislarning salohiyati hamda mavjudligiga qarab, handasa, tibbiyot, kimyo, jo‘g‘rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me’morchilik asoslari, xattotlik, musiqa, matematika, mantiq, astronomiya. Arab adabiyoti, etika. Notiqlik san’ati va gigiena kabi fanlardan ham bilim olishgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, madrasalarda faqatgina diniy asosdagi fanlarnigina o‘qitilmagan. Shuningdek, ayrim madrasalar alohida ixtisoslashganligi bois, ularda alohida fanlar tafsili yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, tabiblar tayyorlash uchun “dorush-shifo” madrasasida Abu Ali ibn Sino, Roziy, Abu Hasanli ibn Rizvon Misriy, Subxonqulixon kabi tabiblarning asarlarini o‘qitish joriy etilgan. Bundan tashqari, 1511 – yilda yozilgan, 101 sahifadan iborat Muhammad Yusufning “Tibbi Yusufiy” deb nomlangan risolasi

tibbiyotga taalluqli ma'lumotlar haqida bo'lib, tabiblarni tayyorlaydigan madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan. Bunday madrasalardan tahsil olgan talabalar keyinchalik shu sohaga oid risolalar yozib, mudarrislik qilgan. Masalan, Ja'farxoja ibn Nasriddinxoja Husayniy Xazoraspiy 1823-yilda turli kasallik va ularni davolash uslublari hamda dori vositalari xususidagi “Tibbiy ma'lumotlar to'plami”ni yozadi. Junaydulloh ibn Shayxul islom “Xoziq” laqabi bilan tanilgan (vafoti 1843), shoir va tabib bo'lgan. U 1843-yilda Muhammad Sharif ibn Muhammad Niyoz Buxoriy Muhammad Akbar (XVII asr)ning “Mezon attib” nomli asariga sharh yozgan. Sharh yozish barobarida unga ko'plab qo'shimchalar kiritgan.

Miri Arab madrasasida tahsil olib, shu erda tib ilmidan saboq bergen olim Axmadxon ibn Ismoilxon ham dorishunoslikka oid “Qarabodin Tayloqiy” va shogirdi Abul Baqo Maxzum ibn domlo Ernazар mudarris “Hujjatu-l-labib” nomli asarlarini ta'lif etishgan. Arxiv hujjatlaridan ma'lum bo'ladiki, Buxoro madrasalarida bemor mudarris va talabalar uchun alohida hujralar ajratilgan hamda ular o'sha erda davolangan.

Jumladan, “Qushbegi” fondida saqlanayotgan №1996 hujjatda 80 nafar bemorning xalifa Xudoydot, Modarixon, Abdullaxon, Cho'bin, Jo'ybori Kalon, Muhammad Amin, Borkash, Mirkon, madrasayi Oliy kabi o'nlab madrasalarda davolanayotgan mudarris va talabalar ro'yxati berilgan. Yana shu fondning №1994 hujjatida ham shu kabi ruyxat berilib, hujjat ostida 400 nafar bemorning ismi keltirilgani qayd etilgan. Ammo, hujjat to'laligicha saqlanib qolmagan. Unda 295 nafar bemorning ismi va madrasalar nomi yozilgan.

Ayniy o'zining “Estaliklar” ida negadir ayrim ma'lumotlarni noxolis baholaganini ko'rish mumkin. Masalan, Miri Arab madrasasida 300 dan ortiq bitirgan talabalar orasidan birorta ham she'riyatni sevadigan va adabiyotga qiziqadigan talabani uchratmagani haqida yozgan. Aslidachi, manbalarga murojaat qiladigan bo'lsak, madrasalarda adabiyot, aruz va arab adabiyoti kabi fanlarning o'qitilishi, Raxmatullo Vozix Buxoriyning “Tuhvatul axbob fi tazkirat -ul Asxob” nomli risolasini aynan, shoirlarga bg'ishlagani, ular orasida madrasa bitiruvchilari va mudarrislarning ham qayd etilishi, esa bu fikrning xato ekanligidan dalolatdir.

Shuningdek, Sadri Ziyo “Jome'i”sidan o'rın egallagan 29 – raqamli risola (“Fuzaloi Mutaaxxirin va Shua'roi ma'osirin”) aynan o'zi yashagan davrdagi shoirlarga bag'ishlangan bo'lib ular orasida mudarrislar ham bor. Yana tadqiq etilayotgan “Taskirat ul inqilob” asarining muallifi aynan Aynin o'qigan kezлari u ham Miri Arab madrasasida tahsil olgan va adabiyotga bo'lgan qiziqishi yuqori bo'lgan. Chunki uning kutubxonasida Hofiz, Jomiy, Navoiy, Bedil, Imlo, Soib, Mashrab kabi o'nlab shogirdlarning to'o'liq devonlarini uchratishsh mumkin. Bundan tashqari ko'plab, qayd varaqalarida turk va fors tillarida yozilgan baytlarning uchrashi uning she'riyat bilan ham shug'ullanganining isbotidir. Tadqiqotchi M.Tursunovaning “Madrasalar ta'limida adabiyot sabog'i” nomli monografiyasi ham aynan madrasalarda adabiyot fanining o'qitishning tarixiy bosqichlari va uslublariga bag'ishlangan. Boshqa tadqiqotlarda ham bu mavzuda ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, XIX asrning 30 – yillarda Buxoroda bo'lib, madrasa darslarini kuzatgan Demezon ham talabalarini qo'shimcha ravishda Rumiy, Mirzo Bedil, Hofiz, Sa'diy, Ismat, Qosim va Navoiylarni sevib o'qishlarini eslatib o'tadi.

Afsuski, maktab va madrasa ta'lim tizimini bunday noxolis baxolashlar boshqa tadqiqotlarda ham uchraydi. Bu hol sho'ro tuzumi davrida yozilgan ayrim tadqiqotchilar ishlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, S.M.Grameniskiy Turkiston maktablari haqida yozar ekan, juda kam holatda ayrim so'zlarni yoza olishi, maktabda faqat kundalik hayotda kerak bo'ladigan ibodat masalalarinigina o'zlashtirishi mumkinligi haqida gapiradi. Ammo bizning fikrimizcha, bu ayrim maktablarga xos bo'lishi mumkin. Chunki madrasaga o'quvchi imtihon asosida qabul etilgan. Agar u harf tanimasa qanday qilib sinov imtihonlarini topshira olgan? To'g'ri, XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'lkada turli nizolar, siyosiy notinchliklar hukm surdi. Bu barcha sohalar singari ta'lim sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymadni. Ta'lim XI-XII asrlar yoxud Amir Temur va temuriylar davridek gullab yashnamagan bo'lsada, ilm to'xtab qolgani yo'q. Ayrim talaba yoki mudarrislarning “kamchiligi” evaziga aksariyat ziyolilarni savodsizga chiqarish kerak emas edi. Talaba mudarrislar haqida gapirmaylikda, amirlik ichegaralarini qo'riqlaydigan chegarachilarning qayd daftarinai tahlil etsak, unda amirlik hududiga kirayotgan yo'chiqayotgan har bir shaxs haqida batafsil ma'lumot berilgan: Sana, uning ismi sharifi, bo'yi, ko'zi, qoshi, mo'ylovi, og'zi, burni, yuzi, kasb-hunar, qaysi viloyat, tuman, mavze va guzardan ekanligi, xat va savodi, maxsus belgisi, nima maqsadda amirlikdan chiqib ketayotgani haamda kimning kafilligida ketayotgani yozilgan. Yana S.M.Gramenskiy madrasada o'qitiladigan fanlarni tahlil etar ekan, “Hisob ilmi” (matematika) fani meros masalasini hal etish uun o'qitilishi, unda arifmetik to'rt amalni o'tib, qolgan son, kasr, proporsiyalar o'qitilmasligi hamda talabalarning algebra fanini umuman bilmasligini ta'kidlagan. To'g'ri, hamma madrasalarda ham yuqori saviyada darslar olib borilmagani ma'lum. Lekin hozirgi kunga qadar turli madrasalarda o'qigan talabalarning o'quv darsliklari hamda mashq daftarlari etib kelgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Buxoro madrasalari qadimdan o'z nufuziga ega bo'lib, talabalarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa xalqimizning ming yillar davomida

shakllangan an’analari, urf-odat, axloq-odob ma’yorlari, tarixiy milliy qadriyatlarini saqlb qolishga. Talabalarni kamtar, xushmuomalali, rostgo’y, olijanob, sabr-toqtal, halol qilib tarbiyalashga yordam berdi. Diniy va dunyoviy fanlar uyg’unlikda o‘qitilib, ma’rifatparvar olimlar, davlat arboblari etishib chiqdi. Ammo madrasa ta’lim tizimidagi ushbu yutuqlar yurtimiz tarixi, ilmiy merosi etmish yildan ortiq davr mobaynida noxolis yoritilib kelindi. Bugungi kun tadqiqotchilar oldida turgan mas’uliyatlari vazifalardan biri - bu yurtimiz tarixini asl holicha o‘rganib, yosh avlodga etkazishdan iborat.

Mustabid sovet tuzumi davridagi darsliklar va tarixga oid asarlarda Turkiston xalqining asosiy qismi savodsiz bo‘lgan, aholining bor-yo‘g‘i ikki foizgina o‘qish-yozishni bilgan, degan noxolis iddaolarga ko‘p duch kelinadi. Masalan, Dmitriy Gramenitskiy “Musulmonlar hayotida boshlang‘ich maktablar ko‘p bo‘lishiga qaramay, savodli kishilar juda kam”, deb uqtiradi. Yana bir rus olimi V.Vyatkinning so‘zları ham hamkasblarinikidan farq qilmaydi: “Ibtidoiy maktablar barcha qishloqlarda bor, ammo xalq qanchalik o‘qimasin, baribir savodsizligicha qolavergan”, desa, K.E.Bendrikov “Maktabdagi o‘quvchilarning aksariyati tabiat qonunlari, jamiyat hayoti hamda aqliy tafakkur ilmidan xabarsiz madrasada tahsil olgan imomlar edi”, deya ta’riflaydi. Bu kabi ilm ahli uchun bildirilgan salbiy fikrlarni N.S.Kulchanov, V.P.Nalivkin, M.N.Virskiyarning tadqiqot va maqolalarida ham uchratish mumkin.

Islom olamining mashhur ilm-fan va madaniyat o‘choqlaridan biri sifatida jahonga yuzlab daho olimlarni etishtirib bergen yurt xalqi mustamlaka bo‘lmasdan oldin ham yalpi savodsiz emasligini tarixiy dalillardan anglash mumkin. “Qomus ul-a’lom”da keltirilishicha, o‘n to‘qqizinchiligi miqdori asrda birgina Toshkentning Eski shahar qismida 13 mingta xonodon, 18 ta madrasa, 60 ta boshlang‘ich maktab (kuttab) bo‘lgan. K.E.Bendirikovning yozishicha, ota-onalar farzandlarini 6 yoshga to‘lmasdanoq maktabga tax’lim olgani berishgan.

1878- yili Farg‘ona vodiysiga kelgan akademik A.Middendorf 3 oy mobaynida aholining savodxonlik darajasini o‘rgangach, bu erdagи musulmon aholining yoppasiga savodxonligi haqida xulosaga keladi va bu holat Rossiyaning xalq maorifi arbollariga katta malomat ekanini yozadi. Gasprinskiy Toshkentga kelganda, ziyorolar bilan uchrashadai. Buchrashuv asnosida uning Turkiston haqidagi barcha tasavvurlari tubdan o‘zgaradi. Ismoilbey matbuotda turkistonliklarni “savodsiz va johil” sifatida ayblib, bong urayotgan xabar va ma’lumotlari asossiz ekanligiga amin bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, mustamlakachilar xalqning savodxonlik darajasini aniqlashda ming yillar mobaynida shakllangan va islomi bilimlar asosiga qurilgan ta’lim tizimini butunlay inkor qilishgan hamda o‘zları ochgan rus- tuzem maktablarida tahsil olganlarnigina savodli deb hisoblashgan.

Qariyib bir asr o‘tmishi buzib talqin etilgan yurt farzandlari oldida o‘z tarixini bevosita o‘rganishdek ma’suliyatlari hamda mashshaqatli vazifa turibdi. Bu borada ko‘plab tadqiqotlar ham amalga oshirilib kelinmoqda.

Mustamlakachilar ta’biri bilan aytganda “ikki foizgina o‘qish-yozishni bilgan aholi” orasidan qanchadan-qancha shoир, olim, davlat arboblari va mudarrislar etishib chiqdi. Ammo ularning aksariyatini taqdiri ayanchli xotima topganini mustaqillikka erishgandan so‘ng anglab etdik. Qo‘yida o‘rtta va olyi ta’lim maskani hisoblangan madrasalarda ilm ziyyosini tarqatib, ko‘plab olimlarni etishtirgan mudarrislar xususida so‘z boradi.

Mudarris arabcha (dars beruvchi) madrasa o‘qituvchisi hisoblanib, madrasalarda o‘qitiladigan-muayyan fandan dars bergen. O‘qituvchilik – mudarrislik ma’suliyatlari va sharafli kasb hisoblangan. Iste’dodli, barcha bilimlardan xabardor va hurmat-e’tibor qozongan allomalar maxsus komissiya sinovidan o‘tib, mudarrislik vazifasiga tavsiya etilgan. Ayrim mudarrislar sinovdan o‘tmaganligi sabab o‘z lavozimidan mahrum etilgan.

Madrasalarda dars beradigan mudarrislarning o‘zi ham biror madrasani tugallagan bo‘lishi shart bo‘lgan. Madrasada dars berishi uchun mudarrislikka tayinlanish tartibiga ko‘ra kichik madrasalarning mudarrisini qozi kalon tayinlasa, yirik madrasalarning mudarrisini esa, amir tomonidan tayinlangan va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Fitrat oxund, mufti, mudarrislik martabalari amir tomonidan qozi kalon vositasida, ya’ni qozi amirga arz qilgandan so‘ng ular nomiga yorliq kelishini keltiradi . O‘zRMDA da ushbu mavzudagi hujjatlar ko‘plab saqlamoqda. Jumladan, Mir Badriddin qozikalonning amirga yozgan arizasiga “Jafarxoja” madrasasining mudarrislaridan biri Mullo Ubaydullohning vafoti sababli “Jo‘ybori Kalon” madrasasi mudarriси Mullo Maxmudxo‘jani uning o‘rniga ta’yinlab, ellikbesh tillo maosh belgilash qayd etilgan. Ushbu hol boshqa xonliklarda ham shu tartibda amalga oshirilgan. Buni Qo‘qon xonligini mudarris tayinlash haqidagi qo‘yidagi farmoni misolida ham ko‘rish mumkin.

....Hammaga ma’lum bo‘lg‘ayki, biz iqtidorli va munosib olim Mulla Muhammad Sodiqni Muhammad Azizzon qurdirgan madrasaga mudarris etib tayinlashga farmon berdik. Ushbu madrasaning barcha ilm toliblari fanlar bo‘yicha bilim olish uchun shul zotga murojaat qilmog‘i darkor. Muhr va sana-1843- yil”.

Mirzo Ulug‘bek davridan boshlab mudarris lavozimiga nomzod maxsus ulamolar hayatiga imtihon topshirishi, ya’ni o‘z bilimlarni isbotlamog‘i lozim bo‘lgan. Biroq, keyinchalik bu an‘anadan bir oz chekinilgan va 19 asrning boshlariga kelib mudarris lavozimiga ko‘proq xonga qarashli shaxslar tayinlana boshlagan. O‘quv jarayonini tashkil etish odatda mudarrislarning zimmasiga bo‘lib, ular qo‘yidagi uch toifaga bo‘lingan:

Birinchi toifa- a’lo darajali mudarrislар. Bunga qozi -ul quzot, raisi kalon, shayx ul- islom, oxund, a’lam, mufti, askar kirgan.

Ikkinci toifa-o‘rta darajali mudarrislар. Bu toifadagi mudarrislarni kiygan kiyimlariga qarab “banoraspo‘sh” deb atashgan. Ayni shu toifadan chiqqan ilmli mudarrislар muftiylik lavozimiga erishgan. Maskur toifadagi mudarrislар taxminan 200 nafar bo‘lib, ularni yana “o‘rta mudarrislар” deb ham atalgan.

Uchinchi toifa - quiyi darajadagi mudarrislар. Bu toifadagilarni mudarrislар, imom mudarrislар, ba’zan beqasabapo‘sh deb atalgan. Imom mudarrislар soni 300 dan ortiqroq bo‘lgan.

Ayniy esa Buxoro mudarrislарини 3 toifaga ajratgan:

1.O‘zi kursni tugatmasa ham ammo, ta’lim berish qobiliyatiga ega shaxslar. Ular boshlang‘ich kurslarga dars bergen.

2. Quiyi mudarrislар. Ularning oyligi xarajatlarni qoplamagan.

3. Katta mudarrislар. Ko‘p yillar ta’lim berib madras vaqfidan oylik oladigan. Ko‘zga ko‘ringan mudarrislар.

**Xulosa.** Shuni ta’kidlash joizki, madrasalarda mudarrislар soni ta’lim oluvchilar soniga qarab belgilangan. Turkiston madrasalarida ta’lim beruvchi mudarrislarning soni II asr boshlarida taxminan 800 nafar deb ko‘rsatiladi.

Ahmad Donish mudarrislik kasbining mashaqqatlari haqida: “Kunduz kuni muallim o‘z o‘quvchilari bilan mashg‘ulotda band bo‘ladi, kechqurun esa ertangi kungi mashg‘ulotlarga tayyorlanadi, xullas u umr bo‘yi o‘qydi va o‘z kasbi bilan muttasil, tanaffussiz shug‘ullanadi”, degan fikrlarni bayon etadi.

Tadqiqotchi Abdusattor Jumanazar Buxoro madrasalari, xususan Ko‘kaldosh madrasasi haqida yozar ekan, madrasaning ta’lim tizimini bir necha qismlarga bo‘lib o‘rgangan.

### Adabiyotlar:

1. Ергашев Б. Из истории становления и развития общественно-политических идей джадидизма, идеология младобухарцев. Автореферат дисс. докт. философ. наук. - Т.: 1993;
2. Ташкулов Д. Основные направления политico-правовой мысли народов Узбекистана во второй половине XIX-первой четверти XX вв. Автореферат дисс. доктора юрид. наук. - Т.: 1995;
3. Boltaboyev H. XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi. Filologiya fanlari doktori ... diss. avtoreferati. – Т.: 1996;
4. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – Т.: 2007;
5. O‘zbekistonning yangi tarixi. I kitob, Turkiston chor Rossiysi mustamlakachiligi davrida. - Т.: Sharq NMK, 2000;
6. Abduazizova N.A. Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917). - Т.: Akademiya, 2000;
7. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. - Т.: Universitet, 1999.
8. Aliyev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat (Vatan fidoyilar), - Т.: Akademiya, 2000.
9. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. - Т.: Sharq NMK, 1998.
10. Agzamxujayev S. Turkiston muxtoriyati: borba za svobodu i nezavisimost (1917-1918). Avtoreferat diss. dokt. ist. nauk. - Т.: 1996.
11. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. - Т.: 2002.
12. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti (darslik). - Т.: Ma’naviyat, 2004 va boshqalar.
13. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning 2020- yil 24- yanvarda Oliy Majlisda murojaatnomasidan
14. Xo‘jayev.F “Buxoro inqilobining tarixiga materialllar”, Tosh; “Fan”1997, 63-bet.
15. Rajabov.Q “So‘nggi mang‘it hukmdori” // Buxoro mavjhlari, 2007 43-b.
16. “Buxoro axbori”. 1920 yil 17 sentabr. 2-son.
17. Maorif ishlari (1-maorif qurultoyida Fitrat o‘rtoqning ma’ruzasi) // “Uchqun” jurnali, 1923 yil 1-aprel. B-2.

**SOMONIYLAR DAVRI MUTAFAKKIRLARINING TA’LIMOTIDA USTOZ-SHOGIRD  
MUNOSABATLARI**

*Juraev Bobomurod Tojievich,  
Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasи dotsenti*

*Maqolada Somoniylar davri mutafakkirlari ta’limotida ustoz-shogird munosabatlarining ifodalanishi, bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida ustoz-shogird munosabatlarini shakllantirishda mazkur ta’limotlardan foydalanishning pedagogik asoslari yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** Somoniylar davri, ta’limot, ustoz-shogird, munosabatlar, ta’lim, tarbiya.

**ВЗАИМООТНОШЕНИЯ МЕЖДУ НАСТАВНИКОМ И УЧЕНИКОМ В НАСЛЕДИИ  
МЫСЛИТЕЛЕЙ САМАНИДСКОГО ПЕРИОДА**

*В статье рассмотрено учение об отношениях «учитель-ученик» в учениях мыслителей саманидского периода, а также педагогические основы использования этого учения при формировании отношений «учитель-ученик» в образовательном процессе сегодня.*

**Ключевые слова:** эпоха Саманидов, учение, учитель-ученик, отношения, образование, воспитание.

**THE RELATIONSHIP BETWEEN MENTOR AND STUDENT IN THE HERITAGE OF THE  
THINKERS OF THE SAMANID PERIOD**

*The article examines the doctrine of the "teacher-student" relationship in the teachings of the thinkers of the Samonite period, as well as the pedagogical foundations for using this doctrine in the formation of "teacher-student" relationships in the educational process today.*

**Keys word:** Samanid era, doctrine, teacher-student, relationship, education, upbringing.

**Kirish.** Jamiyat rivoji va uning taraqqiyoti pedagogik faoliyat mahsuli bo‘lib, bunda pedagoglarning mahorati, kompetensiyasi, kreativligi kabi komponentlar uyg‘unligida baholanadi. Har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash tizimida ustoz-shogird munosabatlarini hayotga tatbiq etish muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga egadir. Hozirgi davrda tajribaning ko‘rsatishicha ustoz-shogird munosabatlarini yo‘lga qo‘yish va takomillashtirishda Sharq mutafakkirlari ta’limotidan foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Insoniyatning o‘z tarixi, o‘tmishi, madaniyati, ma’naviyati asoslari, ildizlarini o‘rganish va ulardan keyingi davr rivojlanish yo‘nalishida foydalanishga bo‘lgan qiziqishi asosida o‘z taraqqiyotini belgilovchi omillar yuzaga keladi. Sharq mutafakkirlarining ustoz-shogird munosabatlariiga oid ta’limotlari S.S. Bulatov, J.B.Nasriddinov, B.X.Abduxonov, Q.F.Abdullayev, M.Jumaniyozov, M.M.Nigmatova, D.E.Xudayarovalarning tadqiqotlarida ustoz-shogird an’analari o‘rganilib yangi ilmiy xulosalarga keltingan. Ustoz-shogird tizimi o‘zining uzoq tarixiga egaligini e’tiborga olib, Somoniylar davri mutafakkirlarining ta’limotini, ularning bu boradagi qimmatli g‘oyalari ustoz-shogird tizimini bizning kunlarimizga mos shaklini ishlab chiqishga nazariy manba vazifasini o‘taydi. Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, qadimda ajdodlar ustoz-shogird munosabatlari asosida yoshlarga ilm va kasb-hunar o‘rgatish bo‘yicha boy tajribaga ega bo‘lgan.

**Muhokama va natijalar.** Ma’lumki, milliy qadriyatlarimizda ustoz-shogird odobiga alohida bir insoniy amal, san’at sifatida qaralgan, bu odoblarda nazarda tutilishi lozim bo‘lgan fazilatlar bir qarashda mayda amallarga o‘xshasa-da, aslida yaxshi hunar sohibi bo‘lishlikning insoniy shartlaridandir. Bu o‘gitlar hozirgi kunda ham o‘z kuchini yo‘qotmagan juda ibratli va dolzarbdir.

Sharqning buyuk allomalari, olimlari, shoirlari va fazillari jamiyat hamda ilm taraqqiyotiga qanchalik hissa qo‘sghan bo‘lsalar, ularning har biri hunar va ilm egallashda kattaning, ya’ni ustozning o‘rni, shogirdlik burchi masalalarini ham bee’tibor qoldirmaganlar.

Somoniylar davrida ustoz-shogirdlik an’anasining o‘z qonun-qoidalari bo‘lgan, ularga bo‘ysunmaslik ustoz va shogird o‘rtasidagi qarama-qarshilik vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Shogird ilm o‘rganishni tugatgandan va odatda ilmiy ishlardan olingan yetarlicha tajriba orttirgandan keyingina o‘qituvchilik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan. Ustoziga hurmat belgisi sifatida sobiq shogird u darsni tashlamaguncha dars berishga haqli bo‘lmaq. Mazkur davrda aksariyat ustozlar shogirdparvar bo‘lgan va

ilm maydoniga mashhur siymolarni tarbiyalagan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda Abunasr Ahmad ibn Abbas Ayoziy Samarqandiyning qirqta shogirdi bo'lgan.

Mashhur olim Zakariyo Roziy shunday yozadi: “Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning kamchiliklarini o‘z vaqtida ko‘rsatib, ulardan hech qachon xafa bo‘lmasligi, masxara qaramasligi, ularga nisbatan nafrat hissi bilan qaramasligi zarur. Aksincha, u shogirdi oldida ochiq chehra bilan turishi, shogirdning so‘zlarini xotirjam va jiddiy tinglashi kerak” [9].

Zakariyo Roziy shogirdning o‘quvchilarni tinglay bilishi, ulardan rozi bo‘lishga harakat qilishi muhimligini ta’kidlaydi. O‘qituvchi o‘quvchining uyatdan nimanidir yashirayotganini yoki biror narsa aytishdan o‘zini tiyayotganini yoki o‘zining nomaqbul xatti-harakatini tushuntirishga uyalib, uni to‘liq ifoda eta olmayotganini ko‘rsa, bu holatda o‘qituvchi xavotirlangan va jahldor ko‘rsatmasligi lozim. Shu bilan birga, undan buni kutmaganligini va tarbiyachi uning yuzida ko‘rinadigan narsalarni aniq his qilganligini bildirishi lozim. Binobarin, o‘qituvchi dars jarayonida ham, tarbiya jarayonida ham o‘quvchining ruhiy holatini doimo hisobga olishi, mohir o‘qituvchi vazifasini bajarishi lozim [9].

Shu bilan birga, Zakariyo Roziy murabbiy tarbiyalanuvchi hayotining barcha jabhalarini bilishi kerakligini ta’kidlaydi. Bunda o‘quvchining tarbiyachiga to‘liq nazaratiga o‘tishi, uni yaqin inson, sodiq do‘st deb bilish imkoniyati paydo bo‘lishi mumkin.

Somoniylar davri adabiyotining buyuk namoyondasi Rudakiy (884-954) kishiga birinchi muallim ustoz ekanligini, (Hayot saboklarin etolmasa yod, uni o‘rgatolmas hech qanday ustod) desa,

Forobiy pedagogik qarashlarida ustoz-o‘qituvchining mas’uliyatini alohida ifodalaydi. “Ustoz o‘z shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko‘ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki, ortiqcha zulm shogirdda ustozga nisbatan uyg‘otadi, bordiyu ustoz juda ham yumshoq bo‘lsa, shogird uni mensimay qo‘yadi va u beradigan bilimdan sovib ham qoladi.

Forobiy ustozlarga bolalarning fe‘l-atvoriga qarab tarbiya jarayonida quyidagi “qattiq” yoki “yumshoq” usullardan foydalanishni maslahat beradi:

1. Tarbiyalanuvchilar o‘qish-o‘rganishga moyil bo‘lsa, ta’lim-tarbiya jarayonida yumshoq usul qo‘llaniladi.

2. Tarbiyalanuvchilar o‘zboshimcha, itoatsiz bo‘lsa, qattiq usul (majburlov) qo‘llaniladi.

U o‘qituvchining tarbiya usullarini hukumat (davlat) va shohlarning xalqni tarbiyalash va boshqarishdagi usullariga o‘xshatadi, ularni qiyoslaydi. Har ikkalasida ham yumshoqlik va majburlov zarurligini uqtiradi.

Demak, Forobiy ta’lim-tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, majburlash usullarini ko‘rsatgan. Bu har ikkala usul ham insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadida qo‘llanilgandir. Ustoz shogirdning ham axloqiy, ham kasbiy qiyofasini shakkantiradi. “Ustoz otangdan ulug“, degan maqolning hikmati shunda. Qadimda shogirdlar ustozni benihoya hurmat qilganlar. Shu munosabat bilan Forobiy o‘qituvchining ijtimoiy hayotda o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ibratli g‘oyalarni ilgari surgan. Uning fikricha, o‘qituvchi o‘quvchiga bilim beraman desa, o‘quvchi oldida haqiqatgo‘y bo‘lishni, yolg‘onni va yolg‘on aytganni yomon ko‘rishi, o‘zi fahm-farosatli bo‘lishi va or-nomusini qadrashi, shogirdlariga nisbatan adolatli bo‘lishi, ko‘zlangan maqsadga erishishda qat’iylik ko‘rsata bilishi va o‘rnak bo‘lmog‘i lozim.

Forobiy “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida” risolasida muallim shogirdiga nisbatan o‘ta hokimlikka ham, o‘ta bo‘shanglikka ham yo‘l qo‘ymasligi kerak, chunki o‘ta hokimlik shogirdda “muallimga nisbatan nafrat uyg‘otsa, o‘ta bo‘shanglik esa shogirdning muallimga va uning o‘qitayotgan faniga nisbatan mensimaslik xislatini paydo qiladi”, deb ta’kidlaydi. Bu fikrlari bilan mutafakkir ustoz ta’lim va tarbiyada nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini yana bir karra uqtiradi.

Abu Ali ibn Sinoning “Oila tarbiyasi”, “Omo‘zishu parvarishi madrasii farzand” (“Farzandni mактабда o‘qитиш ва tarbiyalash”, “Tadbiri manzil” kabi asarlarida yosh avlod tarbiyasi va o‘qituvchilik kasbiga oid pedagogik g‘oyalari bayon etilgan. Bu asarlarda o‘qituvchilar ta’limning har bir usulini o‘z o‘rnida qo‘llashi kerakligini ta’kidlagan. Shuningdek, Abu Ali ibn Sino o‘qituvchi o‘quvchining har qanday noto‘g‘ri xatti-harakatiga e’tiborsiz bo‘lmasligi va hatman ularga tanbeh berish kerakligini alohida ta’kidlagan [1,18].

Abu Ali ibn Sinoning bolalarga oid ta’limotining muhim qismlaridan biri “Farzandni mактабда o‘qитиш ва tarbiyalash” asarida qayd etilgan. Bu kitobda asosan bolani maktabga qanday tayyorlash haqida gap boradi. Shu bilan birga, ushbu kitobda o‘qituvchilik kasbiga qo‘yiladigan talablar, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar haqida ko‘plab qiziqarli fikrlar bayon etilgan. Abu Ali ibn Sinoning fikricha, o‘qituvchilik kasbiga kishiilarni tanlashda bir qancha talablarni qo‘yish kerak. O‘qituvchi birinchi navbatda tafakkurli, dindor, ya’ni zamon talablariga javob beradigan, aqlan sog‘lom bo‘lishi kerak. Hozirgi tushunchaga ko‘ra, u axloq va pedagogika fanining talablaridan kelib chiqqan holda bolalarni tarbiyalashning

usullari va yo'llarini bilishi kerak. O'qituvchining shaxsiy fazilatlari - bag'rikenglik, olihimmatlik, poklik va muloqot shakllarini bilishi shart deb aytgan.

Abu Ali ibn Sino fikricha, agar o'qituvchi talabchan bo'lmasa, o'z qadr-qimmatini saqlay olmasa, bolalar oldida obro'sini yo'qotadi. O'qituvchi talabchanlikdan tashqari, bolalarga nisbatan mehribon va e'tiborli bo'lishi kerak. Olimning fikricha, go'zal axloqiy fazilatlarga ega bo'limgan kishi o'qituvchi bo'la olmaydi, muloqot odobi esa o'qituvchilik kasbiga qo'yiladigan muhim talablardan biridir.

Abu Ali ibn Sino ustoz, murabbiy va yosh avlod tarbiyachilari oldiga qator talablar qo'ygan. Tana bilan ruhning yaqin munosabati, ruhning tanaga va tananing ruhga ta'siri tarbiyachini bolalarga nisbatan ehtiyyotkor bo'lishga undashini ta'kidladi. Sino ushbu talablarni quyidagicha tasnifladi:

- bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish;
- bolalarga berilayotgan bilimning kanday o'zlashtirib olinayotganiga e'tibor berish;
- ta'limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- bolaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajrata olish;
- bilimlarni balalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so'zning balalar xissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish.

Somoniylar davrining yana biri buyuk mutaffakkiri Abu Lays Samarqandiy o'zining “Bo'ston ul-Orifiyn” asarida ilm ibodatdan afzal ekanligi va ilm oluvchilar “qalban ilmgan tashna bo'lishlari” lozim deb ta'kidlagan. Abu Lays Samarqandiy mazkur asarda ustozning beshta amrga rioya etishini zarur deb hisoblagan:

1. Avvalo, mehnat haqqi (maoshi) haqida gapirmasligi va tamagirlik qilmasligi kerak. O'quvchi biror narsa bersa, olsin, bermasa, qo'yib yuborsin.
2. Qur'onnini o'rgatish bilan shug'ullanayotganligi sabab doimo tahoratda bo'lishi kerak.
3. Ta'limga ishtiyooq bilan yondashishi kerak.
4. O'quvchilar o'rtasida janjal kelib chiqsa, ular o'rtasidaadolat va insofni joriy etmog'i, boylarning farzandlarining kambag'allarning farzandlaridan ustun bo'lishiga yo'l qo'ymasligi lozim.
5. Ustoz bolani qattiq urmasligi va chegaradan chiqmasligi kerak, chunki u qilgan amalining ajrini qiyomatda oladi [2].

Ustozga hurmat va ehtirom azaliy burchlardan sanalgan. Bu ma'noni Abu Sahl Sa'lukiyning shogirdlaridan biri – Abu Abdurrahmon Sullamiyning ustozisi bilan bahslashmoqchi bo'lganida: “Kim ustozidan “Nima uchun?” deb so'rasha, hech qachon ishining unumi bo'lmaydi. Ota-onani ranjitishni tavba bilan tozalash mumkin, lekin ustozni ranjitishni tozalab bo'lmaydi.

Olim Abu Zakariyo Akbariy fikriga ko'ra, ilm olimning ziynati bo'lmog'i lozim, pul topish vositasi emas [3].

**Xulosa.** Hozirgi kunda huquqiy demokratik davlat qurish, bozor iqtisodiyoti munosobatlariga asoslangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan borayotgan farzandlarimizning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi jarayonida milliy, ma'naviy-madaniy merosimiz ham muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Ustoz-shogirdlik an'anasing faqat moddiy-iqtisodiy tomoniga e'tibor qilinadigan bo'lsa bu faoliyat asosi hech qanday ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lmaydi. Demak, bu faoliyat asosida ixtiyoriylik tamoyili bilan bir qatorda, tizimli ravishda hamkorlik mazmunida har ikkala tomonini mutaxassislik darajasini yuqori darajaga ko'tarishi ham o'z ifodasini topadi. Ularni yuqori darajadagi umum mutaxassislik xususiyatlari bilan birgalikda madaniy muloqot, munosabat darajalari ham rivojlanib, shakllanib boradi. Ya'ni ulug' mutafakkirlarining fikrlariga ko'ra bo'lg'usi mutaxassisni har tomonlama shakllantirish uchun uni o'zini ham har tomonlama bilish zarur degan talablar ustoz-shogird an'analari asosida amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytganda, ustoz-shogird an'anasi Sharq xalqlarining qadimiy qadriyati bo'lib, u asrlar davomida ma'naviyatni ifodalab kelayotgan san'at hisoblanadi. Uning o'ziga xos milliylik xususiyatlari odob-axloq mezoni, madaniyati, kasbga bo'lgan mehr-muhabbatini o'stirishda muhim ahamiyatga egadir.

### Adabiyotlar:

1. Авиценна. Семейное воспитание. / Избранные произведения. Т. 2.-Душанбе: Ирфон, 1980. С. 13-28.
2. Донишномаи Сомониён. Дар ду мучаллад. Чилди 2. -Хучанд: Нури маърифат, 2009, 528саҳ
3. Заҳабий. Сиyr аълома-н-нубало. Ба кӯшиши гурӯҳе аз муҳаққиқон.- Байрут, 1406\1986
4. Жураев Б.Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.

5. Жураев Б. Т. Гуманизация дидактических отношений между учителем и учащимся в педагогических идеях Востока // VIII Лазаревские чтения" Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". – 2018. – С. 120-122.
6. Жураев Б. Т. Вопросы нравственного воспитания в эпоху Саманидов // Наука, техника и образование. – 2020. – №. 3 (67). – С. 57-59.
7. Жураев Б. Т. Развитие науки и литературы в государстве Саманидов // Вестник Чувашского государственного института культуры и искусств. – 2017. – №. 12. – С. 4-6.
8. Khodjaev B., Juraev B., Amonov M. Forming the spirituality of students and youth through pilgrimage tourism //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 420. – С. 10017.
9. Рази Абубакр Мухаммад ибн Закариё. Избранные сочинения. - Душанбе: Адиб, 1989. -157 с.

**“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARINI  
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

**“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!**


1. “**PEDAGOGIK MAHORAT**” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
  - ✓ ishning dolzarbliji va ilmiy yangiligi;
  - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
  - ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilari kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarining to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalilanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishslash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobjiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma’ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobjiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matmini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

**Manzil:** O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

**Web site:** [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)

**E-mail:** [nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)

**Telegram raqami:** +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnalni  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnalni maktab,  
kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo’llanma sifatida xizmat qilishi  
shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o’tamiz, maqola qo’lyozmalari universitet  
tahririyanashriyot bo’limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi  
23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275  
**BuxDU** 400110860064017094100350005

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!*

**PEDAGOGIK  
MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik  
jurnal**

**2024-yil 10-soni (109)**

**2001-yil iyul oyidan  
chiqa boshlagan.**

**OBUNA INDEKSI: 3070**

**Buxoro davlat universiteti nashri**

Jurnal oliv o’quv yurtlarining professor-o’qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o’qituvchilar, shuningdek, keng ommaga mo’ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

**Nashr uchun mas’ul:**  
**Nigora SAYFULLAYEVA**  
**Muharrir: Mexrigyo SHIRINOVA**  
**Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA**

Jurnal tahririyat kompyuterda  
sahifalandi. Chop etish sifati uchun  
bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 29.10.2024  
Bosmaxonaga topshirish vaqtி  
30.10.2024

Qog’oz bichimi: 60x84. 1/8  
Tezkor bosma usulda bosildi.  
Shartli bosma tabog’i – 20,6  
Adadi – 100 nusxa  
Buyurtma № 21  
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARAHAMD PRINT”  
MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri  
Q. Murtazoyev ko‘chasi 344-uy.